X.P.SADINOV, L.N.XOLIQOVA

# IQTISODIY PEDAGOGIKA

(O'QUV USLUBIY QO'LLANMA)



SAMARQAND - 2010

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

SADINOV X.P., XOLIQOVA L.N.

# IQTISODIY PEDAGOGIKA

## (O'QUV USLUBIY QO'LLANMA)

SAMARQAND - 2010

74
C/140

## Kirish

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning asosiy maqsadi - yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini barpo etish strategiyasi hamda asosiy yo'nalishlarini uning komponentlari : shaxs, jamiyat va davlat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish vazifalarini hisobga olgan holda ishlab chiqish. Dasturda yuqori malakali iqtisodchi-pedagog mutaxassisligini tayyorlashda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining o'rni katta ekanligi haqida so'z yuritilgan.

Iqtisodchi - pedagog yangi turdagi mutaxassis bo'lganligi uchun uni kasbiy va pedagog jihatdan tayyorlash eng murakkab muammodir. Bu muammoni hal qilishda psixologiya, pedagogika va iqtisodiyot fanlari o'qituvchilari hamkorlikda ishlashlari lozim, chunki bo'lajak iqtisodchi - pedagog eng avvalo psixologiya, pedagogika va iqtisodiyot fanlaridan ilmiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmog'i talab etiladi.

Iqtisodchi pedagogikasi bu yaxlitni o'zida mujassamlashtiruvchi fan sifatida yuzaga keldi. U fan sifatida iqtisodiyot qonuniyatlarini pedagogik metodlar orqali o'rganadi. Shularni hisobga olgan holda ushbu ko'llanmada asosiy e'tibor mustaqillik davrida iqtisodiyot pedagogikasining maqsad va vazifalari, iqtisodchi - pedagog kadrlar tayyorlashda Islom Karimov asarlarining o'rni, bo'lajak iqtisodchi-pedagoglarning psixologik xususiyatlari, iqtisodiy pedagogikaning rivojlanish tarixi va uning kasbiy hamda axloqiy xususiyatlari, nazariy asoslari, talabalarda milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish va milliy ongni tarbiyalash hamda iqtisodiy ta'limni boshqarish masalalariga qaratilgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining talabalari, magistrlar hamda akademik litseylar va kasb - hunar kollejlari o'quvchi va talabalariga iqtisodiy pedagogika muammolari bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

## 1-bob. Pedagogika fanining mohiyati

### 1§-. Mustaqillik va iqtisodiy ta'lim pedagogikasining maqsad-vazifalari.

Inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq - atvor andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy predmetlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnalogiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajriba tahlili va ta'lim tizimining jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb - hunar madaniyatiga ijodiy va ijtimoiy - siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni tug'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. O'zbekiston oliy maktab tizimi 58 oliy o'quv yurtini, shu jumladan 16 universitet va 42 institutni o'z ichiga oladi, ularda 164 ming talaba ta'lim olmokda.

Oliy ta'limda kadrlar tayyorlashni markazlashtirish hamda huquqiy yo'nalishga o'tkazish ishlari olib borilmokda. O'quv yurtlarining tarmogi kengaytirilib, universitet ta'limini rivojlantirgan holda abituriyentlar va talabalarning bilim darajasini test, reyting asosida baholashning ilg'or usullari joriy qilinmokda. Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limi negiziga asoslanadi, hamda ikki boskichga ega oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat - mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida 4 yil davom etadigan tayanch oliy ta'limidir. Bakalavrlik dasturi tugallanganidan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb yo'nalishi bo'yicha «bakalavr» darajasi beriladi.

Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida 2 - yil davom etadigan oliy ta'limdir. Magistr bakalavr darajasidan farqli ravishda ma'lum ixtisoslik bo'yicha yuqori malakali mutaxassis hisoblanadi. U aspiranturaga kirish huquqiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida turli darajadagi oliy ta'lim muassasalari mavjud.

Akademiya - kadrlar tayyorlash va bilimlarning aniq sohalari bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturini amalga oshiradi.

Universitet - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Institut - bilimlarning bitta sohasi doirasida aniq yo'nalishlar bo'yicha qoidaga to'ra oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida fakultetlar, bo'limlar, kafedralar va talabalarning akademik guruhlari shakllanadi. Dasturda ko'rsatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish Respublika oliy maktab pedagogikasining ham asosiy maqsadidir. Oliy maktab

MARKAZI
444653

pedagogikasi oliy ta'limni amalga oshiradi. Bu alohida fan bo'lib, talaba yoshlarning tarbiyasi bilan shug'ullanadi. «Bakalavr», «Magistr» kabi 2 bosqichdan tarkib topgan oliy ta'lim tizimi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- bakalavriat va magistratura uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- oliy ta'lim muassasalari uchun professor-o'qituvchi kadrlar tayyorlash, shu jumladan, chet ellarda yetakchi o'quv va ilmiy markazlarda tayyorlash;
- oliy ta'lim muassasalarida tarkibiy o'zgarishlar o'tkazish;
- oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini tashqillashtirish, bu muassasalarning mustaqilligini kuchaytirish, muassasalar, vositalar kengashlari, jamiyat nazariy kengashlari shaklidagi boshqaruvni joriy etish;
- ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- o'qish, mustaqil bilim omilini individuallashtirish hamda distansiyalash ta'lim tizimi mexanizmlari va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish;
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalari tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarga ta'lim berishni jadallashtirish;
- xalqning boy va ma'naviy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ta'limning insonparvarlik yo'nalishini ta'minlash.

Oliy maktab pedagogikasi talabalarni tarbiyalash, ta'lim berish, ma'lumotli qilish muammolari bilan shug'ullanadigan fandir. Bu fan oliy maktabni boshqarish, talabalarni o'qitish mohiyatini, maqsad vazifasini belgilab beradi. O'qitishning tashqiliy shakllari, metodlarini o'rgatadi. Axloqiy tarbiya dunyoqarashni shakllantiradi.

Manbalarda yozilishicha kishilik jamiyati paydo bo'lgach, ijtimoiy hayotda orttirilgan tajribalarni quyi avlodga o'rgatish ehtiyoji tug'iladi. Ta'lim tarbiya bilan shug'ullanuvchi tarbiyachilar kasb - hunar homiylari sifatida ajralib chiqa boshladi. Ularning ta'lim - tarbiya borasidagi faoliyatlari va to'plangan tajribalaridan unumli foydalanishlari pedagogika fanining vujudga kelishiga olib keldi. Shunday kilib, pedagogika ta'lim - tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, usullari hamda tashqil etish shakllari haqida ma'lumot beruvchi fanga aylanadi.

Demak, pedagogika fani o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta'lim - tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlari va ularni amalga oshirish yo'llarini o'rgatuvchi fan sifatida namoyon bo'ldi. Shu nuqtai nazardan umumiy pedagogikaning quyidagi yo'nalishlari mavjud. Jumladan, xalq pedagogikasi, surdo pedagogikasi, ekopedagogika, iqtisodiy pedagogika va h. k.

Iqtisodiy ta'lim - tarbiyani o'zida gavdalantirgan iqtisodiy ta'lim pedagogikasi fani bizga, ya'ni O'zbekistonga mustaqilligimizning birinchi yillaridan kirib keldi. Chunki, ko'zlanayotgan tajribalar iqtisodiy ta'lim pedagogikasining asosi bo'lib xizmat qiladi. Talabalarimizga iqtisodiy ta'lim, iqtisodiy tarbiya berish muammolari ko'zga tashlanib qoldi. Shu nuqtai nazardan I.Karimov: «Bozor munosabatlariga o'tish davrida iqtisodiy bilimlarni berishimiz maksadga muvofiqdir», - deb ta'kidlagan edi.

Ma'lumki, umumiy pedagogika fanining ob'ekti asosan ta'lim oluvchilar tinglovchilar, o'quvchilardan iborat bo'lsa, predmeti esa o'quvchilarga beriladigan

ta'lim - tarbiya nazariyasi va amaliyotidir. Shunday ekan iqtisodiy ta'lim pedagogikasining predmeti - iqtisodiy ta'lim va iqtisodiy tarbiya hisoblanadi. Chunki, iqtisodiy ta'lim pedagogikasining maqsadi har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Iqtisodiyot ta'limi pedagogikasi yoki iqtisodiy pedagogika- iqtisodiy muammolarni o'qitish, iqtisodiy tamoyillar bilan o'quvchilarni tanishtirish, ularda iqtisodiy malaka va iqtisodiy ko'nikmalarni hosil qilishni o'rganadi. Jumladan, iqtisodiyotning o'zi makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot, ishlab chiqarish omillari, mulkiy munosabatlar, jamg'arish va iqtisodiy o'sish, tovar va pul munosabatlari, moliya va kredit munosabatlari, soliqdorning o'rni va ahamiyati, marketing va menejment tushunchalari, nihoyat asosiy hisoblangan bozor iqtisodiyoti haqida umumiy va yaxlit tushunchalarni o'rganadi.

Iqtisodiy ta'lim pedagogikasining asosiy tushunchalari iqtisodiy ta'lim, iqtisodiy tarbiya va iqtisodiy ma'lumotdir.

Iqtisodiy ta'lim - ma'lum maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida (pedagoglar) amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, unda shaxsga iqtisodiy ta'lim berish, ya'ni iqtisodiyotning ma'lum tamoyillarini tushuntirish va iqtisodiyotni ma'lum sohalari haqidagi bilimlarni o'qitishdan iborat.

Iqtisodiy tarbiya - shaxsni iqtisodiyot asoslari bilan tanishtirish, tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob - kitob va shu kabilar haqida fikrlay olish kabi qobiliyatni kamol toptirishdir.

Iqtisodiy ma'lumot - iqtisodiy ta'lim tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma, malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmui.

Iqtisodiy ta'lim pedagogikasi iqtisodning umumiy asoslari haqida bahs yuritadi, albatta. Shunday ekan biz iqtisodiyot o'zi nima? Uning to'zilishi qanday? Uning qonun va tamoyillari qaysilar? - degan savolga javob berishimiz zarur.

Iqtisodiyot - yunoncha so'zdan olingan bo'lib, uy xo'jaligini boshqarish degan ma'noni bildiradi. Hammaga yaxshi ma'lumki, odamlar yashash uchun faoliyat yuritish, o'zlaridan keyingi avlod qoldirish uchun turli - tuman ne'matlarni iste'mol qilmokliklari, ma'naviy oziq olmoqliklari lozim. Buning uchun esa, o'z - o'zidan ayonki, ana shu ne'matlar yaratilmog'i, xizmatlar muhayyo etilmog'i kerak. Iqtisodiyot - inson faoliyatining iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, uning natijalarini o'zlashtirish, mavjud moddiy va mehnat imkoniyatlaridan foydalanish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning muhim tomonidir.

Iqtisodiyot juda keng va murakkab tushuncha. Unga birinchi navbatda, mamlakat yoki jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar kiradi, ularning tabiati esa mavjud mulkchilik munosabatlari bilan belgilanadi. Iqtisodiyot tushunchasiga mamlakatdagi ishlab chiqarish holati, joylanishi va dinamikasi ham kiradi. U mamlakatning o'ziga xos xususiyatlariga ham bog'liq. Masalan, O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi holati va darajasi uning xomashyo ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi, asta - sekin bevosita pirovard (tayer)
mahsulotlar ishlab chiqarishga va axolisi hamda chet el ehtiyojlarini

qondirishga o'tila borayotgani bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiyot hamma vaqt qandaydir o'ziga xos to'zilishga ega. U avvalo ishlab chiqarish tarmoqlarini (savdo, aloqa va x. k.) hamda noishlab chiqarish sohalarini ham qamrab oladi. Ushbu sohalar o'rtasida muayyan bog'liqliklar, nisbatlar mavjud bo'lib, *iqtisodiyot holati ularning ichki to'zilishi darajasiga ham bog'liq bo'ladi.* Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, iqtisodiyot rivoji endilikda noishlab chiqarish tarmoqlarining, ayniqsa, maishiy xizmat ko'rsatishning taraqqiyoti bilan belgilanmokda.

Iqtisodiyot tor ma'noda xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlaridagi ishlab chiqarish, undagi natijalar, ularning taqsimlanishi va iste'mol qilinishi holatini ham ifodalaydi. Shuningdek, xalq xo'jaligining quyi bo'g'inlari korxonalar iqtisodiyoti «iqtisodiyot» tushunchasida muhim o'rin tutadi. Zero, iqtisodiyotning umumiy holati va rivoji xuddi ana shu dastlabki bug'inlardan iqtisodiy ahvolga bog'liqdir. Shuning uchun ham iqtisodiyotda o'sish, ijobiy natijalarga erishish uchun korxonalarni rivojlantirish, ularda boshqarishning iqtisodiy vositalarini joriy etishga e'tibor qaratiladi.

Iqtisodiy qonunlar chuqur munosabatlardir. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, iqtisodiyot - katta bir olam, ulkan makondir, unda bir biriga bog'liq munosabatlar, bog'liklik va aloqadorlik mavjud. "Ana shu jarayonlarning o'zi ko'p tomonlama va ko'p qirralidir. Bu murakkab iqtisodiy jarayonlar yoki voqealar ichida shundaylari borki, ular muhim o'zaro bog'lanish va sabab -oqibat aloqalariga ega, ular doimo takrorlanib turadi. Ana shunday iqtisodiy voqea - hodisalar iqtisodiy qonunlarda ifodalanadi.

Iqtisodiy qonunlar chuqur, mohiyatli va sabab oqibatli bog'langan iqtisodiy hamda voqealarning ilmiy ma'nosidir. Demak, chuqur mohiyatga, sabab oqibatli bog'likliklarga, doimo o'z « borligini» ko'rsatib turadigan iqtisodiy munosabatlarga iqtisodiy qonunlar deyiladi. Jamiyatdagi barcha ishlab chiqarish va taqsimotga bog'liq bo'lgan munosabatlar iqtisodiy qonunlar orqali boshqariladi.

Iqtisodiy ta'lim pedagogikaning manbalari, asosan «Allomalarimizning iqtisodiy merosi» hisoblanadi. Jumladan, Qur'oni Karim va hadislardagi iqtisodiy g'oyalar Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy Zahiriddin Bobur va boshqa allomalarimiz yaratgan g'oyalar va fikrlar ana shu bilan birga bozor iqtisodiyoti davrida vujudga kelayotgan zamonaviy bilimlar ham iqtisodiy ta'lim pedagogikasining manbalari, o'rganish ob'ektlari bo'la oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda iqtisodiy pedagogikaning metodlariga (usullariga) quyidagilarni kiritish mumkin bo'ladi

-ko'zatish va suhbat usuli;

-talabalar ijodini o'rganish hamda test, so'rovnomalar usuli; -hujjatlarni tahlil qilish usuli; -yeksperiment, tajriba, so'rov usuli;

-statistika ma'lumotlarini tahlil qilish usuli; -matematika, kibernetika usuli.

Ko'zatish usuli eng qulay va keng tarqalgan usullardan hisoblanadi. Ilmiy ko'zatish deganda, maxsus tashqillashtirilgan tadqiqot qilinuvchi ob'ekt, jarayon yoki ko'rinish tabiiy sharoitlarda o'rganiladi. Ilmiy ko'zatish oddiy ko'zatish kundaligida bir muncha farq qiladi, ya'ni: 1) masala va ob'ektlar aniqlashtirilgan holda ko'zatish chizmasi yaratiladi; 2) natijalar albatta qayd etiladi; 3) olingan ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Tajriba o'rganish usuli - keng ma'noda bu usul iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning tarixiy munosabatlarini o'rganish, o'quv tarbiyaviy tizimlarda umumiy va mustahkam faoliyatni ajratishga qaratilgan ilmiy bilim faoliyati hisoblanadi. Bu usul ilk manbalarni o'rganish usuli bilan to'qnash keladiki, uni arxiv usullar deb yuritiladi.

Talabalar ijodini o'rganish usuli - iqtisodiy ta'lim pedagogikasi hamda bir qator boshqa fanlarda ham talabalarning ijodiy ishlari bilan tanishish, ijodiy ishlarini tashqil etish va ular bilan shug'ullanish jarayonida talabalarga ko'mak berish kabi savollarga bevosita javob beradi. Ya'ni, kurs ishini tayyorlash, mustaqil ishga tayyorlanish, referatlar yozish, ma'ro'za va amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish, ijtimoiy - iqtisodiy konferensiyalarga (anjumanlarga) ma'ro'zalar tayyorlash kabilar shular jumlasidan.

Suhbat usuli - an'anaviy ilmiy - tadqiqot usullaridan hisoblanadi. Bunda kishilarning iqtisodiy munosabatlari, ularning his - tuyg'ulari va xohish istaklari suhbatlar orqali aniqlanadi. Iqtisodchi - tadqiqotchilar, umuman ilmiy tadqiqotchilar boshqa usullar orqali topa olmagan ilmiy mashg'ulotlarini mana shu suhbat usuli orqali topganlar. Shuni ham aytib o'tish joizki, suhbatlar natijalarining ishonchliligini oshirish maqsadida quyidagi maxsus chora - tadbirlar o'tkaziladi;

- suhbatdoshning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda reja to'zish;
- tadqiqotchini qiziqtirgan turli aloqalardagi masalalarni muhokama qilish;
- savollar ketma-ketligini bila turib, suhbatdosh uchun qulay tartibda berish;
- umumiy holatlarni tartibga solib turish, savol va javoblarda topqirlik.

Yuqoridagi iqtisodiy ta'lim pedagogikasining ilmiy - tadqiqot usullaridan tashqari ushbu fanda uni o'rganish jarayonida quyidagi usullar ham qo'llanadi.

Ushbu fan turli xil usullardan foydalanib, ularning asosini «dialektika» usuli tashqil etadi. Birgina misol: Mikroiqtisod fani ushbu «dialektika» usulini asos qilib oladi. Unga ko'ra barcha hodisa va voqealarni doimiy taraqqiyotda va o'zaro aloqadorlikda o'rganish zarurligini taqozo etadi. Bunda iqtisodiy voqea hodisalar «analiz», «sintez», «induksiya», «duduksiya» usullari orkali tahlil qilinadi.

Analiz - tahlil usulidan foydalanishda iqtisodiy hodisalarni mayda bo'laklarga ajratib tahlil qilinadi.

Sintez - usulida esa iqtisodiy hodisalar mayda elementlarni birlashtirish asosida yagona xulosaga kelinadi.

Induksiyada - ayrim iqtisodiy dalillar asosida umumiy xulosalar qilinadi.

Duduksiya - usulida umumiy iqtisodiy qoidalar asosida ayrim xulosalar kilinadi.

Yuqoridagilardan tashqari barcha iqtisodiy fanlar qatori iqtisodiyot ta'limi pedagogikasi fani ham monografik, iqtisodiy - statistik, tajribaviy (yeksperimental), hisob - konstruktiv, matematik modellashtirish, abstrakt mushohada kabi usullardan ham keng foydalanildiki, uni ushbu fanning boshqa fanlar bilan aloqasi negizida ko'rish mumkin.

### 2-§ . Iqtisodiy ta'lim pedagogikasining boshka fanlar bilan alokasi

Ma'lumki, umumiy pedagogika ijtimoiy fanlar tizimi qatoriga kiradi. Shu ma'noda iqtisodiy pedagogika fani ham ijtimoiy fanlar tizimidan joy oladi. Mana shu

nuqtai nazardan iqtisodiy pedagogika fani barcha ijtimoiy fanlar bilan aloqada bo'ladi. Ya'ni: falsafa, tarix, til, mantiq, ruhshunoslik (psixologiya), sotsiologiya, axloq va odobshunoslik kabilar shular jumlasidandir.

Yuqoridagi ijtimoiy fanlarning pirovard maqsadi yosh avlodda to'g'ri dunyoqarashni shakllantirish hisoblanadi. Shuning uchun birgina misol: ma'lumki jamiyat taraqqiyotning eng umumiy kqnuri -qoidalarini o'rganuvchi fan falsafadir. Falsafaning dialektik ta'limoti barcha fanlar faoliyatida aloxida ahamiyatga ega, chunki dialektik ta'limotning asosiy g'oyasi - jamiyatda to'xtovsiz taraqqiyotda bo'ladi degan xulosadan iborat. Shu ma'noda iqtisodiy pedagogik falsafa fani bilan doimiy aloqada bo'ladi.

Iqtisodiy ta'lim pedagogikasi o'zining predmeti, maqsadi va vazifasi nuqtai nazaridan barcha iqtisodiy fanlar bilan o'zviy aloqadorlikda, hamkorlikda bo'ladi. Ya'ni: iqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, jahon iqtisodiyoti, moliya, kredit, pul, bank ishi, solik va soliqqa tortish, marketing, menejment kabilar shular jumlasidandir. Yuqorida bayon qilingan fanlarning har birini o'qitish uslubiyati mavjud. Shuning uchun ham iqtisodiy pedagogika shu fanlar bilan aloqada bo'ladi. Misol uchun «iqtisodiyot nazariyasi»ni o'qitish uslubiyati, «mikroiktisodiyot» ni o'qitish uslubiyati kabilar. Iqtisodiy pedagogika mana shu uslubiyatni bevosita iqtisodiyot bilan bog'laydiki, bunda uning barcha iqtisodiy fanlar bilan aloqa namoyon bo'ladi.

Umuman olganda iqtisodiy pedagogika mavjud barcha fanlar bilan o'zviy aloqada bo'ladi. Shu bog'liqlik negizida iqtisodiy pedagogika o'z predmeti maqsad va vazifalarini boyitib, rivojlantirib boradi.

Yuqoridagilarga qiskacha xulosa tariqasida yakun yasaymiz. Umuman olganda iqtisodiy pedagogika fani yangi fanlar tarkibiga kirib, uning rivojlanish bosqichlari Prezidentimiz I.A. Karimov belgilab bergan besh tamoyil negizida amalga oshiriladi, ya'ni iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi, davlat bosh islohotchi ekanligi, qonunlar ustuvorligi, kuchli ijtimoiy himoya va nihoyat bozor iqtisodiyotiga bosqichma - bosqich o'tish.

## 2-bob. Iktisodchi pedagog tayyorlashda I. A. Karimov asarlaridan foydalanish.

### 1-§. I. Karimov asarlarida iqtisodiy ta'lim tushunchasi

Mustaqil O'zbekistonimizda islohotlar tobora quloch yoymoqda. Hayotimizning barcha jabhalarida, jumladan yosh avlod ta'lim - tarbiyasida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Ma'naviyatimizni qayta tiklash, yanada boyitish borasida umumxalq kurashi boshlandi. Quyosh nuriga zor bo'lgan allomalarimizning o'tmish haqidagi purma'no asarlari yorug'lik yuzini ko'rmoqda.

Respublikamizning ijtimoiy, iqtisodiy kamoloti yosh avlodning sa'y harakatlariga bog'liq ekanligi endi xech kimga sir emas. O'sib kelayotgan yosh avlod va ularning kelajakda qanday kasb egallashlariga qarab, respublikamiz kelajagini tasavvur qilsa bo'ladi. Kelajak yoshlarning qo'lida. Yoshlar faoliyati farovon hayotimiz mezonidir. Shu ma'noda yoshlarning tarbiyasiga jiddiy e'tibor bermog'imiz lozim. Yoshlar ta'lim-tarbiyasi har bir ota -onaning, uqituvchi tarbiyachining Vatan oldidagi

muqaddas burchidir.

Yoshlarimizni tarbiyalash uchun birinchi galda Sharq mutafakkirlarining duru - javoxirga teng ma'naviy meroslari dasturamal bo'la oladi. Abu Nasr Farobiy, Ismoil Al - Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu ali Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Al - Xorazmiy, Al - Fargoniy, Firdavsiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Yusuf Xos Hojib, Mirzo Ulug'bek kabilar jahonga taniqli va bular qatori boshqa aql - zakovat sohiblarining ijtimoiy - siyosiy falsafiy ta'limotlari har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda muhim vositadir.

Shunday ekan, Respublikamiz Prezidenti I.Karimov asarlari har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalashda, ularning iqtisodiy bilimlarini oshirishda dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, I. Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yuli», «O'zbekiston-bozor munosabatlariga utishning o'ziga xos yuli», «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», «O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «O'zbekiston buyuk kelajak sari» asarlari kelajak avlodning iqtisodiy savodxonligini oshirishda muhim vositadir.

I. Karimov asarlarining asl mohiyati shundaki, ularning barchasida asosiy masalalardan biri Respublikamiz iqtisodiy mustaqillikka tezrokq erishishini ta'minlash. Iqtisodiy islohotlarni jadal sur'atlar bilan olib borish, kishilarda yangicha fikrlarni shakllantirish, ularning dunyoqarashini
o'zgartirish, ma'muriy buyruqbozlik tizimi illatlaridan voz kechish, kelajakka ishonish mustaqilligimizni olib borayotgan islohotlar zamirida yanada mustahkamlash kabi iqtisodiy masalalardan tashqari kishilarimiz ongida yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, iqtisodiy savodxonlik darajasini oshirish kabilar. Buyuk kelajak sari dadil olg'a borayotgan respublikamiz ichki va tashqi siyosatining asosiy qoidalari, chinakam huquqiy - demokratik davlat barpo etishning o'ziga xos tamoyillari hamda tub iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy islohotlarni izchil amalga oshirish asosida O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida o'z o'rnini egallashini ta'minlash borasidagi dolzarb masalalar teran ta'riflab berilgan va kitobxonga tushunarli bayon etilganligidadir. I.Karimov asarlarining mazmuni hakida so'z borganda, biz ularga alohida - alohida to'xtalsak o'z maqsadimizga erishgan bo'lamiz, albatta.

Iktisodiyot har bir kishining, har bir oilaning, jamoa va umuman jamiyatning hayotida muhim o'rin tutadi. Iqtisodiy ahvolga qarab ijtimoiy hayot shakllanadi. Xalqimizda oldin iqtisod, so'ngra siyosat degan iboraning ishlatilashi bejiz emas, albatta ertangi hayotimiz, hozirgi va kelajakdagi farovonligimiz. Iqtisod baquvvat bo'lmasa, farovonlik kafolatlanmaydi, moddiy yetishmovchilik bo'ladi, turmush tashvishlari ortadi. Aksincha, iqtisodiy o'sish sharoitida farovonlik ortadi, ijtimoiy vaziyat barqarorlashadi, kishilarda kelajakka ishonch paydo bo'ladi, ularning faolligi ham kuchayib boradi.

Shu nuqtai nazardan I.Karimovning barcha asarlarida, iqtisodiy rivojlanishimiz omillari, ijtimoiy - iqtisodiy bilimlar, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, ichki va tashqi siyosatning asosiy qoidalari kabi masalalar bilan bir qatorda iqtisodiy tushunchalar ham o'z ifodasini topadi.

Ma'lumki u yoki bu iqtisodiy munosabat, iqtisodiy qonun, iqtisodiy jarayon, iqtisodiy hodisa yoki voqeaning mazmuni haqida tasavvur (bilim) hosil qilmoq uchun ularni ifodalovchi iqtisodiy tushunchalarga (kategoriyalarga) murojaat qilinadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy tushunchalar orqali iqtisodiy munosabatlar mohiyati to'g'risida to'laqonli tasavvur hosil qilish mumkin. Shu ma'noda iqtisodiy tushunchalarni, obrazli qilib iqtisodiyot ilmining «tili» deyish mumkin.

Bugungi kunda Prezidentimiz, hukumatimiz olib borayotgan iqtisodiy siyosatdan boxabar bo'lib borish mamlakatimiz fuqarolarining milliy burchidir. Shu nuqtai nazardan nomli kitobidan olingan usbu lavhani aytib o'tish maqsadga muvofiq. Unda iqtisodiyotni barqarorlashtirishning hozirgi bosqichda erishishimiz lozim bo'lgan mezonlar sanab o'tilgan. Ushbu lavhadan kitobxon ma'lum iqtisodiy termin va tushunchalarni mohiyat-mazmunini, amal qilish mexanizmini anglab yotgani holda, iqtisodiy mushohada yuritishga va shuning negizida iqtisodiy bilimini oshishiga imkon yaratadi:- «agar ishlab chiqarish hajmining qisqarishi tarkibiy o'zgarishlar va ishlab chiqarishni texnika bilan qayta qurollantirishga bog'liq bo'lmasa, uningkamayishiga yo'l qo'ymaslik;

- ustuvor tarmoqlarda ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun qulay sharoitlarni vujudga keltirish. Ishlab chiqarish faoliyatirag'batlantirilishiga ko'maklashish. O'zi ishlab chiqarishini qo'llab -quvvatlamasdan va ichki rezervlardan foydalanish evaziga iqtisodiyotni ichdanrivojlantirmasdan turib moliyaviy hamda ijtimoiy barqarorlikka umidbog'lash mumkin emas;
- davlat byudjeti va korxonalar moliyaviy ahvolining barqarorligini mumkin bo'lgan doirada ta'minlash;
- pulning qadrsizlanishi jarayonini to'xtatib turish;
- to'lov balansi va davlat rezervlarining holatini yaxshilash uchun barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanish va shuning negizida O'zbekistonning tashqi iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rnini mustahkamlash;
- ijtimoiy ahvolni barqarorlashtirish uchun kuchli ijtimoiy siyosat muvozanatlashtirilganligini ta'minlash, aholining turmush darajasining mumkin qadar barqarorligini saqlash».

Ushbu keltirilgan qisqacha lavhadan kitobxon iqtisodiy terminlar, ya'ni ishlab chiqarish hajmi, davlat byudjeti, korxonalarning moliyaviy ahvoli, pulning qadrsizlanishi, to'lov balansi va davlat zahiralari, ijtimoiy jarayonlar kabilarni chuqur mushohada qilishga to'g'ri keladi.

Kitobxonni o'ziga jalb qiladigan asarlaridan biri bu «O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» dir. Ushbu asarda iqtisodiy masalalar yoritilishi bilan bir qatorda mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi voqea - hodisalar ham o'z ifodasini topadi.

Asarda quyidagi iqtisodiy masalalar alohida yondashiladi:

- bozor munosabatlarini qaror topishi va mulkdorlar sinfining shakllanishi;
- *jug'rofiy - strategik imkoniyatlar va tabiiy xomashyo resurslari;*
- inson salohiyati, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi;
- keng ko'lamli o'zgarishlar va hamkorlik kafolatlari;
- jahon hamjamiyati bilan hamkorlik va h. k.

Asarning jug'rofiy - strategik imkoniyatlar va tabiiy xomashyo resurslari punktida Respublikamizning iqtisodiy imkoniyatlari nihoyatda ko'p ekanligi haqida fikrlar, iqtisodiy tushunchalar, iqtisodiy bilimlar beriladi. Jumladan, O'zbekistonda Mendeleev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari mavjud. G'oyat muhim strategik manbalar - neft va gaz kondensati, tabiiy gaz bo'yicha 155 ta istiqbolli kon, qimmatboho metallar bo'yicha - 40 dan ortiq, rangli, nodir va reaktiv metallar bo'yicha-40, konchilik - kimyo xomashyosi bo'yicha 15 ta kon qidirib topilgan. O'zbekiston dunyodagi juda katta oltin, kumush va boshqa qimmatbaxo hamda yer bag'rida kam uchraydigan metallar zaxiralariga ega bo'lgan davlat jumlasiga kiradi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki O'zbekiston ulkan iqtisodiy imkoniyatga boy mamlakatdir. Shunday ekan Respublikamizga tashrif buyurayotgan chet ellik hamkorlar ham Respublika rivoji uchun ma'lum darajada ijobiy ta'sir qilmokda. Shu bilan birga O'zbekiston o'z nufuziga ega bo'lib bormokda, ya'ni turli mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, chunonchi, Yevropa Ittifoki, YEXKT, NATO, EKO, OIK qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmokda.

I.Karimov asarlarida iqtisodiy masalalar, iqtisodiy bilimlar, iqtisodiy jarayonlarning mazmun mohiyati, ularni amalga oshirish yo'llari batafsil va tushunarli yoritilganki, u inson iqtisodiy tafakkuri yuksalishiga xizmat qiladi.

## 2-§. Ta'lim jarayonini isloh qilishda I. Karimov asarlarining ahamiyati

Mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat hamdo'stlik respublikalari, balki taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda ham katta qiziqish uyg'otmokda. O'zbekistonda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarda ro'y berayotgan o'zgartirishlarni- chuqur tahlil kilayotgan chet ellik nufuzli mutaxassislar «taraqqiyotning o'zbekcha modeli» atamasini iboraga kiritdilar. Shuni ham alohida aytib o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xalqimiz, yurtimiz, iqtisodiyotimiz xususiyatlarini to'la - tekis hisobga olgan holda islohotlarni amalga oshirishning besh asosiy tamoyilini belgilab berdi. Mazkur, iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi, davlat bosh islohotchi ekanligi, qonunlarning ustuvorligi, aholining ko'pligi ijtimoiy himoyasini ta'minlash, nihoyat, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish zarurati tamoyillarining mazmun - mohiyati va ularga amal qilish mexanizmi ta'minlanishining nazariy va amaliy asoslari «O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» asarida o'z aksini topgan.

Asar mustaqilligimizning ikki yillik to'yi nishonlanayotgan bir paytda dunyoga keldi. Unda muallifning qisqacha kirish so'zi va chinakam huquqiy demokratik davlatni barpo etishning o'ziga xos tamoyillarini yoritilishi maqsadga muvofiqdir. Shu jihati bilan ham asar boshqa asarlardan tubdan farq qiladi.

Asarning «O'tmishdan qolgan meros va iqtisodiy islohotlar zaruriyati» punktida I.Karimov, Respublikaning tashqi dunyodan bir asrdan ortiq vaqt mobaynida ajralib qolganligiga barham berish, ma'muriy - buyruqbozlik tizimi illatlaridan butunlay voz

kechish va Respublikada o'tmish avlod-ajdodlarimiz ma'naviy meroslarini o'rgangan holda iqtisodiy islohotlarni jadal olib borish kerakligi haqida mulohazalar yuritadi. Shu bilan birga asrning 2 - punktida O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni uning zaminida qimmatbaxo - xomashyo resurslari mavjudligi, u ulkan va qudratli qishloq xo'jaligiga ega ekanligi, O'zbekiston sayohatchilikni rivojlantirish uchun katta imkoniyat borligi uning iqtisodiy hayotida aloqa va transport tizimini rivojlanganligi, O'zbekiston mehmondo'st, mehnatsevarxalq, istiqomat qilayotganligi, u kuchli ilmiy salohiyatga ega ekanligi haqida batafsil ma'lumotlar beriladi. Asarning ahamiyatli tomonlaridan biri, bu I. Karimov asoslab bergan besh tamoyilning unda gavdalanganligi va u asarning asosiy qismini tashkil qilganligidir.

«Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, demokratik va bozor o'zgartirishlarining asosi» nomli punktda iqtisodiyotning ustuvorligini ta'minlash haqida so'z boradi. Bu qoida iqtisodiy faoliyat ijtimoiy hayotning asosi ekanligidan kelib chiqadi. Iqtisodiyot qanday bo'lsa, ijtimoiy hayotning boshqa tomonlari ham shunga qarab bo'lishini tarix tasdiqlagan. Shu nuqtai nazardan «Iqtisodiyot mafkuraviy tazyiqlarsiz o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi lozim. Mafkuraviy aksialarni bartaraf etish, bozor munosabatlariga mos bo'lgan psixologiyaning va shunga xos iqtisodiy tafakkurning idrok etilishiga ko'maklashadi» - deb ta'kidlaydi.

«Davlat - iqtisodiy o'zgartirishlarning tashabbuskori va bosh islohotchisi» punktida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida davlat bosh islohotchi bo'lishi zarurligi nazarda tutiladi.

Mazkur qoida yoki tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun zarur bo'lgan islohotlar keng jamoatchilik ishtirokida davlat ishlab chiqqan dasturlar asosida, uning bevosita ishtiroki va rahbarligida amalga oshirilishini bildiradi. Davlat islohot jarayonining markazida bo'lishi shart. Chunki, faqat davlatgina, umummilliy iqtisodiy manfaatlarni mujassam ifodalashga va himoya qilishga, aholining barcha kuchlarini umumiy maqsadlar asosida birlashtirishga qodir. Shuning negizida davlat, o'z islohotlari bilan iqtisodiy erkinliklar kafolati bo'ladi.

Asarning yana bir punkti «O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni huquqiy ta'minlash» qismida qonunlar va ularga rioya etishning ustuvorligini ta'minlash haqida Prezident o'z fikr - mulohazalarini bayon qiladi. Jumladan, Islom Karimov: «Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining qonunchilik asosini yaratish - bu faqat o'tish davrining majburiy shartigina bo'lib qolmay, balki huquqiy davlatni barpo etishning o'ziga xos xususiyati hamdir» - deydi. Bu tamoyil qonunlar oldida barchaning barobarligi, qonunlarga rioya etish hamma uchun ham qarz, ham farz bo'lishini bildiradi. Bozor iqtisodiyoti qonunchilikka tayanishi unga xos bo'lgan faoliyat qoidalari, iqtisodiy munosabatlar qabul qilingan huquqiy qonunlarda kayd etilishi zarurligi O'zbekiston konsepsiyasida hisobga olinadi.

Prezidentimiz asoslab bergan, aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish tamoyilining mazmun - mohiyati, «Kuchli ijtimoiy siyosat - iqtisodiy o'zgartirishlarning ishonchli kafolati» nomli punktda namoyon bo'ladi. Asarda: «Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo'lmaydigan, eng ustivor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiysi bo'lib keldi va o'shanday bo'lib qoladi», - degan ibora muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda Prezident I. Karimovning birinchi chaqiriq

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida qilgan ma'ruzasidan quyidagilarni keltirish maqsadga muvofiq. «To'rtinchi ustuvor yo'nalish deydi I. Karimov ma'ruzasida, - xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilishni ifoda etadi.

Aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash islohotlarning barcha bosqichida asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Bu islohotlarimizga asos qilib olingan besh tamoyildan biridir. Biz bundan keyin ham bu tamoyilga tayangan holda ish olib borishimiz kerak».

Iqtisodiy islohotlar yo'lining negizi hisoblangan bozor iqtisodiyotiga bosqichma - bosqich o'tish tamoyili haqida asarning yana bir punktida mulohazalar batafsil bayon qilinadi. Bosqichma - bosqich o'tish siyosatida mustaqil O'zbekiston rahbariyatining, birinchi navbatda, I. Karimovning rivojlanishning o'ta mas'uliyatli pallasida yagona to'g'ri yo'lni tanlay ola bilishi namoyon bo'ldi. Bunday siyosat tufayli O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga qurbonlarsiz, namoyishlar, ish tashlashlar va dahanaki janglarsiz o'tmokda, jamiyat moddiy va ma'naviy boyliklarining vayron va yakson bo'lishiga yo'l qo'ymay, kelajakning negizi yaratilmokda. Shu munosabat bilan I. Karimovning, bozor iqtisodiyoti tomon sakrashlarsiz, inkilobiy o'zgartirishlar yuli bilan emas, balki izchillik bilan boskichma-boskich borish kerak. O'zbekiston bozorga o'tish yo'lining o'ziga xos xususiyati ham shunday degan fikrini keltirish joiz.

Islom Karimov asarning yakunlovchi qismida iqtisodiy islohotning asosiy ustuvorliklari va yo'nalishlarini atroflicha yaratadi. Jumladan, iqtisodiy islohotlarning butun zanjirida agrar soxadagi o'zgartirishlarga g'oyat katta ahamiyat beriladi. Unda islohotlarni amalga oshirish jarayonida qishloq xo'jaligi islohoti hukumatning doim diqqat - markazida bo'lishligi ta'kidlangan. Shu bilan birga qishloqda yerga mulkchilik munosabatlarini shakllantirish, xo'jalik yuritishning yangi turlarini shakllantirish masalalari ham muallif e'tiboridan chetda qolgan emas. Qishloq xo'jaligi korxonalariga davlat tomonidan kreditlar berish, ularni moliyaviy ta'minlash kabi masalalar ham batafsil yoritilgan. Asar nihoyasida quyidagilarni o'qish mumkin, ya'ni «O'zbekiston o'zining istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlab oldi, o'zining ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti yo'lini ishlab chiqdi. Milliy xususiyatlar va an'analarni hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o'tishning aniq ustuvorliklarini, tamoyillarini va yo'nalishlarini aniqlab oldi. Ikki yillik tajriba tanlangan yo'lning to'g'riligini ishonarli tarzda tasdiqladi» - deb yozadi I. Karimov.

Yuqorida biz asarning mazmuni haqida qisqacha to'xtaldik, xolos. Unda biz iqtisodiy bilimlarning umumiy iqtisodiy masalalar zamirida namoyon bo'lishini ham kuzatib o'tdik. Asarda ta'kidlangan besh tamoyil iqtisodiyotning asosi ekanligini ko'rsatadi.

Oliy maktablarda iqtisodiy fanlar darslarida ushbu asardan foydalanish, nihoyatda, unumli natija beradi. Ushbu asarda keltirilgan iqtisodiy bilimlar kishini chuqur iqtisodiy mulohaza, mushohada yuritishga yetaklaydi. Misol uchun iqtisodiyot nazariyasi fanini yoki kursini talabalarga ma'ruzalar berish programmasida «Bozor iqtisodiyoti» bobi mavjud bo'lib, ushbu bobni yoritishda o'qituvchi bevosita ushbu asardan foydalanishi va talabalarga tavsiya etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, ushbu bobda bozor iqtisodiyotining belgilari, bozor iqtisodiyotida inson, bozor iqtisodiyotiga o'tish, bozor islohotlari, O'zbekiston bozor

iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li kabi masalalari o'z aksini topadi. Shuning uchun ham ushbu asar shu mavzuni o'tish uchun asosiy manba hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (1997 y. 29.08) O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» gi qonunlarning qabul qilinishi mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik va iqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini keng ko'lamda isloh qilishning ibtidosi bo'ldi.

Ushbu sessiyada I. Karimov nutq so'zladi va bu chiqishga qabul qilinayotgan qonunning va milliy dasturning ahamiyati haqida o'z fikr mulohaza tarixini bildirdi. Jumladan, shu davrgacha ta'lim - tarbiya sohasida amalga oshirilgan va oshirilayotgan islohotlar haqida qisqacha gapirib o'tdi. Jumladan, «Bu jarayonda oxirgi yillarda qilgan ishlarimiz haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Maktab sohasida «Ta'lim haqida» qonun qabul qildik. 1996/97 o'quv yilidan boshlab maktablarning birinchi sinflarida o'qish yangi alifboda olib borildi. Yangi imlo, alifboda o'qitish uchun zarur dastur, qo'llanma va dasturlar yaratildi. Shu davr mobaynida 300 ga yaqin turdagi ta'lim muassasalari ochildi.

Oliy o'quv yurtlari qoshida 46 ta litsey tashkil etildi. 800 ga yaqin o'quvchi chet ellarda ta'lim oldi, ko'pgina o'qituvchilar xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish maqsadida chet davlatlarga borib qaytdi». Shular bilan birga oliy maktab sohasida test usuli joriy etilishi, viloyatlar markazidagi pedagogika institutlarining universitetlarga aylantirilishi, 200 dan ortik chet el mutaxassislarining Respublikamiz o'quv muassasalarida bo'lishi va ta'lim berilishi maqsadga muvofiq amalga oshirildi. Mamlakatimizda Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Bank-moliya akademiyalarining tashkil etilishi ayni muddao bo'ldi. Mahalla», «Kamolot», «Sog'lom avlod uchun», «Nuroniy», «Ulug'bek», «Umid», «Ustoz» jamg'armalarining ta'lim - tarbiya sohasidagi ezgu ishlarini, o'sib kelayotgan avlodni jismonan sog'lom va ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga qo'shayotgan hissalari haqida gapirib o'tdilar.

Yuqoridagi ijobiy ishlar bilan birga, masalaning ikkinchi tomoniga salbiy yondashish kerakligi haqida ham mulohazalar bildirdi, ya'ni «Avvalo shuni ta'kidlashimiz kerakki, biz eski sho'rolar zamonidan qolgan ta'lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashdan va sarqitlardan hali beri to'liq qutulganimiz yo'q.

Ochiq tan olish kerakki, maktablarning moddiy bazasi juda nochor. Bu masalada *naqadar oqsoqligimizni, nochorligimizni, birinchi navbatda, qishloq joylaridagi* ahvol-vaziyat misolida ochiq tan olishimiz kerak.

Ikkinchi masala, avval aytishganidek, tarbiyachi, ya'ni o'qituvchiga borib taqalyapti. Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumoti, malakasini oshirish kabi taysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmokdamiz. Mening fikrimcha, ta'lim - tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo ham ana shunda. O'kituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak».

I.Karimov o'z fikrida davom etar ekan, yana bir muhim masala oliy o'quv yurtlari islohotidir.

"Bugungi oliy ta'lim olish tizimining zaif tomonlaridan biri oliy o'quv yurtlarida

tayyorlanadigan talabalarni oldindan aniqlangan fan va texnika, iqtisodiyot, ishlab chiqarish va boshqa sohalarning ehtiyojiga, bir so'z bilan aytganda, hayot talablariga qarab tashkil qilmaganimiz, deb bilaman.

Shuning uchun ham oliy o'quv yurtlari islohotlarini amalga oshirayotganda mana shu holatdan chiqayotgan bazi bir nuqsonlarga alohida etibor berishimiz kerak.

Birinchidan, oliy o'quv yurtini islohiyatini amalga oshirayotganda qanday talablarga javob berishini aniqlab olishimiz lozim.

Ikkinchidan, bilimga chanqoq, bilim olishni o'zining oliy maqsadi qilib qo'ygan iste'dodli bolalarni topish, tanlash, qabul qilishda ob'ektiv adolatli tizim va tartib o'rnatish, ular yetarli ma'lumot olishlari uchun barcha zamonaviy imkoniyatlarni yaratib berishimiz kerak.

Uchinchidan, oliy o'quv yurtlarida qanday va necha xil mutaxassislik bo'yicha ta'lim berilishi lozimligini belgilab olishimiz kerak.

Shu jumladan, hozir tayyorlanayotgan 90 - 100 taga yaqin mutaxassislikdan qaysi biri kerak - u qaysi biri kerak emasligini va yangi zamon talab qilayotgan yangi mutaxassisliklarni aniqlab olishimiz lozim.

To'rtinchi masala. Zamon talabiga mos mutaxassis tayyorlamoqchi ekanmiz, birinchi navbatda o'quv yurtlarimizning shakli, qiyofasi va tarkibi, moddiy ba'zasi va zamonaviy bo'lishi shart.

Beshinchi masala, o'quv dastur va programmalarini zamonaviy talablarga moslashtirib, istiqbol va kelajagimizni ko'zlagan holda turib olishimiz va joriy etishimiz zarur".

Ushbu fikrlar bilan birga I. Karimov oliy o'quv yurtlari domlalarini amaliy tajribalar orttirishi uchun chet ellarga chikarish, ular orttirtn tajribalari O'zbekiston ta'lim jarayoniga tatbik kilish masalalari haqida ham fikr yuritdi".

Yeng asosiysi ta'lim jarayoni islohoti bosqichlari haqida alohida to'xtalib o'tdi. Ta'lim islohotining birinchi bosqichi - o'tish davri bo'lib, u 1997 - 2001 yillarni o'z ichiga olishi, ikkinchi bosqichi 2001 - 2005 yillarni o'z ichiga olishi va bunda milliy dastur to'liq amalga oshirilishini ta'minlash. Uchinchi boskich 2005 va keyingi yillarda mo'ljallangan bo'lib, unda to'plangan tajribalarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirilishini ta'kidladi.

Shular qatori, I. Karimov O'zbekistan Respublikasida joriy etilayotgan uzluksiz ta'limning ahamiyati, maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, umumiy ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash masalalarining muhim xususiyatlari haqida o'z fikrlarini bildirdi.

I.Karimov «Tafakkur» jurnalining bosh muharririga bergan intervyusida quyidagilarni ta'kidlagan edi:

«Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi.O'z qadr - qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi.Har qanday insonda intellektual salohiyat mavjud.Agar shu ichki quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur

bo'lgan barcha shart-sharoit yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo'ladi ».

Ma'lumki, biror kursni o'zlashtirish jarayonida oliy o'quv yurtlarida shu kursga ajratilgan soatlar hisobidan ma'ruzalar tashkil qilinadi. Ma'ruza o'quv ishlarini alohida shakli bo'lib, unda o'rganilayotgan bilimlar, malakalar, ko'nikmalar pedagog tomonidan talabalarga yoppasiga bayon etiladi. Ma'ruzani bayon etishda eng ahamiyatli hisoblangan ko'rsatmalardan biri o'qituvchi uchun nutq madaniyatidir. Pedagog uchun nutq madaniyati eng asosiy xususiyat hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchi o'z nutqi ustida ishlashi, qisqa ifodada ko'p fikr ayta bilish mahoratiga ega bo'lishi zarur. Haqiqiy pedagog ma'ruza jarayonida shogirdlarini o'zi bilan birga, fikrlashga chorlaydi, mahoratsiz pedagogning ma'ruzasi tinglovchining e'tiborini torta olmaydi. Shunday ekan ma'ruzaga ham quyidagi talablar qo'yiladi:

- berilayotgan materiallar ilmiy bo'lishi;
- ma'ruzaning sistemali tashkil etilishi;
- material talabalar yoshiga mos bo'lishi;
- siyosiy jihatdan to'g'ri va nazariy masalalar amaliyot bilan bog'lanishi;
- ma'ruzada yangi materiallarning bo'lishi;
- ma'ruzada I. Karimov asarlaridan foydalanish va h. k.

Kishilar biror narsani harid etishdan oldin albatta uning narxini so'raydilar, umuman narx bilan qiziqadilar. Buning sababi shuki, ular o'z qo'llaridagi pulga nima olish mumkinligini chamalab ko'rishadi, chunki tovarning arzon yoki qimmat bo'lishi haridor iste'molini belgilaydi. Narx bozorda shakllanadi va bozorda amal qiladi. Xo'sh, narx nima?

Narx tovar va xizmatlarning foydaliligini, ya'ni kishilarga naf keltirilishini baholash vositasi bo'lib, tovar birligi uchun to'lanadigan pul miqdori bilan o'lchanadi, yoki qisqa qilib narx tovar qiymatining puldagi ifodasi deyish mumkin. Shundan so'ng narx funksiyalari haqida, ya'ni hisob-kitob va o'lchov funksiyasi, iqtisodiy tarbiyalash funksiyasi, raqobat vositasi funksiyasi, bozor muvozanatini ta'minlash funksiyasi, ijtimoiy himoya funksiyalarini batafsil yoritib berdi.

Narxlarning shakllanishi bosqichma - bosqich, g'oyat murakkab kechadi. Uning o'z qonun - qoidalari mavjud. Narx turli omillari ta'sirida shakllanadi. Asosiy omillarga tovarning qiymati, tovarga talab va taklif, tovarning foydaliligi va nihoyat, raqobatni kiritish mumkin.

Narxning shakllanishidagi dastlabki asos - bu qiymatdir. Qiymat tovarga sarflangan mehnatni ifoda etadi. Ammo har qanday mehnat sarfi qiymat bo'lavermaydi. Buning uchun mehnat sarfi kishilarning talabini qondiradigan darajada bo'lishi shart. Shu yerda I. Karimovning «O'zbekistan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asaridan lavxalar keltirsak, «Chinakam talab va taklif asosida vujudga keladigan erkin bozor narxlarining amal qilishi bozor iqtisodiyotining g'oyat muhim bo'g'ini bo'lib, bu bo'g'in mahsulot ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilarning o'zaro jins ta'sirini ta'minlaydi».

Narxni yuzaga keltiruvchi eng muhim omil talab va taklifning nisbati hisoblanadi. Agar talab taklifdan ustun kelsa, narx oshadi, agar taklif talabdan ko'p bo'lsa, aksincha narx pasayadi. Talab narxni oshirgan chog'da unga javoban taklif

ko'payadi, chunki yuqori narx sharoitida foydani ko'p olish mumkin. Ammo taklif ko'payib kesa, narx qaytadan pasayib, tovarni ishlab chiqarish kam foydali yoki zararli bo'lib qoladi. Bozorda narxni shakllantiruvchi omillar unga har xil yo'nalishda va har xil darajada ta'sir ko'rsatadi.

Mavzuni yoritishda, ya'ni narxlar chegaralanishi va darajasi haqida quyidagilarni gapirib, I. Karimov asaridan ham foydalandik. Asarda quyidagilarni nazarda tutilgan hukumatning «Narxlarni erkinlashtirish chora tadbirlari to'g'risida» gi qaroriga muvofiq 1992 yil 10 yanvardan boshlab O'zbekistonda keng doiradagi ishlab chiqarish - texnika vositasi bo'lgan mahsulotlari, ayrim turdagi xalq iste'moli mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarining asosan kelishilgan (yerkin) narxlari va ta'riflariga o'tiladi.

1994 yilning oktyabr - noyabr oylari narxlarni erkinlashtirish jarayonida muhim bosqich bo'ldi. Bu davrda xalq iste'moli mollari asosiy turlarining narxlari erkin qo'yilib yuborildi, transport va kommunal xizmatlarining ta'riflari oshirildi.

Narx muhim iqtisodiy vosita bo'lganidan firmalar uni oqilona qo'llashga katta e'tibor beradi. Ularning narx strategiyasida tovarlarni ko'prok sotish, foydani ko'p olish, bozorda o'z mavqeini mustahkamlashga intilish asosiy o'rin tutadi. Shu boisdan bozorda har xil narxlarga amal qiladi. Jumladan, muvozanat narx, demping narx, nufuzli narx, milliy narx, jahon narxi, yashirin narx, limit narx, standart narx, kontrakt narx, o'zgaruvchan narx, chakana narx hamda erkin narx kabilar shular jumlasidandir.

Shu kabi ma'ruza darslarni tashkil etishda I.Karimovning asarlaridan foydalanish talabalarning mavzuni chuqur tushunib yetishligida xizmat qilishi muqarrar. Zero, I.Karimovning barcha asarlari iqtisodiyot bilan bog'langan.

Ta'lim ishlarining shakllaridan biri - seminar mashg'ulotidir. Seminar mashg'uloti qisqacha, bilimlarni chuqurlashtiraman, kengaytiraman degan ma'noni beradi.

Oliy o'quv yurtlarida talabalar ma'ruza «darslarida olgan bilimlarini chuqurlashtirishi, ularni kengaytirishi maqsadida o'quv yurtining o'quv rejasida har bir fan (kurs) uchun seminar mashg'ulotiga talabalar uchun mustaqil ish sifatida qarash mumkin. Chunki, talaba ma'ruzada olgan bilimini o'zlashtirgani holda, seminar mashg'ulotida boshqa adabiyotlar, kerakli manbalardan, darsliklardan foydalanib ma'lumotlar axtaradi va ularni bo'lg'usi seminar mashg'ulotiga o'zlashtirib boradi. Seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik talabalarni izlanishga, fikrlashga, kelajakka tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi.

Bozorda haridorlar u yoki bu tovarga talab bilan sotuvchilar esa tovar taklifi bilan o'zaro uchrashadilar. Xullas bozorning bir tomonida talab, ikkinchi tomonida taklif turadi. Talab to'lovga mos ehtiyoj bo'lib, haridorlarning ma'lum mikdorda va turdagi tovarlarni ma'lum narx bilan va ma'lum vaqt davomida sotib olish ishtiyoqini bildiradi.

Talab qonun - bozordagi talab tovarlarning narxiga nisbatan teskari munosabatlikda o'zgarishini bildiradi. Talab qonuni narx darajasi bilan talab miqdorining teskari mutanosiblikda bog'liqligini bildiradi. Uni formula bilan ifoda etish mumkin.



SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 494653

Tv=------------------- x Q,

bu yerda: Tv - talab, Q - tovar mikdori, V - tovar narxi.

Talab bor joyda taklif ham bor. Shunday ekan taklif - tovar va xizmatlarning bozorda namoyon bo'lishidir.

Taklif qonuni - taklifning mikdori narxga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda o'zgarishini ifodalaydi. U quyidagi formula bilan ifodalanadi.

Bunda: Tf - taklif, Q - tovar mikdori, V - tovar narxi.

Narx o'zgarishiga nisbatan taklifning o'zgarish darajasi taklif elastikligi deyiladi. Taklif elastikligi koeffitsentini hisoblash uchun taklif va narx o'zgarishlari taqqoslanadi:

$$Yek = \frac{Tf \text{ (foiz hisobida talabning o'zgarishi)}}{V \text{ (foiz hisobida narxning o'zgarishi)}}$$

Bozorda sotuvchi mo'ljallangan narx taklif narxidir. Uning qarshisida haridor bildiradigan talab narxi turadi. O'rtadagi savdolashuv natijasida har ikki tomonga ma'qul narx paydo bo'ladi, bu narx muvozanat narx deb ataladi. Muvozanat narx talab va taklifga mos kelganda vujudga keladi.

Shuni ham alohida aytib o'tish kerakki, mavzuni yoritishda I.Karimov asarlaridan sitatalar keltirildi. Ya'ni, I.Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarida bunday deb yozgan edi. «Chinakam talab va taklif asosida vujudga keladigan erkin bozor narxlarining amal qilishi bozor iqtisodiyotining g'oyat muxim bo'g'ini bo'lib, bu bo'g'in mahsulot ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilarning ta'sirini ta'minlaydi».



Demak, seminar mashg'uloti darslarida ham o'quvchilar tomonidan mashg'ulotga tayyorlanish davomida I.Karimov asarlaridan foydalanish nazarda tutiladi. Yuqorida qisman aytib o'tilganidek seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ham mustaqil ishlar tarkibiga kiradi. Shu bilan birga mustaqil ishlarga, referat yozish, kurs ishini tayyorlash, ilmiy anjumanlarda ishtirok etish, diplom ishini tayyorlashlar ham shular jumlasidan. Bularga tayyorlanishda I.Karimov asarlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, asarlar iqtisodiy mavqega ega ekanligi bilan ilmiy

ishlarni erkin bayon etishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqililgimizning poydevorini mustahkamlashda, mamlakatimiz taraqqiyotida, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim - tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, fuqarolarni zamonaviy ilm - fan, madaniyat, texnika va texnalogiya yutuklari bilan tanishtirib borish benihoya kata e'tiborga ega. Chunki, Vatanimiz kelajagini har tomonlama yetuk, texnikaviy va murakkab texnalogiyalardan oqilona foydalana oladigan iymoni butun zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli yoshlar hal etadi. Bas, shunday ekan, I.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...» asarida «Jamiyatning eng oliy boyligi xalq, abadiy qadriyatlarni, qudratli salohiyatni o'zida jamlagan. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish jamiyatimizni rivojlantirish va taraqqiy ettirishning juda kuchli omili bo'lib xizmat qiladi. Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohotlar va tub o'zgarishlar yo'lidan tinimsiz ilgarilab borishini ta'minlab beradi» -deb yozadi.

Demak, respublikamiz har bir fuqarosi ilm olishga to'xtovsiz intilishi, o'zining siyosiy ongini shakllantirishi, iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini egallashi, ma'naviy yetuk inson bo'lishligi uchun harakat qilishi ham qarz ham farzdir. Shu nuqtai nazardan Respublikamiz Prezidenti I.Karimov Ikkinchi chaqirik, O'zbekistan Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz» nomli nutqida insonlarni siyosiy fikrlash kobiliyatlarini yanada shakllantirish nuqtai nazaridan quyidagilarni aytib o'tdi.

«O'z hak - huquqini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqea - hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga, o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq, manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur shart - sharoitlarni yaratish darkor».

Yuqoridagi fikr, mulohazalardan kelib chiqib quyidagicha fikrimizni xulosa qilsak bo'ladi.

1. Respublika Prezidenti I.Karimov asarlari kelajak avlodni barkamol yetuk qilib tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

2. Asarlarning barchasi ijtimoi-iqtisodiy harakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

3. Barcha berilayotgan iqtisodiy ijtimoiy qarashlar zamirida iqtisodiy bilim, ko'nikma yotadi.

4. Asarlar kitobxonni iqtisodiy izlanishga, iqtisodiy mushohada yuritishga chorlaydi va shuni negizida iqtisodiy bilimini yuksalib borishiga zamin yaratadi.

5. Asarlarning, nutqlarning barchasida O'zbekistonimizning buguni, ertasi va kelajagi namoyon buladi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, shuni aytish kerakki, har bir insonning xox, u iktisodchi, xox xizmatchi, xox raxbar, xox u mutaxassis, xox o'quvchi, xox O'qituvchi, xox talaba, xox doktor xullas, barcha kasb egalarining ishchi stolida Mustaqil Respublikamizning birinchi Prezidenti I.Karimov asoslari bo'lishligi shart. Zero ularda O'zbekistonimiz kelajagini ko'rishimiz mumkin.

## 3- bob. Bo‘LAJAK IQTISODCHI - PEDAGOGLARNING PSIXOLOGIYA XUSUSIYATLARI

### 1 -§. Oliy maktab talabalarining psixologiyasi xaqida

Ijtimoiy hayotimizdagi inqilobiy o‘zgarishlar - mustaqillik, respubli-kamizdagi oshkoralik tantanasi uchun kurash, huquqiy davlat tuzishga intilgan insonparvar psixologiyaning qonuniyatlari va ilmiy materiallarini o‘rganish, ulardan turmushda foydalanishni talab qiladi. Mazkur psixolo-giyaning g‘oyalar bilan sharofati, demokratik harakatlar va oshkoralikning keng quloch yoyishi tufayli ijtimoiy turmushning barcha jabhalariga kirib bormoqda.

Ko‘p yillar davomida inson xaq- huquqlarini cheklashga asoslangan ijti-moiy tarbiya xalqning milliy an'analari va qarashlariga zid ravishda, buy-ruqni so‘zsiz bajarish hamda itoatkorlikka odatlantirishga qaratilgani uchun haqiqiy etnopsixologik, umumpsixologik va psexogerontologik qonu-niyatlarni fuqarolardan mutlaqo sir tutgan.

Har bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy ta'sir o‘tkazish insonda o‘z vaqtida o‘zini anglashni vujudga kel-tiradi. Muallif yosh psixologiyasi bo‘yicha murakkab dasturga asoslanib o‘zbek tilida ilk bor yaratilgan ushbu qo‘llanma haqidagi fikr va mulohazalarni kutadi. Yosh davrlar psixologiyasining asosiy vazifasi shaxsning kamol topishi qonuniyatlari va turli yoshdagi kishilarda vujudga keladigan psixik faoliyat, holat va shart-sharoitlarning o‘zaro ta'siri xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Qiyinchilikning asosiy sabablari talaba o‘z o‘quv faoliyatining tug‘ri usullarini bilmasligi, akliy mehnatda kuch va imkoniyatlarni bir tekis taqsimlay olmasligidan iborat bo‘lib, bular aqliy zo‘riqishning negizi hi-soblanadi. Talabalarda vujudga kelgan aqliy zo‘riqish tasodifiy psixologik hodisa emas, uning zamirida shaxsiy o‘quv faoliyatini oqilona boshqarish o‘quvchining zaifligi yotadi. Shunga kura Oliy o‘quv yurti talabalari ko‘pincha o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda bu faoliyatni tasodifiy boshqarishga harakat qiladilar. Bunda muayyan materiallar mantiqiy harakat bilan eslab qolinsa, qolganlari mutlaqo diqqatdan uzoklashtiriladi.

Oliy o‘quv yurtining asosiy vazifalaridan biri talabani o‘quv material- larining asosiy manbalari bilan ishlashga o‘rgatishdan, uning mustaqil bi-lish faoliyatini tashkil qilishdan, o‘zini boshqarish usullari bilan tanish-tirishdan iboratdir. Ma'lumki, oliy maktabda mustaqillik va mustaqil o‘quv faoliyatini uyushtirish talab qilinadi.

Oliy ma'lumot olish talabaning maqsadga muvofiq, muntazam, rejali, izchil o‘quv faoliyatini ta'limning barcha bosqichlarida amalga oshirishni taqozo etadi. Oliy maktab psixologiyasi fanida talabalarning o‘quv faoliyati auditoriya va auditoriyadan tashqari qismlarga ajratiladi.

Shu bilan birga talabalar oldiga o‘quv faoliyatining tarkibiy qismlari bilan bog‘liq muayyan qoidalarga rioya qilib hal etiladigan masalalar ko‘ri-ladi.

Ma'lumki, oliy maktabdagi o‘quv-tarbiya jarayonida ma'ruza bilan seminar mashg‘ulotlarining bog‘lanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Seminar mash-g‘ulotlari asosan talabalarda tafakkurning tanqidiyligi kabi aqlning za-rur tarkibiy qismlari shakllanishiga qaratilgan bo‘ladi. Seminar mashg‘u lotlarida o‘kituvchi o‘rganilayotgan muammo yuzasidan talabalarning bilim-larini tekshirish, ular tafakkurining mustaqilligi, mahsuldorligi va te-

unligini oshirish, ularga ilmiy-nazariyalar, konsepsiyalar bo'yicha shaxsiy fikrlarni bildirishni o'rgatish kerak.

Talabalar deganda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga va mutaxassislikka oid rollarni muayyan qoida va maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlanayotgan ijtimoiy guruh tushuniladi.

Oliy o'quv yurtidagi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari talabalarning boshqa ijtimoiy guruhlar bilan muloqotga kirishishi uchun umumiy muxim imkoniyat yaratadi. Talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy yetuklikni jadal sur'atlarda ro'yobga chiqarishdir.

Pedagogik psixologiya fanidan ma'lumki, o'rta maktab o'quvchilarni har jihatdan oliy maktab ta'limiga tayyorlaydi va ularda umumlashtirish, mav-humlashtirish, tizimlashtirish kabi qobiliyatlarda ko'rinadigan fazilatlar namoyon buladi. Shu bilan birga o'spirinda aqliy, axloqiy, estetik va g'oyaviy -siyosiy jihatdan muayyan darajada o'sish ro'y beradi. Shunga qaramay, ular oldida oliy o'quv yurtida mutaxassislikni egallashga bog'liq yangi vazifalar paydo bo'ladi.

Talabalarga mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini o'zi tashkil qilishi, o'zini- o'zi boshqarish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va hokazolarni o'rgatishdir. Talabalarda axloqiy jarayonlarning o'sishi sust amalga oshadi, lekin xulqning eng muhim sifatlari mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik kabi xususiyatlar takomillashib boradi. Ularda ijtimoiy harakatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga, qiziqish, ularni anglashga intilish kuchayadi.

## 2-§. O'qituvchi va talaba hamkorligining samarasi

Hozir psixologiyada talaba shaxsini o'rganishning qator usullari ishlab chiqilgan. Quyida ana shularning ayrimlariga to'xtalamiz.

Psixologiya fanida keng qo'llanadigan usullardan biri quyidagilar.

Hurmatli talabalar! Sizni ilmiy tadqiqot faoliyatida ekspert sifatida ishtirok etishingizni suraymiz, bu ishning asosiy maqsadi talabalar shaxsining ob'ektiv ijtimoiy psixologik xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir:

1.Buning uchun talaba shaxsining besh guruxdan iborat kuyidagi fazilatlariga diqqat qilishingizni suraymiz:

shaxsning g'oyaviy - siyosiy sifatlari;
kasbiy - ixtisoslik fazilatlari;
axloqiy - etik hislatlar;
tarbiyaviy - pedagogik sifatlari;
tashkiliy - ishchanlik fazilatlari.

2. Har bir guruhga kiritilgan sifatlarni muhim deb hisoblashingiz, o'chirib tashlab, o'rniga yoqtirganingizni qo'yib ko'ring.

3. Har bir guruxdagi fazilatlarni ahamiyatiga qarab, besh balli shkala bilan baholang.

«5»- talaba shaxsi uchun mutlaqo zarur;
«4»- talaba shaxsida bo'lishi shart;
«3»- mazkur sifatning bulishi ma'qul;
«2»-bu sifat zarur emas;

«I»- bunga e'tibor bermasa ham bo'ladi.

4.Psixologiya fanida shaxsning harakterini, temperamentini, boshqalarga munosabatini ular bilan muloqot ko'lamini va jamoadagi rolini o'rgatishning ko'plab usullari mavjud bo'lib, (ular to'g'risida keyinrok to'la ma'lumot beramiz). Bizningcha, ularni amaliyotga tatbiq qilish ham oliy maktabdagi ta'lim va tarbiyani takomillashtirishga xizmat qiladi.

5. Oliy maktabda hamkorlikdagi faoliyatning shakllanishi uning ijtimoiy - psixologik jihatini tashkil qilish, har kanday faoliyatni, jumladan, o'quv faoliyatini tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarni o'rganish so'nggi o'n yillarda amalga oshirila boshlandi.

B.F.Lomov faoliyatini tashkil etishning umumiy psixologiyada qabul qilingan sxemasini ko'rib chiqib, bu faoliyatni bajaruvchi shaxsning boshqa shaxslar bilan hamkorligi boshqacha qurilishi zarurligini ta'kidlab o'tadi. Yakka shaxs faoliyatining psixologik tahlili faoliyat sub'ektining boshqa odamlar bilan aloqasini mavhumlashtiradi. Lekin bu mavhumlashtirish nihoyatda muhimligidan qat'iy nazar, o'rganilayotgan hodisalarni bir tomonlama yoritish imkonini beradi.

O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda, asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratilgan, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilingan. Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtirilayotgan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir.

Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli talabalar mustaqil hamda ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikda shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan talabaning birgalikdagi hatti - harakatlari tizimini tushunish kerak.

Bunday hatti - harakatlar o'qituvchining talabalarga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi, talabalarning faolligi asta- sekin o'sa borib, butunlay ularning o'zi boshqara oladigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi, o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi munosabat esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi. Psixologiya fanida hamkorlikning yettita shakli mavjud, ular quyidagilardan iboratdir: kirish; mustaqil harakatlar; o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga talabani jalb etadi; taqlid harakatlari; mada harakatlari; o'zini-o'zi boshqarish harakatlari; o'zini - o'zi ko'zgatuvchi harakatlar; o'zini uyushtiruvchi harakatlar.

Hamkorlikdagi faoliyat usullari birgalikdagi hatti - harakatlar shaklida namoyon bo'lib, unga muloqot davrlari singari mazkur faoliyatning oddiy birliklari deb qarash mumkin. Birgalikdagi harakat davri quyidagicha almashinuvni o'z ichiga oladi; o'qituvchi harakat boshlaydi, talaba uni davom ettiradi yoki tugallaydi.

Oliy maktablarda hamkorlikdagi faoliyatning xususiyatlarini o'rganish va tajribalarda sinab ko'rishning asosiy maqsadi talabalar bilimlarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarning sabablarini va manbalarini tadqiq etish hamda ta'lim jarayonida yoki hamkorlikdagi faoliyatda bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishning asosiy omillarini aniqlashdan iborat.

## 3-§ Iqtisodiy pedagogikaning rivojlanish tarixi

Ma'lumki, xalq pedagogikasi o'zbekona ahlok, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtiradi. Xalq pedagogikasi - xalqning tari-xiy taraqqiyoti davomida yaratgan ta'lim - tarbiyaga oid qarashi, g'oya, tajriba va an'analari hakida fan bo'lgani uchun xalqning pedagogik fikr ta'lim-tarbiya tarixi, rivojlanishi va taraqqiyoti omillari konuniyatlarini o'rga-nadi. Shunday ekan, xalq pedagogikasi birinchidan, fikrlarning paydo bo'li-shini ijtimoiy - iqtisodiy shart-sharoitlarni aniqlash; ikkinchidan, pedagogik merosning ilmiy nazariy asarlarini yaratuvchi olimlar, mutafakkir -larning hayot faoliyatini o'rganish; uchinchidan,millatning pedagogik merosida qardosh xalqlar ta'lim- tarbiyasiga oid tajribalari ta'siri darajasini belgilash; to'rtinchidan, pedagogik merosni u mumiy va o'ziga xos tomonlarnii o'rganish; beshinchidan, pedagogik merosni bugungi kun ta'lim tarbiyasi nazariyasi va amaliyotda usul va yullarni ishlab chiqish bilan shug'ullanar ekan, unda iqtisod va tejamkorlik tarbiyasi g'oyalari ham o'z aksini topadi.

O'zbek xalqi juda qadimiy ma'naviy va iqtisodiy merosga ega. U o'lmas tarixiy merosi bilan har qancha faxrlanishga haqlidir. Bu iqtisodiy meros xalqimizning iqtisodiy mustaqillikni qo'lga kiritishi, zamonaviy iktiso-diy iqtidorli millatga aylanishida xizmat qildi va xizmat qilmokda.

Shuni alohida qayd etish kerakki, Markaziy Osiyo xalqlari iqtisodiy bi-limlarni egallashlarida islom dinining tarqalishi, uning iqtisodiy g'oya -lari ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumki, Islom dinining iqtisodiy g'oyalari musulmonlar uchun muqaddas kitob «Qur'oni Karim»da payg'ambarimiz hadislarida, mashhur «Muxtasar» kitobida o'z ifodasini topadi. «Qur'oni Karim»da savdoni, halol va adolatli yuritishga, savdo va tijoratdan foyda olishda insofni unutmaslikka katta urin berilgan. Ayni chog'da sudxurlak, boshkalar rizkiga xuruj qilish, mulkning daxlsizligi kabilar etirof etilgan va qarz berish, qarz olish munosabatlari, yetim-yesirlarning haqqini yemaslik balki ularga muruvvat ko'rsatish kabi g'oyalar ilgari surilgan.

Ayniksa, o'tmish avlod - ajdodlarimizdan qolgan milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz, afsona. Rivoyat, hikoya, ertak, xalq dostonlari, maqolalari-miz hamda topishmoqdarda, iqtisod va tejamkorlik g'oyalari ilgari suriladi. Misol uchun o'zbek xalq maqolalaridan biri «Yetti o'lchab bir kes». Bu maqol zamirida juda iqtisodiy g'oya, tejamkorlikning g'oyasi mujassamlashgan.

Xalq pedagogikasi namunalarida iqtisodiy va tejamkorlik g'oyalari alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan xalq pedagogikasi namunalariga nimalar kiradi? - degan savolga javob berishga to'g'ri keladi. Xalq pedagogikasi namunalariga asosan, xalq dostonlari, rivoyatlar, afsonalar, asotirlar, maqolalar, masallar, hikmatlar, qayroqi so'zlar va ertaklarni kiritish mum-kin.

Yertak orqali kishilar sirli-mehrli olam bilan tanishadi. Hamda unga oid bilimi. Tushunchalari boyiydi, yaxshi odamlardagi hislatlar, yomon odamlardagi badxulqlar bilan xabardor bo'lib, yaxshilikka mehri toblanadi, yomonlikka nafrati ortadi. Maqolalar, matallar, hikmatlar, qayroqi so'zlar xalq donishmandligining yuksak badiiy timsoli bo'lib, ular qisqa, sodda, ammo har

birining ma'nosi juda keng bo'ladi. Asotirlar, afsona, rivoyat - donolarning ibrat fikri, tabiatni asrab-avaylash, qadriga yetish, chiroyiga chiroy qo'shishga bo'lgan ishtiyoqni uqgirish, ekologik tarbiyani qo'yish va kamol toptirishda muhim o'rin tutadi.

Topishmoq - qadimdan davom etib kelayotgan va xalqlar orasida keng tar-qalgan janrlardan biri bo'lib, bolalar topqirligini tarbiyalash, zehnini o'tkirlashtirish, fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Topishmoqlar o'z xususiyatga ko'ra ikki yoki undan ortiq bolalar o'rtasida mustaqil fikrlash yo'li bilan savol - javob, tortishuvlar, bahs-munozaralar orqali olib boriladi.

Dostonlar bola tarbiyasining tarkibiy qismlari jumladan, aqliy va jismoniy kamolot, ilm va hunarga muxabbat, mehnatsevarlik, ma'naviy sifat hamda nafis didning tarkib topishiga doir ko'pdan - ko'p pedagog masalalarni o'z ichiga oladi. Misol tariqasida «Alpomish» dostoniga murojaat qilsak «Alpomish» dostoni taxminan X asrda to'la shakllangan bo'lib, unda o'sha davr ijtimoiy - iqtisodiy voqea - hadisalari Alpomish obrazi orqali yoritiladi.

Jumladan, doston shunday satrlar bilan boshlanadi: «qadim o'tgan zamonda, o'n olti urug' ko'ng'irot elida Dobonbiy degan o'tdi. Dobonbiydan Oltinbiy degan ug'il - farzand paydo bo'ldi: kattasining otini Boyburi, kichkinasining otini Boysari qo'ydi». Xalq Alpomishni «o'tga solsa, yonmas pahlavon qilib yaratgan». Alpomish dostonida yuqorida aytib o'tganimizdek, iqtisodiy munosabatlar ham o'z ifodasini topadi, ya'ni Boyburi ukasi Boysarini soliqlarni o'z vaqtida to'lashga undaydi.

### 4-§. O'rta Osiyo mutafakkirlari ijodida iqtisodiy tarbiyaning ifodalanishi

Iqtisodiy g'oyalar Markaziy Osiyo mutafakkirlarining iqtisod tafakkur rivoji manbai bo'lib koldi. Bu Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ko'plab mutafakkirlar ijodida o'z ifodasini topgan.

Farobiy va Ibn Sinoning iqtisodiy merosi markazida inson va uning ehtiyojlarini qondirish masalasi turadi. Zero, yuqorida aytilganidek, inson dunyoning oliy ne'mati va uning ehtiyojlarini qondirish har qanday jamiyatning yashash va rivojlanish shartidir. Inson ehtiyojini ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy kabi guruhlarga ajratish mumkin. Ushbu ehtiyojlar ichida inson ijtimoiy - iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish ustivor hisoblanadi.

Sharqning buyuk farzandi, birinchi faylasufi Abu Nasr Farobiyning Arastu falsafasi tahliliga bag'ishlangan asarida iqtisod fanining kategoriyasi bo'lgan ehtiyojlar masalasiga katta e'tibor qaratilgan. Abu Ali Ibn Sino «Tibbiy dostoni» da yozadiki: «agar, hayvonlar tabiat ne'matlariga qanoat qilib yashasalar, odamlarga bu ne'matalar ozlik qiladi, ular oziq-ovqat, kiyim - kechak, uy - joyga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishlari lozim». Uning ta'kidlashicha, odamlar o'z mehnatlari bilan o'zlariga oziq-ovqat, kiyim - kechak, uy-joy yaratadilar, ular ana shu maqsadda dehqonchilik, hunar-mandchilik, chorvachilik bilan shug'ullanadilar. Shuning uchun Ibn Sino odamlarni ijtimoiy foydali mehnatga chorlaydi. Sharq iqtisodiy tafakku-rining rivojlanishida Yusuf Xos

Xojibning «Qutadg'u bilik» nomli tari-xiy asari alohida ahamiyat kasb etadi.

Asarda mehnatga to'g'ri haq to'lash, mehnatni taqdirlash, mehnatni qadriga yetish, moddiy manfaat, kasb - hunar egallash, kuchli ijtimoiy himoya masala-lariga katta o'rin berilgan. Bu asarda hunarmandlar, savdogarlar, dehqonlar hamda chorvadorlarga alohida boblar berilgan. Alloma aytadiki: «Xizmat ahli o'z mehnati natijasidan umidvor turadi. Umidini topmagan xodimning ko'ngli sindi. Xizmatiga loyiq taqdir ko'rgan xodimning boshi ko'kka yetadi».

Yusuf Xos Xojibning manfaatlar (shaxsiy manfaat) masalasiga doir g'oyasi ayniqsa ahamiyatlidir. «Ayniqsa bugun qimirlagan jon nafni o'ylab harakatlanadi» deb yozadi. Bu fikr keyinchalik «siyosiy iqtisod darslikla-rida» har qaysi harakat zamirida manfaat yotadi degan fikrda ham o'z ifoda-sini topdi.

Sharq iqtisodiy tafakkurlari rivojlanishida ulug bobokalonimiz, so-hibqiron, buyuk sarkarda, davlat arbobi Amir Temurning iqtisodiy g'oyala-ri, u ishlab chiqqan va amalda qo'llagan iqtisodiy siyosat muhim ahamiyatga ega. Amir Temur iqtisodiy g'oyalarni «Temur tuzuklari» asarida bayon etilgan. Bu asarda iqtisodiyotni tashkil etish, barqarorlashtirish, tartibga solib berish, uni barqaror sur'atlar bilan yuksaltirib borishga shu iqtisodiy tavsiyalar jamlangan.

«Temur tuzuklari»da quyidagilarni o'qiymiz: «kasb - hunar va ma'rifat ahillariga saltanat korxonalaridan ulush berilsin, bilagida kuchi bor faqkir miskinlar esa o'z ahvoli va kasb - koriga qarab yo'l tutsinlar». «Sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdolarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklashi uchun xazinadan yetarli oltin berilsin». Temurning iqtisodiy qarashlari zamirida, davlatni boshkarishning muhim omili sanoati, soliq siyosati ham chetda qolmagan. U o'z soliq siyosatida ham xalq manfaatidan kelib chiqadi. Amir Temur ta'kidlaydiki: «aholidan olinadigan soliqlar ularning ishlab topgan daromadlariga qarab belgilanishi, ularning qaysi birlari el - yurt obodonchiligi yo'lida o'z mol mulki va sarmoyasini ayamay sarflasa ularga davlat soliq to'lashda imtiyoz berishi kerak».

O'zbek xalqining ma'naviy merosida, uning madaniyati xalqaro mikiyos kasb etishida ulug' shoirimiz, faxr iftixorimiz, ma'naviy doxiymiz buyuk Alisher Navoiyning o'rni beqiyosdir. Hozirga qadar xalqimiz uni she'riyat mulkining sultoni sifatida qarab keldi.

Biroq uning ilmiy merosi shu qadar boy va keng qirraliki, unda iqtisodiyot masalalariga doir ko'pgina qimmatli g'oyalar ham o'z ifodasini topgan. Buyuk mutafakkirimizning iqtisodiy qarashlari uning bir umrlik kitobi bo'lgan «Maxbub-ul-kulub» («Qalb sevgilisi») asarida bayon qilingan. Ali-sher Navoiy ikkita iqtisodiy g'oyani ilgari suradi: birinchidan, mehnat-ning miqdori va sifatiga muvofiq takdirlanishi fikri bo'lsa, ikkinchidan, mehnatga yarasha haq olish «ona sutidek halol» ekanligi haqida fikr uqtirilgan. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, hozirgi davrda ham bu masala dol-zarb bo'lib qolmoqda. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bu g'oya «qanday qilib bo'lmasin, tirikchilik o'tkazilsa bo'ldi - da», qabilidagi fikrga tamomila ziddir. Yoshlarda, barcha fuqarolarda iqtisodiy tarbiya masalasi ilgari surilayotgan bir vaqtda buyuk shoirimizning yuqoridagi g'oyasi naqadar ahamiyatli ekanligi tushunarlidir.

Alisher Navoiy o'zining «Maxbub - ul - kulub» asarida quyidagicha yozadi:

«Savdogar yolg'iz foydani niyat qilmasligi, savdo qilib foyda topaman, deb ortiqcha kema surmasligi, mol va pul ko'paytiraman, deb jonsarak bo'lmasligi kerak», «Savdogar boj-xirojni berish o'rniga o'z molini yashirib, o'z obro'sini tukmasa yoki topgan tutganini merosxo'rlari sotib sovurishi uchun to'plab qo'ymasa yoki biror yomon hodisa qo'zg'ash uchun sarflamasa, jamg'armasi yaxshi bo'ladi».

Alisher Navoiyning savdogarlar to'g'risidagi ushbu fikrlari xuddi bugun bizning savdogarlar va tijoratchilar uchun aytilayotgandek tuyuladi. Asardagi bu fikrlardan quyidagi xulosaga kelish mumkin. Birinchidan, savdo, ti - jorat, bozor, muomala jarayoni (oldi - sotdi) iqtisodiyotni rivojlantirishda yetakchi ahamiyat kasb - etadi, zero, bu tovarlar taqchilligini tugatishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, savdo davlat byudjeti daromadining manbai, mamlakat iqtisodiy kuch - qudratining tayanchi hisoblanadi, zero, savdogar lar davlat byudjetiga soliqlar to'lab turishi orqali uni boyitib boradi. Uchinchidan, allomamiz savdogarlarni insof, diyonatga chaqiradi. Ulardan faqat o'z foydasini ko'zlab ish ko'rmasliklarini talab qiladi.

**Qobusnoma.** Farzand tarbiyasi hamisha Sharq mutafakkirlarining diqqat markazida turadi. Kaykovusning «Qobusnoma» asarida ham farzand tarbiyasiga alohida e'tibor beriladi. Shuning uchun ham ushbu asar Sharq pedagogikasining qomusi sifatida qarib asrlar davomida jahon xalqlari e'tiborini qozonib kelmokda. Asardagi mo''jaz latifalar, ixcham rivoyatlar kitobning nihoyatda jozibali, o'qishli bo'lishini ta'minlagan. Asarning ba'zi bir boblari, unda keltirilgan rivoyatlar barkamol avlodni iqtisodiyot bo'limlarni shakllantirishga undaydi. Jumladan, 32-bobda «Tijorat va bozorgarlik rasm-rusumlari zikrida» fikrlar bayon etilgan. Ya'ni: «Bozorgarlik ikki nav bo'lur va ikkovi ham xatarlidir: biri muomala va biri munofiqlikdir. Muomala muhimlari (doimiy turuvchilar) xosdurkim, kasod mollarini foyda ta'ma bilan sotib olurlar. Bunday mol xatarlidur va bu ishda dalir (shijoatli), pesh (ilgari, oldin) bir (ko'ruvchi) kishi kuhirkim, kasod matoni sud umidi bilan olgan. Demak, har tarikayl bila bozorgon o'zining moli va taniga dalir bo'lmog'i, beboq (beparvo) bulmasligi, o'zining nafi uchun o'zgalarning ziyonini tilamasligi kerakdir».

## 4- Bob. IQTISODCHI- PEDAGOG, UNING KASBIY VA AXLOKIY XUSUSIYATLARI

O'qituvchi go'zallik sohibidir. Bu oliyjanob, sharafli kasb egalari haqida ne - ne aziz odamlar qo'llariga qalam olib jo'shqin hislirini, eng yaxshi ezgu tilaklarini oq qog'ozlarga bitmagan deysiz. Hayot abadiy. Ammo u yosh avlod bilan barhayot. Avlod bor ekan, unga ta'lim va tarbiya beradigan mehri daryo o'qituvchilar ham abadiy barhayot yashayveradi. O'qituvchi bamisoli bog'bon. u yoshlik gulshanining rahnamosi. U o'z bog'idagi mevalarini rango-rang va sog'lom bo'lishini umid qiladi. Kasblar ichida alohida faxr va iftixor bilan tarona etiladigan kasb, o'qituvchilik kasbidir. Chunki, biror soha yo'q-ki, unga o'qituvchining bevosita va bilvosita qo'shgan hissasi bo'lmasin. O'qituvchining bilimidan, aql - zakovatidan, mehr - muxabbatidan bahramand bo'lmagan kishi yo'q.

«Jahonda bo'lmasa muallim agar. hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar» , - deb yozadi, Sharq mutafakkirlaridan biri Abduraxmon Jomiy. Shu o'rinda quyidagi o'qituvchi hikmatlari alohida ahamiyatga ega.

Haqiqiy ustozlikning mohiyati ulug' hayot taqozo etadigan, axlokiy fazilatlarni yosh avlodning ongiga, e'tiqodiga, eng muhimi. kundalik hatti- harakatiga aylantira bilishdadir. Iqtisodchi pedagog talaba yonida har doim katta mas'uliyat sezmog'i lozim. Uning talaba qoshidagi obro'sі ana shu hissiyot bilan mutanosibdir. Iste'dodli iqtisodchi - tarbiyachi tarbiyalanuvchini hayotdagi xilma - xil va murakkab vaziyatlarga yuzma - yuz qo'yadi va maqbul yechim topishga o'rgatadi.

Tarbiya ob'ektimiz - bolani aktiv sub'ektga aylantira olishimiz kerak, chunki ta'lim - tarbiya ikki tomonlama jarayondir. Dunyo xalqlarining ilg'or pedagog tajribalarini kuzatmay va o'rganmay, o'zining bilim doirasi bilan chegaralanib qolgan o'qituvchi fan texnika yutuqlaridan bebahra qolgan kosibni eslatadi.

Bizdan, ya'ni iqtisodchi pedagoglardan ta'lim olayotgan shogird faqat bugungi kunning ehtiyojigina emas, balki kelgusi dahosiga ham monand bo'lishi kerak. O'qituvchining fikri va zehni nechog'lik teran bo'lsa, uning nutqi shunchalik ixcham va mazmunli bo'ladi.

Iqtisodchi o'qituvchi o'tmish ajdodlarimiz yaratgan ijtimoiy- iqtisodiy, ma'rifiy va ma'naviy merosimizni yosh avlodga yetkazib beruvchi vositadir. Shunday ekan o'qituvchi shaxsi oldida katta mas'uliyat uyg'unlashadi. Bular asosan o'qituvchining kasbiy mahoratlariga qo'yiladigan talablar negizida namoyon buladi. Demak, ular quyidagilar:

- iqtisodchi o'qituvchi avvalo o'z kasbini sevishi hamda o'z predmetining (iqtisodiy fanlar majmuini) chuqur bilimdoni bo'lishi;

- pedagogika va psixologiya fanlarini chuqur o'zlashtirib, o'quv - tarbiya ishlari metodikasini puxta egallashi;

- hayot, fan, madaniyat, ma'rifat masalalari, hozirgi zamon texnika-texna-logiyalari bilan chuqur qurollangan va ularni o'zlashtirgan bo'lishi;

Respublikamiz hayotiga oid materiallar, ommaviy axborot vositalarining do'sti va yo'l ko'rsatuvchi murabbiysidir. Afsuski, hozirgi kunda o'qigan bo'lsa ham, madaniyatsiz, yetarli tarbiya olmagan, fe'l-atvori xunuk, hayotdan orqada qolgan, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan o'qituvchilar ham uchrab turadi.

Ustoz. Aziz dustim, hurmatda bo'l, ustozingdan o'zganda ham,
Uning oshib, iqbol kulib harchang senga boqqanda.
Bo'lma mag'rur unvonga sen, «Allomasiz» desalar, ham,
Qancha bo'ldi allomalar ming g'oyadan oshganda ham,
Har gavhardan ortiq erur oqil shogird ustoz uchun,
Ustozingni qadrini bil, boshing ko'kka yetganda ham,
Kim tosh otsa ustoziga, bulgay badnom o'lganda ham,
Unutmagay ustoz nuriyu - yillar o'tganda ham.

Jamoa tushunchasi pedagogikada asosan asrimizning 20 - yillaridan boshlab anchagina keng qo'llanila boshladi. Vaholanki, bu tushuncha undan oldin ham tarbiyachilar, psixologlar, iqtisodchilar, tarixchilar, sotsiologlarning diqqat markazida bo'lgan.

Talabalarni jamoada tarbiyalash g'oyasi o'qituvchi, tarbiyachilar tomonidan iliq

kutib olindi. Juda ko'p ilmiy - amaliy kuzatishlar amalga oshirildi. Bu tekshirish ma'lumotlarining ko'rsatishicha, jamoa faqatgina bolalarda o'rtoqlik, jamoatchilik, ijtimoiy faollikni shakllantirib qolmasdan, balki talabalarning atrof-muhitga nisbatan munosabatini belgilab, unga ijtimoiy yunalish berar ekan.

Jamoada tarbiyalash orqali bolalarning asosiy shaxsiy sifatlaridan harakter, irodani tarbiyalab berish mumkin ekan. Jamoasiz har tomonlama ri-vojlangan barkamol avlodni tarbiyalash mumkin emas. Jamoa haqidagi naza-riya, shaxsning rivojlanishidagi umumiy qonuniyatlarni ochib beradi. Bolalarning jamoaga birlashishlaridagi manba yagona maksadning borligidir. Shu maqsadga erishish uchun jamoa asosidagi faoliyat tashkil etiladi. Maqsadning birligi jamoa a'zolariga yagona, umumiy qarashlarning tiklanishini olib keladi.

Har doim maqsad turgunligi muvaffaqiyatlar garovi bo'la olmaydi. Masa-lan, o'smirlarning qonbo'zar guruhlarini jamoa deya olmaymiz. Demak, sis-temali aloqa, ayrim umumiy maqsadning jamoa bo'lish uchun yetarli emas ekan. Jamoa haqidagi darslikda quyidagicha ta'rif berilgan. «Ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan maqsad asosida, shu guruh a'zolarining yagona faoliyatga birlashishlari, o'zaro munosabatda, bir - birlariga bog'liq bo'lishlari, o'zaro javobgarliklari, ular burch va huquqlarining tengligiga asoslangan shaxslar guruhiga jamoa deyiladi. Jamoa o'z rahbar organlarini saylaydi, boshqa jamoalar bilan yaqin aloqada bo'ladi».

Jamoa manbalari turli- tuman faoliyat turlari bo'lishi mumkin. Bularga: mehnat, o'yin, o'kish, ommaviy madaniy ishlar, sport, estetik faoliyat, maishiy topshiriqlarni bajarish kiradi. Ularga qo'yiladigan talablar esa jamoa faoliyatining ijtimoiy foydali yo'nalishi, jamoa a'zolari imkoniyatlariga to'g'ri kelishidir.

Jamoani tashkil etish darsda va darsdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy jarayonning bir qismi hisoblanadi. Bolalar jamoasiga qanchalik ko'proq tayanilsa, shunchalik ko'p muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Mashg'u-lotlar kun tartibi, bolalar o'yinlarini tashkil etishni puxta o'ylab olib borilsagina, bolalarning jamoaga jipsroq birlashishiga yordam beradi. Oliy maktabda O'qituvchilar va guruh rahbarlarining vazifasi auditoriyada, oliygohlarda tashkilotchilik vazifalari talabalar qo'lida bo'lgan o'zini- o'zi boshqarish tizimini vujudga keltirishdan iborat.

Jamoa haqidagi fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, quyidagicha ta'rif- lash mumkin. Jamiyat uchun foydali bir maqsad asosida birlashgan, kontakt birlikka ega bo'lgan, o'z manfaatini jamoa manfaatiga bo'ysundira oladigan shaxslar uyushmasi jamoani tashkil etadi. Demak, jamoa bo'lish uchun uchta ta-labga javob berish kerak. Jamiyat uchun foydali maksad, bir - birlari bilan yakin aloqada bo'lish hamda o'zgalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish-dir. Har bir alohida bolani tarbiyalash orqali jamoani tarbiyalashga eri - shish mumkin.

# 5- bob. IQTISODIY - PEDAGOGIKANING NAZARIY ASOSLARI (DIDAKTIKA)

## 1-§. Didaktika uning mohiyati va tamoyillari

Didaktika ta'lim jarayoning umumiy qonuniyatlarini o'rgatadi. U grekcha so'z bo'lib «didayko» - ukitish, «didaskol» - o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan.

«Didaktika» ning so'zma- so'z tarjimasi ta'lim nazariyasini anglatadi. Ta'lim nazariyasi - ta'lim jarayoning tushunchasi va mohiyati, ta'lim qoidalari, uslublari hamda tashkiliy formalarini o'z ichiga oladi. Ta'limning asosiy vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat.

Demak, didaktika pedagogikaning «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish» va «qanday o'qitish» kabi savollariga javob izlaydi. Umumiy didaktika esa, ayrim o'quv fanlariga oid usullar bilan juda mustahkam bog'lanadi. Shu usullar ma'lumotiga tayanib, o'qitishning umumiy qonuniyatlarini yechib boradi. Ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Sharq xalqlari pedagogikasining buyuk allomasi Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilik» asari orqali ilm - fan, ma'rifatning ahamiyati, ta'rifi va tavsifida kishilarni tinmay bilim olishga, bilim o'rganishga undadi. Dunyodagi barcha xayrli ishlar, ezgu amallar negizida ilm - ma'rifat yotadi, ilm ziyosi tufayli jaholat zulmati yoziladi, fikr ravshanlashadi, olamga ro'shnolik taraladi. Har bir sog'lom fikrli odam dunyoning borliq ishlaridan ogoh bo'lishi, buning uchun tinmay bilim olishi, ma'rifatga intilishi kerak.

Mutafakkir Abu Rayxon Beruniy (973-1048) ilmning kadr - kimmati yukeak baxolanganligini aloxida ta'kidlaydi: «Ilm o'zi lazzat bagishlaydi. Odamlar ilm tufayli ezgulikka erishadilar. Ular ilm tufayli yovo'zlikdan xalos bo'ladilar. Shuning uchun ilm eng anik, foyda, katta davlat emasmi axir».

Bilimlar rivojida sharkning buyuk daxosi Al - Xorazmiyning katta ulushi bor. Bu buyu kolim algebra, arifmetika, astronomiya, geografiya va musnka soxalarida bir kducha asarlar yozadi. Uning «Algebra va almukobala hisobidan kiskacha kitob» asari asosida algebra paydo bo'ladi.

O'zbek she'riyatining buyuk daxosi Alisher Navoiyning didaktik merosi uning bebaxo «Hamsa» asarida, xikmatlarida, lirik durdonalarida o'z ifodasini topgan. Masalan, «Farxod va Shirin» dostonidagi Farxod ilmli, xunarli ijodkor shaxe. Farxod - ilm - xunarni xayot bilan boglaydi.

Sharku garb ma'naviy merosi asosida pedagogik jarayondan markaziy urin olgan didaktika rivojiga buyuk chex pedagogi Yan Amos Kamenskiy ham kata hissa kushdi. Uning «Buyuk didaktika» asari o'qitishni rivojlantirishga goyat katta ta'sir kursatdi va muallimlarning doimiy foydalanadigan kitobi bo'lib koldi.

O'zbekistonda didaktik ta'limning tashqil topishi va rivoj.pakishi Abdulla Avloniy, Hamza, Muhammadrasul Rasuliy, Kori Niyoziy, * O.Sharafiddinov kabi pedagog va olimlarning nomlari bilan boglsh. Pedagoglar bir qancha avlodlarning mehnati bilan kulga kiri'tpgan, pedagogika fani erishgan barcha kimmatli yutukdar, zamon sinovidan utgantashqi ilgor kdrashlarni avaylab asrashi va usha merosdan faol ravishda foydalanishlari kerak.

Inson tarixi - goyalar tarixidir. Goya - inson tafakkurining mahsuli, milliy goya va

millat tafakkurining mahsulidir. Milliy goya – inson va jamiyat xayotiga ma'no mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir.

## 2-§. Bilish ta'lim jarayonining metodologii asosidir

Bilish jarayoni kabi ta'lim jarayonida ham o'quvchi bilmaslikdan bilishga noto'g'ri va noanik bilishdan tobora tulikrok anikrok, chuqurroq bilishgacha bo'lgan yulni bosib utadi. Bu jarayonda hissiy idrok etish ham, abstrakt tafakkur ham, amalda sinab kurish ham bo'ladi.

Bilish ikki pallaga - nazariya va amliyotga bulinadi. Nazariya yangi bilimni yangicha bilimni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariya har xil shakllarda ifodalanadi: aksioma, teorema, konun, formula, grafik, rakam va boshqalar. Nazariya da goya shakllanadi. Amaliyot bilimlarning haqikiyligini kursatuvchi mezondir. Ko'zatksh, tajriba, o'zgartirish, yaratish - bular amaliyot shakllariga kiradi. Amaliyot ijtimoiy xayot va tabiatning murakkab jarayonlarini bilib olishda inson uchun asosiy kurol bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy bilimning vazifasi xodisalar mohiyatini, ularning rivojlanish qonunlarini ochibgina emas, balki, biror bir konunning kay tarika namoyon bulish sabablarini ham kursatib berishdan iborat.

Bilish sizdan boshlanadi. Sezish tevarak - atrofdagi voqealar, narsa va hodisalarimizni sezgi organlarimizga ta'sir etuvchi ayrim sifatlarining ongimizga aks etishidir. Bunda har bir organ, har bir analizator I. P. Paz-lov ta'kidlab aytganidek, narsalarning ayrim sifatlarini idrok qiladi.

Sezishlar - odam haqidagi barcha bilimlarimizning manbaidir. Ammo ilmiy asosda bilish, masalan, oilaning bilishi bilan o'quvchining bilish faoliyati o'rtasida umumiylik bo'lsa ham, ular bir - biridan farq qiladi. Olimlar olamni bilib olib, ilgari fanga ma'lum bo'lmagan yangi haqiqatlarni kashf etadilar, yangi qonuniyatlarni aniqlaydilar va shu tariqa fanning ilgarilab ketishiga imkon yaratadilar. O'quvchilar esa ta'lim jarayonida olamni bilib olib, o'zlari uchun ilgari noma'lum bo'lgan, biron fan kashf etgan va kishilarning ijtimoiy - tarixiy amaliyotida tekshirib ko'rilgan yangi ma'lumotni oladilar. O'qituvchi o'quvchilarni olimlar tomonidan yaratilgan qonunlarni to'g'ri bilishga, yangilashtirilgan, vakt jihatidan qisqa yo'ldan olib boradi.

O'qitish jarayoni ikki faoliyat - o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materiallarini bayon qilishdan, o'quvchilarda fanga qiziqish uyg'otish, ularning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, bilim, ko'nikmalarni tekshirish, o'quv fanlariga moyillikni uyg'otish, rag'batlantirish, bilim darajalarini xolis baholashdan iboratdir.

O'qituvchi faoliyati ta'lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi, chunki u o'qitadi, ta'lim beradi. O'quvchi faoliyati ichki jarayonni tashkil etadi, chunki u o'qituvchi bergan bilimni o'qib, tushunib oladi.

O'qitish jarayonining ikkinchi tomoni o'quvchining faoliyati bo'lib, u o'quv fani materiallarini o'zlashtirishdan iborat. Ta'limning asosiy maqsadi, vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Milliy bilimlarni egallash muayyan fanlar o'rtasidagi bog'lanishni ifoda etish, ularni izohlay bilish, mustaqil ravishda umumlashtirish, xulosalar chiqarish demakdir. Bular asosida o'quvchilarda

kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira kabi bilish qobiliyatlari o'sib boradi, ularda e'tiqod tarbiyalanadi. Muallim bilimlarni o'rgatar ekan o'sha jarayonda bolalarning imkoniyatlarini o'rganadi, qiyinchiliklarni ko'radi, ularni bartaraf etish choralarini izlaydi. Ijodiy ishlovchi o'qituvchi materialni o'zida ham, uni o'qitish usullarida ham yangi jihatlarni ochadi. Xuddi ana shunday ish jarayonida pedagogning o'ziga xos usuli shakllanadi.

### 3-§. Ta'lim jarayonida bilish faoliyatining bosqichlari

Bilimlarni o'zlashtirish voqe'likdagi narsa va hodisalarni sezish va idrok qilishdan boshlanadi. Bilimlarni o'zlashtirishda bu bosqichlarning ahamiyati nihoyatda kattadir. Idrok - borlikni odam ongida aks etishidir.

O'quvchilarning bilish faoliyatidagi ikkinchi bosqich, bilimlarni tushunish va umumlashtirishdir. Tushunchalar hosil bo'lish jarayonida induksiya va deduksiya kabi fikrlash masalalari katta o'rin tutadi. Induksiya- xususiy hollardan umumiy kridaga boradigan, deduksiya esa - umumiydan xususiyga boradigan fikr yuritish yo'lidir.

O'quvchilarning bilish faoliyatidagi uchinchi bosqich, bilimlarni mustahkamlash va qo'llashdir. Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallashning ongli vositalaridan biri - avval o'zlashtirib olingan bilimlarni amalda sinashdir. Amaliyot jarayonida bilimlar to'ldirib boriladi, ularni amalda qo'llash ko'nikmasi hosil qilinadi. Amaliy vazifalarni hal qilish vaqtida bilimlarga ehtiyoj paydo bo'ladi, bu esa yangi bilimlarni egallash uchun turtki beradi. Ular quyidagilar:

1. Iqtisodiy ta'limning mohiyati va nazariy asoslari.
2. Iqtisodiy ta'limning mazmuni va uning tamoyillari
3. Ta'lim jarayonining tashkiliy shakllari: (ma'ruza, semenar, mustaqil ishlar)

Tub islohotlarni amalga oshirish, bozor munosabatlarini shakllantirish eng avvalo xodimlarning iqtisodiy bilimiga bog'likdir. Kishilarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirmasdan turib chuqur iqtisodiy o'zgarishlar qilib bo'lmaydi. Shu o'rinda Islom Karimov quyidagi fikrni so'radi: «Bozor munosabatlariga o'tish davrida iqtisodiy bilimlarni ko'proq berishimiz maqsadga muvofikdir».

Bozor munosabatlariga o'rgatadigan iqtisodiy ta'lim tizimlarining xalqaro andozalari va modellari mavjud. Ular 1996 yilda Yunesko tomonidan e'lon qilingan «Jahondagi oliy ta'lim tizimlari ma'lumotnomasi» da o'z ifodasini topgan. Umuman, olganda taraqqiy etgan davlatlarda iqtisodiy ta'limning asosiy ikki modeli mavjud:

1. Iqtisodiy ta'limning inglizcha - amerikacha tizimi.
2. Iqtisodiy ta'limning nemischa - ruscha tizimi.

Iqtisodiy ta'limning inglizcha - amerikacha tizimida u, iqtisodiy ta'limni egallashning ko'p darajaliligiga va xilma - xilligiga asoslangan. Bu tizimda ham akademik hamda kasb - hunar ta'limi taklif etadigan ta'lim muassasalarining keng tarmog'i mavjud.

Iqtisodiy ta'limning nemischa - ruscha tizimida oliy iqtisodiy ta'limni bir darajada egallashga asoslanadi. Unda o'quv rejalari va bozor uchun mutaxassislar tayyorlash dasturlariga jiddiyroq talablar qo'yiladi. Shu bilan birga iqtisodchilar tayyorlashda yaponcha tizim ham muhim xususiyatlarga ega. Texnologiya va menejment sohasida

chuqur bilimlar berish bu tizimning o'ziga xosligini belgilaydi.

Yuqoridagi tizimlar bozor munosabatlari sharoitida ishlay oladigan, iqtisodiy bilimlari chuqur shakllangan mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi chuqur, keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirar ekan, uzluksiz iqtisodiy ta'lim tizimini shakllantirishga birinchi darajali ahamiyat bermokda. Ma'lumki, birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni va «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» fikrimiz isbotidir. Ushbu ta'lim tizimiga oid huquqiy hujjatlar bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlay oladigan, iqtisodiy bilimlarni chuqur egallagan, har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lmokda. Shu bilan birga iqtisodiy bilimlarni shakllantirishda prezidentimiz Islom Karimov asarlari ham muhim manba sifatida o'rganilmokda. Chunki, asarlarning har biri respublikada olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni, ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarni, tashqi va ichki iqtisodiy aloqalarni to'la - to'kis namoyon qiladi va kishining iqtisodiy bilim darajasini oshirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy ta'lim berish jarayoni bilan iqtisodiy pedagogika fani shug'ullanadi. Shu nuqtai nazardan iqtisodiy ta'limning mazmuni - iqtisodiy ilmiy bilim berish orqali moddiy olam jamiyat taraqqiyoti sabablarini ochib berishdir. Shunday ekan, iqtisodiy ta'limning mazmun - mohiyati, uning O'zbekiston Respublikasi uchun ahamiyati Prezidentimiz ilgari surayotgan «yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish» g'oyalarida o'z aksini topadi.

Iqtisodiy ta'limning mazmuniga chuqurroq nazar tashlasak, iqtisodiy pedagogika fanining iqtisodiy ta'lim - tarbiya, ma'lumot hamda iqtisodiy ko'nikma, iqtisodiy malaka kabi tamoyillariga duch kelamiz. Bularning ichida iqtisodiy ta'lim va iqtisodiy tarbiya tamoyillari iqtisodiy ta'limning mazmun - mohiyatini ochib beradi.

Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob - kitob va h. k. lar haqida fikrlay olish qobiliyatini kamol toptirish demakdir. Iqtisodiy tarbiya tushunchasi o'sib kelayotgan yosh avlodda hosil qilingan iqtisodiy bilimlar asosida aqliy kamolot, iqtisodiy dunyoqarash, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Shu ma'noda iqtisodiy tarbiya deb - iqtisodchi tarbiyachi o'zi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirishi uchun ularning ruhiyatiga ma'lum ta'lim va iqtisodiy ma'lumot natijalarini o'zida aks ettiradi.

Iqtisodiy ta'lim - maxsus tayyorlangan iqtisodchi tarbiyachi (pedagog) lar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni iqtisodiy bilim, ko'nikma va iqtisodiy malakalar bilan qurollantiradigan, iqtisodiy bilim, qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning iqtisodiy dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir.

Iqtisodiy ma'lumot - iqtisodiy ta'lim- tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan iqtisodiy bilim, hosil qilingan iqtisodiy ko'nikma va iqtisodiy malakalar hamda shakllangan iqtisodiy dunyoqarashlar majmuidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, iqtisodiy tafakkurga ega bo'lgan har bir inson, birinchidan, kishilar mulkdan mahrumlik holatidan mulkka egalik holatiga

ko'chishlari, mulkni bemalol va samarali tasarruf qila olishlari, ularga boqimandalik kayfiyatidan qutulib, o'z ijtimoiy- iqtisodiy ahvollariga o'zlari mas'ulliklarini anglatish, iqtisodiy hayotda kuchli raqobat kurashi bo'lishini tan olgan holda ana shu raqobat kurashida yutkazib qo'ymaslik, sarosimaga tushmaslik, bunday kurash sharoitida ishlay olish qudratini ko'rsatishdir; ikkinchidan, shaxsiy-mehnatiga, tadbirkorligiga, epchilligi va hushyorligiga bog'liq ekanligini idrok qila olishidir; uchinchidan, o'z mehnati va qobiliyatini qayerga, nimaga, qanchaga sarflanishini, bundan unga qancha foyda - yo, qancha zarar kelishini oldindan hisob - kitob qila olishi kabilar iqtisodiy bilimlarni talab qiladigan omillardan hisoblanadi. Masalaning yana bir jihati shundaki, iqtisodiy bilimlar iqtisodiyotimizni rivojlantirishning kuchli omiliga aylanmokda.

Prezidentimiz I. Karimov Xorazm viloyati xalq deputatlari kengashining uchinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasida quyidagi vazifani ilgari surdi: «Bozor munosabatlariga o'tish davrida talabalarga iqtisodiy bilimlarni, marketing, menejment, biznes sohasida bizning iqtisodiy rivojlanishimizda bu tushunchalarning mohiyati va roli borasida ko'proq bilim berishimiz maqsadga muvofiqdir».

Iqtisodiy ta'lim tamoyillarini o'qitishning mohiyati, iqtisodiy ta'limning tomonlari: mazmuni, usullari, tashkiliy shakllarini belgilab beruvchi dastlabki omildir. Iqtisodiy pedagogikada iqtisodiy ta'lim tamoyillarini iqtisodiy tarbiya bilan uzviy dialektik bog'liqlikda bo'lib, o'quvchilarning o'quv faoliyatlari xususiyatlarini psixologiya va sotsiologiya ma'lumotlariga asoslanib hisobga oladi.

Oliy maktablarda ham, boshqa o'quv yurtlari kabi, iqtisodiy ta'lim didaktik tamoyillar asosida olib boriladi. Iqtisodiy pedagogikada ishlab chiqilgan didaktik tamoyillar oliy maktablarda talabalarning psixofizik xususiyatlariga qarab olib boriladi. Oliy maktablarda o'qitish didaktikasida asosan quyidagi tamoyillar (prinsiplar) qo'llanadi:

- ta'limning tarbiyaviy harakterdaligi;
- faollik va onglilik;
- ilmiylik, tushunarlilik;
- sistemalilik, ko'rgazmalilik;
- o'quvchilarga differensial munosabat;
- nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi. Dialektik tamoyillar iqtisodiy ta'limning maqsadlaridan kelib chiqadi va o'quv materialini o'zlashtirishning muayyan qonunlarini aks ettiradi. Ana shu asosiy qonunlar didaktikada iqtisodiy ta'lim tamoyillari deb ataladi.

## 4- §. O'zbekiston iqtisodiyotida fan -texnikaning rivojlanishi

Davlat siyosatidagi donishmandlik - taraqqiyot va farovonlikni ta'min-lashga qaratilgan sa'y - harakatlar, tadbirlarning aniqligida va izchilli-gida namoyon bo'ladi.

Davlat rahbarining donishmandligi - mamlakat taraqqiyoti, xalqning tinchligini o'zida bosh maqsad qilib olib, uni sobitqadamlik bilan amalga oshirishda ko'zga tashlanadi. Shu nuqtai nazardan O'zbekistonda keyingi o'n yil ichida fan - texnikaning rivojlanishi bevosita yurtboshimiz, iqtisodchi olim I. A. Karimov shaxsi bilan bog'liqdir.

Respublikamizda fan - texnikaning rivojlanishini O‘zbekiston ko‘lga kiritgan siyosiy sohadagi; iqtisodiy sohadagi; ma’naviyat sohasidagi yutuqlari bilan bog‘lasak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ma’lumki, I. Karimov Oliy Majlis XIV sessiyasida qilgan ma’ruzasida mustaqil O‘zbekiston davlatchiligi tajribasini, boshqaruv tizimi va uning huquqiy asoslarini butunlay yangicha fikrlar bilan boyitdi.

Mazkur sessiyada qilingan ma’ruza bosib o‘tilgan o‘n bir yillik yo‘limiz-ning yakuniy xulosasi va to‘plagan tajribalari hamda mavjud imkoniyatlar nuqtai nazaridan yangi yuz yillikdagi taqdirimiz strategiyasi bo‘ldi. O‘zbe -kiston hukumati o‘z oldiga yangi asrdagi faoliyatining asosiy tamoyillari, ichki va tashqi siyosatning bosh yo‘nalishlarini belgilab oldi, ya’ni:

- birinchi yo‘nalish - mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish;
- ikkinchi yo‘nalish - jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish;
- uchinchi yo‘nalish - kadrlar masalasi;
- turtinchi yo‘nalish - xalq turmush darajasining izchil va barqaror yo‘li axolini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish;
- beshinchi yo‘nalish - iktisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlash;
- oltinchi ustuvor yo‘nalish - jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz dahlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta’minlashdan iborat.

Shuni ham unutmaslik kerakki O‘zbekistonda fan - texnikaning rivojlanishi yurtboshimiz belgilab bergan, o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘limizni bel-gilovchi va ta’minlovchi bosh tamoyil negizida bormoqda, jumladan:

- birinchi tamoyil - iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi;
- ikkinchi tamoyil - davlat bosh islohotchi;
- uchinchi tamoyil - qonunlar ustuvorligi;
- to‘rtinchi tamoyil - aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish;
- beshinchi tamoyil - bozor iktisodiyotiga bosqichma - bosqich o‘tish; Mamlakatdagi iqtisodiy rivojlanish jarayonlari, bevosita iqtisodiy sohada erishilgan yutuqlar bilan bog‘liq. Hayotning o‘zi, keyingi yillarda jamiyatimizning barcha sohalarida, eng avvalo, iqtisodiyotda ro‘y bergan o‘z - garishlar, O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti asoslarini shakllantirishga qaratilgan islohotlar umumiy yo‘nalishni amalga oshirishga bo‘lgan bosqichma-bosqich, izchil, puxta o‘ylangan yondashuvning afzalligini ishonchli tarzda is-botlamokda. Shu nuqtai nazardan, o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning me’yoriy - huquqiy bazasi yaratildi.

Ma’muriy-buyruqbozlik tizimi tartibotlari va tuzilmalariga barham berib, institutda qayta ko‘rishlarni amalga oshirish, bir tomondan, mustaqil suveren davlatga muvofiq keladigan, ikkinchi tomondan, iqtisodiyotni tashkil etishning bozor tamoyillariga xos bo‘lgan tuzilmalarini yaratildi.

Tarmoq vazirliklarini tugatish, davlat mulki hissasini davlat tasarru-fidan chiqarish va xususiylashtirish hisobiga keskin kamaytirish, ko‘p uk-ladli iqtisodiyot va uni boshqarish tuzilmalarini yaratish kabilar amalga oshirilmokda.

80 - yillar oxiridagi chqkur iqtisodiy tanazzulni bosib o‘tish, sobiq shurolar

hududidagi birinchi mamlakatlar qatoriga makroiqtisodiy va mo-liyaviy barqarorlikni ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratildi. Jumladan, respublika makroiqtisodiy barqarorlikka birinchi-lardan bo'lib erishdi. 1996 yildayoq yalpi ichki mahsulot 1,7 foiz, 1997 yilda 4,4 foiz, 1998 yilda esa 5,2 foiz ko'paydi. 1991 - 1998 yillar mobaynida aholi yiliga 1,6 - 2,3 foiz darajasida o'sib borgani kuzatildi. O'zbekiston 1990 yil darajasiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishi hajmini oshirishga erishgan yagona mamlakatdir, u 1998 yilda 110,4 foizni tashkil qiladi. Oxirgi uch yil ichida byudjet kamomadi yalpi ichki mahsulotning 3 foizidan oshgani yuq.

Mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini, O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko'lamda qo'shilishini ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiyotni chuqur tarkibiy qayta ko'rish dasturini amalga oshirishga kiri-shildi. 1998 yilda neft va gaz kondensati ishlab chiqarish 1990 yildagiga nisbatan 3 barobar oshdi. Neft eksporti 1992 yildagi 270 ming t. dan 1998 yilda 912 ming t. gacha yoki qariyb uch barobar oshdi. Respublikada paxta ekin larini kamaytirish hisobiga don mustaqilligiga erishildi. 1998 yilda don ishlab chikarish 4,15 mln. t. ni tashqil qildi. 1997-1998 yillarda O'zbekistonda kapital sarmoyalar yiliga 17 foizga o'sib bordi.

Bozor infratuzilmasi asoslari va zamonaviy ikki darajali bank tizimi yaratilib, sug'urta kompaniyalari, tovar- xom ashyo birjalari, fond birjami, ko'chmas mulk birjasi, biznes fond, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkor-lar palatasi kabilar faoliyat olib bormoqda.

Kuchli ijtimoiy siyosat, aholining muhtoj qatlamlariga mo'ljalli ijti-moiy barqarorlikni, fuqarolar osoyishtaligi va millatlararo totuvlikni ta'minlash kabi aziz ishlar amalga oshirilmokda.

XXI asr arafasi va uning boshlang'ich yillarida amalga oshirishimiz zarur bo'lgan ustuvor yo'nalish - bu jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirishdan iborat. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda asosan ta'lim-tarbiya islohotiga e'tiborni qaratmog'imiz lozim.

Ta'lim tizimini yangilashda eng avvalo ta'limning keng demokratlashtirilishi, insonparvarlashtirilishi, shuningdek, ta'lim tizimi taraqqiyet Qonunlariga javob bera oladigan bo'lishini tushunmok kerak. Bu o'z navbatida, shaxsning ijtimoiy faolligi va shaxdamligini oshirish uchun sharoit yaratib, mehnat va ta'lim - tarbiya xizmatlari bozoriga tayyorligini ta'minlaydi.

Respublikada fan, madaniyat, ta'lim, tarbiya sohasidagi yutuklar eng avva-lo, birinchi chaqirik, Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dastur» larining qabul qilinishi bilan ham bog'liqdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh yo'nalishi - davlat, jamiyat va oila oldidagi mas'uliyatni anglab yetadigan, mustaqil fikrlay oladigan, o'z fikr va mulohazalarini himoya qila oladigan ozod shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir. Shu ma'noda, «Ta'lim to'g'risida» gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ni bajarish o'z natijalarini bermoqda.

Umumiy o'rta ta'lim yo'nalishida ta'lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta ko'rish va tubdan yangilash; ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi, malakasi, madaniy va ma'naviy - axloqiy saviyasining sifatiga quyiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi. Ular asosida o'quv

dasturlarining yangi avlodi yaratildi.

Mazkur davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari 1998 - 1999 o'quv yilida 24 ta, shuningdek, hududiy ta'lim boshqaruvi organlarining buyrug'i bilan 322 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida tajriba sinovidan o'tkazildi. 1998 yilda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-6 sinflari uchun 7 nomdagi darsliklarining yangi avlodi yaratildi. Faqatgina 1998 yil davomida mamlakatimiz hududlarida 72945 o'ringa mo'ljallangan 181 maktab ishga tushirildi.

O'rta - maxsus, kasb-hunar ta'lim turi yo'nalishi buyicha 1998 - 1999 o'quv yilida tajriba tarzida tashkil etilgan 14 ta akademik litsey va 20 ta kasb -hunar kollejida 50 ta davlat ta'lim standarti sinovdan o'tkazildi. 1999 yilda tashkil etilgan o'quv muassasalari uchun 104 ta yo'nalish buyicha o'quv rejalari tayyorlandi va ekspertizadan o'tkazildi

1000 dan ziyod fan bo'yicha o'quv dasturlari ishlab chiqilib, 1999-2000 o'quv yilida sinovdan o'tkazildi.

Umuman olganda, islohot yillarida faqatgina o'rta - maxsus, kasb- hunar ta'limi muassasalari uchun bakalavriatning 86 ta yangi muhandislik- pedagogik yo'nalishlari bo'yicha 50 ming nafardan ortiq pedagogik kadrlar tayyorlash rejalashtirilgan.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining qurilishi jiddiy nazorat ostida. Jumladan, 1999 yilda 117 ta o'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim muassasasi ishga tushirildi, 109 tasi qayta tashqil etildi.

2000 yilda yangi 174 ta kollej va 13 ta akademik litsey, bundan tashqari rekonstruksiya qilish orqali 109 ta kasb - hunar kolleji va 7 ta akademik litsey barpo etildi. 2005 yilga kelib akademik litseylar soni 181, kollejlar soni 1611 taga yetkazish imkonini beradi va ushbu ta'lim turi bo'yicha 1,6 million talaba o'qish imkoniyatlarini yaratadi.

Oliy ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavriatning 251 yo'nalishlari bo'yicha yangi o'quv rejalari va dasturlari ishlab chiqilib, joriy etildi. «Ustoz» jamg'armasi orqali 1998 yilda 71 nafar o'qituvchilar chet ellarda o'qib qaytdilar. 980 nafar o'qituvchi jamg'armaning Toshkentdagi, «Axborot resurs» markazida chet el mutaxassislari jalb etilgan holda o'z malakasini oshirdi. Mazkur markazda 1999 yilning olti oyi mobaynida 792 nafar o'qituvchi qayta tayyorgarlikdan o'tdi.

Demak, yuqoridagi qisqa muddat ichida amalga oshirilgan ishlar O'zbekiston Respublikasining kelajagi buyuk bo'lishidan dalolat bermoqda.

## 5 - §. Ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbollari

Ta'lim jarayonining ilmiy, nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini, ya'ni ta'lim berish, bilim berish, o'qitish nazariyasi hamda pedagogikaning mustaqil bo'lishi bilan didaktika shug'ullanadi. Ma'lumki, ta'limning asosiy maqsadi va vazifasi - shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson bilish faoliyatinint bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi. Ya'ni: ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdan iborat. Shu ma'noda ta'lim jarayoni ta'lim mazmuni negizida tashkil etiladi.

Ta'limning asosiy mazmunini uning vazifalari oydinlashtiradi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi. Ular ilmiy va texnikaviy bilimlar hamda ular bilan bog'liq bo'lgan malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy va madaniy qadriyatlarda, hayotning ma'nosi, jamiyatda insonning tutgan o'rni ta'lim- tarbiyasi, odob- axloqi haqidagi hikmatli fikrlar bor. Ular bugungi ta'lim taraqqiyoti va milliy maktab yaratish borasida yoshlarimizda insonparvarlik, poklik, imon - e'tiqod, muruvvat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, millatlararo do'stlik munosabatlari, qahramonlik, mardlik kabi tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Yangi demokratik jamiyat ko'rish, ta'limning mazmunini belgilashda jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib va quyidagi:

-ilmiy bilimlarning yetakchi roli to'g'risidagi qoida, insoniyatning madaniy-ma'rifiy merosi boyliklarini, umuminsoniy qadriyatlarni egallab olish haqidagi «Milliy dastur» ko'rsatmalariga;

-tarbiyalanuvchi shaxsni barkamol avlod qilib, rivojlantirish, imon-e'tiqodini, ilmiy dunyoqarashini tarkib toptirish, ilmiy hayot bilan yangi demokratik jamiyat qurilishi tajribasining bog'liqligi haqidagi qoidida;

-ta'limning bir maqsadga qaratilganligi hamda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillariga va didaktik tamoyillarga muvofiqligiga amal qilinadi.

Shu nuqtai nazardan ta'lim mazmunining tuzilishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1)Ta'lim mazmunining davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yo'nalishlariga bog'liqlik tamoyili.

2) Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tamoyili.

3) Fanlararo kompleks aloqalar tamoyili.

4) Kasblarga yo'naltirish tamoyili.

5)Ta'lim mazmunini tanlashda ustuvor va o'zgaruvchan qismlarga bo'lib tanlash tamoyili.

6)Ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish tamoyili.

Yangi demokratik jamiyat ko'rayotgan respublikamizda ta'limning mazmuni quyidagi yo'llar bilan takomillashtirishni nazarda tutadi:

-fan va tajribadagi eng yangi muvaffaqiyatlarni aks ettirish;

- ikkinchi darajali va ortiqcha murakkablashtirilgan materialdan qutulish;

- o'rganilayotgan fanlar ro'yxatini va materiallar hajmini aniqlash hamda o'quvchi - yoshlar, albatta, o'zlashtirib olishi kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalarning qulay hajmini belgilash;

- o'quv fanlariga oid asosiy tushunchalarni va yetakchi g'oyalarni juda ham aniq bayon qilish;

-o'quvchilarning pedagogik texnologiyalar: kompyuter, elektron pochta, boshqa bilimlar bilan kurollantirish va shu texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari hosil qilish.

O'quvchilar hozirgi sharoitda ijtimoiy foydali mehnat jarayoniga tayyor bo'lmoqlari kerak. Maktabdanoq ularning ishlab chiqarishning barcha jabhalari tamoyillaridan ma'lum darajada voqif etmoq lozim.

Ta'lim mazmunining markaziy komponenti o'zida g'oyalarning eng makbul majmuasini eng umuminsoniy qadriyalarni mujassamlashtirishi zarur, ya'ni taniqli ruxshunos olim L. S. Vigotskiy jamiyat taraqqiyotidan ilgarilab ketgan ta'limgina samaradorli bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan edi.

O'zbek xalqining o'ziga xosligini, uning etnomadaniy, etnopsixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda umumiy madaniyatni shakllantirish lozim. Omilkorlik va ijodiy talabni shakllantirish. Xalq pedagogikasi va by jahon pedagogikasi va vositalari hamda boyliklaridan foydalangan holda o'quvchilar tafakkurini erkinlikka chaqirish, uni takrorlashdan yangisini yaratishga o'rgatish kerak. O'quvchilarga *ommaviy pedagogik* fikrlashni o'rgatish, ibtidoiy pedagogik bilimlar berish lozim.

Demak, ta'lim mazmuni kurilishning bosh maqsadi - bolalar ko'z ungida dunyo ilmiy manzarasini ochib borish, uning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularni hayotga tayyorlab borishdan iboratdir. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

1. Maktabgacha ta'lim.
2. Umumiy urta ta'lim.
3. Urta maxsus, kasb - xunar ta'limi.
4. Oliy ta'lim.
5. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.
6. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.
7. Maktabdan tashqari ta'lim.

Ta'lim mazmuni ham bir majmua bo'lib, ta'lim jarayonidagi o'zgacha elementlar bilan bilvosita bog'liq: o'quv - dasturiy hujjatlar, o'quv rejasi, darslik, o'quv qo'llanmalari shaklida mavjud bo'ladi. O'quv - dastur hujjatrini tuzish, belgilash o'quv tarbiya jarayonini pedagogika va uslubiy nazariya bilan bog'laydigan element hisoblanadi. Ta'lim mazmunini tanlash hozirgi bosqichma- bosqich o'tishni tashkil qilish sharoitida aloxida ahamiyatga ega, chunki bir yerda o'quv dastur hujjatlari har kaysi yo'nalishga (bakalavriat, magistratura, litsey- kollej) alohida - alohida tuziladi.

O'quv- rejasi- muayyan o'quv yurtida o'rganilayotgan o'quv predmetlari aytib o'tiladigan, ularni o'quv yillari bo'yicha o'tish izchillari hamda bir o'quv yiliga yoki har bir haftaga ajratiladigan soatlar soni ko'rsatiladigan davlat hujjati o'quv rejasi deb aytiladi.

O'quv predmeti - o'ziga tegishli fan asoslarini mujassamlashtirgan bo'ladi. Fan - asosiy tushunchalar sistemasini, ulardan kelib chiqadigan asosiy koidalar, natijalarni ifodalashning so'z va simvolik vositalarini o'z ichiga oladi. O'quv predmeti tegishli fandan asosiy koidalarning ifodalanishi bilan farq qiladi. Unda natija *xulosalari unchalik* berilmagan, tushunarlilikning didaktik tamoili va shug'ullanuvchilarning yoshlarini hisobga olish zarurligi bilan belgilanadigan boshqa farqlari ham bor. Biroq bu fan ma'lumotlarini qisqartirilgan yoki soddalashtirilgan holda berish emas, balki ularni o'quv jarayoniga muvofiq ravishda pedagogik jihatdan qayta ishlashdir.

O'quv dasturi - xuddi o'quv rejasi kabi davlat hujjati bo'lib, unda har bir o'quv predmetining mazmuni ochib beriladi va o'quv yiliga o'zlashtirilib olish uchun zarur

bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar xajmi ko'rsatiladi.

Dasturlar ma'lum bir turdagi hamma maktablar uchun yagona, uning to'la xajmda bajarilishi majburiy. Bu eng muhim qoida bo'lib, bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tganda ma'lumot olishni to'xtamaslikka imkon beradi.

Dastur tushuntirish xati, bo'lim va mavzular bo'yicha taxminiy soatlar hisobi, dastur materiallari va tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Maxsus ravishda o'quvchilar uchun yozilgan kitob, darslik deb ataladi. Unda o'quv dasturining barcha materiallari batafsil va izchillik bilan ochib beriladi. Darslikning harkterli xususiyati - bu uning mazmuni dasturga mos kelishidir. Material bo'limlar bo'yicha taksimlanadi. Har bir mavzu alohida bobni tashkil etadi. Unga kiritilgan misollar esa paragraf shaklida beriladi. Shu bilan birga har bir alohida qism mustaqil sarlavhalarga ega bo'lib, bu o'rganilayotgan mavzuning asosiy qismlarini to'g'ri tasavvur etishga yordam beradi.

Darsliklarda fikrlar lunda qilib ifodalanishi, material esa tushunish uchun oson formada bayon qilinishi kerak.

Demak, yuqoridagilarga misollar keltirish mumkin; ya'ni akademik litseylar uchun quyidagi o'quv rejalari tavsiya etilgan. Unga ko'ra jami 25 fan bo'yicha soatlar semestrlarga taqsimlanib ko'rsatilgan. Birgina misol, «Iqtisodiyot nazariyasi asoslari» ga jami 160 soat ajratilgan bo'lib, bu kurs asosan akademik litseylarning 2- kursidan o'tiladi. Har bir semestr uchun soatlar 40 soatdan berilgan.

Ma'lumki, birinchi chaqirik Oliy Majlisning IX sessiyasida (1997 yil 29 avgust) «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingan edi. Shu nuqtai nazardan O'zbekistondagi ta'lim tizimini ri-vojlantirish istiqbollari, shu yaratilgan huquqiy hujjatlarga borib taqa-ladi. Ya'ni O'zbekistonda ta'lim tizimining istiqboli qonun va dasturni qanchalik amalga oshirilishi darajasiga bog'liq bo'ladi.

Konunning 9- moddasida ta'lim tizimi haqida so'z boradi, ya'ni unda: «O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir». Uzluksiz ta'lim mavjud ekan qonunning 10 moddasida uning turlari haqida so'z bora di, ya'ni maktabdagi ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta - maxsus, kasb - hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni kayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim.

Yuqoridagi ta'lim tizimini, ya'ni uzluksiz ta'limni rivojlantirish istiqbollarini belgilashda ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish, ij-timoiylashtirish va demokratiyalashtirish alohida ahamiyatga ega.

Ta'limni insonparvarlashtirishning asosiy yo'nalishlari ta'lim oluv-chilarning qobiliyat va iste'dodlarini har tomonlama ochish, milliy va umumbashariy g'oyalar hamda qadriyatlarni singdirish, shaxs, jamiyat va atrof muhit munosabatlarini uyg'unlashtirish, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqa sermazmun an'ana: «Ustoz - shogird» munosabatlari doirasida bo'lishiga erishishdan iborat.

Ta'limni ijtimoiylashtirish ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni, yuksak darajadagi ma'naviyat, madaniyat va ijobiy fikrlashni, shaxsni tarbiyalash va har tomonlama kamol toptirishga ustuvorlik bergan holda ta'lim va kasb dasturlarining mazmunini qayta ko'rib chiqishini taqozo etadi. «Mantiq», «nutq madaniyati» va

«notiqlik san'ati», «jahon san'ati tarixi», «jahon dinlari tarixi»dan iborat maxsus kurslarni joriy etish, ta'lim jarayonini ijtimoiylashtirish doirasidagi yondashuvlardan biridir.

Ta'limni demokratiyalashtirish jarayoni ta'lim muassasalarida o'zini o'zi boshqaruv shakliga o'tishni faollashtirishni, o'quv yurtlarining ta'lim tarbiya uslublarini tanlashda mustaqillikni kengaytirishni taqozo etadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ushbu vazifalar o'z o'rnini topgan. Bu yo'nalishda jamoat tashkilotlari, ayniqsa yoshlar va bolalar tarbiyasi bilan bog'liq muassasalarning roli kuchaytirilib borilishi talab qilinadi.

Maktablar, litseylar, kollejlar va oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonini tashkil etishga ilg'or o'quv dasturlarini, marosimlar, bayram tadbirlarini, urf - odatlarni, pedagoglar va o'quvchilarning «pedagogik hamkorlik»ka asoslangan yangi munosabatlarini singdirib borish lozim bo'ladi.

## 6 - bob. TA'LIMNING TASHKILIY SHAKLLARI

### 1-§. Ta'lim shakllari haqida umumiy tushuncha

Ma'ruza - bilim berishning shunday shakliki, unda pedagog (o'qituvchi) tomonidan o'rganilayotgan bilimlar, malakalar, ko'nikmalar talabalarga yoppasiga bayon etiladi. Ma'ruzalar bayon etilish joyiga qarab har xil bo'lishi mumkin, ya'ni tegishli fanlarga oid (iqtisod, marketing, menejment, tadbirkorlik, huquq, iqtisodiy informatika va hokazo), ijtimoiy harakterga ega ma'ruzalar, ilmiy pedagogik markazlar, badiiy ijodiyotga oid ma'ruzalar (adabiyot, san'at), diniy dunyoviy ma'ruzalar va boshqalar. Biz uchun hozirda iqtisodiyot fanlariga oid ma'ruzalar harakterlidir.

Ma'ruza bayon etilish jarayonida unga quyidagi talablar qo'yiladi:
- berilayotgan materiallar ilmiy harakterga ega bo'lishi;
- ma'ruza sistemali (tizimli) bo'lishi;
- materiallar, ma'lumotlar talabalar kuchiga mos va xos bo'lishi;
- ma'ruza siyosiy jihatdan talabga javob berishi;
- ma'ruzada nazariy masalalar amaliyot bilan bevosita bog'langan bo'lishi;
- ma'ruza mavzuga oid Respublikadagi ijtimoiy - iqtisodiy voqea, hodisalarning eng so'nggi statistik ma'lumotlari bilan boyitilgan bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonunida «Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi» deyilgan. Shu bilan birga oliy ta'lim talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga ham o'rgatadi. Agar o'rta maktabning asosiy vazifasi o'quvchilarni bilim, malaka va iqtidor, shu bilan birga kasbga yunaltirish bilan shug'ullansa, oliy maktab talabalarga ilmiy bilim ilmiy malaka, iqtidor berib, mutaxassis shaxsni tayyorlaydi. Shu bilan birga ma'lum fan bo'yicha ilmiy - tadqiqotchini ham tarbiyalaydi. Shu o'rinda I. Karimov «Fanga iste'dodli yoshlarni kirib kelishini ta'minlash uchun kompleks tadbirlar turkumini amalga oshirish zarur. Bu o'rinda oliy maktabning, hatto umumiy maktab ta'lim maktablarining faoliyatlarini tubdan qayta ko'rish kerak» - deydi.

Shu nuqtai nazardan oliy maktablarda bilimlarni hozirgi zamon darajasida berib borish alohida ahamiyatga ega. Hozirda oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat, ya'ni

-, davriat va magistratura. Mana shu boskichlarni amalga oshirishda, aniqrog'i, oliy ta'lumotli yetuk mutaxassis tayyorlashda iqtisodiy bilimlarni berishning tashkiliy shakllari qo'llaniladi.

Oliy maktablarda o'quv ishlari va bilim berishning tashkiliy shakllari «Ta'lim to'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga asosan olib boriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda barcha fanlar qatori iqtisodiy ta'lim pedagogikasida ham ta'limning quyidagi shakllari mavjud:

Ma'ruza.

Amaliy mashg'ulot.

Seminar mashg'ulot.

Kurs ishi tayyorlash.

Amaliyot

Diplom ishi. Ma'ruza - o'quv jarayonining ilg'or usullaridan biri bo'lib, dastlab o'rta asrlarda biron bir kitobni o'qish yoki uni izohlash yo'li bilan namoyon bo'lgan. Jamiyat rivojlanishi mobaynida og'zaki tushuntirishning bu usuli XVIII asrda lotin tilida amalga oshirilgan. XUSH asr o'rtalariga kelib ma'ruzalar rus tilida o'qiy boshlandi. Uning ilg'or namoyandalaridan biri M. V. Lomonosovdir.

Tarixan qaraganda bozor iqtisodiyotining ikki turi bor. Birinchisi asov yoki yovvoyi bozor iktisodiyoti. Bunday iqtisod asl namunasi XVIII-XIX asrlarda bo'lgan. Uning quyidagi belgilari mavjud:

- yakka egalikdagi xususiy mulkning hukmron bo'lishi, mulkning ozchilik qo'lida to'planishi;
- iqtisodiyotning stixiyali o'sishi, ya'ni iktisodiyot bebosh va tartibsiz bo'lishi;
- noma'lum bozor uchun ko'rkurona tovar ishlab chiqarish. Tovar sotilishi va sotilmasligining noma'lumligi;
- raqobat kurashi qonun qoidasiz, terror, zo'ravonsizlik asosida bo'lishi;
- tadbirkorlar o'rtasida sherikchilik aloqalarining tasodifligi;
- davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi;
- tartibsizlik natijasida kuchli iqtisodiy tangliklar kelib chiqishi, iqtisodiy to'lovlarning yuz berishi.
- kishilarning 2 tabaqa: boy va kambag'alga aylanib qolishi, ular o'rtasidagi sinfiy kurashlar.

Ma'lum vaktlardan so'ng bu iqtisodiyot rivojlanib, takomillashib madaniyatlashgan bozor iqtisodiyoti tarkib topadi. Uning asosiy belgilari yovvoyi iqtisodiyotda amal qilgan belgilarning aksidir.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyotiga o'tishning 3 shakli mavjud.

1. G'arb- Yevropa mamlakatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlar yo'li yoki klassik yo'l.
2. Mustamlakachilikdan ozod bo'lib, mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tib rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerika mamlakatlari yuli.
3. Sobiq sotsialistik mamlakatlar yuli.

Demak, bozor iktisodiyotiga o'tishning uch yuli mavjud ekan. Bozor islohotlari - bozor iqtisodiyotini yaratishga qaratilgan, davlat tomonidan lekin xalq ishtirokida amalga oshiriladigan iqtisodiy chora - tadbirlar tizimidir. Islohotlarning asosiy yo'nalishlari. mulkchilikni isloh kipit, agrar (qishloq xo'jaligi), moliya- kredit

tashqi iqtisodiy aloqalar hamda ijtimoiy (sotsial) islohotlaridan iborat.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning dastlabki shakli - natural xo'jalikdir. Bu xo'jalik ichki ehtiyojlarni qondirish uchun, xo'jalik a'zolarining iste'mollari uchu yo'naltirilgan ijtimoiy xo'jaliklarning ilk shaklidir. Asta-sekin ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi, mehnat taqsimotining paydo bo'lishi, mehnat unumdorligining oshishi natijasida tovar xo'jaligi paydo bo'ldi.

Mehnat taqsimoti - yagona mehnatning mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan mehn turlariga ajralib borishi, mehnat turlarining to'xtovsiz ravishda yangidan payd bo'lishidir.

Mehnat unumdorligi-insonning vaqt birligida ma'lum miqdorda mahsulot va xizmatlarni yarata olishidir.

Tovar eng avvalo o'z iste'moli uchun emas, balki boshqa mahsulotlarga bozord pul vositasida ayirboshlashni yaratish mehnat mahsulidir. Yoki tovar yaratishga mahsulot va xizmatlarning bozorda namoyon bo'lishidir.

Tovar ishlab chiqaruvchilar yakka (individual) va jamoa ishlab chiqaruvchilardan iborat bo'ladi. Tovarda gavdalangan mehnat uning qiymatini vujudga keltiradi.

Qiymat haqida ran ketganda ko'p iqtisodchilar nazariyalari har xilligini ko'rish mumkin. Ingliz iqtisodchisi D. Makmod fikricha «talab va taklif oralig'ida yagona narx dastagi mavjud qiymat deb ataladi».

Avstriya iqtisodchisi Ye. Bem - Baverk quyidagicha fikrni beradi «buyumning narxi, bu buyumning foydaliligi bilan belgilanishi kerak, ya'ni tovarning qiymati bevosita buyumning nafliligidan kelib chiqadi».

Tovar qiymati manbai mehnat. Buni birinchi bo'lib ingliz iqtisodchisi V. Petti asoslagan. Uning fikricha «Qiymatning hajmi bevosita unga sarflangan mehnatning miqdori bilan belgilanadi».

Shu nuqtai nazardan tovarning ikki xususiyati mavjud: bir tomondan, tovar sotish uchun yaratilgan mehnat mahsuli, ikkinchi tomondan, biron bir ehtiyojni (kiyim - kechak, poyafzal, non, tuz, uy- joy) qondiradigan narsadir. Iqtisodiyot ilmida birinchi xususiyat qiymat, ikkinchi xususiyat iste'mol qiymati deb ataladi. Demak, qiymat va iste'mol qiymati tovarning ikki xususiyatigina yuzaga chiqaradi.



1-chizma. Qiymat turi

Bozor iqtisodiyotining yutuqlari:

Ishlab chiqarish resurslari to'g'ri taqsimlanib, qisqa axborot asosida ishlab chiqarish samarali tashkil etiladi. Ishlab chiqaruvchilar baho bilan harakatni bilgan

...da samarali ish olib boradilar. Talabga ko'ra ishlab chiqarish tezda o'zgarib ...adi.

Fan - texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishga tezda joriy etilib, iste'molchi va tadbirkorlar ishlab chiqarishda erkin harakat qiladilar. Barcha ishlab chiqaruvchilar mahsulot sifatini oshirishga harakat qilganlari holda raqo-bat muhim o'rin tutib daromadlar chegaralanmaydi.

Kamchiliklari:

Atrof- muhitni himoya qilishni iqtisodiy mexanizmi yo'q. Fan - texnika yutuqlarini tatbiq qilishda, uning oqibatlari inobatga olinmay, mehnat qilish, daromad qilishga kafolat berilmaydi. Bozor iqtisodi zaruriy mah-sulot ishlab chiqarish emas, balki puli borning talabini qondirishga harakat qiladi. Har kim pul topish uchun, o'z imkoniyatlarini ishga solishga tayyor.

Seminar - talabalarning ma'ruzada olgan ilmiy - nazariy bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish maqsadida tashkil etilgan ta'lim shakllaridan biridir. Ma'lumki, seminar va ma'ruza mashg'ulotlari davlat andozalarida belgilangan, oliy o'quv yurtlari o'quv rejalarida qayd etilgan rejalarga asosan tashkil etiladi. Shu nuqtai nazardan seminar mashg'ulotlari ma'lum bo'limi yoki biror mavzuning ma'ruza bayoni yakunlangandan so'ng o'tkaziladi. Seminar mashg'ulotiga tayyorlanish talabalardan katta mas'uliyatni talab etadi. Jumladan, talabalar seminar darslariga tayyorgarligi davomida mustaqil o'qishlari, kerakli adabiyotlar bilan ishlashlari, ro'znoma va jurnallardan foydalana bilishlari va boshqa mavzuga oid manbalarni izlab topishlari, ularni o'zlashtirishlari kerak bo'ladi. Seminar mashg'ulotlariga ham, ma'lum darajada ma'ruzaga qo'yiladigan talablar qo'yiladi. Mustaqil ish - bu talaba uchun u o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni bajarish tushunilib, uning mazmunini, ijtimoiy - iqtisodiy mohiyatini yorita bilishiga aytiladi.

Mustaqil ishlar turkumiga quyidagi: nazoratlarga tayyorlanish, referatlar yozish, kurs ishlarini tayyorlash, diplom loyihalariga tayyorgarlik, oliy o'quv yurtlarida o'tkaziladigan seminarlarga rahbarlar ishtirokida tayyorgarlik kabilarni kiritish mumkin. Talaba mustaqil ishlarni bajaripsh oliy maktab pedagogikasining muhim vazifalaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki talaba mustaqil ish tayyorlash jarayoniga ijodiy yondoshadi. Adabiyot, jurnallardan, gazetalardan, ommaviy axborot vositalaridan keng foy-dalanishni o'rganib, mustaqil ish sifatida berilgan topshiriqning ijtimoiy- iqtisodiy ahamiyati tub ildizini ochib berishga intiladi va bu inti-lish talaba shaxsida ilmiy ishlarga bo'lgan kizikishni orttiradi. Kelajakda ilmiy xodim, olim darajasiga chiqish imkoniyatlariga zamin yaratadi.

Amaliy mashg'ulot - o'quv ishlarining mantiqiy davomi bo'lib, bu termin talabalarning mustaqil auditoriya ishlarining umumiy tushunchasi hisobla-nadi. Amaliy mashg'ulotlarda mashqlar ishlash, laboratoriya ishlarini o'tkazish, har xil ilmiy tajribalarni utkazish kabilar amalga oshiriladi. Bilim berishning bu shaklida ma'ruzalarda olingan nazariy bilimlar bevosita amaliyot bilan bog'lanadi va o'quvchilar tomonidan tajribalar amalga oshiriladi.

Kurs ishi - oliy maktab o'quv rejasida qayd qilingan ta'lim berishning shakllaridan biri. Kurs ishlari biror fannilg nazariy kursi nihoyalangandan so'ng amalga oshiriladi. Ta'lim berishning bu turi talabalarning ilm olish davrida olgan bilimlarini yanada mustahkamlash, nazariy bilimlarini qanchalik amaliyot bilan bog'lay olishi negizida

paydo bo'ladi. Kurs ishi tayyorlash jarayonini bevosita mustaqil ishlar tarkibiga kiritish mumkin. Kurs ishi ham o'quv rejasida kiritilgan bo'ladi.

Amaliyot - ta'lim shakllaridan yana biri bo'lib, unda talaba oliy o'quv yurtida olgan nazariy bilimlarini bevosita amaliyotga tadbik etadi. Bu jarayonda amaliyotchiga albatta usha amaliyot utilayotgan paytdan va oliy o'quv yur - tidan ilmiy raxbarlar tayyorlanadi. Amaliyot, talaba uchun kelajak ish faoliyatida ilk qadamlar hisoblanadi. Chunki, mana shu amaliyot davomida amaliyotchi, ya'ni talaba oliy o'quv yurtida olgan bilimlarini qanchalik amaliyotga qo'llay olishini o'z nuqtai nazaridan ham baholaydi va bu orqali unda kelajagini tasavvur qilishga imkon yaratadi. Shuni ham aytish kerakki, amaliyot ham ma'lum hafta davomida belgilangan bo'lib, oliy o'quv yurti o'quv rejasida kiritilgan.

Diplom ishi - bu oliy o'quv yurtida olgan bilimlarning natijasi, ilmiy izlanishlarning boshlang'ich ko'rinishi bo'lib, ta'lim berishning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi. Diplom ishi bir mutaxassislikning talaba tomonidan tamomlanayotgan, shu mutaxassislik rahbari bilan birga tayyorlanadigan va o'quv yurti o'quv rejasida qayd qilingan ta'lim berish shakllaridan hisoblanadi.

Umuman olganda barcha oliy maktablarda ta'lim berishning tashkiliy shakllari amal qilar ekan, ularga bir qator talablar qo'yiladi.

- berilayotgan materiallar ilmiy bo'lishi bilan birga ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar mashg'ulotlari sistemali tashkil etilishi lozim;

- berilayotan ma'lumotlar, materiallar talabalar yoshiga mos bo'lib, siyosiy jihatdan to'g'ri va nazariy masalalar amaliyot bilan bog'liq bo'lishi kerak;

- ma'lumotlarda eng so'nggi materiallar, bilim berishning tashkiliy shakllarini amalga oshirish jarayonida esa I.Karimov asarlaridan, ommaviy axborot vositalari materiallaridan unumli foydalanganlik darajas talabga javob berishi lozim.

Yuqoridagi qayb qilingan talablar asosida iqtisodiy pedagogika kursida ilmiy ishla (kurs ishi, diplom ishlari, dissertatsiya) quyidagilardan kelib chiqib amalga oshirilish mumkin:

1) iqtisodiyot bilan pedagogikaning uzviy bog'liqligi;

2) tajriba muassasalarida iqtisodiy muammolarni o'qitishning nazariy asoslarin yaratish;

3) iqtisodiy munosabatlar tizimini o'qitishning shakllarini asoslash va tahlil qilish iqtisodiy munosabatlar tizimi vositalari va usullarini belgilash;

4) ilgor iqtisodchi, ilg'or pedagoglarning ish tajribalarini umumlashtirish v o'zlashtirish;

5) jarayonlarny o'qitishda targibot - tashvikot ishlarini olib borish. Yukoridag kursatkichlarni amalga oshirilishini ta'minlagan x,olda iktisodiy pedagogika ilmiy ishlarni rejalashtirishda quyidagilarga e'ti-bor berilish zarurligi nazarda tutiladi:

1. Iqtisodiy pedagogika fanining pred meti, maqsad, vazifalarin aniklash.

2. Iqtisodiy pedagogikaning kategoriyalarini tushuntirib, uning konu-niyatlarin taxlil qilib o'rganish.

3. Iqtisodchi-pedagog shaxsi, uning kasbiy va ahloqiy sifatlari tahlili.

4. Iqtisodiy pedagogikani o'qitish shakllarini o'rganish va tahlil qilish.

5. Iqtisodiy pedagogika fanining ilmiy tekshirish metodi va metodo-logiyasini o'rganish va taxlil qilish.

6. Iqtisodiy pedagogikani bilimlarini reyting yo'li bilan baholash va tahlil qilish.

7. Iqtisodiy pedagogikani tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash va tahlil qilish.

## 2-§. Talabalar bilimlii oshirishning reyting usullari

Mutaxassislar tayyorlashda talabalar bilim, malaka va iktidorlarining shakllanish jarayonini nazorat qilish muhimdir. To'g'ri shakl etilgan nazariy talablar, o'qiyotgan bilimlarini yanada chuqurlashtirish va eng asosiysi ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun turli vositalarni tanlash imkonini beradi.

O'quv - tarbiya jarayonida bilim, iqtidor va ko'nikmalar shakllanganligini nazorat qilish muhim o'rin egallaydi. Xususan, nazorat quyidagi funksiyaga ega.

Nazoratning diagnostik funksiyasi. Nazorat natijasida bilim, iktidor va ko'nikmalarning shakllanganlik darajasi aniklanadi.

Nazoratning talabalarda bilim olishga ishtiyoqni o'stirish funksiyasi.

Nazorat jarayonida talabalarning shaxsiy hislatlari shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

4. Taxsil funksiyasi.

5. Nazoratning tarbiyaviy va baholash funksiyasi.

6. Nazoratni talabalarda bilimga qiziqish uyg'otish, jonli fikrlashga o'rgatuvchilik funksiyasi.

Nazorat joriy, oraliq, yakuniy kabi 3 ta turga ega. Nazorat turli testlar orqali amalga oshiriladi. Pedagog olimlari I. Y. Tursunov va U. N. Nisho-naliyevlarning ma'lumotlariga qaraganda testlar orqali quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

talabalar nazariy va amaliy bilimlarining darajasini ob'ektiv sharoitida aniqlash imkonini beradi.

bir vaqtning o'zida bir guruh yoki ko'p sonli talabalar bilimini nazorat qilish mumkin;

barcha talabalarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib hammasiga bir xil sharoit yaratiladi;

test natijalarini o'qituvchi tomonidan tezlikda tekshirish mumkin;

turli guruh, talabalari bilimini solishtirish qo'llanilayotgan metalni samaradorligini aniqlash mumkin;

ta'lim jarayonining kamchiliklarini aniqlash mumkin.

Test atamasi inglizcha «test» - sinov, tekshirish, tadqiqot ma'nolarini bildirib, o'qiyotgan shaxsning psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlarini, shuningdek, intellektual rivoji, qobiliyati va malakasini tekshirishda qo'llanadigan standart mashqlar demakdir.

1993 yilda oliy ta'lim tizimidagi islohotlarga keng e'tibor berildi. Bu masala O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining aloxida yig'ilishida tahlil etildi. Majlisni boshqargan O'zbekiston Prezidenti kadrlar

saviyasi haqida, oliy o'quv yurtlarining ahvoli va ularning ishlab chiqarish korxonalari bilan munosabatlari haqida fikr bildirarkan, test tizimining afzalliklari haqida shunday degandi:

Ug'il- qizlarimizni o'qishga qabul qilishda test usullarining qo'yilgani ijobiy qadam bo'ldi. Bu qing'ir ishlar payini qirqadi, mish - mishlarga chek qo'yadi, iste'dodli yoshlarni tanlab olish imkonini beradi. Binobarin bu ishni yanada takomillashtirib borish kerak.

Vaqt o'tgani sayin test tizimi takomillashib bormoqda va eng asosiysi unga ishonch ortmokda.

Ta'lim tizimida adolat o'rnatildi. O'zbekiston Prezidentining bobokalonimiz Amir Temurning «Kuch- adolatdadir», degan o'gitiga mos yo'l tutganligi bois oddiy xalq ko'nglida bu kunlardan yorqin xotiralar qoldi. I Pedagogik uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida didaktik testlar quyidagi 2 guruhga ajratiladi:

a) nazariy bilimlarni nazorat qiluvchi, malaka va qobiliyatlarni tekshiruvchi o'zlashtirish testlari;

b) real, o'quv imkoniyatlari bo'yicha (Yu.Babanskiy) diagnostika testlar hamda umumiy va maxsus (masalan, mikro yoki makroiktisodiyot fani bo'yicha o'qitish testlari.

Testlar tipologiyasi asosida topshiriqlarni tanlash, ularning tuzilishida o'zaro aloqadorlik va ta'riflari quyidagi omillarga bog'liqdir. 1. Testlarning fanlararo qo'llanish sohasi.

- oraliq nazorat testlarida mavzular, boblar bo'yicha bilim va o'zlashtirish elementlarini tekshirish;

- ko'p mavzular bo'yicha fanlarning bir - biriga bog'liqligini hisobga olgan yoki olmagan holda bilim va o'zlashtirishning chegaraviy nazorati;

- kurs buyicha bilimlarni nazorat qilish (fan testi asosida fanlararo turkum testlarni ham yaratish mumkin).

Bu hollarning har birida fan topshiriqlarining o'rni haqidagi savollar har xil qo'yiladi, marketing, moliya, menejment, soliqlar haqidagi integrativ bilimlar va h. k.

2. Normativ test tuzilishining umumiy yo'nalish bo'yicha maqsadi yoki kriterial harakterdagi testlaridan farqi shundaki, normativ testlarda yig'ilgan ballar hisob natijalariga ko'ra bir guruhni boshqa guruh bilan guruh a'zolarini esa bir - biri bilan solishtirish mumkin.

Kriterial testlarda esa har bir o'quvchining qandaydir o'quv yoki mutaxassislikka oid topshiriklarni yechishi uchun zarur bo'ladigan bilim va o'zlashtirish qobiliyatlari ochib beriladi. Ya'ni kriterial testlar va unga mos topshiriqlar o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari aniq fan sohalari bo'yicha o'qitish maqsadining minimal talablariga qay darajada erishgani yoki erishmaganligi haqidagi savollar javob beradi.

Normativ testlarda asosan topshirikni «echdi» yoki «echmadi» deb belgilansa, kriterial testlarda esa topshiriqni qaysidir yo'l bilan yechgan o'quvchilarni murakkab kurilmali ishlarga qo'yish mumkinligi, ularning murakkab ko'rilmali ishlarga qo'yish mumkinligi, ularning murakkab dasturlarda o'qishni davom ettira olishligi hisobga olinishi kerak.

Z.Testlarning didaktik - psixologik yo'nalishi qanday test ishlab chiqilayotganligini yoki adaptatsiyadan o'tayotgan testni uning muallifi qanday

harakterlashini aniqlaydi:

nazariy bilimlarni nazorat qilish uchun o'zlashtirish testlari;

berilgan fan (o'quv va mutaxassislik) bo'yicha bilim va malakasini nazorat qilish testlari;

• o'qitish testlari (ma'lum fan yoki uning sikli bo'yicha o'quv imkoniyatlarining diagnostikasi);

4. Nazorat bosqichlari bo'yicha yo'nalish:

Kirish nazorati - (oliy o'quv yurtiga kirishdagi yoki kursni, fan iqlimini va o'qitish bosqichining boshlanishidagi nazorat):

kundalik (joriy) nazorat- har kuni amalga oshiriladigan yoki o'quv jarayoni mavzulari bo'yicha;

chegaraviy nazorat - ma'lum kurs alohida bo'limining tugashi munosabati bilan o'tkaziladi;

yakuniy nazorat ma'lum kursning tugashi munosabati bilan o'tkaziladi (yoki fan sikli, o'qitish bosqichi hamda o'quv yurtini tugatish munosabati bilan)

- Testlashtirishning diagnostik darajasi, berilgan testdan ko'zlangan maqsad:

simptomatik diagnostikaga ya'ni bilim va o'zlashtirishning «yuqori qatlamlariga» qaratilishi (ya'ni ma'lum qonuniyat yoki formulalarni bilish bilmasligi yoki tanish - notanishligi va boshqalar);

etiologik diagnostikaga, tekshiruv aloqa sababi (nima uchun aynan o'sha bilimlarni bilmasligi va buning qay darajada boshqa bilimlarni bilishga bog'liqligi) ga qaratilishi;

tipologik diagnostikada esa o'quvchining o'tilayotgan dars va bilimlarni o'zlashtirish va uddalay olishida qanday pozitiv g'oyalarni kuchaytirish kerakligiga qaratilgan bo'ladi.

6. Sinaluvchining testni bajarish faolligini oshirishda esa yozma va og'zaki testlarga mos ravishda yozma yoki og'zaki javoblarni qo'llash. Masalan, harakat testlarida ayniqsa kompyuterlarda klavishlarni bosishdan tortib, qism programmalarini chiqarishgacha) hamda hisoblash ishlarini o'tkazish va grafiklarni chizish, loyihalashtirish va hokazolarda, harakat testlarini o'qish yoki ishlash ko'rilmalarida, mashq (trenajyorlarda) testlarini, ayniqsa mutaxassislik bo'yicha o'qitish tizimlariga kiritish mumkin.

7. Testning gomogenlik darajasi (bir jinslik) ham testni tuzuvchi muallif tomonidan rejalashtirilgan bo'ladi. Shu jumladan:

ko'zlangan maqsadga qarab testning nimani tekshirishi kerakligi, ayniqsa, integrativ harakterdagi asosiy kriteriylardan (masalan, ma'lum amallarning talab qilingan darajada yoki shu amallarni bajarishda sifat, miqdor, tezlik, qatiy ketma - ketlik, javobgarlik kabi bir qancha) omillarni hisobga olish;

formal sohada esa topshiriqlar tuzilish shaklining bir jinsligi(gomo-genligi) yoki turli shaklda bo'lishligi.

8. Vaqt omili testning tezkor bo'lishi (yoki aksi bo'lishi kerak), topshiriqlarning funksional ravishda ma'lum (belgilanma) belgilangan vaqtda bajarishning zarurligi (qaysi yo'l bilan, nimaga asoslanib yoki jadal ravishda qayerda, qanday topshiriklarni bajarish vaqtini baholash uchun, vaqtning sarflanish chegarasi belgilanmagan).

Fan bo'yicha qo'llanish sohasi o'lchov maqsadining umumiy yo'nalishi bo'yicha didaktika- psixologik yo'nalishi testning diagnostik darajasi nazorat bosqichlari Bo'yicha iznalishi sinaluvchilarning faoliyati Gomogenlik (1 jinslik) tezkorlik testlar tipologiyasi strukturasi

2- chizma. Testlar tipologiyasi. Testlashtirishni tashkil etish usullariga esa umumiy, individual yoki juda kam qo'llaniladigan lekin juda samarali hisoblangan alohida usuli va guruhlar holida tekshiriluvchilarning tashhischi bilan yuzma - yuz xolis (testlashtirishning EXM vositalaridagi individual dasturning zamonaviy varianta) turishi kabilar kiradi.

Chet el pedagogikasi testlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ularni bizning milliy pedagogikamizga ko'r - ko'rona ko'chirib bo'lmaydi. Ko'pchilik chet el testlari yagona dastur bo'lmagan sharoit uchun tuzilgan. Yagona dasturimizning asosiy maqsadi- axborot madaniyatining (kompyuter orqali) namoyon bo'lishi va o'quv dasturi asosiy talablarining bajarilishidir. Bizning testlarimizga asosiy talab - dasturga munosabat bo'yicha xotiradagini eslash bo'ldi. Bunga erishish uchun biz tajriba uslubini qo'lladik.

Testlar tuzishda juda serqirra vazifalarni qo'llashga harakat qilindi. f Asosan quyidagicha test - vazifalar qo'llaniladi.

1) test-savollar;

2) tushirib qoldirilganlarni to'ldirish testlari;

3) javoblarni tanlash testlari (3 - 5 ta javob yordamida);

4) «to'g'ri - noto'g'ri» testlari (o'quvchi berilgan tasdiqning to'g'riligini aniqlashi kerak);

5) Asos - testi (o'quvchi javoblarini o'zi ixtiro qiladi).

## 7 - bob. YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda, mamlakatimiz taraqqiyotida, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim tarbiya ishlarini yo'lga qo'yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish benihoya katta ahamiyatga ega. Ayni paytda yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan barkamol, tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo'lish uchun, birinchi navbatda, ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni hozirgi davr talabi darajasiga ko'tarish zarur va muhimligini hayot taqozo etmoqda. Shu ma'noda ta'lim tizimida fan-texnika yutuqlarini qo'llash, zamonaviy axborotlardan voqif bo'lish, xalqaro INTERNET tarmog'idan foydalanish bilan bir qatorda ta'lim jarayonlarini tashkillashtirishda yangi pedagogik texnalogiyalar qo'llash ham alohida ahamiyatga ega. Xo'sh, yangi pedagogik texnologiya o'zi nima?

Ta'lim islohotlari jadal olib borilayotgan bir paytda pedagogik lug'atlarda yangi pedagogik texnologiya tushunchasi ko'p uchrab turibdi. Ushbu lug'atlarda bu tushunchalarga turli xil yondashuvlar mavjud. Ulardan quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin:

Pedagogik texnologiya-ta'lim shakli, usuli, uslublari, tarbiyaviy vositalarning maxsus, yig'indisini aniqlovchi psixologik pedagogik ko'rsatmalarning majmui

...lib, o'qitishning *rejalashtirilgan natijalariga erishish jarayonining tavsiflaridir.* U o'quv jarayonining loyihalashtirilishi, tashkil etilishi, o'tkazilishi bo'yicha barcha tavsilotlari bilan o'ylab chiqilgan jamoa pedagogik faoliyatining modeli hisoblanadi.

Demak, yangi pedagogik texnologiyalar, qisqa va lo'nda qilib aytadigan bo'lsak, o'quv jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan usul va vositalarning yig'indisidan iborat.

Iqtisodiy pedagogika bevosita iqtisodiy voqea - hodisalar bilan uzviy bog'liq bo'lganligi uchun ham pedagogikaning bir qismi bo'lganligi fanda yangi pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi.

Fanda iqtisodiy jarayonlar pedagogik jarayon bilan uyg'unlashtiriladi. Iqtisodiy pedagogika *fanini o'qitishda milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirish* ta'limning turli shakllari orqali quyidagi vazifalarni nazarda tutgan holda amalga oshiriladi:

- kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchi-talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish;
- *o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini* teran aks ettirish;
- maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish va h.k.

Iqtisodiy pedagogika fanini o'qitish jarayonida yuqoridagi texnologiyalardan tashqari, yana *boshqa yangi pedagogik texnologiyalar ham qo'llaniladi, ya'ni:*

- fanni o'qitishda bugungi kun fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalanish;
- axborotlar, ommaviy axborot vositalaridan, ro'znoma, jurnallardan unumli foydalanish va dars jarayonida bevosita qo'llash;
- I.Karimov asarlaridan foydalanish, ya'ni ulardan fanga oid sitatalar keltirish;
- iqtisodiy bilimlarni kengaytirishda iqtisodiy krossvordlar, chayn -vordlarni qo'llab, talabalarni aktivlashtirish;
- fanni o'qitish jarayonida muammoli vaziyatlarni tashkil etib, o'zaro iqtisodiy mushohada yuritish;
- iqtisodiy pedagogika fanini o'qitishda talabalar ishtirokida iqtisodiy o'yinlarni uyushtirish.

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan fanni o'qitish jarayonida qo'llash mumkinki, ular yangi pedagogik texnologiyalarning asosini tashkil etadi.

Ma'lumki, texnologiya maksimal darajada o'quv jarayoni o'qituvchi va o'quvchining faoliyati uning tarkibi, vositalari, usul va shakllari bilan bog'liqdir. Shuning uchun pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) konseptual asosi;

2) ta'limning mazmunli qismi - ta'limning umumiy va aniq maqsadlar o'quv materiallarining mazmuni;

3) protsessual qismi - texnologiya jarayoni. Bu esa quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quv jarayonini tashkil etish;
- talabalar o'quv faoliyatining shakl va metodlari;
- materialni o'zlashtirish jarayonining boshqaralishi bo'yicha o'qituvchining faoliyati;

- o'quv jarayonining diagnostikasi.

Har qanday pedagogik texnologiya ba'zi asosiy metodologik talablarni (ya texnologik mezonlar) qondirish kerak.

Konsepsiya - har bir pedagogik texnologiya falsafa, psixologik, didak ta'lim maqsadlarga erishishining ijtimoiy pedagogik dalillarini o'z ichiga oladigan aniq ilmiy konsepsiyaga tayanishi kerak.

Tizimlilik - pedagogik texnologiya tizimining hamma belgilariga, jarayonn mantiqiga, hamma qismlarining o'zaro bog'liqligiga, butunligiga ega bo'lishi kerak

Boshqarish - ta'lim jarayonini loyihalashtirish, rejalashtirish, maqsadli diagnos imkoniyatlarni bosqichma- bosqich uyg'unlashtirish vositalari va uning natijalar maqsadli uslublar bilan tuzatish imkoniyatlarini ifodalaydi.

Samaradorlik-zamonaviy pedagogik texnologiyalar aniq sharoitlarda amal qiladi natijalari bo'yicha samarali bo'lishi, sarflari bo'yicha esa optimal bo'lib, ta'limn standart yutuqlarini ma'lum darajada kafolatlashi kerak.

Takrorlanish - bu pedagogik texnologiyani boshqa bir turdagi ta' muammolarda, boshqa sub'ektlar tomonidan qo'llash imkoniyatini beradi.

Hozirgi zamon pedagogikasida ta'lim tizimining mazmuni va protsess komponentlarning birligi (ta'limning maqsadlari, mazmuni, metodlar, shakl usullari) haqidagi tushuncha qaror topdi.

Pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayonida ularning komponent konservativlikning turli darajalarini yuzaga chiqaradi. Bunda metodlarning kard o'zgarishlari shakl va mazmun, maqsadlarning chuqur o'zgartirishlarni olib kelish qaramasdan, ta'limning mazmuni ta'lim texnologiyasining muhim qismi bo' uning protsessual qismini ham aniqlay oladi.

Shunday qilib, ta'lim texnologiyasining protsessual va mazmun qism bir birini teng ravishda aks ettiradi. Bular orasida yana bir komponeng, daktika vositasining ta'lim mazmunida eng muhim belgilovchi o'rinda darslik tura

So'nggi yillarda mamlakatimizda ko'p pedagogik texnologiyaning har tanlovlari bilan uyg'unlashgan darsliklar paydo bo'ldi. Bu esa o'z navbatida ta sifati yanada oshishining nazariy imkoniyatlarini beradi.

Pedagogik texnologiyalarning mohiyati va instrumental mohiyatli xususiya (masalan, maqsadli oriyentatsiya, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqalar xususiyatlari, ta'limni tashkil etish) ga ko'ra quyidagi sinflarga bo'linadi:

1. Qo'llash darajasi bo'yicha quyidagilarga ajratiladi:

a) umumpedagogik;

b) xususiy metodik (predmetli);

v) lokal (modul) texnologiyalar.

2. Falsafiy asosi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

a) materialistik;

b) idealistik;

v) dialektik va metafizik;

g) ilmiy va diniy;

d) gumanistik va antigumanistik;

e) antroposofik va teosofik;

j) erkin tarbiya va majburiy tarbiya.

3. Psixik rivojlanishning bosh omili bo'yicha:
a) biogen;
b) sotsiogen;
v) psixogen;
g) idealistik texnologiyalar.

Bugungi kunda, hammaga ma'lumki, shaxs - bu biogen, sotsiogen va psixogen omillari yalpi qo'shilgan ta'sirining natijasi hisoblanadi, lekin aniq bir texnologiya ulardan birortasiga stavka qilib, uni asosiy deb hisoblashi mumkin.

Umuman olganda, fakat bitta omil, metod, tamoyildan foydalangan texnologiyaning modeli amal qilmaydi. Pedagogik texnologiya har doim kompleks hisoblanadi. Lekin, texnologiya ta'lim jarayonining u yoki bu tomonlariga e'tibor qilib, harakterli bo'ladi va bu bilan o'z nomini oladi.

4. Mahalliy tuzilishiga bo'lgan yo'nalishi bo'yicha axborot texnologiyalar.
5. Tuzilishning harakteri bo'yicha:
a) ta'lim va tarbiya;
b) diniy;
v) umumta'lim va professional - oriyentatsiyali.

Pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda mustaqil ishlar va uning mazmuni. Shax rivojlanishida ta'lim jarayonlarini tashkil etish, ma'lum predmetlar asosida ta'lim berish, oilada va jamoat joylarida tar-biyalash bilan bir katorda o'quv, aqliy mehnat, ijodiyot talab etuvchi ta'lim shakllaridan biri mustaqil ishdir.

Mustaqil ishlar - ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, talabalarni mustaqil bilim olishlari, ilmiy izlanishlari, ilmiy mushohadalar, erkin fikr yurita olishlari, o'z ustida ishlay olishlari, ilmiy adabiyotlar bilan ishlashlari kabilarni ta'minlaydi.

Oliy maktablarda mustaqil ishlarni tashkil etishda oliy o'quv yurtining o'quv dasturida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Har bir predmet uchun ajratilgan umumiy soatlar ko'rsatilib, shunday ma'ruza uchun ajratilgan soatlar, seminar uchun ajratilgan soatlar va shu bilan birga talabalarni mustaqil ishlashlari uchun mustaqil ishlash uchun soatlar ajratiladi.

Mustaqil ishlar iqtisodiyot pedagogikasida jumladan quyidagicha bo'lishi mumkin, ya'ni quyidagi mavzular talabalar tomonidan o'rganilib, o'zaro tahlil qilinadi:
a) iqtisodiy pedagogika fanining predmeti maqsad, vazifalarini aniqlash;
b) iqtisodiyot bilan pedagogikaning bog'liqlik tomonlari;
v) fanning kategoriyalarini (tushunchalarini), qonuniyatlarini chuqur tahlil qilish;
g) fan bilan ishlab chiqarishni bog'liqligini o'rganish va tahlil qilish va x.k.

Qisman, misol tariqasida keltirilgan yuqoridagi mavzular bilan ishlashda talabalarni adabiyotlar bilan ishlashlari, mustaqil fikrlashlarini ta'minlashga, erkin ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishga o'rgatiladi.

Shu bilan birga mustaqil ishlar tarkibiga o'quv jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ilmiy ishlar tarkibini ham kiritish mumkin, ya'ni ularga referat tayyorlash, qisqacha adabiyotlardan konspekt qilish, ilmiy dokladlar tayyorlash, konfirensiyalarda ishtirok etish, kurs ishlarini, diplom loyihasini tayyorlash, amaliyot

natijalarini aks ettiruvchi hisobot tuzish.

Yuqorida qayd qilingan barcha ishlar mustaqil ishlar tarkibiga kiritiladi va ular ol o'quv yurtlarining o'quv rejalarida qayd qilinadi. Har bir talaba mustaqil ishlar bil shug'ullanishi davomida o'ziga ilmiy ozuqa, iqtisodiy malaka, iqtisodiy ko'nikm tejamkorlik, bozor iqtisodiyoti qonun qoidalariga amal qilish, o'quv ishlarini mustaq tashkil etishni o'rganadi.

Mustaqil ish bilan shug'ullanuvchi talaba quyidagi natijalarga erishadilar:

- vaktdan unumli foydalanish (vaqt, kun, hafta, oy, yil, semestr);
- biror faoliyat bilan shug'ullanish yoki dam olishlarni rejasini tuzish;
- albatta, kun uchun tuzilgan rejani bajarish;
- doim qo'shimcha vaqtdan foydalanish;
- o'zining intellektual salohiyatidan kelib chiqib, muammoli vaziyatlarda yakun xulosa qila olish;
- har qanday ishni yuqori darajada bajarishga erishish va h.k.

## 8 - bob. TALABALARNING ILMIY - TADQIQOT ISHLARI

### 1 - §. Ilmiy tadqiqot ishlarining turlari

Ilmiy tadqiqot ishi- ijodiy faoliyatning muhim shakllaridan biri bo'lib, u tabi jarayonlarni jamiyatning ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llanadigan qonu qoidalarga o'rganishda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va ularni amaliyot qo'llay ola bilishga qaratilgan jarayonlar yaxlitligidan iborat.

Dastlab, XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida ilm - fan va texnika bilimlari alohid alohida o'rganilib kelingan. O'sha davrda ilm-fan faqat atrof muhitni bilish uch qo'llanilgan. Shuning uchun texnika va ishlab chiqarish jarayonlari ilm- fan bil bog'lanmagan holda ilm fan rivojlanishi texnika va ishlab chiqarish rivojlanish ta'sir eta olmagan. Keyinchalik jamiyat tez sur'atlar bilan rivojlanib borib, unda il fan texnika va ishlab chiqarish jarayonlarini bir-biriga bog'liqlik tomonlari sezil turadi.

Shu tufayli fan oxirgi vaqtlarda davlatning asosiy rejalashtiruvchi vositasi bo'l qoldi. Shu ma'noda ilm fanni yanada rivojlantirish ilmiy tadqiqot ishlarini olib bori uchun turli xil oliy o'quv yurtlari, ilmiy tadqiqot institutlari faoliyat ol borishmokda. Hozirda ular zimmasiga ilmiy amaliy tadqiqotlar olib borish vazifal yuklatilgan.

Ilmiy tadqiqot ishlari har qanday ijodiy faoliyat kabi yagona shablon yo chizmaga asosan olib borilmaydi, u kishida katta ijodiy izlanish, mas'uliy talab qiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ana shu izlanish, mas'uliyat va meh pirovard natijalarini ilmiy tadqiqoti (izlanuvchi) ko'rsin.

Iqtisodiy pedagogikada talabalar ilmiy tadqiqot ishlarining quyida maqsad va vazifalari mavjud:

- barcha talabalarni zamonaviy ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi, ular rejalashtirish asoslari bilan tanishtirish;
- bo'lg'usi iqtisodchi - pedagog talabalar ongida ilmiy ishning amal ko'nikmalarini hosil qilish, ilmiy muammolarga ishida ijodiy yondashib, ularni ilm

adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish:

- izlanuvchilarda tajribalar o'tkazish metodikasini o'rgatish, tajriba natijalarini to'g'ri tahlil qilish va umumlashtirish, grafik va jadvallarni tuza bilish va uni tahlil qila olish;

- ilmiy tadqiqot ishlarida zamonaviy ilm fan yutuqlaridan foydalanish (YEXM, kompyuter, INTERNET);

- tadqiqot natijalari to'g'ri yozma bayon qilish usullari va asosiy qonun qoidalarini o'rgatish (hisobot, tezis, maqola) va og'zaki bayon qilish (ma'ruza, ma'lumot berish, ilmiy anjumanda nutq so'zlash) va h.k.

Oliy maktabning asosiy vazifalaridan hisoblangan talabalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga tayyorlash va unga o'rgatishda ularning ilmiy bilimlarini oshirish, o'z ustida tinmay ishlay bilishlari, fan-madaniyat, tarix ijtimoiy psixologiya va boshqa fanlarni chuqur egallashni talab etadi. Shu ma'noda talabalarni ilmiy tadqiqot ishlarga o'rgatishda quyidagi yo'llar nazarda tutiladi:

- talabalarni o'rganilayotgan fanni chuqur bilishga jalb qilib, tabiat va jamiyat hodisalarini kuzatishga o'rgatish:

- o'rganilayotgan fan va izlanayotgan soha bo'yicha dalillar, statistik malumotlar to'plashga tayyorlash va o'rgatish:

- talabalarda sezgi va idrok orqali paydo qilingan tasavvurlarni tushunchalarni tafakkur qonunlari asosida taqqoslash, solishtirish, hukm chiqarish, xulosa qilish va eng pirovard maqsad tadbiq qilishga o'rgatish;

- talabalar ongida paydo bo'lgan ilmiy g'oya, faruzlarni tadbiq qilishga intilish va uni ro'yobga chiqarishga o'rgatish;

- talabalar ilmiy ishlarini umumlashtirishga, ulardan xulosa chiqarishga o'rgatiladi va h.k.

## 2 - §. Talabalarda milliy ongni tarbiyalash

Inson tarixi- g'oyalar tarixi. G'oya- inson tafakkuri mahsuli, milliy g'oya esa millat tafakkurining mahsulidir. Milliy g'oya- inson va jamiyat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui.

Mafkura esa muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad - muddaolari, manfaatlari, orzu- in-tilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimidir.

Har qanday tushuncha, fikr milliy g'oya bo'la olmaydi. Chunki, shaxsiy fikr- o'ziga xos bir qarashdir, ijtimoiy fikr esa- voqelikka nisbatan o'zgarish yoki harakatni taqozo etadigan faol munosabatni ifodalaydi. G'oya ana shu munosabatni harakatga, jarayonga, zarurat tug'ilganda esa, butun bir davr tarixiga aylantiradi.

Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda 2 kuch - bunyodkorlik va buzg'unchilik g'oyalari hamisha o'zaro kurashadi.

O'zbekiston milliy istiqlol mafkurasi, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir- biri bilan bog'laydigan, asriy orzu istaklarini amalga oshirishga xiz-mat qiladigan g'oyalar tizimidir.

Milliy istiqlol mafkurasi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umum insoniy qadriyatlar,

demokratiya tamoyillariga asoslanadi;

- xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas me'rosidan oziqlanadi;

- adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi;

- yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi:

- jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi;

- millati, tili va dinidan kat'iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi;

Milliy mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy- ijtimoiy masala, jamiyatni sog'lom, ezgu maksadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishishi uchun ma'naviy- ruhiy kuch- quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan.

O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lida bosh g'oyasi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma'no - mazmunini belgilaydi. Har bir inson uchun muqaddas bo'lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o'zida mujassam etadi.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasida ozodlik tushunchasining ustuvor va yetakchi o'rinda turishi Vatan mustaqilligi barcha orzu - intilishlarimiz, amaliy faoliyatimiz va yorug' kelajagimizning asosi ekanidan dalolat beradi.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasidan kelib chiqadi va o'zining ma'no- mohiyati, falsafasi, jozibasi bilan uni xalqimizning qalbi va ongiga yanada chukurroq singdirishga xizmat qiladi.

Vatan ravnaqi. Vatan insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandir.

Vatanning ravnaqi, avvalo uning farzandlariga va ularning kamoliga bog'liq. Bu esa har bir yurtdoshimizni o'zining ma'naviy kamoloti uchun yuksak mas'uliyatni his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi.

Milliy g'oya hech qachon Vatandan tashqarida ildiz otmaydi va rivojlanmaydi. Vatanning ravnaqiga xizmat qilmaydigan g'oya hech qachon milliy g'oya bo'la olmaydi. Bugungi kunda jamiyatimizda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotgani, davlatimizning iqtisodiy qudrati ortayotgani, xalqimizning ma'naviyati boyib, ilm - ziyo salohiyati yuksalayotgani Vatan ravnaqining asosi bo'ladi.

Yurt tinchligi - bebaho ne'mat, ulug' saodat, barqaror taraqqiyot garovi. O'zbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi, uni o'z orzu intilishlari, maqsad-muddaolari ro'yobga chiqishining kafolati deb biladi. Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir. Birovga qaram bo'lgan xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doim tayyor turishimiz lozim. Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va

mafkuraviy yetukligi - yurt tinchligini saqlashning muhim omilidir.

Xalq farovonligi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning oliy maqsadi-xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratishdan iborat. Ya'ni islohot uchun emas, inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak. Jamiyatimizdagi har qanday yangilanish, har qanday o'zgarish mohiyatida ana shu ezgu maqsad mujassamdir. Milliy istiqlol mafkurasi mohiyat etibori bilan fuqarolarimizda har qaysi inson va oila badavlat bo'lsa, jamiyat va davlat ham kuchli va qudratli bo'ladi, degan tushunchani tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim.

Komil inson. Erkin fuqarolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu hayotiy e'tiqodi bo'lgan insonlargina bunyod eta oladi. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy- ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga muhim e'tibor berilmoqda.

Millatlararo totuvlik. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Millatlararo totuvlik g'oyasi umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qila-digan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Bu g'oya - bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir.

Milliy istiqlol mafkurasi xalqning, jamiyatning o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsad-muddaolari amalga osha borgani, taraqqiyot tajribalari ortgani sari boyib, takomillashaveradi. Bu mafkura erkin fuqarolik jamiyati, farovon hayot barpo etishga azmu karor qilgan, bu yo'lda sobitqadamlik bilan olg'a borayotgan xalq mafkurasidir. Mafkura - inson ruhiyati, tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartiradigan kuchli vosita.

## 9- bob. IQTISODIY TA'LIM MUASSASALARINI OSHQARISH VA UNGA RAHBARLIK QILISH

### 1-§. Boshqarishning ijtimoiy — iqtisodiy asoslari

Mustaqil O'zbekiston davlatini har tomonlama rivojlantirish, iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash ko'p jihatdan zamon talabiga javob beradigan rahbar va mutaxassislarni tayyorlash sifatiga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv kadrlarini tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarining roli katta, albatta. Oliy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri, bozor iqtisodi munosabatlari sharoitida ishlay oladigan malakali kadrlarni tayyorlash, ya'ni o'quvchilarda zamonaviy fikrni shakllantira oladigan, xo'jalik yuritish va boshqaruvda yangicha usullarni qo'llay oladigan, shuningdek rahbarlik san'ati sirlarini o'rgana oladigan darajada nazariy va amaliy bilimlar berishdan iboratdir.

Iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi- boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik shakllaridan iqtisodiy shakllariga o'tish va shuning negizida bozor munosabatlarini shakllantirishdan iborat. Shu o'rinda I. Karimovning Ikkinchi chaqiriq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz» nomli ma'ruzasidan quyidagilarni, ya'ni

«birinchidan, iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashti jarayonini izchillik bilan o'tkazish va iqtisodiyot islohotlarni chuqurlashtirish. xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini oshiri tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lida mavjud tusiqlarni bartaraf etis anglatadi».

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda boshqaruv apparatining roli muh ahamiyatga ega. Boshqaruv apparatining tuzilishi deganda, boshqaruv apparati ular orasidagi bog'lanish tushuniladi. Boshqaruv apparatining tarkibini bir - biri bil bog'langan teng huquqli birikmalar va bo'g'inlar bilan to'ldirish uning tizi deyiladi.

Tashkiliy qism bu boshqaruv tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'l boshqaruvchi tizim, sub'ekti tashkiliy tuzilishining shakli demakdir. U boshqar tizimining negizi sifatida maydonga chiqadi va kadrlar bilan boshqarishni tash qilish rasmiy qoidalarini tartibga soladi. Shuning uchun ham uning boshqaru tizimidagi roli benihoyat kattadir.

O'zbekistonda boshqarishning ilmiy asoslari paydo bo'lishi o'zining chuqur tarix ildizlariga ega bo'lib, uning asosiy tamoyillari XIII - XIV asrlarga kelib O'rta Osiy Amir Temur hukmronligi davrida to'la shakllangan edi. Bu davrda yuqori intizo ijtimoiy himoya va oliy darajadagi boshqarish tizimiga ega bo'lgan davlat bunyodg kelishi o'rta asr davridagi boshqarish uslublari o'zida eng ilg'or g'oyalar mujassamlashtirganidan darak beradi. Boshqaruv tizimining samarali tashkil etilish uning insonparvarlik, iqtisodiy va ratsional usul bilan tashkil etilishi, uning negizid inson manfaatlari yotganligi, davlat siyosatining boshqaruvga ijobiy ta'siri, dunyod buyuk davlat paydo bo'lishi bilan yakunlandi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, boshqarishning maqsadi insoniyat yaxshi anglashi, ishlashi,o'qishi uchun sharoit yaratib, ularni jipslashtirib, birlashtirib turishga imkon beradi. Har qanday ijtimoiy tizimda mehnat korporatsiyasi tashkil topgani holda unda boshqarish mavjuddir. Har qanday nisbatan katta miqyosdagi bevosita ijtimoiy yoki birgalikda qilinadigan mexnat muhofazasiga ma'lum darajada muhtoj. Bu idora qiluvchi individual ishlar o'rtasida garmoniya o'rnatadi.

Ma'lumki, boshqarish deb, ko'zda tutilgan maqsad uchun qilinadigan hara - kat tushuniladi. Har qanday boshqarish asosida ko'zda tutilgan maqsad yotadi. Boshqarishda boshqaruvchi tizim va boshqariluvchi tizim amal qiladi. Shunday ekan boshqarish biror bir tizimni ikkinchi bir tizimga o'zgartirishga aytiladi. Boshqaruvchi tizim boshqariluvchi tizimga ta'sir ko'rsatishda amal qilishi kerak bo'lgan qonun qoidalarga boshqarish tamoyillari (prinsipla-ri) deb ataladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda boshqarishning quyidagi tamoyillarini keltirish mumkin va u tamoyillar bozor iktisodiyoti sharoitida ham amal qiladi:

- demokratik tamoyili;
- siyosiy rahbarlik tamoyili;
- xo'jalikni rejali yuritish tamoyili;
- ilmiylik tamoyili;
- kadrlarni to'g'ri tanlash tamoyili.

Boshqarish tamoyillari bilan birga uning vazifalari ham mavjud. Bosh-qarishning vazifasi kishilarning sub'ektiv faoliyatini birinchi navbatda boshqarish sohasidagi

…yatini ob'ektiv qonunlarning talablariga ana shu qonunlar belgilab beradigan …rsiv tendensiyalarning talablariga muvofiqlashtirishdan iborat. Shu sababli …diy qonunlarning mohiyatini, ularni amal qilish sharoitini bilish xalq …aligining hamma bosqichlarida ilmiy asosda boshqarishni tashkil etishning eng …um omili hisoblanadi. Shunday ekan boshqarishning quyidagi vazifalari …ksiyala-ri) amal qiladi: rejalashtirish, muvofiqlashtirish, ishlab chiqish, …artirish kiritish, nazorat qilish.

Ma'lumki, birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX …ayasida «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni qabul qilingan edi. Ushbu qonunning 10-…ddasida ta'lim turlari bayon etilgan bo'lib, unda maktabgacha ta'lim, umumiy …a ta'lim, o'rta - maxsus, kasb - hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan …ingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan …tqari ta'lim kabilarni o'z ichiga olishi nazarda tutiladi. Shunday ekan, ushbu ta'lim …assasalarini ham boshqarish nazardan chetda qolmaydi.

Qonunning 28- moddasida «Ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi. …lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat …shqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin», deb ta'kidlagan.

## 2 - §. Oliy maktab, mahalla va jamoat tashkilotlarining tarbiyaviy hamkorligi

1993 yilda tarbiya jarayoni qatnashchilari harakatlarini birlashtirish maqsadida …shlab chiqilgan Mustaqil O'zbekistonda yosh avlodni tarbiyalashda «Mahalla, maktab va oila» hamkorligi konsepsiyasi yoshlarni ma'naviy, ma'rifiy, vatanparvarlik, baynalminallik, istiqlol g'oyalariga sodiq sohib tarbiyalashda keng jamoatchilik harakatlarini muvofiqlashtirish borasida, uning samaradorligini oshirishda zarur dasturi amalligini o'tgan vaqt ko'rsatdi. Mamlakatimiz hayotida keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator direktiv hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to'g'risidagi qonunlari jamiyatimizda oila salohiyatini yanada yuqori pag'onaga ko'taryapdi. Ijtimoiy-siyosiy sohalarda qabul qilingan qator hukumat hujjatlari, milliy mafkura g'oyalarining shakllanishi ushbu konsepsiya mazmun va mohiyatini shu kun talabi darajasida bo'lishini taqozo etmokda. 1998 yilning «Oila yili»deb e'lon qilinishi oila hayotining abadiyligini, avlodlar doimiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf- odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini yana bir bor yaqqol misoli bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonunining 30 moddasida «Voyaga yetmagan bolalarning ota- onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar»- deb belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda oilada sog'lom muhit bo'lishi, milliy ruh va o'zbekona turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota- ona har tomonlama o'rnak bo'la olishi, farzandga ota- onasiga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lib, huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini shakllantirish

lozim.

Ota- onalarning vazifalari farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini ber ma'naviy va ma'rifiy, madaniyatli bo'lib yetishishlarini ta'minlab, bo munosabatlariga mos bo'lgan kasb- hunar va iqtisodiy tushunchalarni ular ong singdirish, ularning ijtimoiy va iqtisodiy kamolotini ta'minlash uchun yetarli mu yaratishdan iborat.

Bolalarda mustaqil fikrlash va o'zini dunyoqarashiga ega bo'lishi bilan bir qator ularda istiqlol g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhini tarbiyalash, bo vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib, unumli tashkil qilish, ular qo'shimcha ta'lim berish, kasb - hunar o'rgatish lozim.

Farzandlarning maktab, mahalla, jamoatchilik oldidagi vazifalarini to'la a etishga qonuniy javobgar ekanligini his qilish, ota- onaning farzand oldidagi burc o'zbekona ta'bir bilan aytganda: farzandga yaxshi nom qo'yish, yaxshi mualli qo'liga topshirib, savodini chiqarish, ilmli, kasb- hunarli qilishdan iboratdir.

Maktabning vazifalari: Maktabda bolaga chuqur bilim, ta'lim - tarbi mafkuraviy g'oya, o'zbekona milliy qadriyatlar, halol mehnat, biror bir kasb-hunar egallashi uchun mustahkam poydevor yaratishdek mas'ul vazifani zamonaviy tal darajasida amalga oshirish lozim. Ularga ta'lim berishning ilg'or pedagogi texnologiyalar, zamonaviy o'quv - metodik dasturlar asosida bilim berish, o'qu jarayonlarida jahon andozalariga mos didaktik jihatdan ta'minlab, o'quvchilarni imkoniyatlari va qiziqishlarini tahlil qilish kerak. Ijtimoiy- iqtisodiy muhitdan keli chiqib, ularni turli soha bo'yicha kasb asoslariga yo'naltirish va ta'lim tabaqalashtirilgan yondashuv joriy etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yosh oilalar bilan ishlash, tibbiy- tarbiyaviy, huquqiy, ma'naviy- ma'rifiy, ijtimoi tushunchalar berish uchun maxsus tadbirlarni amalga oshirib, o'zining hududid mahallalar jamoalari tarbiyaviy faoliyatini o'z maqsadida muvofiqlashtirish lozim.

Bola tarbiyasi ijobiy yo'lga qo'yilgan oilalarning tegishli idoralar hamkorligid yutuqlarini o'rganib, ommalashtirish va rag'batlantirishni amalga oshirish zaru Turar - joy va mahallada olib borilayotgan barcha tarbiyaviy, ma'naviy - ma'rifiy madaniy- ommaviy va sport tadbirlari markazi maktab bo'lishiga erishilib, o'quvch yoshlar, ota - onalar jamoatchilik bilan huquqiy tarbiyani amalga oshirish, tarbiy jarayonining barcha qatnashchilari orasida milliy mafkuramiz, istiqlol g'oyalarin targ'ib qilish, diniy aqidaparastlik va davlatimiz intilishlariga zid bo'lgan g'oyalarning kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashni tashkil qilishimiz lozim.

Ta'lim muassasalari Nizomi asosida o'quvchilarning maktabda joriy qilingan tartibda amal qilishlarini va Nizomda belgilangan o'quvchilar kiyimlarida ta'lim- tarbiya jarayoniga qatnashishlarini ta'minlash lozim.

Mahallada xotin - qizlar orasida zamonaviy bilimlarni targ'ib qilish, o'smi yoshlarni dunyoviy bilimlarga bo'lgan intilishlarini shakllantirish, ularning turl norasmiy diniy ta'lim olishlarini man etib, tarbiya sub'ektlari bo'lmish huquqiy tibbiy, ijodiy uyushmalar, yoshlar, tabiatni muhofaza qilish va «Yekoson», «Qizil xoch va qizil yarim oy», barcha jamg'arma va jamoatchilik markazlari, ommaviy axborot vositalari, inson huquqlari bo'yicha milliy markazlar, kasaba uyushmalari, nodavlat tashkilotlar, ishlab chiqarish korxonalari bilan aloqalar o'rnatish.

# ADABIYOTLAR


1. Ta'lim haqida qonun. T. O'zbekiston, 1997. y.
2. Kadrlar tayyorlashning milliy darturi. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining qonuni. T. O'zbekiston, 1997. y.
3. Karimov I. A. Barkamol avlod - O'zbekiston mafkurasining poydevori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqi. T. 1997. y.
4. Karimov I. A. O'zbekiston, milliy istiqlol, iktisod, siyosat, mafkura. 1-t. T. O'zbekiston, 1996. y.
5. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3- t. T. O'zbekiston, 1997. y.
6. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-t. T. O'zbekiston, 1996.
7. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. 5-t. T. O'zbekiston 1997. y.
8. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. O'zbekiston, 1997. y.
9. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Muloqot jurnali, 1998-y, 5- son.
10. Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. T. Sharq, 1999. y.
11. O'lmasov A. Iqtisodiyot asoslari. O'quv qo'llanma. T. Mehnat. 1997.
12. O'lmasov A. Amaliy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. T. 1997 y.
13. Gulboyev T. , Shodiyeva M. Pedagogika nazariyasidan ma'ruzalar kitobi. 1-2-qism. Navoiy, 1999. y.
14. Munavvarov A. Pedagogika. Darslik. O'qituvchi , 1996. y.
15. Xasanboyeva O., Hasanboyev J ., Hamilov K.. Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanma. T. O'qituvchi, 1997. y.
16. Xasanboyev J. XIV asrning 2-yarim va XV asrlarda Movaraunnaxrda maktab moddasi va ta'lim - tarbiya. O'quv qo'llanma. T. Pedinstitut 1998. y.
17. Xasanbosv O. va bosh. Odobnoma 1-2-3 sinflar uchun o'quv qo'llanma. T. Ta'lim markazi, 1999. y.
18. Xo'jayev N., Ivatov I. Iqtisodiyot bilim asoslari. T. TDIU, 2000.

## Amaliy mashg'ulotlar

### 1-MAVZU: Didaktik o'yinli texnologiyalar

**Reja:**

**1. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar.**

**2. Ijodiy o'yinlar.**

**3. O'qitishning faol pedagogik texnologiyalari.**

### 1.1. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni talabalarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin.

O'qituvchi-pedagog avval talabalarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki talabalar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

## DIDAKTIK O'YINLI DARSLARNING TURLARI VA ULARNING MAQSAD HAMDA VAZIFALARI




## DIDAKTIK O'YINLI DARSLAR YAKUNIDA BAJARILADIGAN PEDAGOGIK VAZIFALAR:

TESKARI ALOQA, NATIJANI TASHKIL QILISH, TEGISHLI O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH

OLINGAN NATIJAGA MUVOFIQ MUSTAQIL VA IJODIY ISH TOPSHIRIQLARINI BERISH

# O'YINLI DARSLARNING O'QITISH JARAYONIDAGI DIDAKTIK FUNKSIYALARI



**Didaktik o'yinli mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari**

| Didaktik o'yinli mashg'ulotlar | Mavzu mazmuni qanday bo'lganida mazkur mashg'ulotdan foydalaniladi? | Mashg'ulotlarning didaktik funksiyalari | Talabaning faoliyati |
|---|---|---|---|
| Syujetli-rolli | Fanning turli sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish, tabiatdagi va kundalik hayotdagi muammolarni hal etish imkoniyati bo'lganda | Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni, tabiat ob'ektlari va tabiiy hodisalar o'rtasidagi aloqatar va bog'lanishlarni adabiy-badiiy tarzda yoritish | Muayyan rollarni bajarish orqali bilim ko'nikmalarni egallash |
| Ijodiy o'yin | Avval o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati bo'lganda | Muammoli vaziyatlarni avval o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash orqali hal etish | Ijodiy izlanish orqali yangi mavzuni o'zlashtirish |
| Ishbilarmonlar o'yini; Auksion | Turli ob'ektlarga tavsif berish, ularni taqqoslash imkoniyati bo'lganda | Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, kasbga yo'llash | Auksionda ishtirok etish orqali yangi mavzuni o'zlashtirish |
| Konferensiya | Fanning turli sohalariga oid bilimlar mujassamlashgan va qo'lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish imkoniyati bo'lganda | Qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, kasbga yo'llash | «Olimlar» maqomini olib, muayyan mavzularda izlanishlar olib borish |
| Matbuot konferensiyasi | Fanning turli sohalarini qamrab olgan, talabalarning avval o'zlashtirgan bilimlaridan foydalanish lozim bo'lganda | Qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirish, darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash | «Olimlar» va «Muxbir-lar» maqomini olib mavzuni o'zlash-tirish |

O'qituvchi-pedagog didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

1. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi;

2. Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilinishi;

3. Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi;

4. O'yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi;

5. Mashg'ulotlar davomida didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

Quyida «Kasb pedagogikasi» fanini o'qitishda tashkil etish va o'tkazish mumkin bo'lgan didaktik o'yinli mashg'ulotlardan ayrimlarining tafsilotlari keltiriladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlar orasida **konferensiya mashg'ulotlari** ham muhim o'rin tutadi.

Konferensiya mashg'ulotlari talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishda, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirishda, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini orttirish, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Konferensiya mashg'ulotini o'tishdan avval mashg'ulot mavzusini, maqsad va vazifalarini belgilab, shu mavzuga oid qo'shimcha ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ko'zdan kechiriladi. Mashg'ulotni o'tkazishdan 1 hafta oldin mashg'ulot mavzusi e'lon qilinib, unga tayyorgarlik ko'rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi. Ushbu mashg'ulotda «Olimlar» rolini tanlash, mavzuni har tomonlama yoritish, ma'ruza tayyorlash talabalarning ixtiyorida bo'ladi. **Ilmiy konferensiya mashg'ulotini quyidagicha o'tkazish tavsiya etiladi:**

I. O'qituvchining kirish so'zi. Bunda o'qituvchi mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va vazifalari, tegishli rollarni bajaruvchi «Olimlar» bilan talabalarni tanishtiradi.

II. Ilmiy ma'ruzalarni tinglash. «Olimlar» mavzu yuzasidan tayyorlagan ma'ruzalarini ko'rgazmali qurollar asosida bayon qiladilar.

III. Ma'ruzalar muhokamasi. Bunda «Olimlar» va guruhdagi boshqa talabalar o'rtasida mavzu yuzasidan bahs-munozara o'tkaziladi.

IV. Ilmiy konferensiya yakuni. O'qituvchi mavzu yuzasidan eng muhim tushuncha va g'oyalarni ta'kidlab, darsni yakunlaydi.

V. Talabalarni baholash. Mashg'ulotda faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantiriladi va reyting tizimiga muvofiq baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

VII. Mashg'ulotni umumiy yakunlash.

«Kasb ta'limi metodlari» mavzusida o'tkaziladigan ilmiy konferensiya mashg'uloti quyidagi loyiha bo'yicha o'tkazilishi mumkin.

Mavzu: «**Kasb ta'limi metodlari**».

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. Talabalarni mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

Bu mashg'ulotni o'tishdan bir hafta oldin talabalarni 4ta guruhga ajratamiz va

ularga pedagogika fani sohasida' faoliyat ko'rsatayotgan «Olimlar» maqomini beramiz.

III. Yangi mavzuni o'rganish: Talabalar guruhi o'z mutaxassisliklariga tegishli bo'lgan quyidagi mavzulardan biri bo'yicha ma'ruza tayyorlaydi.

1. Kash ta'limi metodlari va ularning tavsifnomasi.
2. Reproduktiv va muammoli izlanish metodlari.
3. Ishlab chiqarish jarayonida interfaol metodlar.

Har bir yo'nalish bo'yicha «Olimlar» maqomini olgan talabalar o'zlariga tegishli mavzu bo'yicha ko'rgazmali quroilar asosida qo'shimcha materiallardan foydalangan holatda ma'ruza qiladilar. Ma'ruzalar tugagach, talabalar o'rtasida bahs va munozara o'tkaziladi. Quyida didaktik o'yin texnologiyasining konferensiya metodidan foydalanilgan mashg'ulotning texnologik haritasi keltirilgan.

| **Texnologik bosqichlar** | **O'qituvchining faoliyati** | **Talabaning faoliyati** |
|---|---|---|
| I bosqich. Tashkiliy qism, 5-daqiqa. | Talabalarni mashg'ulotning mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtiradi.<br><br>Bajariladigan o'quv topshiriqlari va ularning didaktik maqsadi bilan talabalarni tanishtiradi. | Mashg'ulotning mavzusi, maqsadi, borishi va bajarilishi kerak bo'lgan topshiriqlarni anglaydi.<br><br>Bajariladigan o'quv topshiriqlari yuzasidan ko'rgazmalar va didaktik maqsadni anglaydi. |
| II bosqich. Talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish, 5-daqiqa.<br><br>III bosqich Yangi mavzuni o'rganish. 60-daqiqa. | Talabalardan «Olimlar» guruhlarini va ularning mustaqil ishlash jarayonini tashkil etadi.<br>O'quv materialining topshiriqlar yordamida mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlaydi.<br><br>Har bir guruhning o'quv materiali yuzasidan tayyorlagan ma'ruzalarini tinglaydi. | O'quv faoliyatini tashkil etadilar, «Olimlar» guruhiga berilgan topshiriqlarni bajaradilar.<br>1-guruh<br>2-guruh<br>3-guruh<br>4-guruh<br><br>Har bir guruh o'quv materiali yuzasidan ma'ruzalar tayyorlaydi. |
| IV bosqich. Natijani tahlil qilish va yakunlash. 10-daqiqa. | Ma'ruza yakunida talabalar bilan savol-javob, o'quv bahsi o'tkazadi.<br><br>Talabalar faoliyatini tahlil qiladi, ularga mustaqil va ijodiy | Talabalar bilan o'tkaziladigan savol-javob, bahs-munozarada faol ishtirok etadi.<br><br>O'quv faoliyati va erishilgan natijani tahlil qiladi va baholaydi. |

| | |
|---|---|
| ish topshiriqlarni beradi. | Mustaqil ish va ijodiy topshiriqlarni oladi. |

V. Mashg'ulotni umumiy yakunlash.
VI. Uyga vazifa berish.

### 1.2. Ijodiy o'yinlar

Talabalarning ijodiy izlanishi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va qo'shimch bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda ijodiy o'yinlar muhim ahamiyatg egadir.

Ta'lim jarayonida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni talabalar o'zar hamkorlikda avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini ijodiy qo'llanish v izlanish orqali hal etishga zamin tayyorlaydigan didaktik o'yinlar **ijodiy o'yinla** deb ataladi.

Ijodiy o'yinli mashg'ulotlardan «Kasb pedagogikasi» fanini o'qitishda va «Kas ta'limi muassasasini boshqarish» mavzusini o'rganishda foydalanish mumkin. Bund talabalar teng sonli guruhlarga ajratilib, ularga shartli ravishda «Boshqarm boshlig'i», «Kasb-hunar kolleji rahbari», «Akademik litsey direktori» deb nor beriladi. Bu yerda mutaxassislarning har qaysi guruhi ijodiy izlanib, kelgusidag ishlarini rejalashtirishga o'rganadilar. O'qituvchi tomonidan tavsiya etilga topshiriqlarni bajarib, dalil va isbotlar asosida o'z javoblarini bildiradilar.

Ijodiy o'yin mashg'ulotlarida guruhdagi barcha talabalar hamkorlikda ishlaydila avvalgi mashg'ulotlarda o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llaydilar. B esa ularda o'z bilim va iqtidoriga nisbatan ishonch hissini uyg'otadi.

Quyida **«Kasb ta'limi muassasasini boshqarish»** mavzusidagi ijodiy o'yin mashg'ulotning qisqa ssenariysi keltiriladi.

Mavzu: **«Kasb ta'limi muassasasini boshqarish»**.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. Talabalarni mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

III. Yangi mavzuni o'rganish.

Yangi mavzuni o'rganishdan oldin guruhdagi talabalarni teng sonli 3 ta guruhg ajratiladi.

Birinchi guruh talabalari «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi boshlig'i maqomini olib, kelgusida «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi» faoliyati rejalashtirishni o'rganadilar. Shu bo'yicha ma'ruza tayyorlaydilar va quyidag jadvalni to'ldiradilar:

| № | Toshkent shahrining geografik va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxas-sislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarini hisobga olgan holda O'MKHT muassasalarini tashkil etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish. | Ta'lim muassasasini boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar | Izoh |
|---|---|---|---|

Ikkinchi guruh talabalari «Iqtisodiyot kasb-hunar kollejining rahbari» maqomiga ega bo'lib, kollej faoliyatini kelgusida rivojlantirish maqsadida rejaga kiritilgan ishlarni umumlashtirib. ma'ruza tayyorlaydilar va quyidagi jadvalni to'ldiradilar:

| № | Iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha kasb-hunar kol-lejining istiqbol ish rejasini ishlab chiqish | Ta'lim muassasasini boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar | Izoh |
|---|---|---|---|
| 1. | | | |
| 2. | | | |
| 3. | | | |
| 4. | | | |

Uchinchi guruh talabalari «Iqtisodiyot akademik litsey direktori» maqomiga ega bo'lib, akademik litsey faoliyatini kelgusida rejalashtirishni o'rganadilar hamda ma'ruza tayyorlaydilar va quyidagi jadvalni to'ldiradilar:

| № | Iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha akademik litseyning istiqbol ish rejasini ishlab chiqish | Ta'lim muassasasini boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar | Izoh |
|---|---|---|---|
| 1. | | | |
| 2. | | | |
| 3. | | | |
| 4. | | | |

«Rahbarlar» kelgusida bajarishi mumkin bo'lgan ishlarni rejalashtirganlaridan so'ng, ko'rgazmali qurollar asosida ma'ruzalarini bayon qiladilar. Guruhlar o'rtasida savol-javob, bahs va munozara o'tkaziladi.

IV. Talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va reyting tizimi asosida baholash

V. Mashg'ulotni yakunlash.

VI. Uyga vazifa berish.

**«Ta'lim muassasasini boshqarish» mavzusidagi didaktik o'yin texnologiyasining ijodiy o'yin metodidan foydalanilgan mashg'ulotning texnologik haritasi:**

| Texnologik bosqichlar | O'qituvchining faoliyati | Talabaning faoliyati |
|---|---|---|
| I bosqich. Tashkiliy qism, 5-daqiqa. | Talabalarni mashg'ulotning mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtiradi. | Mashg'ulotning mavzusi, maqsadi, borishi va bajariladigan topshi-riqlarni anglaydi. |
| II bosqich. Talabalar-ning bilish faoliyatini tashkil etish. 5-daqiqa. | O'quv topshiriqlarining didaktik maqsadi bilan talabalarni tanishtiradi. | O'quv topshiriqlarining didaktik maqsadi yuzasidan ko'rsatmalarni anglaydi. |
| III bosqich. Yangi mavzuni o'rganish, 60-daqiqa. | Talabalardan «rahbarlar» guruhlarini va ularning mustaqil ishlash jarayonini tashkil etadi. O'quv dasturidan o'rin olgan topshiriqlarni mustaqil o'zlashtirilishini ta'min-laydi. «Rahbarlar» uchrashuvi guruhini tashkil etadi. Har bir o'quv materiali yuzasidan tayyorlagan ma'ruzalarini tinglaydi. | O'quv faoliyatini tashkil etadi. «Rahbarlar» guruhi berilgan topshiriqlarni bajaradilar. 1-guruh «O'MKHTB boshlig'i» 2-guruh «Kasb-hunar kol-leji direktori» 3-guruh «Akademik litsey direktori» «Rahbarlar» uchrashuvi guruhida ishtirok etadi. Har bir guruh o'quv materiali yuzasidan ma'ruzalar tayyorlaydi. |
| IV bosqich. Erishilgan natijani tahlil qilish va yakunlash, 10-daqiqa. | Talabalar faoliyatini tahlil qiladi, ularga mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarni beradi. | O'z o'quv faoliyati va erishilgan natijasini tahlil qiladi va baholaydi. Mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini oladi. |

Shunday qilib, didaktik o'yinli mashg'ulotlar orqali o'quvchi-talabalar yang kasblar bilan tanishadilar, egallagan bilimlarini iqtisodiyotning qaysi sohalarid qo'llash mumkinligini ko'rsatadilar, ushbu fanga bo'lgan qiziqishlari ortad qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil foydalanishga, o'z o'rtog'ining fikrini sabot v chidam bilan tinglashga, bilimlarini nazorat qilishga, o'z-o'zini baholashg o'rganadilar.

## 1.3. O'qitishning faol pedagogik texnologiyalari

O'qitishning an'anaviy va noan'anaviy usul va metodlari farq qilinadi. Ular mohiyatiga ko'ra faol va osoyishta turlarga ajratiladi. Ularning har biri o'z tarixi va shakllanish mexanizmiga ega. Bularning orasida uzoq yillar davomida sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan va yuksak pedagogik samara beradiganlari juda ko'p. Insoniyat o'zini va atrof-muhitni anglab yetishi jarayonida ta'lim va tarbiya uchun asqotadigan xilma-xil texnologiyalarni yaratgan. Ularning aniq son va sifatini hech kim aniq belgilay olmaydi. Bunga hozirgi davrda mavjud bo'lgan turli davlatlarning ta'lim tizimlarida amal qilinayotgan turfa pedagogik texnologiyalar misol bo'la oladi. Gap ularning qaysi biridan kim qanday samara bilan foydalanishidadir. Katta samara bermaydigan yoki o'zini oqlay olmagan texnologiyalar kun tartibidan tushib qolaveradi va ular insoniyat sivilizatsiyasining tarixiy "sandig'iga" jamlanib boraveradi.

Har qanday o'quv kursi, ma'lumki, quyidagi komponentlarni o'zida jamlaydi:

- kursning davomliligi (muddati);
- o'qitishning maqsad va vazifalari;
- o'qitishning mazmuni;
- maqsadli guruhning tashkil etilishi;
- o'qitish jarayoni;
- o'qitish metodikasi;
- o'quv quvvati;
- baholash.

O'qitishning mazmuni o'quv birligining davomiyligi va o'zlashtirish darajasi orasidagi uzviy bog'lanishning grafigi tarzida ifodalanishi mumkin. Bunda uch toifadagi o'zlashtirish darajalari farq qilinadi va ular majburiy (past), zaruriy (o'rtacha) va maqsadga muvofiq (eng yuqori) ko'rsatkichlarga ega bo'ladilar.

Har qanday pedagogik texnologiya qo'llanilishida didaktikaning asosiy va yordamchi tamoyillari (prinsiplari), albatta, amal qiladi:

- ma'lumdan noma'lumga;
- oddiydan qiyinga yoki murakkabga;
- aniqdan mavhumroqqa (abstraktga);
- kuzatishdan nazariy umumlashmalarga;
- umumiy yoki odatdagidan xususiyga yoki noodatdagiga va boshqalar.

Ayrim faol pedagogik texnologiyalar tavsifi haqida ma'lumotlar keltirilganda ularning qiyosiy bahosi oydinlashadi.

**Ma'ruza.** Ma'ruza o'qitishning eng keng tarqalgan shakli bo'lib, pedagogik faoliyatda yetakchi o'rinni egallaydi. U o'qituvchi mehnatining oliy shakli darajasida e'tirof etiladi. Uni bir tomonlama aloqaning ko'rinishi, deb ham ataladi. Bunda o'qituvchining faolligi va tinglovchilarning nofaolligi ko'zda tutiladi. Biroq munozara shaklida bayon etiladigan ma'ruza eng faol pedagogik texnologiya elementidir. Munozarali ma'ruzada tinglovchilarning faolligi juda yuqori bo'lishiga erishish mumkin.

Iqtisodiyot o'quv predmetlarini, odatda, ko'proq ma'ruzalar tarzida bayon etiladi. Chunki bunday kurslar ko'proq nazariy yoki umumlashtiruvchi harakterga tabiatan ega bo'ladilar. Pedagogik terminologiya nuqtai nazaridan ularni bilish, aqliy

umumlashtirish mashg'ulotlari deb hisoblash mumkin. Bunda metodikaning barcha boshqa metodlari kamroq samarali bo'lib qoladilar. Ma'ruzani tashkil etish paytida o'qituvchi o'quv predmetining eng muhim jihatlarini alohida ta'kidlash evaziga muvaffaqiyat qozonishi mumkin. Ma'ruzada tinglovchilar boshqa samarali metodlar bilan o'qitilgandagi kabi tayyorgarlik (bilim) oladilar. Faol metodika yordamida o'qilgan ma'ruzalar davomida tinglovchilarni faollashtirish evaziga o'qitish jarayonining teng huquqli ishtirokchilariga aylantirish mumkin. Bunda o'quv materiali tez va soz o'zlashtiriladi.

Ma'ruzani faol tadbirga aylantirish uchun uning mavzusi va tuzilmasi orasidagi bog'lanishning yechimini topish zarur bo'ladi. Ma'ruzalar o'quv predmetining bosh masalasi ko'nikma hosil qilish emas, balki bilim o'zlashtirish bo'lganidagina samara beradi. O'qitishning barcha mavjud masalalarini uch guruhga ajratish mumkin:

- bilimlar;
- ko'nikmalar;
- ko'rsatmalar.

O'qitish masalalaridan kelib chiqqan holda uning metodi tanlanadi. Agar ta'lim jarayonida tavsiflash, yodga tushirish, sanab o'tish, kategoriyalar bo'yicha taqsimlash, ta'riflar keltirish, baholash va tushuntirish kabi didaktik maqsadlar amalga oshirilishi lozim bo'lsa, albatta, ma'ruza shaklidagi o'quv mashg'ulotlari tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Hayot bilan, kundalik turmush bilan, muhim voqealar bilan aloqadorlikda bayon etilgan ma'ruza materiali oson o'zlashtiriladi. Suzishni yoki avtomobil boshqarishni ma'ruza mashg'uloti yordamida o'rgatib bo'lmasligi ravshan. Shu boisdan, uquv va ko'nikma hamda malaka egallanishi birinchi o'rinda turadigan faoliyatda ma'ruzaning tutgan o'rni juda kichikdir. Nazariy bilimlar va dunyoqarash ahamiyatiga ega bo'lgan ma'lumotlar ma'ruza yordamida berilishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'ruza davomida o'qituvchining xatti-harakatlari, imo-ishoralari, nutq komponentlari muhim rol o'ynaydi. Ma'ruzachi auditoriya bilan yaxshi aloqa o'rnatishi uchun uning dinamik siljib turishi tavsiya etiladi. Ovoz ohangining o'zgarishi va o'rinli pauzalar ham yordamchi omillarga aylanadi. Bayon mo''tadilligining o'zgarishi, o'rinli kalimalarning galma-gallanishi, qiziqarli ma'lumotlarning bezak tarzida ishlatilishi katta ahamiyatga ega. Ma'ruzaning to'laqonliligi ko'rgazmali vositalardan qay darajada foydalanilishiga ham bog'liqdir. Rasmlar, jadvallar, plakatlar, diagrammalar, moddiy ob'ektlar va AKTning turli elementlaridan o'rinli foydalanish ma'ruzaning ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi quvvatini oshiradi.

Har qanday ma'ruza tarkiban uch qismdan iborat bo'ladi:

- kirish;
- asosiy qism;
- xulosa.

Ma'ruza turlari pedagogning mahoratiga bog'liq ravishda turfa ko'rinishlar va mazmunga ega bo'ladi. Ma'ruzaning pedagogik samarasi o'qitishning barcha tashkiliy shakllariga qiyoslanganda eng yuqori bo'ladi.

**Munozara.** Ko'pchilik o'quv predmetlari va ularning mavzulari ta'lim standartlari, o'qitish dasturlari, o'quv rejasi va ta'lim muassasasining o'ziga

xosligiga bog'liq ravishda hamda tinglovchilar (bilim oluvchilar) kontingenti bilan aloqadorlikda munozara tarzidagi o'quv mashg'ulotlarini taqozo etadi. Birinchidan, tinglovchilar faolligi ta'minlanadi. Ikkinchidan, shubhali vaziyatlarga o'rin qoldirilmaydi. Uchinchidan, bilim oluvchilarning istak-xohishlari to'la qondiriladi. Eng muhimi, bunday sharoitda o'quv materiali to'la-to'kis o'zlashtiriladi. Asoslar, xulosalar, hukmlar va tasavvurlar mukammal ko'rinish va mazmunda bo'ladi. Ko'rsatma va ta'kidlarning ishonchliligi yuqori darajada bo'ladi.

Munozara ikki turli bo'ladi:

- boshqariladigan;
- erkin munozara.

Boshqariladigan munozarada o'qituvchining ishtiroki sezilarli darajada bo'ladi, lekin bu ishtirok uning o'quv jarayonidagi hakamlik mavqeidan oshib ketmasligi lozim. Erkin munozara esa bilim beruvchi va oluvchilarning demokratik tarzdagi ishtiroki bilan o'tkaziladi. Bu har ikki turdagi munozaralarda o'quv haqiqati birinchi o'rinda turadi. Ilmiy bilimlar jonli mushohada, abstrakt tafakkur orqali nisbiy va absolyut haqiqat yo'li bilan qo'lga qiritilishini hisobga olinsa, bilish jarayonining taraqqiyotini belgilovchi tushuncha, kategoriya, faraz, xulosa, qoida, nazariya, qonun va qonuniyatlar munozara davomida mazmunan buzilmasligi muhimdir.

Munozaraning natijasini o'qituvchi oldindan loyihalashi lozim. Bunda oraliq jarayonlar ikkinchi pozitsiyada turadi. Yakuniy xulosalar ilmiy bilish nazariyasiga zid kelmasligi o'qituvchining kasbiy salohiyati bilan ta'minlanadi.

Erkin munozarani anarxiyaga aylantirmaslik-eng muhim pedagogik vazifadir. Uning o'quv qimmatini boshqariladigan munozaradan kamroq baholab bo'lmaydi.

Munozara mashg'ulotlari uchun quyidagi shartlarning bajarilishi muhimdir:

- reglamentga rioya qilish;
- boshlashdan oldin chuqur fikriy tahlil qilish;
- ishtirokchilarning maksimal miqdordagi sonini qo'lga kiritish;
- o'qituvchining o'quvchilariga nisbatan hukmron bo'lmasligi.

Passiv o'quvchilarning ishtirokini ta'minlash-aksariyat o'qituvchilar uchun amalda bajarib bo'lmaydigan jarayondir. Ularni jonlantirish uchun:

- savollar beriladi;
- har bir shaxsning xususiy fikri so'raladi;
- to'g'ri javoblar rag'batlantiriladi;
- noto'g'ri javoblar va xatolar to'g'rilanadi va to'ldiriladi.

Munozaraning muvaffaqiyati o'quvchilarning qiziqishi, bilimi, ahilligi, hur fikrliligi va jamoadagi sog'lom pedagogik-psixologik muhitga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

**Guruhiy ish.** Bu so'nggi yillarda Yevropa mamlakatlarida keng ommaviylik tusini olgan o'qitish metodidir. Masalan, Daniyada birorta ham ma'lumot yoki kasb guruhiy ishsiz egallanmaydi. Kam sonli (4-6 nafar) o'quvchilarning qandaydir muhim o'quv tadbirida ishtirok etishi va ularning hamkorlikdagi faoliyati bunday mashg'ulotning samarasini belgilaydi. Bajarilish darajasi va uning sifatini o'qituvchi nazorat qiladi. Guruhlarga berilgan vazifalar bosqichma-bosqich navbatlanishi ya'ni galma-gallanishi lozim. Guruhlar bir jinsli (o'g'il bolalar, erkaklar yoki qiz bolalar,

ayollar) va ikki jinsli (har ikki jins vakillaridan iborat) bo'lishi mumkin. Ta'lim yo'nalishi va pedagogik maqsad hamda vazifalardan kelib chiqqan holda bunday guruhlar xususiy holat uchun shakllantiriladi.

Guruhiy ish kengroq joy va siljitiladigan o'quv mebellarini talab qiladi. O'qituvchining nazorati barcha guruh uchun baravar bo'lishi lozimligi ham qiyinchilik tug'diradi.

**Muammoli topshiriqlar.** Nazariya va amaliyotning birligini ta'minlash-eng murakkab pedagogik vazifadir. Aniq vaziyat va qo'yilgan masalaning mohiyatidan kelib chiqqan holda muammoli topshiriqlar yordamida yaxshi natijaga erishish mumkin. Faktlar va ma'ruza materiallari o'zlashtirish, topshiriqlar hamda mashq va masalalar yechimida muammoli vaziyat yaratilishi qo'l keladi. Bunda ham kam sonli ishtirokchilardan iborat guruhlar shakllantiriladi. O'quv materiali guruxlarga alohida-alohida bo'lib beriladi. Yakuniy xulosalar va yechimlar topilgach mavzular guruhlar orasida ayirboshlanadi. Yechimlar va fikrlar xilma-xilligi yuzaga kelsa o'qituvchi bosh hakam tarzida so'nggi va hal qiluvchi so'zni aytadi. O'quv materialining o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi bunda o'ta muhim omildir.

Muammoli topshiriqlar o'qituvchidan katta va qiyin mehnatni talab qiladi. Shu boisdan, ularning sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan variantlarini topish va qo'llash murakkab jarayondir.

**Loyihaviy topshiriqlar.** Biror o'quv materialini atroflicha va chuqur o'rganish uchun bu yondashuv katta samara beradi. O'rganish, tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish va yakuniy qarorga kelish uchun uzoq muddatli loyihalangan reja zarur. Bu tadbirni o'tkazish uchun bazaviy va boshlang'ich tayanch ma'lumotlar talab qilinadi. O'quv predmetini o'zlashtirishning bosqichlarida davriy ravishda tatbiq qilinadi. Bunday topshiriqlar o'quv ijodkorligini oshiradi, mustaqillik sari yetaklaydi.

Loyihalar mavzuning tavsifini beruvchi kirish qismi, mavzuning muxtasar asosnomasi, faktlar va argumentlarga asoslangan ma'lumotlar yig'indisi hamda xulosa yoki yechimdan iborat bo'ladi.

**Rolli o'yinlar (ishchanlik yoki ishbilarmonlik o'yinlari).** Bunday o'yinlar muammoli topshiriqlarning bir ko'rinishidir. Sahnalashtirish va obrazli chiqishlar bunday mashg'ulotlarning asosiy belgisidir. Ishbilarmonlik, bilimdonlik, topqirlik, quvnoqlik, hozirjavoblik, ijodkorlik, artistizm, ishchanlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlarni namoyish qilishga keng imkon beradi. O'qituvchi har bir o'quvchining salohiyatiga mos vazifa topshirishi juda muhimdir. Birinchi va ikkinchi darajali ishtirokchilar bo'lmasligini ta'minlash ham talab qilinadi. O'quv mashg'uloti hayotdagi aniq vaziyatga ko'proq yaqinlashadi.

**Yorib o'tishlar texnologiyasi va V.Erhard maktabi.** Bu texnologiya menejerlarni qayta tayyorlash o'qishlaridan iborat bo'lib, uning maqsadi har bir odamda mavjud bo'lgan (lekin kundalik bir xildagi hayot va ish bilan bo'g'ib qo'yilgan) qobiliyatlari va intilishlarini an'anaviy muammolarni yangi muammo sifatida yechish uchun kundalik izlanishlarga aynan uyg'otish hisoblanadi.

Bu kurslar tinglovchining fikrlashi va hulqidagi shaxsiy stereotiplarni bartaraf qilish, o'z imkoniyatlarini va eskirgan muammolarni yangicha yechish yo'llarini ko'ra olishlarini faollashtirish va o'zgartirish bo'yicha ishlab chiqilgan ko'p sonli mashg'ulotlardan iborat.

Bu kurslarning afzal jihatlari-inson omilini ishga solishga qaratilgan bo'lib, maxsus mablag'lar sarflashni talab qilmaydi, erishilgan samara so'nib qolmaydi, ...ni olingan samara yangi shakl va mazmunda hamda sharoitlarda muntazam ...chayib borishi bilan takror va takror samara olinishini ta'minlaydi. Bu texnologiya ...lohida yirik yangiliklar yaratishga, hosil bo'lgan favqulodda holatlardan ...noan'anaviy chiqish yo'llarini izlashga ham qaratilganligi bilan farqlanadi. Bunday ...o'rnalishdagi 50 dan ortiq kurslar va seminarlar AQShning yuzga yaqin shaharlarida ...a dunyoning boshqa mamlakatlarining yuzdan ziyod shaharlarida tashkil etilgan va ...lar muntazam faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu kurslarning tinglovchilari soni 60 ming ...ollar atrofidadir.

**Hamkorlik pedagogikasi.** Mumtoz pedagogik qarashlar nuqtai nazaridan ...o'qituvchi-pedagogik jarayonning sub'ekti, o'quvchi esa ob'ekti, deb hisoblanadi. Hamkorlik pedagogikasida esa o'quvchi o'z o'quv faoliyatining sub'ekti tarzida qaraladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi pedagogik jarayonning sub'ektlari sifatida tenglashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni tashkil bo'ladi. Ular o'zaro hamkor, hamfikr, hamdo'st, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard va hamboshqaruvchi tarzida faoliyat yuritadilar.

Hamkorlik munosabatlari o'qituvchilar orasida, ma'muriyat bilan, o'quvchilar va o'qituvchilar jamoalari bilan, rahbarlar, ota-onalar va keng jamoatchilik orasida ...tam o'rnatiladi.

Hamkorlik pedagogikasi o'quvchining ta'lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq qilgan holda yuqori sifat va samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

**O'quv materialining sxemalar va shartli belgilardan iborat modeli... (tayanch signallar konspektlari) asosida ta'limni intensivlashtirish texnologiyasi** (V.F.Shatalov, Donesk shahri,Ukraina). Mazkur metodika anchagina ommalashgan pedagogik yondashuv bo'lib, ko'rgazmali sxemalardan iborat tayanch signallar konspektlaridan tarkib topgan. Ularda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan axborot birliklari aks ettiriladi, ularning orasidagi turli aloqadorliklar ko'rsatiladi hamda abstrakt (mavhum) materialni oydinlashtiruvchi manbalar, misollar va tajribalarni eslash uchun belgilar, simvollar, komponentlar va maqsadlarning ahamiyatliligi bo'yicha tasnifi turlicha bo'lgan shartli belgilardan foydalaniladi.

O'quv materialining sxemalar va shartli belgilardan iborat bo'lgan tayanch signallar konspektlaridan foydalanish asnosida turli va o'ziga xos usullar va metod va vositalar ham ishlatiladi.

**«Vakolatli ta'lim» texnologiyasi.** Ushbu texnologiya 1995 yilda AQShda ... "Ayollar yetakchiligi" deb nomlangan treninglardan boshlangan bo'lib, ta'lim ... xalqaro texnologiyasi sifatida 1997 yildan boshlab Ukrainada shakllandi, keyinchalik Ozarbajon, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Litva, Moldova, Tojikiston hamda O'zbekistonga tarqaldi. 2002 yilda Afg'oniston, Birma ... Indoneziyada tegishli treninglar tashkil etildi. Hozirgi paytda dunyoning ... mamlakatlarida bu texnologiyaning shakllanish va joriy etilish jarayonlari davom etmoqda.

Ta'limning ushbu texnologiyasini ayni kunlarda mutaxassislar quyidagicha

ta'riflaydilar: "Vakolatli ta'lim-genderlik adolati va zo'ravonliklarsiz munosabatlar asosida tashkil etiladigan o'quv jarayoni bo'lib, u bevosita tajriba orqali ta'lim olish yo'li bilan guruhning o'z-o'zini tashkil qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini beradi".

Vakolatlash pedagogikasi ta'lim dasturlarining boshqa turlari bilan ta'limga nisbatan umumiy yondashuvlarga ega. O'zaro faoliyatda ular bir-birini boyitadi va kuchaytiradi.

Vakolatlash ta'limini joriy etishning quyidagi tartibi eng maqbul hisoblanadi:

- tasdiqlangan va rasmiylashtirilgan o'quv reja (ayrim o'quv fani, integrativ kurslar yoki ularning tarkibiy mavzulari);
- rasmiylashtirilgan o'quv reja (ta'lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan va rasmiy reja bilan bog'langan darsdan tashqari ishlar-ularning sinfdan va maktabdan tashqari turlari farq qilinadi);
- norasmiy o'quv reja (kutilmagan yoki favqulodda mashg'ulotlar tashkil qilish va ularni ta'lim amaliyotiga alohida reja yordamida joriy etish).

"Vakolatli ta'lim" texnologiyasiga muvofiq mashg'ulotlar alohida tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchi-trenerlar tomonidan tashkil etiladigan va o'tkaziladigan treninglar tarzida amalga oshiriladi. Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan va ma'lum yo'nalishda ta'lim berish (rahbarlik qilish) hamda mashqlar bajarish bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi mutasaddi shaxsni trener deyiladi. ("Trening" haqida ilovaga qaralsin).

**«O'quvchilar to'ldirilishi lozim bo'lgan idish emas, balki yondirilishi shart bo'lgan mash'aladirlar»**

***K.D.Ushinskiy**-rus pedagogi va ertakchisi*

## 2-MAVZU.Pedagogik texnologiya: sifat va samaradorlik

**Reja:**

**1. Ta'lim jarayonida talabalarning o'zlashtirish darajalari.**

**2. O'zlashtirishning xorijiy mezonlari.**

**3. Talabalar tanqidiy fikrini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni.**

### 2.1. Ta'lim jarayonida talabalarning o'zlashtirish darajalari

Pedagog va talabaning dasturli faoliyati ta'lim jarayonidan jamiki ortiq harakatlarni yo'qotishga, yuqori hamjihatlikni ta'minlashga va pirovard natijada – ko'zlangan yakuniy natijalarni qo'lga kiritishga intilishni ifodalaydi. Didaktik jarayonni loyihalashda pedagog «texnolog» sifatida faoliyat ko'rsatadi: har bir darsda ta'lim maqsadini aniq o'rnatishi, o'tilayotgan o'quv materiallarini mazmunan saralashda talabalarning o'zlashtirish faoliyati darajalarini, fanni bayon qilishning ilmiy tilini hisobga olishi lozim. Shuningdek, tashkiliy shakllarning mosini tanlab, belgilangan vaqt doirasida samarali didaktik jarayonni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich talabiga mos holda o'quv-bilish faoliyatini amalga oshirish uchun unga oldindan alohida tayyorgarlik ko'rish kerak bo'ladi. Umuman ta'lim jarayoniga oldindan ishlov bermasdan, yakuniy natijalarining ta'lim maqsadiga mos kelishini

chamalamasdan, o'qitish davomida yuzaga keladigan noqulay holatlarga bog'liq holda boshqarish imkoniyatlarini hisobga olmasdan turib ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish mumkin emas.

Baholash joriy, oraliq va yakuniy nazoratni o'z ichiga oladi. Joriy nazorat uzluksiz qayta bog'lanishni ta'minlaydi va odatda baholashsiz o'tkaziladi, shuning uchun u bilimlarni shakllantirishda ishtirok etadi. Pedagogik texnologiyada qayta bog'lanish nafaqat o'qitish jarayonini tuzatib borish uchun, balki o'quv maqsadlarini aniqlashtirish uchun ham xizmat qilishadi. Yakuniy nazoratda rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishganlik darajasi baholanadi.

Reyting nazorati og'zaki, yozma va test usulida bo'lishi mumkin:

1. Og'zaki va yozma nazorat.

Og'zaki nazoratning afzalliklariga shaxsiy munosabat, o'qituvchining o'quvchi-talaba bilan jonli muloqoti, uning fikrlarini nutq shaklida ifodalashga mashq qildirish, bilimlarni yanada chuqurroq tekshirish maqsadida pedagog tomonidan qo'shimcha savollar berish imkoniyatlari kiradi. Pedagog tomonidan qo'yilgan savolga og'zaki javob berishga tayyorlanish doimo talabaning faol fikrlashi bilan bog'langan.

Og'zaki javob yaxshi tayyorlangan talabaga o'zining iqtidorini, qo'shimcha egallagan bilimlarini namoyish etishga ikmon beradi. Bevosita muloqot tufayli pedagogda savol-javob davomida talabaning bilimlari to'g'risidagi barcha gumonlarni bartaraf etish imkoni bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda og'zaki nazoratda talabalar bilimlarini baholashda ma'lum darajada pedagog shaxsiyatining aks etishi namoyon bo'ladi. Har bir pedagogda talabalarning o'zlashtirish darajalarini baholashda doimo xolis va shaxsiy munosabat bir vaqtning o'zida ro'yobga chiqadi. Yuqorida tilga olganimizdek, xorijda xorijda olib borilgan ko'p sonli tadqiqotlar ko'rsatadiki, «qisqa vaqt oralig'ida bir-biridan mustaqil ravishda bitta o'quvchi-talabani bitta bilimlar sohasida bitta o'quv maqsadlarida tekshirish ikkita imtihon oluvchi bahosining mos kelishi faqat 40-60% hollarda mos kelgan». Bunda bitta imtihon topshiruvchi bir imtihon oluvchida eng yuqori bahoni, boshqasida esa eng past bahoni olgan. Shuningdek, turli pedagoglar tomonidan bitta yozma nazorat ishiga qo'yilgan baholarning ancha farq qilishi ham tasdiqlangan.

Shunday qilib, talabaning yozma va og'zaki nazoratda olgan bahosi ba'zan xolisona bo'lmaydi. Talabaning bahosi, odatda, nafaqat uning bilimlari darajasiga bog'liq bo'ladi. Bilimlarni baholash amaliyotida pedagoglar guruhning o'rtacha darajasini mo'ljalga oladi. Shuning uchun kuchsiz guruhlarda baholar odatda ko'tarilgan, kuchli guruhlarda pasaytirilgan bo'lib chiqadi.

Yozma nazorat o'quv materialini o'zlashtirish darajasini hujjatli tarzda o'rgatish imkonini beradi, shuningdek, o'quvchi- talabaga o'z fikrlarini qog'ozda bayon qilish imkonini beradi. Ikki-uch mustaqil ekspertlarni ishlarini tekshirish uchun jalb qilish bilan o'tkaziladigan tashqi yozma nazorat aniq mezonlar bo'lgan taqdirda ob'ektiv bahoga yaqin baholashga imkon beradi. Ammo bilimlarni og'zaki va yozma nazorat qilishning an'anaviy usuli ma'lum kamchiliklarga ham ega:

- imtihonda o'quvchi-talaba berilgan biletning 3-4 savoliga javob beradi, baho esa butun o'quv fanini bilish uchun qo'yiladi;
- farq qilish qobiliyati kuchsiz bo'lgan 5 ballik shkala ishlatilgan;

- og'zaki va yozma nazorat har doim ham bilimlarni baholashning ob'ektivligini aniqligini va ishonchliligini ta'minlamaydi;

- og'zaki so'rov ko'p o'quv vaqti sarflanishini talab qiladi, yozma ishlar pedagoglarning ularni tekshirishga ko'p mehnat sarflashlari bilan bog'liq.

So'nggi yillarda pedagogika fanida bilimlarni og'zaki va yozma nazorat qilish ob'ektivligini, ishonchliligini yetarlicha oshirish usullari ishlab chiqilyapti. Ammo shuni hisobga olganda ham bilimlarni og'zaki va yozma tekshirish yetarlicha texnologik emasligicha qoladi, ularni kompyuterlar yordamida avtomatlashtirish qiyin. Bu nisbatda bilimlarni test usulida nazorat qilish ulardan bir necha marta ustun turadi.

2. Test (inglizcha–sinash) – bu biror bir faoliyatni bajarish uchun ma'lum darajadagi bilimni egallashga qaratilgan topshiriqlardir. Testning to'g'ri bajarilganligini o'lchash va baholash maqsadida har bir testga ekspert metodi yordamida etalon ishlab chiqiladi. O'z etaloniga ega bo'lmagan har qanday test, odatdagidek, bajarilish sifati haqida sub'ektiv mulohaza yuritish evaziga xulosa chiqaruvchi nazorat topshirig'iga aylanib qoladi.

Test nazoratlari va uning afzalliklari:

a) yetarli tarzda tuzilgan pedagogik test natijalari nazorat o'tkazayotgan shaxsga bog'liq bo'lmagan xolis pedagogik o'lchov quroli hisoblanadi;

b) test o'quv mavzularining barcha asosiy mazmunini qamrab olishi mumkin, o'qitish natijalarini test usulida o'lchash barcha tekshiriluvchilarga baravar qo'llanadigan oldindan ishlab chiqilgan mezon asosida aniq va ishonchli baho beradi;

v) test nazorati texnologiyalashuvchan, u nisbatan qisqa vaqt ichida ma'lum o'quv mavzulari o'zlashtirilishining to'la nazoratini kam kuch va vositalar sarflab o'tkazish imkonini beradi.

g) test nazorati kompyuterlar yordamida oson avtomatlashtiriladi. Bu pedagogik test o'tkazishning asosiy afzalliklaridan biridir.

To'g'ri tashkil qilinganda pedagogik test talabalar bilimlarini xolis baholash samarasini beradi, chunki bu baho uni qo'yayotgan odamga bog'liq bo'lmaydi. U barcha tekshiriluvchilarga bir xil qo'llanadigan qilib tuzilgan mezon bo'yicha to'g'ri yechilgan test topshiriqlari foizi asosida aniqlanadi. Shuning uchun pedagogik test to'la asos bilan o'qitish natijalarini aniq va ishonchli baholashga imkon beradigan pedagogik o'lchov quroli deb ataladi. Ammo bunday baholash faqat ilmiy talablarga rioya qilingan holda tuzilgan, tekshiriluvchan va me'yoriga yetkazilgan sifatli test tufayligina amalga oshirilishi mumkin.

Pedagogik testlardan foydalanilganda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'qitish sifatini so'zsiz oshirish mumkin bo'lgan yetarli ijobiy imkoniyat mavjud. Test o'tkazish o'qitishni olib borish va uning natijalariga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sifatli testlar bilish faolligini oshirishga qodir, ular talabalar faoliyatida yuqori mo'ljallarni belgilaydi, aksincha, yomon tuzilgan testlar ta'lim jarayonida aks samara berishi mumkin.

Bilimlarni o'zlashtirish nazoratining yangi, ilg'or vositalarini kiritadigan reyting tizimidan samarali foydalanishni o'rganish ham juda muhimdir. Talabalar bilimlari sifatini nazorat qilishning reyting tizimi deganda har bir talabani o'qitishning borishi

va natijalarini baholashga bir xil shaklda yondashuvning o'zaro bog'liq ko'rsatmalari va qoidalar majmuasi tushuniladi.

Oliy o'quv yurtlarida reyting nazorati tarkibida quyidagilar ifodalanadi:

nazorat turlari (joriy, oraliq va yakuniy);

- nazorat usullari (og'zaki, yozma, pedagogik test o'tkazish, ma'lum amallarni bajarish);

davriylik va o'qitish davri mobaynida baholashlarning eng kam soni;

- baholash mezoni;

- o'qitilayotgan fan bo'yicha yakuniy bahoga talabaning ayrim baholarini birlashtirish qoidalari;

- natijalarni rasmiylashtirish qoidasi va boshqa ko'rsatmalar;

Oliy o'quv yurtlarida reyting tizimini kiritishning maqsad va vazifalari, odatda quyidagi natijalarga erishish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat:

- talabalar tomonidan davlat ta'lim standartlari talablarining o'zlashtirilishi;

- bilimlarni baholashning xolisligi va uzluksizligini ta'minlash;

- talabalardagi bilish faoliyatining faollashuvi, ularda o'qishda yutuqlarga erishishga intilishning shakllanishi, ta'limga musobaqa hissini kiritish, mustaqil ishga muntazam jalb qilish;

- o'qish jarayonidagi yutuqlar bo'yicha talabalar o'rnini aniqlash bilan o'quv faoliyati natijalarini muvofiqlashtirish, ularni o'qishdagi yutuqlari uchun rag'batlantirish;

- o'qitish natijalarining taqqoslanishini ta'minlash.

Talabalar bilimlarini baholashning ilg'or reyting tizimi quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

- uzluksiz ta'lim bosqichining o'ziga xosligini inobatga olishi;

- o'quv fanining alohida qismlarini emas, balki yalpi nazoratini amalga oshirishi;

- talabalarni o'qishdagi yutuqlari bo'yicha yaxshiroq tabaqalash maqsadida baholarning ko'p balli mezoni qo'llanishi;

- pedagog tomonidan qo'yiladigan birlamchi baho murakkab matematik hisoblashlar bilan bog'liq bo'lmasligi (o'quv vaqtining sarflanishini talab etadigan). U pedagog tomonidan o'quv muassasasida oldindan ishlab chiqilgan mezonlar asosida qo'yiladi;

- har bir o'quv yurtining uslubiy idorasi ma'muriyat ko'rsatmalari asosida yoki o'zining qaroriga binoan natijalari yakuniy reyting baholashga kiradigan, o'qitish davridagi barcha predmetlar bo'yicha og'zaki, yozma va test nazoratlarining eng zarur majburiy sonini o'rnatadi;

- oliy o'quv yurtining reyting tizimlari ma'lum bosqich chegarasida o'qitish natijalarining taqqoslanish imkonini ta'minlashi va boshqalar.

Ma'lumki, bir xil sharoitda tegishli metodikalar va mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanib o'qitganda o'quvchi-talabalar turli darajadagi o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lishadi. Buning asosiy sababi ular qobiliyatlarining turlichaligidadir.

B.Blum o'tkazgan tadqiqotlarida yuqori qobiliyatlilar yuqori natijalarni, o'rtacha darajadagilar o'rtacha ko'rsatkichlarni berishligi aniqlandi. Bunda vaqt sarfi ham turlicha ekanligini ko'rish mumkin; qobiliyatlilar o'quv materialini o'zlashtirish uchun eng kam vaqt, «o'rtacha» lar uchun ulardan ko'proq vaqt, «bo'sh» lar uchun

eng ko'p vaqt zarur bo'lar ekan. Mavjud ta'lim tizimidagi hamma bolalar uchun bir xil teng vaqt, teng sharoitdagi ta'lim jarayoni biz xohlaymizmi-yo'qmi «kuchlilar», «o'rtachalar» va «bo'shlar» ni vujudga keltiraveradi. An'anaviy ta'limda ushbu nomuvofiqlikdan chiqishning ikki yo'li mavjud; birinchisi – ikkinchi yil qoldirib o'zlashtirish darajasiga erishtirish; ikkinchi yo'l – guruh talabalarini gomogen guruhlarga ajratish yo'li bilan ta'limda yuqori samaradorlikka erishish.

B.Blum an'anaviy ta'limdan farqli ravishda, ta'lim sharoitining eng optimal sharoitini tanlash, birinchi navbatda o'qish sur'atini oshirish orqali to'la o'zlashtirishga erishish mumkinligi g'oyasini ilgari suradi. Bunday sharoitda «kuchli» va «bo'sh»lar o'rtasidagi o'zlashtirish farqi keskin kamayadi. To'la o'zlashtirish modelida mavjud o'quvchi-talabalar guruhining hammasi yuqori natijalarga erishishi uchun o'quv maqsadlaridan kelib chiqadigan natijalar tegishlicha yuqori darajalarda ifolanishi kerak.

Pedagogik texnologiyalar ta'limda reproduktiv o'zgarish darajasini egallashni kafolatlaydi. Talaba produktiv (mahsuldor) va ijodiy o'zlashtirish darajalarini egallashda an'anaviy metodikadagi o'qitishning muammoli usul va metodlaridan unumli foydalanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishda an'anaviy o'qitish metodikasidagi boy tajriba va ilg'or pedagogik jarayonlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagog kurs (bo'lim, bob)ni loyihalashtirishga kirishar ekan, eng avvalo, mezonni to'g'ri aniqlashi, ushbu modelda ishlashning asosiy holatini hisoblashni bilishi zarur. Shundan keyin kurs maqsadlarini toifalashtirish, maqsadlaridan aniqlashtirilgan natijalar olinishini ketma-ketlikda ishlab chiqish va ularga mos ravishda diagnostik testlar tayyorlanishi, o'qituvchi (pedagog) o'rganiladigan materialni qismlarga bo'lib o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv birliklarini aniqlashi, ularni tahlil qilishi va o'rganish bo'yicha qayta ishlab chiqishi lozim. O'quv birliklari aniqlangach, ularni o'rganishda qanday natijalarga erishishni birma-bir aniqlash, erishilgan natijalarni tekshirish uchun diagnostik harakterdagi test nazoratlarini o'tkazishi va bu nazorat natijalari baholanmasligi kerak. Bunda faqatgina «o'rgangan», «o'rganmagan» mezonlarida baholanadi va zarur tuzatishlar kiritib boriladi.

Navbatdagi bosqichda har bir test javoblaridagi xato va kamchiliklarni tuzatish bo'yicha o'quvchi-talabalar uchun yangi bo'lgan o'quv metodikasiga oid qayta o'rganishni tashkil etadi. Ushbu metodikani amalga oshirish quyidagi ketma-ketlikda kechadi.

1. Kirish qismi: o'quvchi-talabalarni to'la o'zlashtirish metodikasida ta'limga tayyorlash va ularda rag'batni vujudga keltirish.
2. To'la o'zlashtirishga yo'naltirilgan holda har bir o'quv birligi bo'yicha o'qitish.
3. Har bir o'quvchi-talabada o'quv materialining to'la o'zlashtirilganligini baholab borish.
4. Har bir o'quvchi-talabaga qo'yilgan bahoni izohlash.

Loyihalashtirilgan o'quv jarayonining birligi ikki kichik loyihaga ajratiladi. Birinchi qismida an'anaviy ta'limdagidek tushuntirish, ko'rsatish, izohlash, asoslash,

tushunchalarni shakllantirish, ularni bilish, amalga tatbiq qilish kabilar aniq ifodalangan maqsadlar asosida olib boriladi.

Loyihaning ikkinchi qismida har bir o'rganilgan o'quv birligi bo'yicha joriy test sinovlari olinadi. Test sinovlari diagnostik ahamiyat kasb etib, teskari aloqa vazifasini o'taydi, uni o'tkazishdan maqsad tuzatishlar kiritish, to'ldirishlarni amalga oshirishdan iborat bo'lib, buning uchun qo'shimcha o'quv tadbirlari belgilanadi.

Test natijalariga ko'ra o'quvchi-talabalar ikki guruhga ajratiladi: to'la o'zlashtirishga erishganlar va to'la o'zlashtirishga erishmaganlar guruhi.

O'quv birliklarini to'la o'zlashtirmagan o'quvchi-talabalar o'qituvchi (pedagog) rahbarligida ushbu o'quv birliklarini o'rganishni davom ettiradi. Ular bilan qo'shimcha tuzatish ishlari tashkil qilinadi va yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanadi hamda kamchiliklarni tuzatish uchun mashg'ulotlar olib boriladi. Bu mashg'ulotlar takroriy bo'lgani uchun uni bayon qilishda yangi usullardan foydalanish va ko'rgazmali qurollar va o'qitishning texnika vositalarini ishlatish, individual ishlardan foydalanish orqali ushbu guruh to'la o'zlashtirishga olib chiqiladi. To'la o'zlashtirishga erishganlar uchun qo'shimcha topshiriqlar beriladi, ular navbatdagi o'quv birligiga o'tkazilmaydi. Navbatdagi o'quv birligini o'rganishga ikkala guruh ham birga kiradi.

O'z navbatida o'quvchi-talabalar o'quv elementini qaysi darajada o'zlashtirishlari yoki qanday mahorat bilan bajarishlari kerak? Bu savolga psixologlar tomonidan yaratilgan faoliyat nazariyasi javob beradi. Har qanday faoliyat inson tomonidan oldin o'zlashtirib olingan axborotlar yordamida amalga oshiriladi. Axborotlardan foydalanish harakteriga qarab faoliyatning ikki ko'rinishini farqlash mumkin: nomahsul va mahsuldor. Ularning bir-biridan farqi shundaki, nomahsul faoliyatida inson o'ziga ma'lum bo'lgan harakat qoidalaridan foydalanadi va bu jarayonda har qanday yangi axborotlar yuzaga chiqmaydi, chunki u faqat oldin o'zlashtirgan usullarni qaytadan ishlab chiqadi.

Talabalar mahsuldor faoliyatni bajarishda doimo yangilikka duch keladi yoki yangi ob'ektlar, hodisa va jarayonlar, faoliyat metodlari vujudga keladi. Har ikki faoliyat turi ham mustaqil ravishda yoki tashqaridan ko'rsatilgan ta'sir yordamida bajariladi. Nomahsul faoliyat yo'riqnoma, lug'at orqali yoki harakatlarni bajarish qoidalari to'g'risida boshqa bir axborot manbalari asosida ko'rsatmasiz bajarilsa, mahsuldor faoliyat ma'lum metodik ko'rsatmalar ostida bajarilishi mumkin.

Professor N.Saydahmedov yuqorida bayon qilingan fikrlarni hisobga olgan holda o'quvchi-talabalarning o'quv materiallarini o'zlashtirish faoliyatini quyidagi 4 daraja asosida ko'rsatgan:

**1 daraja:** tashqi ko'rsatma ta'siridagi harakat. Bu faoliyat **tanishuv** darajasi deb nomlangan. Tanishuv darajasida o'quvchi- talabaning bilim olish, eslash qobiliyati oldindan o'zlashtirilgan materiallar matni bilan qayta tanishish asosida amalga oshishini tavsiflaydi O'quvchi-talabada o'ziga tanish materiallarni faqat ma'lum vaziyatlarda, ya'ni bu materiallar oldida turgan taqdirda eslash imkoni bo'ladi. O'zlashtirishning birinchi darajasi ob'ektlar, hodisalar, jarayonlar to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilish bilan chegaralanadi va ularni o'quvchi-talabaning bilib olishi noma'lum ob'ektlar qatorida kechadi.

**II daraja:** <u>xotira asosidagi harakat.</u> Bu faoliyatning **algoritm** darajasi deb nomlanadi. Algoritm darajasida o'quvchi-talabaning qobiliyati materiallarni yoki uning alohida qismlarini tashqi ko'rsatmasiz mustaqil ravishda qayta tiklay olishi bilan tavsiflanadi. Bu o'quvchi-talabalar o'zlashtirish darajasining birmuncha yuqori pog'onasi bo'lib, o'quvchi-talabalar o'z xotirasiga tayangan holda o'qituvchi (pedagog) o'rgatgan yoki adabiyotlardagi mavjud materiallarni ma'lum algoritm bo'yicha tushuntirib bera oladi.

**III daraja:** <u>nostandart vaziyatlardagi mahsuldor harakat</u>. Bu faoliyatning **evristik** darajasi deb nomlanadi. Evristik darajada o'quvchi-talabaning aniq masalalarni yechish qobiliyati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha materiallarni tanish va notanish vaziyatlarda mustaqil qayta tiklash evaziga yangi axborotlarni qo'lga kiritishi bilan harakterlanadi. Bilimlarni ko'chirish ma'lum masalalar sinfi bilan chegaralangan va butun bir o'quv predmeti bo'yicha tarqalmagan bo'ladi.

**IV daraja:** <u>faoliyatning yangi qirralarini tadqiq qiluvchi mahsuldor harakat.</u> Bu faoliyatning **ijodiy** darajasi deb nomlanadi. Ijodiy darajada o'quvchi-talabaning materiallarni mustaqil o'rganish va qayta ishlash qobiliyati mavjud axborotlarni yangi vaziyatlarda keng doiradagi masalalar yechimiga ko'chirish bilan tavsiflanadi. Faoliyatning bu darajasi izlanuvchanlik, ijodkorlik harakteriga ega bo'lib, turli vaziyatlarda o'zlashtirilgan keng doiradagi bilimlarni qator ob'ektlarda qo'llash bilan amalga oshiriladi.

Umuman olganda, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish sifati bo'yicha ta'lim maqsadlarining tashhislanuvchanligi o'zlashtirishning zaruriy darajalarini aniqlashtirishni talab etar ekan. Demak, birinchi navbatda, o'quvchi-talabalarning bo'lajak faoliyatiga va mutaxassislik mahoratiga qo'yilgan talablar e'tiborga olinadi.

O'qitish jarayonida o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari oldidagi davlat va ijtimoiy buyurtmalarni amalga oshirish, ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari va tamoyillari, talablarini hisobga olgan holda o'qitish qonuniyatlari va prinsiplari aniqlandi, o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida o'quv-tarbiya ishlari jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqildi.

Talabalarni zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlash maqsadida quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. O'quv-tarbiya jarayoni va pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalash, hamkorlik pedagogikasiga asoslanish.
2. O'quv-tarbiya jarayonida didaktik o'yin, muammoli, modulli ta'lim, loyihalash va hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning yakka tartibda va kichik guruhlarda mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil etib, ularni o'z o'quv-bilish faoliyatining sub'ektiga aylantirish.
3. Talabalarning mustaqil ishi va tahsilini rejali, bosqichma-bosqich, evolyutsion tarzda tashkil etish.
4. Talabalarning bo'lajak mutaxassislik faoliyatiga ilmiy-metodik jihatdan tayyorgarligini tahlil qilish, ularda ko'nikmalar shakllanishini hisobga olgan holda har bir talabaga o'zini o'zi rivojlantirishning individual ish rejasini tavsiya etish.

5. Ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish, talabalarda mustaqil tahsil olish va mustaqil fikrlashni shakllantirishga imkon beradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini ongli tanlash va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini egallashiga erishish.
6. Talabalarning bitiruv malakaviy ishlari mavzularini o'quv-tarbiya jarayonining dolzarb muammolariga bog'ishlash orqali izchil va muntazam ravishda o'z saviyasini oshirish va faol ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishiga zamin tayyorlash.

Talabalarning ilmiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda ularning ilmiy dunyoqarashi va ilmiy nazariy tayyorgarligiga asos bo'ladigan ijtimoiy-gumanitar va mutaxassislik fanlarini o'qitishda kasbiy yo'naltirilganlik, umumkasbiy fanlarni o'qitishda g'oyaviy yo'naltirilganlikni amalga oshirish, kasbiy tayyorgarlikni shakllantiradigan pedagogika, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, psixologiya kabi o'quv kurslari o'rtasida uzviylikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ta'lim jarayoni ham maqsadga muvofiq ravishda boshqariladigan tizim hisoblanadi. Har qanday tizimni maqsadga muvofiq boshqarish esa o'z navbatida, faqat teskari aloqa vositasida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonida teskari aloqa sifatida talabalarning bilim darajalarini nazorat qilish va baholash qabul qilingan. Mazkur masala ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida o'zining ko'p asrlik tarixiga ega bo'lib, bu sohada yetarlicha ilmiy-uslubiy tadqiqotlar o'tkazilgan.

Ta'lim jarayonining yana bir muhim sohasi borki, bu soha ta'lim jarayonini boshqarishni yanada takomillashtirish imkonini beradi. Bu masala har bir yangi o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlarning undan avval o'zlashtirilgan bilimlar darajasiga bog'liqligidir. Agar navbatdagi o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlarni undan oldingi o'zlashtirilgan bilimlar asosida prognoz etish masalasi ilmiy-uslubiy jihatdan hal etilsa va amaliyotda qo'llansa, bu hol, birinchidan, o'qituvchilar uchun har bir talabaning navbatdagi bilish faoliyatini boshqarishda katta imkoniyatlar yaratadi. Ikkinchidan, har bir talaba o'zini o'zi nazorat qilish imkoniga ega bo'lib, o'z faolligini oshiradi.

Bugungi kunda mutaxassis tayyorlashda talabalarning turli fanlardan, shu jumladan, pedagogik va kasbiy uslubiyotlar bo'yicha bilim, iqtidor va ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini nazorat qilish muhim o'rin egallaydi.

To'g'ri tashkil etilgan nazorat talabalarni olinayotgan bilimlarini yanada chuqurlashtirish va eng asosiysi, ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun turli vositalarni tanlash imkonini beradi. Talabaning o'quv faoliyatiga ta'sir etishning ikki qirrasi bor. Birinchisi-pedagog qo'llayotgan usul va metodlar bo'lsa, ikkinchisi pedagogning faqat shaxsiy hislatlariga bog'liq bo'lgan ta'sir etish vositalaridan foydalanishdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limning uzluksiz takomillashishida o'quv-tarbiya jarayonlarining usul va metodlarini yanada mukammallashtirish va talabalar o'quv faoliyatini boshqarish masalalari uzluksiz yechimli muammolar qatoriga kiradi.

Ta'lim jarayonida bilim, iqtidor va ko'nikmalar shakllanganligini nazorat qilish muhim o'rin egallaydi. O'tkazilgan tajribalarga va o'quv adabiyotlarida izohlangan ilg'or uslublarga asoslanib nazoratning mezoni va bajaradigan funksiyalarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Nazoratning diagnostik funksiyasi. Nazorat natijasida bilim, iqtidor va ko'nikmalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.
2. Nazoratning talabalarda bilim olishga ishtiyoqini o'stirish funksiyasi. Nazorat natijasida talabalarda o'z bilim, iqtidor va ko'nikmalarini yanada takomillashtirish ehtiyoji uyg'onadi.
3. Nazorat jarayonida talabalarning shaxsiy xususiyatlari shakllantiriladi va, eng asosiysi, rivojlantiriladi. Rivojlanish-aqliy va jismoniy faoliyatning birligida ko'proq namoyon bo'ladi.
4. Nazorat jarayonida talabalar o'z bilimlarini mustahkamlaydi. O'quv materiali yanada chuqur o'zlashtiriladi, hodisalar o'rtasida yangi bog'lanishlar o'rnatiladi, shu bilan aqliy faoliyat yanada takomillashadi.
5. Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi. Nazorat jarayonida talabalarning psixologik ijobiy hislatlari shakllanib bormog'i lozim.
6. Nazoratni baholash funksiyasi. Nazorat natijasida sifat o'zgarishlarining me'yori aniqlanadi.
7. Nazorat - ko'p qirrali murakkab jarayon. Nazorat talabalarda doimo jonli qiziqish, kuyunish, ayanch, xursandchilik hislarini uyg'otib, aqliy faoliyatni faollashtiradi. Yuqorida ko'rsatilgan funksiyalar bir-biriga uzviy bog'langan holda yuz beradi.

To'g'ri tashkil qilingan o'z-o'zini nazorat esa o'quv materialini o'zlashtirishga ijodiy va tanqidiy yondashish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, yangi predmet o'rganilayotganida bundan oldingi o'quv predmetlarida o'zlashtirilgan bilimlarning darkorligida ko'rinadi. Talabalar mustaqil ishlab yetishmaydigan bilimlarini to'ldirib borsa yaxshi, ammo o'zini o'zi nazorat qila olmaydigan talabalarning yangi mavzuni o'zlashtirishi ancha murakkab kechadi. Shuning uchun ham oliy o'quv yurtlarida ishlaydigan pedagoglar yangi predmet va yangi mavzuni boshlashdan oldin talabalarning yangi dasturni o'zlashtirishga qanchalik tayyorligini aniqlash maqsadida dastlabki nazoratni amalga oshirishlari kerak bo'ladi.

Nazoratning joriy, oraliq, yakuniy kabi 3 ta turi va yozma, og'zaki va test sinovlari hamda turli amaliy shakllari mavjud.

Nazoratning turli testlar orqali amalga oshiriladigan shakli ko'pgina ustunliklarga ega. Pedagog-olimlar I.Y.Tursunov va U.N.Nishonaliyevlarning ma'lumotlariga qaraganda, testlar orqali quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- talabalar nazariy va amaliy bilimlarining darajasini ob'ektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;
- bir vaqtning o'zida bir guruh yoki ko'p sonli talabalar bilimini nazorat qilish mumkin;
- barcha talabalarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, hammasiga bir xil sharoit yaratiladi;
- test natijalarini o'qituvchi tezlikda tekshirishi mumkin;
- turli guruh talabalari bilimini solishtirib qo'llanayotgan metodning samaradorligin aniqlash mumkin;
- ta'lim jarayonining kamchiliklarini aniqlash mumkin.

Ko'pgina oliy o'quv yurtlarining talabalari fanlarni mustaqil o'zlashtirishn kompyuterlar yordamida tashkil qiladi. Kompyuterlar yordamida tashkil qilishning asosiy manbalaridan biri zamonaviy talablarga javob beradigan o'quv-nazora

dasturlari ta'minotini yaratishdan iborat. Kompyuter zamonaviy texnika vositasi sifatida ular yordamida talabalarning nazariy bilim asoslari bilan qurollanishiga yordam beradi, o'quv materialini faol o'zlashtirishga, egallangan nazariy bilimlarni amalda tatbiq qila olishga o'rgatadi hamda talabalarning o'zlashtirish darajasini tez va haqqoniy aniqlashda qulay vosita bo'lib xizmat qiladi.

Keyingi yillarda ta'lim-tarbiya jarayonining ko'pgina elementlarini kompyuterlashtirish bo'yicha, ya'ni o'quv materialini bayon qiluvchi o'qitish dasturlari, tasavvur qilish qiyin bo'lgan jarayonlarni namoyish qiluvchi dasturlar, talabalar o'zlashtirish darajalarini har xil usullarda nazorat qiluvchi dasturlarni amaliyotga tatbiq qilish kabi bir qator ishlar amalga oshirildi. Ammo ta'lim-tarbiya jaaryonida foydalanish uchun mo'ljallangan dasturlar yaratishga va ulardan keng foydalanishga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Ushbu masalalarni hal qilish maqsadida talabalarning mustaqil ravishda bilim olishi va o'zlashtirish darajalarini aniqlash kompyuter dasturi yaratilgan bo'lib, undan foydalanish natijasida talabalar fanlarni mustaqil tarzda o'zlashtirishlari bilan birga, o'z bilim darajasini aniqlashga ham erishishadi. Dasturdan foydalanish sodda bo'lib, unda xuddi Windows operatsion tizimida ishlagandek ishlash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Dastur ishga tushirilgach, u bilan ishlash bo'yicha ko'rsatma oynasi hosil bo'ladi. Ko'rsatma bilan tanishib bo'lgach, talabalar tanlagan ko'rsatmalari bo'yicha bir necha oynalar birin-ketin hosil bo'ladi. Dastur oynalaridan eng asosiylaridan biri «O'quv dasturi» bo'limi bo'lib, buni tanlash orqali «Mavzuni tanlash» oynasi hosil qilinadi. Talaba bu oynadan ketma-ket fakultet, kafedra, fan va mavzu nomlarini tanlashi, so'ng oynadagi «Mavzuni o'qish» bo'limi ustida «sichqoncha» tugmasini bosishi zarur. Natijada talabadan ismi, sharifi va guruh raqamini kiritish so'raladi. Bu ma'lumotlar kiritilgandan so'ng «Davom etamiz» ko'rsatmasi tanlanadi hamda talabadan «Kerakli mavzuni tanlash» va «Mavzu bo'yicha test sinovi» bo'limlaridan birini tanlashni talab qiluvchi navbatdagi oyna hosil bo'ladi. Talabalar xohishiga ko'ra ushbu bo'limlardan birini tanlashi mumkin.

Dasturda talabaning mavzuni o'zlashtirish darajasini hisobga olishda reyting tizimi e'tiborga olingan bo'lib, agar talaba 55% dan ortiq o'zlashtirishga erishsa, boshqa fanni (yoki mavzuni) tanlashi va o'z bilim darjasini aniqlashi yoki mavzuni qayta o'rganishga va o'z bilim darajasini aniqlashga erishishi mumkin. Talabalarning mavzuni mustaqil o'zlashtirganlik darajasini tahlil qilish uchun «Mavzuni tanlash» oynasidagi «Ma'lumotlar ombori» bo'limi tanlanadi. Natijada «Tekshiruv oynasi» hosil bo'ladi va kerakli parolni kiritish so'raladi. Kerakli parol kiritilgandan so'ng, «Tekshiruv» oynasidagi «Yangi parol kiritish», «Parolni tasdiqlash», «Bazani tozalash», «Omborga kirish», «Hisobotlar» va «Chiqish» kabi bo'limlar ishchi holatda bo'ladi. Oynaning «Hisobotlar» bo'limi orqali dasturdan mustaqil shug'ullangan talabalar haqidagi ma'lumotlarni olish mumkin. Bu dasturning qulaylik tomoni shundaki, fan bo'yicha tayyorlanaadigan didaktik materiallar (nazariy ma'lumotlar va test savollari) Word dasturida tayyorlangan bo'lsa, uni o'qish imkoniyatiga ega. Ushbu dasturdan ixtiyoriy fanlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Buning uchun fanlar bo'yicha tayyorlangan didaktik materiallar ushbu dastur bazasiga kiritilsa va dasturga bog'lansa, mashg'ulot

sifati yanada yaxshilanadi, talabalar kompyuter orqali mustaqil tarzda bilim olishga erishadi.

## 2.2. O'zlashtirishning xorijiy mezonlari

Xorijda olib borilayotgan tadqiqotlarda o'quvchi-talabalar faoliyatini shakllantiradigan reproduktiv–esda qolganlarni tiklashga oid o'zlashtirishdan tashqariga olib chiqishga harakat bo'lyapti. Amerikalik ruhshunoslar-R.Gane va L.Briggslar (1979) aniq o'quv maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan va shu bilan birga mahsuldor tafakkur darajalariga erishishga rag'batlantiruvchi unsurlarni o'z ichiga olgan quyidagi dars qurilmasini tuzishni taklif qilishgan, dars o'tishning bu usuli xususiy o'quv maqsadlariga erishishga hamda fikrlash (tafakkur)ning mahsuldor darajasini rag'batlantirishga qaratilgan:

- o'quvchi-talabalar diqqat-e'tiborini bir joyga jamlash;
- o'quvchi-talabalarni dars maqsadlaridan xabardor qilish;
- zaruriy bilim va mahoratlarini yodda saqlab qolish ko'nikmalarini egallash zarurligini uqtirish;
- ma'lum aks-sado qabilida, ya'ni qiziqish uyg'otadigan va ularni harakat qilishga undaydigan o'quv materialini taqdim qilish;
- o'quvchi-talabalarning o'quv materialidan ta'sirlanib qiladigan aks-sado qabilidagi javoblarini yuzaga keltirish;
- fikrlash faoliyatiga ta'sir qilish, olingan bilimlar va mahoratning mustahkam bo'lishiga erishish;
- o'quvchi-talabalar faoliyatini rag'batlantirish.

Ingliz olimi A.Romishevskiy pedagogik texnologiya metodining quyidagi variantini tavsiya etadi:

1. O'quvchi-talabalarni kerakli bilimlardan xabardor qilish.
2. Esda qolganlarni tiklashga doir mahoratni shakllantirish.
3. O'quvchi-talaba bajaradigan ish-harakatni yaxlit holda va qismlari bo'yicha namoyish etish.
4. Malaka hosil qilishni soddalashtirish (berilgan vazifani bo'laklarga bo'lib bajartirish).
5. O'quvchi-talaba mustaqil bajarayotganidan xabardor bo'lib, uni rag'batlantirib borish.
6. Mahsuldor, izlanuvchan davrga o'tish.
7. Turli xil muammoli vaziyatlarni tashkil etish va yangi hamda o'ziga xos masalalarni yechish.
8. O'quvchi-talabalar o'z faoliyatini tahlil qilishlari, o'qituvchi (pedagog) ham o'z navbatida ularning vazifani qanday bajarganliklarini guruhda muhokama qilishlari.

Amerikalik ruhshunos olim F.S.Keller oliy o'quv yurtlari uchun pedagogik texnologiyalarning individuallashtirilgan o'qitish tizimini taklif qildi.

F.S.Keller rejasining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quv materialining mazmunini to'liq o'zlashtirishga yo'naltirilgan, avvalgi bo'limga qo'yilgan talablarni o'zlashtirishni o'z ichiga oluvchi usulni keyingi bo'limga o'tishning bevosita sharti deb qaralishi;

- o'quvchi-talabalar har qaysisining o'z o'zlashtirish sur'atiga mos ravishda alohida-alohida ishlashlari;

- va'z-ma'ruzalardan faqat motiv hosil qilish va o'quvchi-talabalarni umumiy yo'naltirish maqsadlaridagina foydalanish;

- chop etilgan o'quv axborotlarini bayon qilish uchun nashr etilgan o'quv qo'llanmalaridan foydalanish;

- o'quv materialining qanday o'zlashtirilganligini aniqlashda yordamchi-assistent (aspirant, a'lochi talaba)lar kuchidan foydalanish.

Har bir o'qitilayotgan fan (har qaysi o'rgatilayotgan bo'lim yoki bob yuzasidan o'quvchi-talaba ma'lum yo'l-yo'riq oladi. Bunda bo'lim yoki bobning maqsadlari ko'rsatilishi, o'quv ishlarining ma'lum turlari tavsiya qilinishi, o'quvchi-talaba o'zini-o'zi tekshirishi va nazorat savollarining ro'yxati keltirilishi kerak. O'quvchi-talabalarga o'quv faoliyatining turlari va ishlash tartibini erkin tanlash imkoni beriladi. O'zlashtirilgan bob, bo'lim bo'yicha imtihondan avval har bir o'quvchi-talabani yordamchi assistent o'qituvchi ishlab chiqqan aniq talab va mezonlarga mos holda (materialning to'liq yoki noto'liq o'zlashtirilganligiga qarab «o'tdi», «o'tmadi» shaklida sinovdan o'tkaziladi) baholanadi. Qoniqarsiz baho olishganida yordamchi tavsiyasiga ko'ra o'quvchi-talabalarga qo'shimcha materialni o'zlashtirilishi yuzasidan tavsiyalar beriladi. Sinovdan o'tish keyingi bo'limni o'rganish uchun o'ziga xos ruxsatnoma bo'lib xizmat qiladi. Ma'ruzalar soni ko'p bo'lmaydi (bir semestrda 6 tagacha), ularga qatnashish majburiy emas.

Kellerning rejasi AQSH oliy o'quv yurtlarida keng tarqalgan, u yerda ham tabiiy-ilmiy hamda gumanitar-ijtimoiy fanlar o'qitishda qo'llaniladi. 70-80-yillarning o'rtalarida o'tkazilgan pedagogik tajribalar Keller rejasini o'qitishning an'anaviy turlariga qiyoslaganda o'qituvchi (pedagog) tomonidan o'quv yurtlariga qo'yilgan o'quv vazifalarini amalga oshirishda yuqori samarador ekanligini tasdiqladi.

V.Guzeev Rossiya Federatsiyasida asosiy tarkibiy qismlari, umuman olganda, quyidagilar hisoblanuvchi integral pedagogik texnologiyani ishlab chiqdi va uning asosiy qismlari, umumlashgan holda quyidagilardan iborat:

1. O'qitishning har bir ixtisos-mutaxassisligi uchun tashhisli va o'ylanganlarni amalga oshirishga mo'ljallangan maqsadlarning ko'p darajali tizimlari rejalashtirilgan o'qitishning natijalari ko'rinishida taqdim etiladi.
2. Ta'lim jarayonining yirik tuzilmasi darslar bloki bilan eng kichik birliklar sifatida birlashtirilib, ta'lim mazmunining katta birligini tashkil etadi.
3. Guruhlar tarkibi va faoliyatida aniq qurilgan dinamika-rivojlanish sur'ati bilan guruhli o'rgatish jarayonining muvaffaqiyatli monitoringi asosida har bir qadami avvalgilarning natijasiga bog'liq ravishda loyihalashtiriladi.
4. Ta'lim jarayonini boshqarish va o'qitish jarayoni kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilganlar ta'limga texnologik yondashuvning shakl va variantlari xilma-xilligidan dalolat beradi. Rossiya Federatsiyasida shu masalaga aloqador bir qator ilmiy-metodik va davriy nashrlar, jumladan, «Shkolnie texnologii» nomli yangi pedagogik jurnal ham chiqarilmoqda. Bularning barchasi zamonaviy pedagogik texnologiyaning imkoniyatlari, qudrati qanchalar ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi. Bu sohadagi xorijiy tajriba bilan tanishuv O'zbekiston pedagoglari uchun

o'qitishga yangicha yondashish, pedagogik texnologiya sohasidagi chet el tajribalarini o'rganish, milliy-madaniy an'analarimiz va ta'lim-tarbiya sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarni teran anglash hamda ularni o'zlashtirish va keyinchalik ulardan amaliyot yoki ishlab chiqarishda foydalanish uchun turtki bo'lib xizmat qiladi.

O'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanish talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, bilish faoliyatini faollashtiradi, o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligi yuqori darajada bo'lishiga imkon yaratadi.

### 2.3. Talabalar tanqidiy fikrini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni

Tanqidiy fikr - bu qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishga asoslangandir. Yana bu qoidaga aniqlik kiritadigan bo'lsak, fikrlash - bu o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Tanqidiy (tahliliy) fikr shu bilan ahamiyatlidir:

- hayotning murakkab o'zgaruvchanlik ma'nosini tushunib yetishga yordam beradi;
- jamoaning ochiq fikrini rag'batlantiradi;
- aloqa, tushunish va hurmatning ikki tomonlamaligini anglatadi;
- shaxsning rivojlanishiga sharoit yaratishi va boshqalar.

Ta'lim jarayonida tanqidiy (tahliliy) fikrlashning asoslanishi:

1. O'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba o'rtasidagi hamda o'quvchi-talaba bilan o'quvchi-talaba o'rtasidagi o'zaro hurmatni tarbiyalaydi.
2. Mashg'ulot jarayonida o'quvchi-talabaning o'z tajribasidan foydalaniladi.
3. Ma'lum o'quv mazmuni o'quvchi-talabaning talablariga mos va aniq tarzda foydalaniladi.
4. Muammoni hal qilishda o'quv materiallaridan foydalaniladi.
5. Har xil fikr va qarashlar integratsiyalashadi.
6. Dastlabki shart-sharoitlar qabul qilinadi va tekshirib ko'riladi.
7. Ta'lim o'qituvchi(pedagog) bilan o'quvchi-talabalar orasidagi yoki o'quvchi- talabalarning o'zlari o'rtasidagi munosabatlar orqali berib boriladi.
8. O'quvchi-talabalarning mustaqil ta'lim olishi uchun sharoit yaratiladi va ularning tayyorgarlik darajasiga muvofiq metodlar tanlanadi.

Mashg'ulotlar jarayonida foydalaniladigan didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni ongli ravishda kasb-hunarga yo'llash, didaktik o'yin davomida vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda mo'ljalni to'g'ri olish, har xil vaziyatlarni tahlil qilib to'g'ri xulosa chiqarishga zamin hozirlaydi.

O'quv dasturlari talablariga muvofiq muammoli yoki munozarali mashg'ulotlarning tashkil etilishi tanqidiy va tahliliy fikrlarning rivojida muhim

ahamiyatga ega. O'quv jarayonida munozarali darslarning ikki xili: ilmiy munozara darslari va erkin fikrlash darslaridan foydalaniladi.

Interfaol metodlar - o'zaro fikr almashishga, o'zaro fikrlarni to'ldirishga, goh noverbal, goho verbal ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlarni qo'llashda o'zaro ta'sir asosiga qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sir yoki turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmaydi va hamkorlik sub'ektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga(kashf etishga) ko'mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarni yaratish funksiyalarini ham bajarishi mumkin.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalarga muvofiq va munosib ravishda quyidagi interfaol metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning ko'rgazmali metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- muammoli-evristik modellashtirish metodi;
- ilmiy tadqiqot metodlari;
- o'qitishning muammoli-izlanishli va reproduktiv metodlari;
- o'qitishning induktiv va deduktiv metodlari;
- o'qitishning nazorat va o'zini o'zi nazorat qilish metodlari.

Metodlar quyidagi guruhchalarni o'z ichiga oladi:

Birinchi guruh metodlari: o'quv axborotlarini eshitish orqali qabul qilish metodlari (og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar).

Ikkinchi guruh metodlari: o'quv axborotlarini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar).

Uchinchi guruh metodlari: o'quv axborotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, dasturlar tuzish, mashq va masalalar hamda test topshiriqlarini yechish, mehnat harakatlari va boshqalar).

Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda talabalarga yashirincha usullardan (kitob, konspektlar va h.k.) foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha bunday usullarni qo'llash rag'batlantiriladi.

Talabalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, muammolarni hal qilishda tayyor standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qilishga undash, talabalar ichki hissiyotlarini yuzaga chiqarib, ularni mantiqiy fikrlashga chorlash, ularni solishtirish, xususiy analitik fikr yuritishga o'rgatish, ularning intellektual, zukkolik hislatlarini shakllantirish va ma'lum yo'nalishda yanada yuqori darajada rivojlantirish maqsadida muammoli uslubdan foydalaniladi.

Muammoli vaziyat qanday hosil qilinadi? Buning uchun bajarilishi lozim bo'lgan topshiriq e'lon qilinadi. Endi shu vazifani bajarish uchun talaba bor bilim va ko'nikmalarini eslaydi, topshiriqni bajarishda shu paytgacha egallagan bilimlarining yetishmasligini sezish bilan birga talaba shaxsida ma'lum psixologik qarama-qarshilik shaklidagi holat yuz beradi. Galdagi muammo topshiriqni bajarish va shu topshiriqni bajarish uchun yangi bilim, iqtidor va ko'nikmalarni izlash muammosi paydo bo'ladi. Ana shu vaziyat esa muammoli tahsilning boshlanish jarayoni hisoblanadi.

Pedagog talabalarning topshiriqni mustaqil bajarish jarayonini zukkolik bilan boshqaradi, e'tibor bilan kuzatadi, kerak bo'lganda jonli muloqotga chorlaydi. Talabalar mantiqiy fikrlash davomida ularning jonli mushohadasi, fikr doirasi pedagog tomonidan izchillik bilan hisobga olinadi va tahsil oxirida faol talabalarga qo'yilgan ballar yoki baholarni e'lon qiladi.

Talabalarda umumlashgan psixologik va uslubiy bilim, iqtidor va ko'nikmalarni shakllantirish, o'z tajribalarini tanqidiy nuqtai nazardan yanada mustahkamlash, real haqiqiy amaliyotdagi sharoitda sinash va amaliy ko'nikmalarni yangi bilimlar bilan yanada boyitish maqsadida shu uslubdan foydalaniladi.

Ma'lumki, har qanday fan o'qitilishi uchun belgilangan maqsadga ko'ra, uning mazmuni tanlanadi. Uni o'zlashtirish uchun unga mos metodlar tanlanadi. So'ngra o'quv vositalari va nihoyat, bularga mos ravishda o'qitish shakli tanlanadi.

Talabalarning psixologik tayyorgarliklari va fikrlash yoki olingan bilimlarni o'zlashtirish darajalariga qarab har bir ta'lim bosqichi uchun mos mazmun va metodlar tanlanadi. Har bir bosqichning o'ziga xos mazmunini bayon qilish mantiqi va metodlari bor. Ta'limda har doim mazmun va metodlar muammosi mavjud, bu muammolar bir-biri bilan uzviy bog'langan. Ta'lim metodlaridagi muammolar «Kimni qanday o'qitamiz?» degan savol bilan bog'liq bo'lib, bundan ta'lim metodlarini ishlab chiqish uning mazmuniga bog'liq ekanligi kelib chiqadi. Bu ikki muammo o'zaro qarama-qarshilikda bo'lib, bir-birini to'ldirib boradi.

Metodikaning maqsadi mazkur fandan yangi o'quv fani (o'quv predmeti) yaratish va bu fanning o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat. Bunday o'quv fanlari talabaning barcha talab va ehtiyojlarini qoniqtirishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar talablari asosida «avval o'qish, so'ngra, bu o'qishga o'rgatish uchun o'qitish» prinsipiga asoslanishi, talabaning o'quv materialini o'zlashtirishidagi ko'rsatkich va o'zlashtirish darajalari, nazariy va amaliy bilimlarini egallashda «soddadan-murakkabga» qoidasiga asoslangan nazorat topshiriqlarini belgilash hamda talabalarga individual va tabaqalashgan holda yondashuvlar xususiyatlarini hisobga olishi lozim.

An'anaviy metodikada talaba shaxsining rivojlanishini hisobga olgan holda uning bilimi ko'nikmaga, undan esa malakagacha rivojlanishiga ahamiyat berilmasligi ayon. O'qituvchi talabaga iloji boricha o'rganilayotgan mavzudan ko'proq axborot berishga harakat qiladi. O'qituvchi axborotlarni to'plash, axborotlarni tanlash va qayta ishlash, o'rganilgan axborotlarni qo'llash kabi bilishning uchta bosqichdan iborat modeliga har doim ham rioya qilavermaydi. Keyingi navbatda talabaning bilish faoliyati (olgan bilimi) uni bilish faoliyatining yangi pog'onasiga, ya'ni bu bilish faoliyatining faollashuv jarayoniga ko'tarishi kerak. Shundagina bilim ko'nikmaga, ko'nikma esa malakaga aylanadi. Talabalar bilish faoliyatining faollashuvi quyidagi prinsiplarga tayanadi: fanni o'rganishga qiziqtirish, tayanch iboralarga asoslanish, muammoli metodlarni qo'llash, mustaqil ishlarni tashkil etish, yalpi va yakka ishlarni tashkillashtirish, ko'rgazmali va texnik vositalardan foydalanish, ta'lim mazmunini turmush bilan bog'lash, fanlararo aloqadorlikni o'rnatish va hokazo. Bundan esa ta'lim jarayonida o'qituvchi rioya qilishi kerak bo'ladigan asosiy prinsiplar kelib chiqadi:

- talabada o'z kuchiga ishonish hissiyotini uyg'otish;

- talabada o‘z vaqtida kerakli yordam berish.

Talabalarning fanlarga oid tanqidiy fikrini bilish maqsadida quyidagi varaqalar tarqatilgan:

1. Ma'ruzani eshitib yozib bordim, lekin o‘zlashtirilayotgan material mohiyatini bir davrning o‘zida to‘liq tushunib yetmadim.
2. Oliy ta'limning mazmuni va shakli o‘rta maktabnikidan nimasi bilandir farq qiladi.
3. Ilmiy tushunchalar, atamalar va ta'riflardan foydalanishda qiyinchiliklarni his qilaman.
4. Ma'ruza va seminar mashg‘ulotlarining mohiyatini tushuna olmayman.
5. Nazariy bilimlar bilan amaliyot o‘rtasida birmuncha nomutanosibliklar mavjud.
6. Mustaqil faoliyatni rejalashtirishning oqilona usullari yetishmaydi.
7. Mustaqil bilim olish uchun juda oz vaqt qoladi.
8. O‘quv yili davomida bir qancha materiallar individual ishlashga yig‘ilib qoladi.
9. Reyting nazoratida his-tuyg‘uda barqarorlikning yetishmasligi sababli diqqatni bir joyga to‘play olmayman.
10. Seminar mashg‘ulotlari va reyting nazoratiga tayyorlanish uchun birlamchi manbalarning yo‘qligi yomon oqibatlarga olib keladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo‘l ham yo‘q. Ammo tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o‘quv sharoitlari to‘plami mavjud.

Tanqidiy fikrlash tajribasini egallashi uchun talabalarga vaqt va imkoniyat berish zarur, ya'ni;

- talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman g‘oya va fikrlarni qabul qilish;
- talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;
- har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga uning o‘zida ishonch hissini uyg‘otish;
- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan talabalar:

- o‘ziga ishonchni orttirish, o‘z fikri hamda g‘oyalarining qadrini tushunish;
- ta'lim jarayonida faol ishtirok etish;
- turli fikr va g‘oyalarni e'tibor bilan tinglash;
- o‘z hukmlarini shakllantirishga va undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Tanqidiy (tahliliy) fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki talabalar sustkash tinglovchilar bo‘lishadi, ularda o‘qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlariga o‘qituvchi mas'ul, degan ishonch shakllanib qolgan. Ta'lim jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va ta'limga o‘zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi, tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o‘z g‘oyasi va fikrlari bilan o‘zaro o‘rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o‘stiradi.

Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talabalarning fikrlari, o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi (pedagog) talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan xoli bo'lishi lozim. Bu esa talabalarda o'zgalar g'oyalarini mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish kerak. Talabalarning o'zlari ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari hamda masalalarni muhokama qilish jarayonida o'ta muhim va katta hissa bo'lib hisoblanishini tan olishlari kerak.

Fikrlash jarayoni talabalarning o'zaro bir-birlari bilan fikr almashishlarini ko'zda tutadi. O'zaro fikr almashishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlari tizimini so'rovchiga zo'rlab o'tkazish va boshqa so'zlovchilar fikrini tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq, talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o'z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g'oyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud, ya'ni o'ziga ishonch hosil qilish, ishda faol ishtirok etish, o'rtoqlari va o'qituvchi bilan fikr almashish, o'zgalar fikrini tinglay olish va boshqalar.

Umuman olganda, talabalarning tanqidiy (tahliliy) fikrini rivojlantirish oliy o'quv yurtlaridagi o'quv-tarbiya jarayonida kamol toptiruvchi hamda tarbiyalovchi prinsiplarni amalga oshirishda va talabalarning o'zini o'zi boshqarishida muhim rol o'ynaydi.

**«Agarki, dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning orasida eng sharaflisi-o'qituvchilik va murabbiylikdir»**

***I.A.Karimov-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti***

## 3-MAVZU. O'qituvchi-kasb egasi sifatida

**Reja:**

1. **O'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari.**
2. **O'qituvchining nutq madaniyati.**
3. **Og'zaki va yozma nutq-o'qituvchining ikki muhim quroli sifatida.**

### 3.1. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi pedagogga qo'yiladigan zamon talablari majmuini belgilaydi.

Bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq o'qituvchiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

ta'lim berish mahorati;

tarbiyalay olish mahorati;

o'quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiy fazilatlari;

ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati va h.k..

Umumlashtirilgan modelning doirasidagi malakaviy zamon talablari pedagog «qiyofa»sini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi aholisi uchun ta'lim darajasini oshiruvchi omillardan biri bo'lib ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga jadal sur'atlar bilan kirib borish jarayoni hisoblanadi. Bu birinchi navbatda, bozor munosabatlarining rivojlanishiga bog'liq bo'lib, u jarayon bilim darajasiga, iqtisodiyot va ekologiya (atrof-muhit), kompyuter texnikasi va ilmbardosh texnologiyalar ustuvor bo'lgan va xalk xo'jaligining rivojlangan tarmoqlariga, ta'lim tizimining takomillashuvi va kadrlar tayyorlashga bog'liq bo'ladi.

Kadrlarning yangi avlodini tayyorlash muammosining samarali yechimi, birinchi navbatda, hozirgi kun talablariga javob bera oladigan psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, ekologik madaniyat, huquqshunoslik va shunga o'xshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga ega bo'lgan har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlarning tayyorlanishi bilan bog'liqdir.

Olib borilgan kuzatishlar va AQSH, Germaniya, Yaponiya, Fransiya va boshqa jamoati hamda intellektual bilimlari rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, asosan, quyidagilarga bog'liq bo'lar ekan:

- ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro samarali aloqadorligiga;

- ta'lim muassasalari va professional ta'lim dasturlari turlarining (tiplarining) xilma-xilligi, ularda fan va texnikaning eng oxirgi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarning eng yuqori andozalari va ko'rinishlariqay darajada aks ettirilganligiga;

- professional ta'lim tizimini ustuvor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqka aylantirishga;

- ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash va ularning moddiy-texnik asosini yaratish hamda ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini mustahkamlashga;

- professional ta'lim tizimiga eng yuqori malakali o'qituvchilarni va mutaxassislarni jalb etishga;

- o'quv jarayonini informatizatsiyalash va kompyuterlashtirishga;

- kadrlarni tayyorlashning sifat bahosini va ob'ektiv nazorat tizimini qo'llashga;

- shaxsning rivojlanishi, o'lchovi, sifat va hulqini, qobiliyat va intellektini baholash hamda kasbiy mahorati muammolariga bag'ishlangan psixologik-pedagogik izlanishlarni bajarishga;

- o'qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag'batlantirish va ularni ijtimoiy himoyalab turishga.

Bugungi kun mutaxassisi har tomonlama rivojlangan yuqori darajadagi intellektga ega bo'lgan, fan asoslarini chuqur o'rgangan bilimdon, zukko, dono, oqil, ma'rifatli va ma'naviyatli inson bo'lishi kerak. U o'z mutaxassisligi, masalan, iqtisodchilikdan tashqari, xorijiy tillardan birini bilishi hamda AKT dan foydalana

olishi shart.

Zamonaviy pedagog yuqori madaniyatli, xalkimiz tarixini chuqur biladigan va uning kelajagi uchun jon kuydiradigan insonparvar va oliyjanob kishi bo'lishi kerak.

Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko'ngildagidek o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g'oyat murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini ta'kidlash lozim.

Shunday ekan, o'qituvchilik-katta san'atdir. Bu san'atga u yoki bu pedagog osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. Shuning uchun, o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlod uchun chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan-naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun standart, ya'ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi.

Bu jarayonda ilg'or o'qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o'qituvchi o'rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o'z faoliyatini ilgor tajribalar bilan boyitishi zarur. O'qituvchining pedagogik mahorati, asosan, sinfda, auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rinadi. Chunki o'quv mashg'ulotlari o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra o'qituvchining o'quv yurtidagi asosiy ishidir. Shuning uchun u ilmiy-g'oyaviy jihatdan yetuk va ommabop bo'lishi, turmush bilan, o'quvchi yoki talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan uzviy aloqador bo'lishi zarur. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi yoki talabalar o'rtasida o'zaro jonli til muloqoti, fikr almashuv munosabatlari, samimiy hurmat va asosiy maqsadga erishishda yaqin hamkorlik lozim. Mazmuni sayoz, amaliy tajribadan, turmushdan ajralib qolgan, umumiy so'z va quruq nasihatguylikdan iborat bo'lgan, rasmiyat uchun yuzaki o'tkaziladigan dars (ma'ruza) va boshqa o'quv mashg'ulotlari o'quvchi talabalarni qiziqtirmaydi, ularni ilmiy, g'oyaviy jihatdan yetarli oziqlantirmaydi. Shu sababli o'quv mashg'ulotlarini shunday tashkil qilish kerakki, ularning ta'sirida talabalarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e'tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi kerak.

Ta'lim va tarbiya jarayoni ta'sirchanligining yanada yuksak bo'lishi o'qituvchining ilmiy salohiyatiga, yoshlar oldidagi obro'siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste'dodiga, ta'lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda o'quvchi yoki talabalar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatiga bog'liqdir.

Zamon talablari professor-o'qituvchilarning o'zlarida mavjud bo'lgan bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini qunt va sabot bilan o'rganib, mag'zini chaqib, undan keyin o'z talabalariga saboq berishlari zarurligini taqozo etadi.

Pedagogik faoliyat samarasi o'qituvchining pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganligiga ham bog'liqdir. Qobiliyat-faoliyat jarayonida paydo bo'ladi v

rivojlanadi, deb ta'kidlanadi Jumladán, bilish qobiliyati, tushuntira olish qobiliyati, nutq qobiliyati, obro' orttira olish qobiliyati, muomala qila bilish qobiliyati kabilar.

Pedagogik qobiliyat va mahorat o'qituvchida osonlik bilan shakllanmaydi. Bu kasbni tanlagan kishi o'z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o'qishi, o'rganishi va izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, o'z yurti va dunyodagi real voqelikni tez anglashi va o'z mehnatining mamlakat uchun qanchalik zarurligini chuqur his qilishi zarur.

O'qituvchining pedagogik mahorati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ongligiga, milliy g'oya va mafkuraga sodiqligiga, bilish va fikr doiralarining kengligiga, o'z vazifasiga munosabatiga e'tibor bermok kerak. Ayniqsa, pedagogik mahorat bobida o'qituvchining fikr doirasi keng bo'lish zarurligini alohida hisobga olish lozim. Chunki kishida bilim va fikr mukammal bo'lmasa, u kamolotga erisha olmaydi. Darhaqiqat, kishi u yoki bu masalani, albatta fikr orqali hal etadi. Shuning uchun, pedagogik mahorat sohibi bo'lishga intilgan kishi, shubhasiz, o'z bilimini doimo kengaytirishi, o'zining o'quvchi yoki talabaga ma'naviy-axloqiy ta'sir etuvchi g'oya va fikrlarini yangilab borishi zarur. Buning uchun u ko'p o'qishi va o'rganishi lozim. O'qituvchining pedagogik mahoratiga baho berishda uning ta'limni qay darajada tashkil qila bilishi muhim ahamiyatga egadir.

Uzluksiz ta'lim tizimida dars va boshqa turdagi barcha o'quv mashg'ulotlarini mukammal tashkil qilish-o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifasidir. Yuqori saviyada o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlar ongida uzoq saqlanadi, ularda imon-e'tiqod va mafkuraning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, o'qituvchining ilmiy saviyasi uning o'z burchiga munosabati, yoshlarga murabbiylik ishtiyoqi, pedagogik mahorati va, eng avvalo, sifatli dars bera olishida ko'rinadi. Fan o'qituvchisining faoliyatiga beriladigan baho darajasini ham dars va boshqa turdagi mashg'ulotlarning sifati belgilaydi.

Dars berish san'atini mukammal egallagan o'qituvchi uyushtirgan o'quv mashg'uloti chuqur bilim berish vositasi bo'lishi bilan birga mustaqil O'zbekistonning ravnaqi, ertangi kunga bo'lgan ishonchi, xalqimizning aql-zakovati va mehnatining nimalarga qodirligi, jamiyatning munosib fuqarosi va sodiq quruvchisi bo'lish uchun nimalar qilish zarurligini ko'rsatuvchi ko'zgu bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, birinchi navbatda, yoshlarimiz o'z murabbiylari darsidan har jihatdan mamnun bo'lsinlar. Ularda romantik orzular uyg'onsin, tafakkuri rivojlansin, amaliy faoliyat, ijodiy qobiliyat, o'qish-o'rganish va mehnatga havas kuchaysin. Ular o'quv mashg'ulotidan so'ng olgan baholari bilan emas, balki bilim va malaka hosil qilganliklarini, ma'naviy oziq olganliklarini his qilsinlar. Ta'limning mazmundor, qiziqarli va tushunarli bo'lishi ustoz bilan shogirdlarning qalbini va ruhini bir-biriga mustahkam bog'laydi, ular o'rtasidagi samimiy hurmat va o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Buning uchun o'qituvchi, avvalo, o'z fanini va uni o'qitishning metod, usul va vositalarini mukammal o'zlashtirib olishi, o'qituvchi-murabbiyga xos madaniyatning yuqoriligiga erishishi, o'z shogirdlariga hurmat va muhabbat ifoda eta olishi, ularni hayotga qiziqtirishi va ularning ruhiy holatlarni bilishi va tushunishi, bosiqlik bilan o'z his-tuyg'ularini boshqara olishi, tashqi ko'rinishi va kiyinish madaniyati bo'yicha ibrat bo'lishi, nutq madaniyatining yuqoriligi va ijtimoiy faolligi, ayniqsa, omma o'rtasida ilmiy-ma'rifiy va ma'naviy-

...maniy ishlarning targ'ibotchisi bo'lishi lozim.

Shundagina mamlakatimizning kelajagi bo'lgan o'quvchi yoshlarimiz o'z ...abbiylarining nomini zo'r ehtirom, chuqur minnatdorchilik bilan tilga oladilar. ...ning uchun har bir o'qituvchi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi ...omida ko'rsatilganidek, o'z fanlari buyicha tegishli ma'lumot egasi, yuksak kasbiy ...orgarlik va yuqori axloqiy fazilatlar sohibi bo'lishi kerak.

"Agarki, dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ...masida eng sharaflisi-o'qituvchilik va murabbiylikdir",-deganida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov haq fikrni ifodalagan edi. G'azal mulkining ...ni, ikki daryo bo'yidagi zahmatkash xalqini yakqalam qilgan, tilimizni tahqir va ...at botqog'idan she'riyatning nurli osmoniga ko'tara olgan, turkiyda ham ...zda benazir va betakror tarzda ijod eta olgan buyuk A.Navoiy "Haq yo'lida kim ...a bir harf o'qitmish ranj ila, Aylamoq bo'lmas ado uning haqqin yuz ganj ila", ... yozish bilan ustozlar xizmatining naqadar ulug'liligini e'tirof etgan hamda ...ing amaliy isbotini hayotda o'z ustozi mavlono Lutfiyga bo'lgan ehtiromida ...moyon etgan. Shu boisdan, azal-azaldan bu kasb juda e'zozli hisoblangan. Ta'lim-...ya jarayonlaridagi muvaffaqiyat ularning faol ishtirokchisi-o'qituvchi shaxsiga ...p jihatdan bog'liq.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish va respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi-tarbiyachi, ishlab chiqarish ...larining ma'naviy qiyofasi hamda ularning kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab va qiyin faoliyat jarayoni bo'lib, ...da qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Xususan, ...ingi Gresiya va Rim tarixidan yaxshi bilamizki, miloddan avvalgi davrlarda ham ... avlod tarbiyasi o'zining ma'naviy qiyofasi va aqliy qobiliyati bilan jamiyat ...lari o'rtasida yuksak xurmat-ehtiromga sazovor bo'lgan kishilar, donishmandlar ...masiga ishonib topshirilgan. Ushbu holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashk... ...hi va mazmuni nafaqat shaxs kamolotini balki jamiyat taraqqiyotini ...inlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida ham o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, ...y salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Shu ...nda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikri ...lidir:"-Tarbiyachining o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, ...kasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch ...moqdamiz. ...O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz, ...o zamonaviy bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o'zi ana shunday ...ga ega bo'lishi kerak.

...maktablardagi jarayonlarda o'qituvchi xukmron. U boladan faqat o'zi ...antirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Prinsip ham tayyor: "Mening ...anim-aytgan, deganim-degan".

O'qituvchi va o'quvchi munosabatlaridagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli ...tizom egallashi juda qiyin kechayapti. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda ...stagil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz".

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi lozim?

O'qituvchi maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassislik ma'lumoti va metodik tayyorgarlikka, shuningdek, yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxs sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasi 7-bandiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan ma'n etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida faoliyat olib borishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Zamonaviy o'qituvchi shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak:

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berib borishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchi ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va boshqalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i darkor.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi, kommunikativlik layoqatiga ega bo'lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari (mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

8. O'qituvchi yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning nutqi bir qator sifat va xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

9. O'qituvchi kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda va bejirim kiyinish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning diqqatini ko'p jalb etuvchi turli xil bezaklar(qimmatbaho taqinchoqlar va yorqin rangli pardoz-andoz vositalari)dan ortiqcha va o'rinsiz foydalanmaslik, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishga odatlanish kabilar) ega bo'lishi lozim.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

O'qituvchi shaxsining mazkur talablarni o'zida aks ettira olgan ichki va tashqi qiyofasi uning o'quvchilar va hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko'rsatkichi – sifat va samaradorlik aynan o'qituvchining salohiyati va kasbiy mahoratiga uzviy aloqadordir. Uning kasbiy talabnomasi (professiogrammasi) kun sayin kuchaymoqda.

"Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir", -degan shior kun tartibiga o'rnili kiritilgan mustaqillik yillarida bu masalaning yechimi o'qituvchi va

tarbiyachi shaxsiga yanada mustahkam aloqador bo'lib qoldi. Boisi, o'qituvchi tajriba va malakasining uyg'unligi muvaffaqiyatlar garovi ekanligi sir emas. O'qituvchining ijodkor va tashabbuskor bo'lishi lozimligini mazkur darslik epigrafidagi buyuk nemis pedagogining fikri ham tasdiqlaydi.

Ta'lim tizimini insonparvarlashtirish (gumanizatsiyalash) muammosi kun tartibiga qo'yilgan bugungi kunda o'qituvchi shaxsining insonparvarlik jihati oldingi o'ringa chiqdi.

O'qituvchining shaxsiy fazilatlari: axloqiy barkamollik, ya'ni sahovatpeshalik, mehribonlik, talabchanlik, ma'naviy poklik qanoatlilik, rostgo'ylik, sadoqatlilik, pokizalik, ziyraklik, andishalilik, vazminlik, sabr-bardoshlilik, muloyimlik va boshqalardir.

O'qituvchining kasbiy fazilatlari: o'z sohasining puxta bilimdoni bo'lish, hunar sirlarini sodda usulda o'rtaga olish, hayotiy tajribalari asosida tarbiyalovchilik, shogirdlar ehtiyojlari va yutuq-kamchiliklarini idrok eta oluvchanlik, nutq madaniyatiga ega bo'lish, shaxsiy namuna bo'la olishlik va shu kabilardir.

Shogirdlik odobi bo'yicha quyidagicha mezonlar qayd qilinadi: "Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so'rasalar, yettita degin". 1) avvalo: o'z ishiga yaxshi munosabatda bo'lish, ya'ni o'z kasbini sevish; 2) o'z ishiga e'tiqod qo'yish va unga ishonish; 3) ustoz oldida xokisor bo'lish, o'z nojo'ya odatlarini tark etish; 4) ko'rish (nojoiz), lozim bo'lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish; 5) eshitish mumkin bo'lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik; 6) barcha noloyiq ishlardan qo'l tortish; 7) ustoziga qarshi bo'lgan kishilar bilan muomala qilmaslik. Ana shu kesimlarda o'qituvchi va o'rganuvchi o'rtasidagi dialektik munosabat to'laqonli amalga oshiriladi.

O'qituvchidan birinchi navbatda quyidagilar talab qilinadi:

1. Jismoniy va aqliy salomatlik.
2. Yuksak axloqiy va insoniy fazilatlar.
3. Kuchli va keng qamrovli poyindor bilim.
4. Metodik mukammallik va sayqallangan kasbiy mahorat.
5. Nutq madaniyati, notiqlik san'ati va imlo savodxonligi.
6. Muttasil o'z ustida ishlash va malakasini oshirish va boshqalar.

Odatda, ko'pchilik o'qituvchilar shaxsni o'rgatish va tarbiyalashdagi vazifasini o'z o'quv fani doirasida o'quvchini tegishli bilim va ko'nikma hamda malakalar bilan qurollantirish, ularda tahlil qilish, umumlashtirish va qiyoslash sifatlarini shakllantirishda ko'radilar. Vaholanki, o'qituvchining mehnati va uning pedagogik faoliyati keng qamrovlidir. U o'qitishning uchta muhim ijtimoiy funksiyasi-ta'lim berish, tarbiyalash va shaxsni rivojlantirish bilan bog'liq vazifalarini bajarishga mas'uldir. Biroq oliy pedagogika o'quv yurtlaridagi mashg'ulotlar o'qituvchining amalga oshiradigan amaliy-pedagogik faoliyati bilan yetarli darajada bog'lanmagan. Bu fikrni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashni ko'zda tutib o'quv rejasiga kiritilgan mashg'ulotlar aksariyatining mazmuni aynan o'qituvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu vaziyat o'qituvchining malakali mutaxassis sifatida shakllantirilishida ijobiy ta'sirga ega bo'lsada, uning

kasbiy-pedagogik faoliyatida bevosita qo'llay oladigan ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash metodlarini egallashiga xizmat qilmaydi;

Ikkinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodkorlik tushunchasi ma'lum bir cheklangan ma'noda, odatda texnik ijodkorlikni amalga oshirish va boshqarishga tayyorlash ma'nosida talqin qilinadi. Kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarish jarayonida shakllantiriladigan shaxsda esa nafaqat texnik yoki badiiy ijodkorlik bilan bog'liq, balki yanada chuqurroq bilimlarni talab qiluvchi tadqiqotchilik ijodkorligini shakllantirish lozim bo'ladi.

## 3.2.O'qituvchining nutq madaniyati

O'qituvchining nutq madaniyati, notiqlik san'ati va o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda ifodalay olishi haqida mulohaza yuritishdan oldin til va nutq xususida ayrim ma'lumotlarni eslatish lozim.

Nutq madaniyati jamiyat hayoti va madaniyatining o'ta muhim ajralmas tarkibiy qismi, muayyan voqeligi, ko'rinishi sifatida alohida ahamiyatga egadir. U fikr almashish, muomala, so'zlash kabi kundalik, doimiy, zaruriy jarayonlarni o'z ichiga oladi, ularni «boshqaradi», ular orqali voqelikka aylanadi, ta'sir qilish quvvatiga ega bo'ladi.

Til va nutq o'zaro dialektik bog'liq ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixik xodisalar bo'lib, til aloqa quroli sifatida, nutq esa aloqa usuli sifatida mavjuddir.

Nutq - bu til deb ataluvchi, ijtimoiy-individual noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imkoniyatlarining ob'ektiv borliq, tafakkur hamda vaziyat bilan o'zaro zaruriy, doimiy munosabatda namoyon bo'lishidir. Nutq-bu rasmiy tildir. U keng ma'noda so'zlardan, so'z birikmalari va gaplardan tashkil topadi.

Madaniy gapirishga intilish tushunchasi barcha xalqlarda qadimdan mavjuddir. Bu tushuncha muayyan lingvistik me'yorlar, etik va estetik talablar bilan aloqador bo'lgan tushunchadir. Demak, nutq madaniyati tushunchasi har bir xalq tili va millat ma'naviyatini belgilovchi (ko'rsatuvchi) etik va estetik kategoriyadir, hodisadir.

Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni ongli va maqsadga muvofiq me'yorlashga (uni qayta ishlash va boyitishga) qaratilgan harakatlargina emas, balki millatning umumiy madaniyatini ko'tarish, odamlarda ma'lum «til didi»ni tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir.

Nutq madaniyati termini tilshunoslikda uch xil hodisani ifoda etadi:

1) madaniy nutqning, ya'ni nutqiy hodisaning nomi;

2) madaniy nutq tushunchasi bilan bog'liq va nutq madaniyati deb yuritiluvchi ilmiy muammoning nomi;

3) nutq madaniyati muammolarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi sohaning, tilshunoslik fani bo'limining nomi.

Keltirilgan uchta hodisaning har biri o'zining murakkab ko'rinishlariga va qirralariga ega, ularni bir-biri bilan qorishtirmaslik lozim.

Shunday qilib, nutq madaniyatiga berilgan eng muhim ta'riflar quyidagilardir:

1.Nutq madaniyati-adabiy til rivojining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir (Praga lingvistik maktabi).

2.Nutq madaniyati (til madaniyati)-bu adabiy til me'yorlarining shakllanishi va silliqlanishiga yordamlashishdan iborat bo'lgan faoliyat, ya'ni til

rivojiga ongli aralashuvdir (Praga lingvistik maktabi).

3. Nutq madaniyati-tilni, uning qonun-qoidalarini ongli idrok qilish, aniq, ravshan, ifodali nutq tuza olish mahoratidir (A.Gurevich va b.).

4. Nutq madaniyati-kishilarning o'zaro to'liq va teran fikrlashishi, tilning barcha imkoniyat va vositalarini puxta egallashidan iboratdir (B.N.Golovin va b.).

5. Nutq madaniyati-faqat to'g'ri nutqgina emas, balki uquvlilik hamda nutqiy chechanlik hamdir (G.O.Vinokur va b.).

6. Nutq madaniyati-til vositalaridan o'rinli foydalangan holda maqsadga muvofiq so'zlash va yoza olish san'atidir (A.I.Yefimov).

7. Nutq madaniyati-bu, avvalo, fikrlash madaniyatidir. (D.E.Rozental va boshqalar).

8. Milliy o'ziga xosligi bilan ham ajralib turuvchi nutq-madaniy nutqdir (M.Agafonova).

Xulosa shuki, nutq madaniyati-tilni, aloqa va aralashuv qurolini ishlatishga bo'lgan munosabatdir. Til vakillarida bu noyob qurolning imkoniyatlariga munosabat, uni ishlatishdagi boshqa omillar: tafakkur, ong, borliq, turli vaziyat va holatlar, maqsadga bo'lgan munosabat qanchalik yuqori saviyada bo'lsa, nutq madaniyati ham shunchalik yuqori saviyada bo'ladi. Aksincha bo'lsa, unda nutq madaniyati ham past saviyada bo'lishi muqarrardir.

Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so'zlarning o'rinli va o'rinsiz ishlatilishi to'g'risida ham bahs boradi. Qo'llangan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'lchov(mezon)ga asoslanish kerak bo'ladi. Mana shu o'lchov(mezon) tilshunoslikda adabiy til me'yori deb yuritiladi.

Har bir lahjaning, so'zlashuv tilining, adabiy tilning o'z me'yorlari bo'lganidek, nutqning alohida ko'rinishlari bo'lgan argolar, jargonlar ham o'z me'yoriga ega. Xususiy me'yorlar quyidagicha ko'rsatiladi: 1. Dialektal me'yor. 2. So'zlashuv nutqi me'yori. 3. Argolar, jargonlar me'yori. 4. Adabiy til me'yori (adabiy me'yor).

O'zbek adabiy tili me'yorlari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Leksik - semantik me'yor.
2. Talaffuz - (orfo-epik) me'yor.
3. Yozuv (grafika) me'yori.
4. Fonetik me'yor.
5. Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'llash) me'yor.
6. Grammatik (morfologik va sintaktik) me'yor.
7. So'z yasalish me'yorlari.
8. Imloviy me'yor.
9. Uslubiy me'yor.
10. Punktuatsion me'yor.

Adabiy me'yorning og'zaki va yozma ko'rinishlari mavjud bo'lib, og'zaki adabiy me'yorning rivojlanishiga xalq qiziqchilari, askiyachilari, latifaguy xalq shoir-baxshilari katta hissa qo'shsalar, yozma adabiy me'yorning shakllanishida belgilangan yozuv shakli asosida yozib qoldiriladigan yozma adabiyotning xizmati cheksizdir. Umuman olganda, adabiy til me'yorini o'rganish yangi hodisa emas. Til me'yori va adabiy me'yor muammo sifatida nutq madaniyati ilmiy soha deb tan olinguncha qadar ham o'rganib kelingan. Adabiy til me'yori, uning shakllanish

rivojlanish, stabillashuv qonuniyatlari-nutq madaniyati sohasining tekshirish ob'ekti hisoblanadi.

Nutq madaniyati sohasining adabiy til me'yoriga yondashuvi quyidagi xususiyatlari bilan grammatik munosabatdan farq qiladi.

a) nutq madaniyati adabiy til me'yoridagi o'zgarib, buzilib turuvchi nutqiy nuqsonlarni yuzaga keltiruvchi xususiyatlarni topishi va ularni tuzatishga intilishi lozim;

b) nutq madaniyati adabiy til me'yorini doimiy rivojlanib, o'zgarib turuvchi hodisa sifatida tekshirishi va adabiy til me'yori sistemasidagi yangi holatlarni, o'zgarayotgan, o'zgargan holatlarni, shuningdek, «o'lgan», iste'moldan chiqqan holatlarni hisobga olishi kerak.

v) nutq madaniyati adabiy til me'yori sistemasidagi qarama - qarshi holatlarni belgilashi hamda tilning barcha yaruslari buyicha tekshirishi lozim.

Ma'lumki, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. U jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy hodisadir. Jamiyat rivojlangan sari til ham shakllanib boradi. Demak, shu tilda so'zlashuvchi millatning ma'naviyati yuksalib, nutqiy malakasi ortib boradi. Aks holda til tanazzulga yuz tutadi. Bu esa nutqiy malakaning so'nishiga, ma'naviyatning qashshoqlanishiga olib keladi.

Jamiyatda yashayotgan har bir shaxs alohida nutq egasi sanaladi. O'qituvchi ham bundan mustasno emas. Lekin ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan nutqiy qurol shu jamiyatning yagona tili hisoblanadi.

Inson nutq faoliyatida adabiy til madaniyati qoidalarini mukammal bilgani holda, ayniqsa, badiiy adabiyotlarni, gazeta va jurnallarni o'qishi, radio va televideniyeni kuzatib borishi, umuman, ommaviy axborot vositalarining ma'lumotlari orqali hamda tinimsiz mustaqil shug'ullanishi natijasida nutqiy malakaga ega bo'ladi.

Adabiy til madaniyatini chuqur egallagan insongina kasbiy nutq madaniyatiga ega bo'ladi. Adabiy til madaniyatini egallashda tilga bo'lgan e'tibor, unga chinakam muhabbat va hurmat muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi adabiy tilda gapirishi lozim. Adabiy til va uning me'yorlarini shunchaki qiziqish yoki u bilan nomigagina shug'ullanish orqali egallab bo'lmaydi.

Insonning nutq faoliyati uch ko'rinishda namoyon bo'ladi: so'zlash, mutolaa qilish va eshitish. So'zlash deyilganda, so'zlovchining ma'lumot, maslahat berishi, buyurishi, o'ziga noma'lum bo'lgan narsalar haqida so'rashi tushuniladi. So'zlaganda so'zlovchining bilimi, madaniyati, axloqi, odobi yuzaga chiqadi. So'zlashning monologik va dialogik ko'rinishlari mavjud.

Mutolaa qilish-o'quvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan muloqotidir. Mutolaa tufayli yozma nutqda aks etgan voqea - hodisadan xabardor bo'ladi.

Nutq-so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning muayyan ko'rinishi ifoda bo'lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda, aytilmoqchi bo'lgan maqsadning tinglovchi yoki kitobxonga to'liq va aniq yetib borishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra, nutq oldiga

muayyan talablar qo'yiladi. Bu talablar nutqning kommunikativ sifatlari bo'lib, unda nutqning mantiqan to'g'ri, fikran aniq, tuzilishiga ko'ra chiroyli va yunalishiga ko'ra maqsadga muvofiq bo'lishi nazarda tutiladi.

Nutqning to'g'rnligi, aniqligi, tozaligi, mantiqiyligi, ta'sirchanligi va maqsadga muvofiqligi unga qo'yiladigan eng muhim talablardir.

Nutqning to'g'riligi uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Chunki nutq to'g'ri bo'lmasa, uning boshqa kommunikativ sifatlari, ya'ni mantiqiyligi, aniqligi, maqsadga muvofiqligiga ham putur yetadi.

Nutq to'g'ri bo'lishi üchun, asosan, ikki me'yorga - urg'u va grammatik me'yorga qattiy amal qilish talab etiladi. O'qituvchi og'zaki nutqining bu ikki muhim komponenti uning notiqlik mahoratini belgilovchi bosh mezonlar darajasiga ko'tarilishi tabiiydir. Atamalar va terminlar, tushuncha va iboralar ifodasida urg'uni to'g'ri qo'llamaslik o'qituvchi nutqidagi eng katta kamchilik sanaladi.

Grammatik me'yorga rioya qilish deganda, gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zak va qo'shimchalarni qo'shishda xatoga yo'l qo'ymaslik, kelishik qo'shimchalarini o'z o'rnida qo'llash, ega va kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo'laklarning ularga bog'lanish qonuniyatlari tushuniladi.

Aniqlik nutqning aloqaviy sifatlaridan biri bo'lib, u ob'ektiv borliq bilan nutq mazmunining mosligi sifatida yuzaga chiqadi.

Aniq nutq yaratish so'zlovchidan quyidagilarni talab etadi:

a) tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatorlardan kerakligini ajratib, nutqda qo'llash;

b) nutqda ishlatiladigan so'zning anglatgan ma'nolarini har tomonlama bilish;

v) so'zning ko'p ma'noligiga jiddiy e'tibor berish, ko'p ma'noli so'z nutqda qo'llanganda uning qaysi ma'no qirrasi ko'zda tutilayotganini aniq tasavvur qilish fikrning yuzaga chiqishida bu so'zning boshqa ma'no qirralari monelik qilish-qilmasligini ko'z oldiga keltirish;

g) omonimlarning xususiyatlarini bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi;

d) paronimlarni bilish, ulardagi tovush yaqinliklariga e'tibor berish;

e) tor muhitda ishlatiladigan, chetdan kirgan, kasb - hunarga oid, arxaik, eskirgan, dialektizm so'zlarning ma'nolarini yaxshi anglagan holda nutqqa kiritish.

Nutqning tozaligi deganda, eng avvalo, uning adabiy til me'yoriga muvofiq kelish -kelmasligi tushuniladi.

Nutqimizning sofligiga, asosan, quyidagilar ta'sir qiladi:

1. Mahalliy dialekt va shevalarga xos so'z, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, so'z va so'z birikmalarining talaffuzi, urg'usi.

2. O'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari.

3. Jargonlar.

4. Vulgarizmlar.

5. Nutqda ortiqcha takrorlanadigan «parazit» so'zlar.

6. Kanselyarizmlar.

7. Varvarizmlar.

Sanab o'tilganlardan o'rinsiz foydalanish kundalik nutqni ham, badiiy nutqni ham siralashtiradi. Har bir o'qituvchi o'z nutqining adabiy me'yorlar darajasida bo'lishi uchun harakat qilishi lozim. O'z shevasiga xos bo'lgan til vositalarini nutqqa o'rinsiz olib kirish ham nutqni buzadi. Ammo dialektizm va varvarizmlar badiiy asar tilida ma'lum badiiy - estetik vazifani bajarishi, muallifning ma'lum g'oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi ham mumkin.

Nutqda o'rinsiz ishlatilgan boshqa tillarga oid so'zlar varvarizmlar deb ataladi. Jargon – biror guruh vakillarining, o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida, o'zicha mazmun berib, ishlatadigan so'z va iboralaridir.

Vulgarizmlar-dag'al so'z yoki iboralardir(so'kish, haqoratlash, qo'pollik, johillik kabilar).

Parazit so'zlar deb ataluvchi lug'aviy birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular, asosan, so'zlashuv nutqida ko'p ishlatilib, notiqning o'z nutqini kuzatib bormasligi, e'tiborsizligi natijasida paydo bo'ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi.

**3.3. Og'zaki va yozma nutq-o'qituvchining ikki muhim quroli sifatida**

Benazir va betakror adib, g'azal mulkining sultoni, ikki daryo bo'yidagi xalqini yakqalam qilgan, tilimizni tahqir va haqorat boqog'idin she'riyatning nurli osmoniga ko'targan, turkiy va forsiy tillarda baravar ijod qilgan buyuk Alisher Navoiy o'z vaqtida topib yozgan edi:

So'zdurki, berur xabar o'likka jondin
So'zdurki, berur xabar jonga janondin
Insonni so'z ayladi judo hayvondin
Bilgilki, guhari sharifroq yo'q ondin.

O'zituvchi o'zo' nutqiga e'tibor bermas ekan, unday o'qituvchidan barcha qochadi. Bunday tip auditoriya uchun ortiqcha daxmaza hisoblanadi. Mantiqan to'g'ri jumla tuza olmaydigan, gapining tuturig'i yo'q kimsani kim ham eshitib lazzatlanadi deysiz? Manqa yoki duduq, shang'i yoki mijg'ov o'qituvchi kimga ham yoqadi?

O'qituvchining jozibali va mantiqli og'zaki va yozma nutqi uning ikki asosiy ish, kerak bo'lsa kasb-hunar qurolidir.

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari bo'lgan to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir.

Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi. Shunga ko'ra nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyat ham e'tiborga olinadi. Ya'ni, bunda notiq tinglovchilarni ularning bilim darajasidan tortib, hatto yoshigacha, nutqining qanday qabul qilinayotganigacha nazorat qilishi zarurdir. Professional bilimga ega bo'lgan kishilar oldida jo'n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo'lmagani kabi, oddiy, yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lmagan tinglovchilar oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilish maqsadga muvofiq emas. O'qituvchi nutqining auditoriyaga mosligi uning eng asosiy sifat ko'rsatkichi ekanligini doimo nazarda tutib so'zlashi lozim.

Tinglovchilar tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ifodalanayotgan fikrga

ishontira olish o'qituvchilar oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan hisoblanadi. Buning uchun esa, yuqorida aytilganidek,o'quv materialini va uning mazmun hamda mohiyatini yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq, belgilangan rejasi ham bo'lishi kerak.

O'qituvchining o'z nutqiga munosabati ham muhim kasbiy fazilat hisoblanadi. Bunday holat o'qituvi va tinglovchi o'rtasidagi aloqaning mustahkamlanishiga samarali xizmat qiladi. Notiq fikrlarini o'zi yoki tinglovchilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir sub'ektiv fikr-mulohazalarini bildirsa, nutq yana ham ishonarli va ta'sirli bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligiga erishishda tilning tasviriy vositalari hisoblangan metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, takror va adabiy ko'chimlarning ham roli kattadir. Bulardan tashqari nutqda ta'sirchanlikni ta'minlash uchun maqol, matal, hikmatli so'z va iboralardan, ayniqsa, frazeologizmlardan unumli foydalanish zarur.

Nutqning maqsadga muvofiqligi juda muhimdir. Nutq madaniyati-adabiy til me'yorlarini puxta egallash va ulardan nutqda to'liq foydalanish demakdir.

Til - aloqa quroli, til - hayot ko'zgusi, til - ma'naviyat belgisi bo'lishi bilan bir qatorda o'qituvchi uchun eng muhim metodik vosita sifatida katta xizmat qiladi. Insonni hayvonot olamidan ajratib, uni koinot sarvariga va gultojiga aylantirgan omil ham tildir. Inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari, tafakkur «mevalari» til va nutq orqali yuzaga chiqadi.

So'zning tarixiy - madaniy, ma'naviy xizmati cheksiz, albatta. Lekin tilning imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonida ochiladi va o'qituvchilar shu imkoniyatlardan samarali foydalanishlari lozim. Nutq sifatsiz bo'lar ekan, tilning cheksiz imkoniyatlari ta'lim-tarbiya jarayonlarida yetarli darajada yuzaga chiqmay qolaveradi.

Fapб donishmandlaridan R.Emirsonning ta'kidlashicha, «Nutq - qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi». Bu gapda nutqning shunday fazilati ta'kidlanayaptiki, u, birinchi navbatda, ishontirish san'atidir. O'quvchilar bilan muloqotda bo'layotgan o'qituvchi ishonarli gapirishi, nutqi dalillangan, puxta asoslangan bo'lishi lozim. O'quvchilarning ishonchini, mehrini qozongan o'qituvchinigina haqiiqiy ustoz deyish mumkin.

Nutq-harakatdagi tildir. Nutq til birliklarini o'zaro mantiqiy bog'lab, ularni harakatga keltiradi. Nutq-so'z, so'z birikmalari va gaplardan iborat bo'ladi.

Nutq, nutq odobi-insonning ma'naviyati va ma'rifatini belgilovchi asosiy mezondir. Demak, kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko'rinadi. Nutq odobi deganda, aytilishi zarur bo'lgan xabarlarni, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos holda adabiy me'yordagi ifodalar bilan yetkazishdir. Xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so'zlovchi tilni mukammal bilishi kerak. Muloyim, yoqimli, odobli so'zlash ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish va muntazam ravishda mashq qilish hamda tilga jiddiy munosabatda bo'lish orqali erishiladi. O'quvchi uchun esa eng yaxshi namuna o'qituvchidir. Buni o'qituvchi har doim his qilib turishi kerak.

Bolaga yaxshilik qilgan, aytilgan yumushni, iltimosni bajargan kishilarga o'z

vaqtida minnatdorchilik bildirish odobini ham o'rgatib borish lozim. Tilimizda rag'batlantirishni, minnatdorchilikni anglatadigan chiroyli ifodalar bor. Ularni kundalik muomalaga kiritish, o'z o'rnida ishlatish kishi xulqini naqadar bezaydi. O'qituvchi topshiriqni yaxshi bajargan o'quvchilarni shirin va yoqimli so'zlar bilan rag'batlantirishi lozim.

*«Har bir kishining madaniylik darajasi, o'qib qanchalik tarbiya ko'rganligi uning yozma va og'zaki nutqidan bilinadi»* (S.Ibrohimov).

O'qituvchining yozma nutqiga ham katta talablar qo'yiladi. Bular imloviy savodxonlik, fikrni yozma tarzda ravon ifodalash, yozuv qoidalariga rioya qilish, orfografik va punktuatsion hamda stilistik xatolarga yo'l qo'ymaslik kabilardir. Shuning uchun o'qituvchining yozma nutqi ikkita komponent-imlo savodxonligi va husnixat(kalligrafiya, yozuv uslubi)dan iborat, deb yuritiladi.

Og'zaki va yozma mukammal nutq shartli ravishda (ma'joziy ma'noda) o'qituvchining ikki "yorug' yuzi" deb ham ataladi.

Tilning dunyoni bilish, bilimlarni to'plash, saqlash, keyingi avlodlarga yetkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi qator vazifalarni bajarishiga qaramasdan, uning asosiy funksiyasi kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlashi va ularning bilim olishida qudratli qurol ekanligida ko'rinadi.

**«Yomon o'quvchi yo'q, balki uni o'qitishni uddalay olmaydigan noshud o'qituvchilar bor, xolos»**
*XX asrda aytilgan hikmatli gaplardan biri*

## 4-MAVZU: O'qitishning ayrim zamonaviy shakllari

**Reja:**

**1.Masofaviy o'qitish.**
**2. Modulli ta'lim texnologiyasi.**
**3. Masofaviy ta'lim tizimi va o'qitishning texnik vositalari.**

### 4.1. Masofaviy o'qitish

Masofaviy o'qitish-yangi va ancha progressiv bo'lgan o'qitish shaklidir. Bu usulning turli xil ta'lim muassasalariga, xususan, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy sohalarga tadbiqi o'quvchi-talaba va o'qituvchi(pedagog)larni dunyoning ilg'or ilmiy maktablarining yuqori sifatli o'quv-uslubiy ishlanmalari, zamonaviy va so'nggi axborotlaridan, qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, to'g'ridan-to'g'ri foydalanish imkoniyatini beradi. Bularning barchasini e'tiborga olgan holda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi «Ustoz» fondi qiyofasida jahon institutlari bilan oliy ta'limda masofaviy o'qitish usuli komponentlarini tatbiq qilish haqida kelishuv tuzildi.

Bunday loyiha, nafaqat O'zbekiston uchun, balki O'rta Osiyoning barcha hududlari va Qozog'iston hamda hamdo'stlik davlatlari uchun masofaviy o'qitish sohasida jahon banki institutining ilg'or loyihalaridandir.

Jahon banki loyihasi masofaviy o'qitish tizimini rivojlantirish uchun boshlang'ich maydon bo'ladigan masofaviy o'qitish tarmoqlari infratuzilmasi baza elementlarini yaratish, masofaviy o'qitish usullarini qo'llash sohasini kengaytirish va masofaviy o'qitishni amalga oshiruvchi zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishni ko'zda

tutadi. Toshkent shahrida joylashgan universitetlarda jahon banki loyihasinin muvaffaqiyatli qo'llanilishi uning hayotiyligi va yuqori ko'rsatkichga erishilganligini tasdiqladi.

Oliy o'quv yurtlaridan 30 nafardan ortiq yetuk o'qituvchilar tanlab olinib, ular masofadan o'qitishlar bo'yicha qayta tayyorlandi. 2000 yilda jahon banki tashabbusi bilan Moskva va Bishkekda o'qitish markazlari tashkil etilib, unga taklif etilgan qatnashchilar yangi o'quv metodologiyasini masofadan rejimli boshqarish va elektron kurslari metodlari bo'yicha qayta tayyorlandi. Loyihaning universitet ishtirokchilari uchun iqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha masofaviy o'qitish tartibida mashg'ulotlar o'tkazish uchun texnik baza vositalari tashkil etildi. Internetga ulanish yo'llari izlanmoqda. Bularning barchasi berilgan texnologiya turlarining istiqbollari to'g'risida gapirishga imkon beradi.

Masofaviy o'qitishning an'anaviy o'qitish shakllaridan quyidagi xususiyatlarini farqlash mumkin;

*Egiluvchanlik.* O'ziga qulay vaqtda, joyda va sharoitda o'qitish imkoniyatini beradi.

*Modullik.* O'quv kursiga bog'liq bo'lmagan holatda shaxsiy hamda guruh talabiga javob beradigan o'quv rejasini amalga oshiradi.

*Qurshov.* Bir vaqtda ko'p ishtirokchilarga o'quv axboroti bo'yicha murojaat qilish, tarmoq yordamida o'zaro axborot almashinuvini to'g'ri tashkil etish imkonini beradi.

*Tejamkorlik.* O'quv maydonlari, texnik vositalar, moddiy va ma'naviy ashyolardan unumli foydalanish, o'quv axborotlarini to'plangan va bir xillikka keltirilgan holda ifodalash hamda ularni o'zlashtiruvchi mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha harajatlarni kamaytiradi.

*Texnologiklik.* Ta'lim berish jarayonida insonni jahonning industrial fazosiga kiritishga imkon beradigan yangi axborot va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanish.

*Ijtimoiy teng huquqlilik.* O'qituvchining turar joyidan, salomatligi, moddiy ta'minlanganligidan kelib chiqib, katta ko'pchilikka mustaqil ta'lim uchun teng imkoniyat yaratiladi.

*Baynalmilallik.* Ta'lim xizmatlari bozorida erishilgan yutuqlarning eksporti va importi ta'minlanadi.

*O'qituvchi(pedagog)larning yangi vazifalari.* Masofaviy o'qitish o'qituvchi(pedagog)ning vazifalarini kengaytiradi va yangilaydi. O'qitilayotgan kurslarni doimo takomillashtirish, tinglovchilarning ijodiy faolligini va ularning malakasini oshirish, kiritilgan yangilik va innovatsiyalarga mos bilim berish jarayonlarini muvofiqlashtirish zarur.

Masofaviy o'qitish talabaga ijobiy ta'sir etadi. O'zini o'zi tashkil etishda, bilim olishga intilishda, kompyuter texnikasi bilan o'zaro ishlash va mustaqil ma'suliyatli vazifalarni hal qilishda uning ijodiy va tafakkur salohiyatini o'stiradi. Masofaviy o'qitish sifati kunduzgi ta'lim olish tartibidan sifat jihatidan qolishmaydi.

Masofaviy o'qitish quyidagi ijtimoiy ahamiyatli masalalarni yechishga ta'sir etishi lozim:

- ta'lim xizmatlarida aholining ehtiyojini amalga oshirish;

- sifatli tayyorlangan mutaxassislar bilan davlat ehtiyojlarini qondirish;
- aholining ijtimoiy va professional harakatchanligini oshirish;
- tadbirkorlik va ijtimoiy faolligi, o'zligini anglashi tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish;
- davlatimizning oliy maktablarida yig'ilgan bilimlar hamda kadrlarning moddiy salohiyatini saqlash va ko'paytirish;
-butun jahon hamjamiyati chegarasida ta'lim fazosining har bir nuqtasida nostrifikatsiyalangan ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashni o'z ichiga olgan yaxlit ta'lim fazosini rivojlantirish;
- geosiyosiy masalalarni yechish va boshqalar.

*O'qitish mazmuni.* O'qitish jarayoni, usullari va tashkiliy tartibi hamda amalga oshirilishi uning tarkibi bilan ifodalanadi.

*O'qitish ob'ekti.* Masofaviy o'qitishda ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilar ushbu usulda ta'lim oluvchilar uning ob'ekti bo'ladi.

*O'qitish sub'ektlari.* Masofaviy o'qitish sub'ekti o'qituvchi (pedagog)lar hisoblanadi. O'qituvchi (pedagog) ta'lim jarayonining yuqori samarasini ta'minlashda asosiy bo'g'indir. Masofaviy o'qitish o'qituvchi (pedagog) faoliyatining muhim ahamiyatini uning maslahatchilik funksiyasida hamda informatika va telekommunikatsiyalar asoslarini bilishida ta'kidlaydi.

*O'qitish usullari.* Masofaviy o'qitish tartibi o'z ichiga beshta umumdidaktik o'qitish usullarini qamrab oladi: informatsion-reseptiv, reproduktiv, muammoviy ifoda etish, evristik va tadqiqot. Ular o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talabalarning o'zaro harakatlari pedagogik aktlarining butun to'plamlarini o'z ichiga qamrab oladi.

*O'qitish usuli.* O'qitish maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talabalar o'zaro harakati ta'sirining me'yoriy tizimini nazariy tasavvurlab beradigan didaktik turkumdir.

*O'qitish mazmuni.* Bu o'quv axborotining tarkibi, tuzilishi, ma'lumotlari hamda masalalar, topshiriqlar va mashg'ulotlar to'plamini aks ettiradi, o'qitish jarayonlari va ularning metodikasini belgilaydi, bilim oluvchilarning kasbiy malaka va idroklarini shakllantiradi, mehnat faoliyatining dastlabki tajribasini yig'ishga imkon beradi.

*O'qitish vositalari.* Masofaviy o'qitish ta'limi jarayonida an'anaviy ta'lim bilan birga innovatsion o'qitish vositalaridan ham foydalaniladi. Ular AKT ni qo'llashga hamda ta'minot texnologiyasi sohasida so'nggi erishilgan natijalarga asoslangan.

*O'quv-ilmiy va moddiy asosi.* O'quv dasturlariga mos bo'lgan, o'qitish uchun zarur moddiy va texnikaviy to'plam. U o'z ichiga o'quv va o'quv-yordamchi joylarni, o'qitishning texnikaviy vositalari, o'quv qo'llanmalari va boshqa o'quv-uslubiy materiallarni oladi.

*Moliyaviy-iqtisodiy tizim.* Ta'limda bozor munosabatlari qatnashchilari sifatida faqat ta'lim muassasalari ta'lim xizmati buyurtmachilari bo'lib kelmasdan, balki davlat ham buyurtmachi va iste'molchi bo'ladi.

*Masofaviy o'qitishning tashkiliy asoslari.* Masofaviy o'qitish texnologiyasidan foydalanuvchi o'quv tashkilotlari faoliyatini tahlil qilish, umumiy tashkillashtirishning o'ziga xosligini ochib beradi:
- uzluksiz ta'lim;
- o'quv jarayonining olib borilishiga individual yondashish;

- geografik joylashishi uzoq bo'lgan o'quv muassasalarini yetakchi oliy o'quv yurtlari bazasi markazida masofaviy o'qitishni markazlashtirish;
- tinglovchilar yo'nalishiga ko'ra o'qituvchi(pedagog)-maslahatchilarning mavjudligi.

*Masofaviy o'qitishning qulayligi*. Kelgusida maqsadga muvofiq ravishda laboratoriya amaliyotlarini o'tkazishni qisqartirish mumkin.

*Masofaviy o'qitish nazorati*. Bu o'rganilayotgan o'quv materiallarining nazariy o'zlashtirilish natijalarini tekshirishdan iborat. Test haqiqatdan ham fan bo'yicha juda ko'p savollardan tashkil topgan bo'lishi kerak hamda har bir savol uchun bir nechta javob variantlari taklif etiladi. Talaba ular orasidan to'g'ri javobni tanlashi lozim. Testlar o'z-o'zini tekshirishga yaxshi mo'ljallangan va individual mashg'ulotlar uchun juda qulay.

Masofaviy o'qitish qatnashchilari, ya'ni tinglovchilar, o'quvchi-talabalar va o'qituvchi(pedagog)lar yetarli darajada tayyor bo'lishlari, ya'ni masofaviy o'qitishning o'rgatish usullaridan, vositalaridan va tashkiliy shakllaridan foydalana bilishlari kerak. Shuning uchun ham fundamental informatika AKTlarning nazariy va amaliy asosi sifatida masofaviy o'qitishning harakatga keltiruvchi kuchi va uning ajralmas qismi bo'lishi shart.

Pedagogik texnologiyalarning elementar birliklari tizimi modullardan tashkil topadi.

Modul – pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi, uning tarkibiy bo'laklarini ifodalovchi tushunchadir. Bunday bo'laklar kichik modul, birlamchi modul, modullar to'plami, modullar darajasi va modullarning majmuaviy tuzilmasi kabi turlardan iborat bo'ladi.

Modullar o'z ko'lamiga ko'ra mayda, o'rtacha va yirik bo'lishi mumkin. Ularning bir-biriga nisbatan proporsionalligi qat'iy bo'lmasligi, ularning o'zaro ta'siri umumiy jarayonda turlicha bo'lishi mumkin.

### 4.2. Modulli ta'lim texnologiyasi

Modulli o'qitish – pedagogik jarayonni ilmiy va metodik jihatdan tartibli va maqsadga muvofiq bajarishga xizmat qiladi. Har qanday pedagogik texnologiyaning tarkibiy bo'laklari o'zaro joylashuvi va pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirish ketma-ketligining oldindan belgilangan tartib-qoidalari **algoritm** deyiladi.

Eng kichik bo'lak pedagogik texnologiyaning o'ziga xos qismi bo'lib, bunday kichik modullardan birlamchi modul tashkil topadi. Modullar to'plami o'qitish jarayonini ilmiy tashkil etishga va uning sifat hamda samarasini ta'minlash uchun qo'llaniladi. Modullarning o'zgaruvchan va modernizatsiyalanadigan tabiati tufayli ulardan dinamik ravishda foydalaniladi. Modulli o'qitish - tartibli o'qitish demakdir. Bunda o'quv materiali bitta o'quv mashg'uloti hajmida, o'quv predmetining biror mavzusi yoki biror bo'limi darajasida, ba'zan esa o'quv fanining yirik tarkibiy qismi o'lchamida, ya'ni bloklar tarzida ham modullar yordamida o'qitilishi mumkin. Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida bir necha turdosh o'quv fanlarining tarkibiy bo'laklarini hamda ayrim fanlarni o'qitish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar (bloklar) tarzida o'qitish keng qo'llanilmoqda. Davlat ta'lim standartlarining tarkibiy bo'laklariga mos keladigan bloklardan ham

foydalanilmoqda. O'quv reja va dasturlarning tarkibiy bo'laklarini hamda ularning bajarilishini ta'minlaydigan texnologiyaga xizmat qiluvchi modullar ham mavjud. Ta'lim usullari, metodlari va vositalari uchun qo'llaniladigan modullar ham yaratilmoqda. Modullar, birinchi navbatda, ta'lim mazmuniga daxldor tushunchalar, qoidalar, nazariyalar, qonunlar va ular orasidagi umumiy bog'lanishni ifodalovchi qonuniyatlarni tushuntirishga samarali xizmat qiladi. Bilim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatlari hamda ularning o'zlashtirishini nazorat qilishda ham modullardan foydalaniladi.

Modullashtirish va o'quv jarayonini texnologiyalash yuzasidan keyingi yillarda ilmiy-pedagogik tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Lekin bu borada o'quv tarbiya jarayonini modullashtirish va algoritmlashtirish ishlari nihoyasiga yetkazilgan emas. Bu holatning genezisi va takomillashuvini atroflicha tadqiq etish orqali va tajriba-sinov ishlari hamda pedagogik eksperimentning qat'iy xulosalariga tayanib ta'lim jarayoniga modulli yondashuvni kuchaytirish mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonlariga modullashtirish va algoritmlash madaniyati to'la kirib borganida pedagogik texnologiyalarning yaratilishi va ularning amalda qo'llanilishi borasida sezilarli yutuqlarga erishish imkoniyati kuchayadi.

### 4.3. Masofaviy ta'lim tizimi va o'qitishning texnik vositalari

Oliy ta'lim sohasidagi o'qitish usullari zamonaviy axborot vositalari bilan boyitilishi natijasida ta'lim sifatining yanada ortishi kutilmoqda. Bu borada masofaviy o'qitish usuli o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talabalar uchun ham qator qulayliklarga egaligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Internet, multimediya kabi texnologik usullar o'quvchi-talabalar uchun zarur bo'lgan o'quv materiallari, qo'llanmalar asosida kompyuter dasturlarini ishlab chiqish vazifasini qo'ymoqda. Zero, masofaviy o'qitish har qanday sohada ham jahon ta'lim markazlarining uslubiy adabiyotlari, zamonaviy hamda so'nggi axborotlarni olish va ulardan jamlab foydalanish imkoniyatlarini beradi.

Masofaviy o'qitish usuli an'anaviy ta'lim shakllaridan farq qiladi. U o'quvchi-talabalarni o'ziga qulay vaqtda, joyda va sharoitda o'qitish imkonini beradi. O'quv kursiga bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy va guruh talabi asosida o'quv rejalari ishlab chiqiladi. O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarga ilmiy axborot va ma'lumotlar bo'yicha markazlashgan tarmoq orqali o'zaro axborot almashinuvini joriy etish mumkin. O'quv maydonlari, texnik va transport vositalaridan samarali foydalanish, ma'lumotlarni yig'ib bir tizimga solingan holda ifodalab berilishi va mutaxassislarni qayta tayyorlashda ham harajatlarni kamaytirishga erishilishi kutilmoqda. Ta'lim-tarbiya berish jarayonida eng zamonaviy axborot, telekommunikatsiya va turli samarali texnologiyalardan foydalaniladi.

Masofaviy ta'lim o'qituvchi (pedagog) va mutaxassislarning ham vaqtini tejab, imkoniyati darajasidan kelib chiqqan holda moddiy manfaatdorligini oshirish bilan mustaqil ta'lim olish uchun keng sharoit yaratib beradi. Ta'lim sohasida erishilayotgan yutuqlarning jahon ta'lim tizimi doirasida almashinuvini tashkil etish, bu sohadagi yutuqlarni qo'lga kiritishni ta'minlashi shubhasizdir.

Masofaviy o'qitish usuli mutaxassis o'qituvchi(pedagog)larning oldiga yangidan-yangi dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Chunki o'quv materiallarining muntazam

to'ldirib borilishi, ta'lim beruvchilarning ijodiy yondashuv hamda yangiliklar bilan o'z malakasini oshirishlari va bu ko'rsatkichlarni jahon ilmi yutuqlari bilan muvofiqlashtirib borishlari talab etilmoqda. Bu o'qitish usuli ta'lim talabiga asosan o'quvchi-talabaning o'z ustida ishlashini tashkil etish, ko'proq bilim olishga intilishi, kompyuter bilan mustaqil ishlash va olgan bilimlaridan ijodiy foydalanishini ta'minlaydi hamda olingan bilimlar maxsus o'quv-uslubiy nashrlar, testlar bilan tekshirilib, to'ldirilishi mumkin.

Axborot texnologiyalarining keng miqyosda joriy etilishi bilan masofaviy o'qitishni bir qator ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni yechishda ham joriy etish mumkin. Ta'lim sohasiga bo'lgan fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishda qulayliklar yaratish bilan respublikamizning malakali mutaxassislarga bo'lgan talabi ham qondiriladi. Shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy va kasbiy faolliklarini oshirishga erishish mumkin. Xususiy tadbirkorlik bilan mashg'ul shaxslarning jamiyat hayotidagi faolligini mustahkamlab, ularning dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi. Bu esa oliy ta'lim tizimida yig'ilgan ilmiy yutuqlar, mutaxassis xodimlar va ularning ishtirokida yurtimizning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashdek ustuvor rejalarni amalga oshirish vazifasini qo'ymoqda.

Masofaviy ta'lim berish usuli respublikamiz sarhadlarini bosib o'tib, mustaqil davlatlar hamdo'stligi va jahon miqyosidagi yirik ta'lim markazlari bilan muloqotda bo'lib, ta'lim olishning yangi zamonaviy yaxlit ta'lim imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

Masofaviy o'qitish geografik jihatdan turlicha joylashgan ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan edi. Lekin zamonaviy axborotlar va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim-tarbiya jarayonini uzoq masofadan turib amalga oshirishga yo'l ochib berdi. Natijada masofaviy o'qitish uslubi asosida o'qitish tez vaqt ichida Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qitishda yangi uslublarni qo'llashga yana bir turtki bo'ldi. Masofaviy o'qitish bo'yicha Xalqaro Kengashning tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda jahon miqyosida 10 milliondan ortiq talabalar shu uslub asosida ta'lim olishmoqda. AQShda shu uslub asosida o'qitish maqsadida yangi o'quv markazlari barpo etilmoqda hamda ular milliy kadrlarni zamon talablari asosida tayyorlash va qayta tayyorlash afzalliklariga egadir.

Masofaviy o'qitishning quyidagi afzalliklari mavjud:

*1 O'qitishning ijodiy muhiti* Mavjud ko'pgina uslublar asosida o'qituvchi (pedagog) ilm toliblarini o'qitadi, o'quvchi- talabalar esa faqat berilgan materialni o'qiydilar. Taklif qilinayotgan masofaviy o'qitish asosida esa o'quvchi-talabalarning o'zlari kompyuter axborotlar bankidan kerak bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topadi va o'zlarining tajribalari yordamida boshqalar bilan yaxshi muloqotda bo'lishini ta'minlaydi hamda o'z o'rnida mehnat ta'limi olishini rag'batlantiradi.

2. *Mustaqil ta'lim olish imkoniyatining borligi.* Masofaviy o'qitish asosida ta'lim berish boshlang'ich, o'rta, oliy va malaka oshirish bosqichlarini o'z ichiga qamrab oladi. Tayyorgarligi turli darajada bo'lgan inspektorlar o'zlarining shaxsiy dars jadvallari asosida ishlashlari va o'zining darajasidagi talabalar bilan muloqotda bo'lishi mumkin.

*3. Ish joyidagi katta o'zgarishlar.* Masofaviy o'qitish asosida ta'lim berish turi millionlab insonlarga, hammadan ham ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olayotgan yoshlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bunday uslub asosida o'qitish kadrlarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

*4. O'qitish va ta'lim olishning yangi va unumli vositasi.* Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, masofaviy o'qitish asosida ta'lim berish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish kabi unumlidir. Bundan tashqari, masofaviy o'qitish asosida ta'lim olish oliy o'quv yurti tomonidan qo'yilgan chegaradan ham chetga chiqib ketadi. Bunday asosda ta'lim olayotgan o'quvchi-talabalarning boshqalardan ustunligi ularni eng yaxshi, sifatli materiallar va o'qituvchi (pedagog)lar bilan ta'minlashdir. Ta'lim berish va boshqarish uslubiyotiga asoslangan holda o'qituvchi (pedagog) auditoriyada o'qitish shartlaridan xoli bo'lishi kerak.

***Masofaviy o'qitishning axborot-texnologik asoslari.***

Axborot texnologiyasi – ob'ekt, jarayon yoki hodisalarning holati haqidagi yangi ma'lumotlarni targ'ib etish uchun ma'lumotlarni yig'ish usullari va ma'lumotlarni yetkazib beruvchi vositalar majmuidan foydalanish jarayonidir. Axborot texnologiyalari ta'limiy mahsulot va xizmatlarni tashkil etishda dastgoh hisoblanadi.

Ta'limiy mahsulot – ta'lim jarayoniga tatbiq qilish uchun ifodalangan ma'lumotlar majmuidir.

Zamonaviy axborot texnologiyasi - shaxsiy kompyuter va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanuvchi axborot texnologiyasidir.

Jamiyatni axborotlashtirish – fuqarolarning axborotga bo'lgan ehtiyojini va ularning huquqlarini amalga oshirishni qanoatlantirishdagi maqbul shartlarni bajarish, davlat va hokimiyat, mahalliy va o'zini o'zi boshqarish organlarining talablari asosida axborot resurslaridan foydalangan holda jamoat birlashmalarini tashkil etish va ular faoliyatini yo'lga qo'yishning ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayonlaridir.

Ta'lim jarayonini axborotlashtirish - bu jamiyatni axborotlashtirishning muhim bo'g'ini hisoblanadi.

Ta'limni axborotlashtirish quyidagi qulayliklar va afzalliklar bilan bog'liq o'zgarishlarda qatnashadi:

- jamiyatning har bir a'zosi haqidagi ma'lumotlarni va bilimlarni olishga yo'l ochib berishda;
- shaxs uchun intellektual va ijodiy qulayliklarini rivojlantirishda;
- jamiyatning har bir a'zosi hayotida uning faolligi evaziga malaka oshirish xizmatlarini tezkor o'zgartirishda;
- masofaviy o'qitish o'zib ketuvchi (ilg'or) ta'limni tashkil etish va uning samarasini oshirishni ta'minlashda;
- ta'lim mahsulotlarini va xizmatlarini yaratish va tashkil etish maqsadida turli axborot texnologiyalarini qo'llashda;
- guruhlash, turlash, hisoblash, ma'lumotlarni agregatlash uchun AKT xizmatlaridan maksimal darajada foydalanishda;
- masofaviy o'qitish qatnashchilarining axborot talablarini qondirish uchun boshqaruv axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishda;

- masofaviy o'qitish qatnashchilari bilan AKT vositalarining o'zaro axborot almashuvi jarayonlarida;

- fanlar bo'yicha ekspertlarning to'plagan bilimlar mahsulotlarini masofaviy o'qitishdan foydalanuvchilar tomonidan olinishining keng imkoniyatini beruvchi ekspert tizimli axborot texnologiyalarini ishga tushirishda va shu kabilar.

Bunday tashkiliy-metodik masalalarning asosiy yechimlaridan biri – bu yangi ta'lim texnologiyalarini kiritish, shu bilan birga, respublikaning uzluksiz ta'lim tizimida, ayniqsa, birinchi navbatda, oliy ta'limda masofaviy o'qitish uslubi o'z o'rnini egallashi kerakligidadir. Dunyoda masofaviy o'qitish uslubini qo'llash bo'yicha juda katta tajriba orttirilgan. Jumladan, tajribali o'qituvchilar va mutaxassislarning o'qitilayotgan kishiga yakka tartibda yordam berish, talabalar o'qishini turli uslubda nazorat qilish, ularning bilim saviyasi va malakaviy mukammalligini baholash maqsadida AKT turli variantlaridan foydalanishi tufayli talaba va o'quvchilarning o'qish sifati va mehnat unumdorligi oshadi.

Masofaviy o'qitish uslubining sifatli qo'llanilishi borasida quyidagi yo'llanmalar shakllanmoqda:

O'qitilayotgan borliqni markazlashtirish. Respublikamiz va xorijlik olimlar hamda mutaxassislarning bilim va tajribalarini qo'llash, zamonaviy o'quv qurollaridan foydalanish e'tiborda tutiladi. Bunda turli o'quv manbalaridan foydalanish, talabalarni axborot bilan ta'minlash, bu axborot esa o'z navbatida, butun dunyo mutaxassislari bilimlaridan, elektron kutubxonalardan olingan axborotlardan foydalanish talaba va o'quvchilar hamda ularning o'qituvchilari uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

O'qituvchiga talabni kuchaytirish. Ta'lim jarayonining standart holda jamlanishi, o'qituvchi(pedagog)larning bilim darajasini oshirish majburiyatini yuklaydi. Bu uslublar ularning ish natijasi va bilim darajasining ko'tarilishiga yordam beradi.

Erkin va standartlatirilgan ta'lim berish jarayonining ta'minlanishi, uzluksiz monitoring imkoniyati, o'quv jarayonlarining to'g'ri nazorat qilinishi va boshqarilishi, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va o'quv yurtlari tomonidan o'qituvchi va talabalarning bilim saviyasining tekshirilishi (ta'lim jarayonida talaba va o'qituvchilarning harakatlarini nazorat qilish, bunga talabaning faolligi va o'qituvchi ishining unumliligi, talabalarni attestatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq amallar ham kiradi) masofaviy ta'limda ham yo'lga qo'yilishi shart. O'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimlarining samaradorligini oshirishda ham bunday tadbirlar amal qiladi.

O'qitish turining egiluvchanligi. Qulay vaqtda shug'ullanish mumkinligi, qulay joyda va qulay tezlikda o'quvchi-talabalarning bilim qabul qilishining turli shakllarini qo'llash mumkinligi, ular tomonidan modellashtirish va ko'rgazmali vositalarni joyida qo'llash, axborot va bilimlarni yetkazishda ko'rgazmali, amaliy va boshqa metodlardan unumli foydalanish ikoniyatlarining mavjudligi ta'limning ushbu shakli egiluvchanligini ifodalaydi.

O'qituvchining roli va uning pedagogik imkoniyatlari. O'qituvchining o'quvchi-talabaga nisbatan shaxsiy yondashuvining turli shakllarini qo'llash va har bir o'quvchi-talabaning bilim darajasi va tayyorgarligini har tomonlama o'rganish sharoitining mavjudligida ko'rinadi.

O'quvchi-talabaning bilim va tadqiqot motivlari hamda stimullarini rivojlantirish. O'quvchi-talabaning o'qituvchi(pedagog)ga va o'zaro muloqotida ishonchsizlik hissiyoti bilan bog'liq psixologik to'siqlarni yo'qotish, talabaning intellektual va ilmiy imkoniyatlarini hamda o'zini o'zi tarbiyalash va takomillashtirish shart-sharoitlarini kengaytirishga yordam beradi. Shuningdek, bilim oluvchilarning aqliy va jismoniy mehnati uyg'unligini ta'minlaydi.

Iqtisodliligi. Bu tizim o'qitishdagi kechikishlarni kamaytirishni ta'minlaydi. O'qitish xonalaridan foydalanish, yo'l harajatlari va taklif qilishga malakali o'qituvchi(pedagog)lar uchun ularning asosiy ish joyidan haq to'lash harjatlarini kamaytiradi. Ular o'z bilimlarini masofadan o'qitish shaklida uzatishlari mumkin. Sog'lig'i, ijtimoiy va moddiy ta'minlanganligidan qat'iy nazar, bilim olishning keng imkoniyatlari yaratilib, ijtimoiy tenglik yuzaga keladi.

O'qitish doirasida musobaqa muhitini rasmiylashtirish. Masofadan o'qitish texnologiyasi bu – jamiyatni axborotlashtirish umumiy oqimi va yo'llari bilan jipslashgan bo'lib, masofaviy o'qitishning texnik vositalarini axborotlashtirish tizimlari va oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish jarayonini avtomatlashtirish tizimlari bilan zamonaviy axborotlashtirish texnologiyasi asosida birlashuvini ta'minlaydi.

Masofaviy o'qitish usulidan foydalanishning kamchiligi – o'qituvchi va talaba o'rtasidagi bevosita muloqot va psixologik birlikning chegaralanganligidir.

Umuman olganda, masofaviy o'qitish tizimi o'quvchi-talabalarda ta'lim tizimidagi bo'layotgan dunyoviy o'zgarishlar, texnik vositalardan foydalanish yo'llari, uning qanchalik afzallik tomonlari va shu bilan birgalikda qanday kamchiliklari kamchiliklari mavjudligi haqida ma'lumot beradi.

**«Hayotda qayralib ezilgan kishi,**
**Ustozlikka loyiq: bilim har ishi»**
***Abulqosim Firdavsiy** - fors-tojik shoiri*

## 5-MAVZU. Pedagogik texnologiyani qo'llash bilan bog'liq tashkiliy-uslubiy ishlar

**Reja:**

1. **Ayrim pedagogik tajribalar.**
2. **Ayrim psixologik tajribalar.**
3. **Pedagogik texnologiyaning tajriba-sinovlari.**

### 5.1. Ayrim pedagogik tajribalar

Uzluksiz ta'lim tizimida davlat buyurtmasi va ijtimoiy talabga muvofiq har bir ta'lim muassasasi va unda xizmat qiluvchi pedagog-kadrlar zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm-fanning so'nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli, kasb-hunarli, el-yurtga sadoqatli milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o'z burchi va javobgarlini his eta oladigan, raqobatbardosh barkamol shaxsni tarbiyalash va kamolga yetkazish, ularning ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish yuklatilgan. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal

etilishi ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalardan foydalanish bilan uzviy ravishda bog'liq.

Ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, eng avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalashni talab qiladi. Bunday munosabatlarni tashkil etmasdan turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalash asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo'lib, unda hamkorlik, g'amxo'rlik, bilim oluvchi shaxsini hurmat qilish kabilardan iborat o'quv faoliyati tashkil etiladi.

Pedagogning o'quvchi yoki talabaning shaxsiga bo'lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg'urish, shaxsga bo'lgan yuksak ishonch, o'zaro hamkorlik, mukammal muloqot madaniyati, ixtiyoriylik va erkinlik, rag'batlantirish va kamchiliklarga chidamlilik hisobiga amalga oshadi. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning faolligi va teng huquqliligi talab etiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini demokratizatsiyalash – bilim beruvchi va bilim oluvchilarning fuqarolik huquqlarini tenglashtirish, o'quvchilarda tanlash va o'z fikri hamda nuqtai nazarini erkin bayon etish sharoitining yaratilishiga olib keladi. Bu O'zbekiston Respublikasining asosiy Qonuni -Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan me'yorlarga ham muvofiq keladi.

Yangi munosabatlarning o'zida xos jihati, an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, o'quvchilarning mustaqilligi va ijodiy o'quv faoliyatini ta'qiqlamasdan ularni belgilangan maqsadga yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish, qiziqtirish, ehtiyojlarni hisobga olish va erkin hamda faol mehnatga undash tufayli amalga oshirilishi bilan harakterlidir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga kelgan yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Buning uchun pedagogik texnologiyalarni joriy etishning o'ziga xos vositalari zarur bo'ladi. Ular xilma-xildir. Verbal (nutq so'zlash, ma'ruza, suhbatlashish, savol-javoblar, bahs-munozara, muzokara, axborot va ma'lumot berish, kengashish, maslahatlashish, nasihat yoki tanbeh berish kabilar), noverbal (imo-ishora, qo'l va gavda harakatlari yordamida ma'lum ma'no-mazmunni ifodalash yoki ta'kidlash), vizual (ko'rgazmalilik elementlari-plakatlar, jadvallar, suratlar, diagrammalar, sxemalar, yozuv va tasvirlar, fotosuratlar, tarqatma materiallar, video lavhalar, jonli va jonsiz ob'ektlar, turli buyumlar va boshqalar), audio (magnit yozuvlari, lingofon va radio vositalar, musiqa va nutqiy asarlar kabilar), tabiiy (odam, hayvon, o'simlik, mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar, inshoatlar kabilar), o'quv anjomlari (kitob, atlas, harita, reaktivlar va boshqalar) kabi vositalar farq qilinadi va ular yakka yoki omixta tarzda keng miqyosda qo'llaniladi.

Ta'lim jarayonida yangi texnologiyalarni kiritish mexanizmini taniqli pedagoglar-J.G'.Yo'ldoshev va S.A.Usmonov quyidagicha bayon qilishgan:

1. Pedagogik jamoani yangi pedagogik texnologiya asoslari bilan tanishtirish-ma'ruza. Adabiyotlar tavsiya etish.

2. Yangi texnologiya asosida ishlashni xohlovchi pedagoglar jamoasini aniqlash. Ular orqali o'qituvchilarga pedagogik texnologiyani qo'llashdan ko'zda tutilgan maqsadni, uning mohiyatini yetkazish.
3. Yangi pedagogik texnologiya asosida ishlamoqchi bo'lgan o'qituvchilarni shu jarayonga tayyorlash yuzasidan quyidagi tashkiliy ishlarni amalga oshirish:
   -seminar;
   -trening;
   -individual maslahat berish;
   -ko'rgazmali darslar tashkil etish.
4. Yangi texnologiya asosida ishlovchilarning ishini nazorat qilish, kuzatuv va tahlillar o'tkazish, metodik yordamlar ko'rsatish. Ularning hisobotlarini eshitib borish.
5. Yangi pedagogik texnologiya asosida ishlovchi o'qituvchilarning metodika kengashida, pedagogika kengashlarida chiqishlarini tashkil etish.
6. Yangi pedagogik texnologiya bo'yicha ishlash uchun zarur didaktik materillar, vositalar xonasini tashkil qilish.
7. Yangi texnologiya bo'yicha ishlashning afzalliklarini, o'quvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa tomonidan qo'llab quvvatlanishini oshkor etib borish.
8. Ilg'or, innovator pedagoglardan innavator pedagogik jamoani shakllantirish.
9. Yangilanishning uzluksizligi, davomiyligini ta'minlash.

Har bir ta'lim muassasasi o'z pedagogik jamoasining umumpedagogik tayyorligi, istak va xohishlariga muvofiq pedagogik texnologiyani joriy etish strategiyasi va taktikasini o'ziga moslab rejalashtirishi mumkin.

Pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun o'qituvchilar bilan quyidagi tashkiliy tadbirlar o'tkaziladi:

-yakka tartibda (individual) ishlash (ta'lim muassasasida, kutubxonada, uyda, ma'rifiy tadbirlarda);

-juft bo'lib ishlash (o'quv yurtida);

-kichik guruhlarda ishlash (ta'lim-tarbiya muassasalarida, hududiy tashkilotlarda);

-katta guruhlarda ishlash (mintaqaviy ko'lamda).

Tajriba almashish, ilg'or pedagogik faoliyatni ommalashtirish, anjumanlarda qatnashish, interfaol mashg'ulotlar tashkil etish va shular kabi ko'rgina tadbirlar ham amalda tez-tez qo'llaniladi.

Bularda quyidagi tartib-qoida va yo'riqlarga rioya qilinishi lozim:

-vaqt rejimiga bo'ysunish;

-vaqtdan unumli foydalanish;

-o'zgalar fikri bilan hisoblashish;

-boshqalarning tajribasi va mulohazalariga hurmat bildirish, hamkorlik va hamjihatlik;

-keng fe'llilik va tanqid qilmaslik, tanbeh bermaslik;

-mulohazalilik;

-fikrni lo'nda bayon etish va boshqalarning fikriga diqqat bildirish;

-erkin munozara vaziyatiga bo'ysunish;

-o'zaro munosabatda samimiylik hamda xolislik va boshqalar.

Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda ayrim pedagogik va psixologik tajribalarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

O'zlashtirish-shaxsning individual xususiyatiga bog'liq bo'lganligi uchun o'quv jarayonini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida tashkil etish, diqqatni to'plash, xotirani mashq qildirish, harakterni tarbiyalash, axborot olishning yakka tartibli usulini keng qo'llash zarur.

Shaxsning individual va psixologik diagnostikasi ma'lumotlarini amaliyotda hisobga olish va o'quv faoliyatini takomillashtirishning intensiv usullaridan keng foydalanish, bilim oluvchilarning o'zlashtirish jarayonini tekshirish va nazorat qilish hamda baholashda reyting tizimiga bo'ysunish ijobiy natija beradi. Ta'lim berish va tarbiyalash jarayonida shaxsning biologik, fiziologik, genetik, sotsial (ijtimoiy) jihatlarini o'rganib pedagogik tadbirlarni tashkil etish va o'qitish mexanizmini ishga tushirish, avvalo, samara, so'ngra sifat ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.

Mashg'ulotlar turlarining an'anaviy ko'rinishlari bilan bir qatorda noan'anaviy tashkiliy tadbirlarni keng yo'lga qo'yish ta'lim oluvchilarning sezilarli darajadagi rivojlanishiga olib boradi. Bunday o'zgarishlar miqdor va sifat kesimlarida, vaqt birligi davomida salmoqli natija beradi. Mashq qilish tufayli ko'rish va eshitish sezgilari evaziga bo'ladigan o'zlashtirish natijalarini oshirish pedagogik tajribada isbotlangan.

O'qitishning asosiy tashkiliy shakli-dars va uning uzviy hamda mazmuniy davomi bo'lgan darsdan tashqari ishlar xilma-xil variantlarda amalga oshirilganda ta'limning sifat va samaradorligi proporsional ravishda ko'tariladi. Bunda motivatsiyaning ahamiyati katta. Motivatsiya-shaxsni o'qishga, ko'nikma va malaka egallashga hamda ijtimoiy-foydali mehnatga yo'naltiruvchi (undovchi) turli sabablarning yig'indisidir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi islohotlarning natijasi o'laroq pedagogik-psixologik tashhis xizmatining keng ko'lamda yo'lga qo'yilishi sodir bo'ldi. Salbiy va ijobiy motivlar, kamchilik va yutuqlar, maqtov va e'tiroz, tanbeh va rag'bat nisbatlarining shaxs o'lchamida nomuvofiq baholanishi yaxshi natijalarga olib kelmaydi. Shuning uchun.

-inson farzandi asosiy tarbiyani oilada olishini;

-dastlabki ta'lim va tarbiya elementlari bolaning murg'akligida shakllanishini;

-maktabgacha ta'lim turida berilajak ma'lumotlar va tarbiyaviy fikrlar faqat oilaning shu boradagi fondiga yordamchi ekanligini;

-individual yoki tabaqalashtirilgan ta'lim ommaviy yondashuvga nisbatan samaraliroq ekanligini;

-o'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi eng yaqin va samimiy ta'sir funksiyasi kelgusi yutuqlarning garovi bo'lishini;

-ta'lim va tarbiyadagi muvaffaqiyatlarning ichki (shaxsiy) va tashqi (atrof muhit) omillarga bog'liqligini;

-bolalik, o'smirlik, o'rta va katta yoshlik hamda keksalik davrlaridagi aqliy faoliyat bir-biridan jiddiy farq qilishini;

-balog'at fazasida inson organizmining fiziologik nuqtai nazardan keskin o'zgarishlarga uchrashi va buning oqibatida ta'lim va tarbiya omillariga bo'lgan munosabatning ijobiy yoki salbiy taraflarga o'zgarishi mumkinligini;

-ta'limdagi muvaffaqiyatlar shaxsning o'z muammolari, aqliy va jismoniy salomatligi, oilaviy ahvoli, jamoatchilik omillari, moddiy ta'minoti, qiziqishi va o'qishga tayyorgarligi, qobiliyati, hayotda orttirgan belgilari, o'qituvchilarning tarbiy mahorati, motiv va hissiy tuyg'ulari kabi ko'pgina holatlarga bog'liqligini pedagogik faoliyatda diqqat markazida tutgan holda ishlash, o'qitish va tarbiyalash lozim.

Pedagogik amaliyotda pedagogik jarayonning moddiy, ob'ektiv jihati doimo ruhiy jarayonlar bilan qo'shilgan holda mavjud bo'lib, biri ikkinchisisiz mavjud bo'lmaydi. Bu har qanday faoliyatga tegishli, lekin, ayniqsa, ta'lim oluvchilar, tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilar faoliyatiga ko'proq tegishli.

## 5.2. Ayrim psixologik tajribalar

Pedagogik jarayonni psixologik mexanizmlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Odamning shaxs sifatidagi eng asosiy belgisi-uning ijtimoiyligidir. Ong va psixik jarayonlar insonning olamni va o'z-o'zini anglashiga xizmat qiladi. Bunda birinchi va ikkinchi signal tizimlari uyg'unlikda faoliyat yuritadi. Muloqot va fikrni og'zaki yoki yozma ifodalash va masofaga uzatish inson individining eng katta yutug'idir. Individ ijtimoiy mavjudot darajasiga ko'tarilganda shaxsiy sifatlar mukammallashadi.

Shaxsning eng harakterli jihati – uning individualligidir. Individuallik shaxs psixologik xususiyatlarining qaytarilmaydigan (betakror) birikmasi bilan ifodalanadi. Shaxsga ta'sir qilayotgan barcha omillar uning umri davomida moddiy va ma'naviy dunyoni hamda o'zligini anglashiga, ularga javob reaksiyasini namoyon qilishiga va axborotlarni o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Shaxsning nisbatan barqaror va nisbatn o'zgaruvchanlik xususiyatlari shaxs hislatlarining bir butunligini va o'zaro bog'liqligidan iborat bo'lgan murakkab birlikni, ya'ni uning dinamik strukturasi(tuzilmasi)ni hosil qiladi.

Shaxsning harakatlantiruvchi kuchlarini va uning psixologik tuzilishini hamda faollik manbalarini 3 asosiy omil bilan bog'lab o'rganiladi:

1. Tashqi tabiiy va ijtimoiy muhit.
2. Shaxsga umri davomida tizimli tarzda va uzluksiz maromda beriladigan ta'lim-tarbiya.
3. Odamga tug'ma ravishda beriladigan nasliy xususiyatlar.

Psixologlar ta'lim-tarbiya jarayonlarining ob'ektlari va sub'ektlari hisoblanadigan shaxs haritasining bir qator elementlarini e'tirof etadilar.

Psixologlar qobiliyatning namoyon bo'lishida psixomotor, musiqiy, vokal, artistlik, badiiy, texnik, matematik, adabiy, ilmiy, pedagogik, tashkilotchilik, axloqiy, huquqiy jihatlarni, harakterning umumiy hislatlari sifatida esa insonparvarlik, vatanparvarlik qat'iylik, soflik, g'ayratlilik, faollik, uyushqoqlik, jamoatchilik, optimizm, ko'ngilchanlik kabi individual xususiyatlarni qayd etishgan.

Psixik jarayonlar bilan bog'liq individual xususiyatlar ta'lim jarayonida va tarbiyalanishning turli bosqichlarida katta ahamiyat kasb etadi. Bular - emotsional muvozanatlilik, diqqat-e'tiborlilik, xotiraviy mustahkamlik kuchli emotsiyalar, tanqidiy tafakkur, farosatlilik, ijodiy xayol, irodalilik, maqsadga intiluvchanlik,

matonatlilik, qat'iyatlilik, intizomlilik kabi sifatlar bilan bog'liq ijobiy yoki salbiy jihatlardir.

Insondagi bilimlarning hosil bo'lishida undagi 5 ta sezgi a'zolari vositasida qabul qilingan va ishlab chiqilgan axborotlar nisbati quyidagicha:

Ko'rish a'zosi orqali-80-85 %
Eshitish a'zosi orqali-9-13 %
Hid bilish a'zosi orqali-2,5-3,5 %
Teri sezgisi orqali-1,5-3 %
Ta'm bilish a'zosi orqali- 1-2 %
Jami – 100 % gacha.

Turli sezgi organlari ishtirokida o'zlashtirilgan va qayta ishlangan axborotning oradan 2 hafta o'tgach, quyidagi miqdorlari eslab qolinadi:

O'qilganlar -10 %
Eshitilganlar - 20 %
Ko'rilganlar – 30 %
Ko'rilgan va eshitilganlar – 50 %
Gapirilganlar 80 %
Gapirilgan va amalda bajarilganlar – 90 %.

Eslab qolish va o'zlashtirish bilan bog'liq unutish, xotiraga joylash, qismlarga ajratib yodlash, mexanik yoki anglab yodlash, xotira mashqi suggestopediya (bir shaxsning boshqasiga psixik ta'sir ko'rsatishi), suggestiya (lotincha-ishontirish), gipnopediya (uyquda o'qitish) kabi ko'pgina ta'lim beruvchi va tarbiyalovchi operatsiyalar ham pedagogik tizimga tez kirib kelmoqda.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari belgilangan maqsadga muvofiq yo'nalish va hajmga ega bo'lgan ta'lim mazmunini davlat ta'lim standartlari, o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklar asosida yetkazishga xizmat qiladi. Har qanday texnologiya ta'lim maqsadiga mos sabab bilan yaratiladi.

Pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq ko'pgina tashkiliy- uslubiy muammolar ham borki, bugungi kunda ularni, albatta, e'tiborga olish lozim bo'ladi. Bular-o'qituvchining kasbiy salohiyati va metodik mahorati, poyindor bilimi, o'quv-metodik ta'minlanganligi, malakasini oshirishi va jahon pedagogik tajribasidan xabardorligi, fuqarolik mas'uliyati, axborot olamining benihoya kengayib borayotganligi, ta'lim muassasalarining moddiy va ma'rifiy imkoniyatlari bilim va kasb-hunar egallovchilar kontingentning dunyoqarash ko'rsatkichlari bilan bog'liq masalalardir. Eng muhimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng miqyosda foydalanish shiori ostidava innovatsion texnologiyalarni joriy etish bahonasida tarix va ijtimoiy hayot sinovidan muvaffaqiyatli o'tib va yashab kelayotgan an'anaviy o'qitish metodikasi, metod va usullaridan voz kechib yubormaslikdir.

Biroq o'qitish jarayoni dinamik va barhayot jabha bo'lganligi tufayli ham unga yangilik kirishi va yangilanish amaliyotining davom etishi tabiiydir. Shuning uchun ham, sinalgan va samara beradigan pedagogik texnologiyalarni qo'llash zaruriy holdir.

### 5.3. Pedagogik texnologiyaning tajriba-sinovlari

Pedagogik faoliyatda qo'llaniladigan harqanday texnologiyaning ishonchliligi, samaradorligi va uning chin zaruratini aniqlashda tajriba-sinov ishlari muhim

ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish, ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilish jarayonida amalga oshiriladigan tashkiliy va uslubiy tadbirlar orasida tajriba-sinovlarni tashkil qilish va o'tkazish muhim bosqich hisoblanadi.

Shuning uchun ushbu tajriba-sinovlar xususida qisqacha (muxtasar) ma'lumot berilishi maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik tajriba-sinovlar o'tkazishning asl mohiyati amaldagi pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga olib boradigan tadqiqotlar va ularning farazlariga muvofiq ravishda, aniq maqsad sari yo'naltirilgan yangi yo'nalish, mazmun, usul, vosita va yangi ta'lim-tarbiyaviy muhit yaratishdan iboratdir.

Masalani aniq tasavvur qilish uchun asosiy tushunchalarning ta'riflarini aniqlab olishimiz lozim.

Tajriba-sinov –bu shunday tafakkur metodi bo'lib, uning yordamida tabiiy yoki sun'iy tarzda yaratiladigan, nazorat qilinadigan, boshqariladigan jarayonlar tadqiq qilinadi, muammolarni hal qilishning yangi vositalari izlanadi va amalda sinab ko'riladi.

Pedagogik tajriba-sinov-bu ilmiy-pedagogik tafakkur metodi bo'lib, pedagogik omillar, shart-sharoitlar, jarayonlar va uslubiy yondashuvlar orasidagi sabab-oqibatli aloqadorlikni aniq rejalar asosida oydinlashtirish imkoniyatini beradigan tadbirlardir.

Nazariy metod-pedagogik texnologiyani modellashtirish, tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish, uning tizimlarini integratsiyalashtirish va ular o'rtasidagi eng muhim qonuniy bog'lanishlarni aniqlashdir.

Empirik metod-tajriba-sinov tadbirlariga oid ma'lum bo'lgan ilmiy-nazariy, o'quv-uslubiy, ilmiy-ommabop, qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish va mavjud g'oyalar, farazlar hamda tajribalarni tahlil qilish evaziga tajriba-sinovga daxldor modellar va bajarilishi kerak bo'lgan ishlar loyihasini yaratish, sinab ko'rish va amaliyotga tatbiq qilish metodidir.

Tajriba-sinov ishlari natijalarining ishonchliligi va kafolatlanganligi muhim ko'rsatkichdir. Tajriba-sinovlarni amalga oshirish natijasida har xil kutilmagan xulosa va natijalar olinishi mumkinligi nazarda tutilishi lozim. Buning sababi shundaki, tajriba-sinovlar yakuni hamma vaqt ham kafolatli natijalarni beravermaydi. Tajriba-sinovlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni o'tkazuvchining uquv va malakasi, metodik mahorati, bilim va tajribasi, respondentlar(tajriba-sinov ishtirokchilari)ning soni va ularning bu tadbirlarga munosabatlariga bog'liq.

Tajriba-sinovlarga kirishishdan oldin shu sohaga doir eng maqsadga muvofiq ish metodini belgilab olish muhimdir. Bu metodlar, asosan, yuqorida aytilgan nazariy hamda empirik tajribalarga asoslangan ikki asosiy guruhga bo'linadi.

Tajriba-sinovga mavzu qilib olingan muammoga bog'liq barcha me'yoriy va metodik hujjatlar, tavsiyalar, yo'riqnomalarni o'rganib chiqish zarur hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatiga doir turli hujjatlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuvlar olib borish, og'zaki va yozma so'rovlar o'tkazish, anketa va test savollariga javoblar olish, turli ilg'or tajribalarni o'rganish va umumlashtirish ishlarini amalga oshirish ham pedagogik tajriba-sinovlarga yordam beradi.

Bunday ishlarni tashkil etish va o'tkazish borasida pedagogik texnologiya asoslariga doir o'quv qo'llanmasini davlat tilida birinchilardan bo'lib yaratgan mualliflar-J.G'.Yo'ldoshev va S.A.Usmonov eng asosiy tasniflarni taklif etganlar.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Pedagogik texnologiyaning tajriba-sinov dasturini tayyorlash.

2. Dasturni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish:

- tajriba-sinov ishlarining moddiy bazasini yaratish;
- boshqaruv vazifalarini taqsimlash;
- kadrlarni bu jarayonga maxsus tayyorlashni tashkil qilish.

3. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish.

4. Tajriba-sinovda ishtirok etgan pedagoglarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish.

5. Ilmiy rahbar yoki konsultant izlash, tanlab olish va ularni tajriba-sinov ishlariga jalb etish.

Tajriba-sinov dasturini tayyorlashda quyidagilar nazarda tutiladi:

1. Taklif qilinayotgan pedagogik texnologiyaning dolzarbligini asoslash. Uning asosiy mazmunini bayoni.
2. Tajriba-sinov ob'ektini aniqlash:
   -pedagogik jamoa;
   -o'quvchilar;
   -tarbiyaviy ish tizimlari va boshqalar.
3. Tajriba-sinov predmeti.
4. Tajriba-sinov maqsadini talqin etish:
   -yangi metodika;
   -yangicha tabaqalashtirish;
   -yangi dastur yoki o'quv rejasi;
   -ma'lum texnologiyaning yangicha varianti;
   -yangi metodik ishlanma va hokazo.
5. Tajriba-sinov vazifalarini umumiy hamda xususiy maqsadlar bo'yicha aniq belgilash.
6. Tajriba-sinovning aniq metodikalari va metodlarini tanlab olish.
7. Tajriba-sinov muddatini belgilash.
8. Tajriba-sinov bosqichlarini belgilash.
9. Talab qilinadigan vaqt miqdorini belgilash.
10. Tajriba-sinovning aniq bazasini aniqlash.
11. Tajriba-sinovdan kutilgan natijalarni baholash mezonlarini tanlab olish.
12. Kutilayotgan natijalarni belgilash.
13. Tajriba-sinov dasturini ekspertiza qilish tartibini belgilash.
14. Tajriba-sinov jarayoni natijalarini kuzatib borish, nazorat qilish qoidalarini belgilash.
15. Tajriba-sinov natijalarini rasmiylashtirish tartibini belgilash va boshqalar.

Pedagogik texnologiyalarning samaradorligini baholash uchun uning uzluksiz kuzatilishi-monitoringini tashkil etish lozim.

**«Sivilizatsiyaning buyuk vazifasi-
odamni fikrlashga o'rgatishdir»**

*Tomas Alva Edison-amerikalik olim va ixtirochi*

## 6-MAVZU. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat uyg'unlashuvining istiqbollari

**Reja:**

**1. Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati.**
**2. Ta'limni differensiatsiyalash.**
**3. Ilmiy-texnik taraqqiyot va ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish vazifalari.**

### 6.1. Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati

O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan yagona va uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etuvchi 7 ta ta'lim turi-maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'limi, maktabdan tashqari ta'lim kabilar orasida oliy ta'lim turi malakali mutaxassislar va xalq xo'jaligi hamda jamiyat hayotining turli jabhalarida xizmat qiluvchi kadrlar tayyorlashning samarali «o'chog'i» sifatida alohida o'rin egallaydi. Shuning uchun ham bu ta'lim turiga alohida va jiddiy e'tibor berilishi hayotiy zaruratimiz darajasiga ko'tarilgan. Oliy ta'limning mazmuni va uning hajmini standartlashtirish masalasi 2001yilning 16 avgustida Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori bilan rasmiy vazifa tarzida tasdiqlandi. Shundan keyingi o'tgan tarixan qisqa vaqt mobaynida ushbu ta'lim turi bilan shug'ullanuvchi muassasalar va ularning mutasaddilari tomonidan ko'pgina ijobiy ishlar amalga oshirildi. Fanlar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini yaratish, o'quv reja va namunaviy o'quv dasturlarini barpo etish, darslik va boshqa o'quv adabiyotlarining yangi avlodini nashrga tayyorlash va ularni o'quv amaliyotiga kiritish kabi ishlar shu jumladandir. Ta'lim mazmunini chuqurlashtirish, ta'limning amaliy tamoyillarini takomillashtirish, ta'lim jarayonlarini intensivlashtirish, ta'lim texnologiyalarini mukammallashtirish, ta'lim va tarbiyaning birligini kuchaytirish, xususan, ushbu ta'lim turining mazmuniga nafaqat, bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi – ijodiy faoliyat tajribasi, atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatlarni ham kiritish g'oyasi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yildi.

Bunday ulkan vazifalarning maqsadga muvofiq tarzda bajarilishi ko'pgina omillarga bog'liqdir. Ularni ijtimoiy hayotning quyidagi komponentlari ro'yobga chiqarishi mumkin:

- faoliyat turlari (moddiy, amaliy, ijtimoiy, ma'naviy);
- ijtimoiy ong shakllari (axloq, san'at, siyosat, falsafa, fan va boshqalar);
- ijtimoiy munosabatlar tizimi (moddiy va mafkuraviy);
- moddiy, ijtimoiy va tabiiy borliq (keyingi avlodlarga meros qilib qoldirilgan boyliklar).

Ta'lim mazmuni, uning komponentlari, tarkibi, vazifalari haqida so'z ketganda dalillar bilan qonuniyatlar, yaqqollik bilan mavhumlik, bilimlar bilan haqiqatni mustaqil bilish metodlari o'rtasidagi maqbul keladigan munosabatlarni aniqlash zarur.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'kidlanganidek, «Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish-mamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhim sharti

hisoblanadi. Tizimning amal qilishi kadrlarning istiqbolga mo'ljallangan vazifalarini hisobga olish va hal etish qobiliyatiga, yuksak umumiy va kasbiy madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda yo'nalish ola bilish mahoratiga ega bo'lgan yangi avlodni shakllantirishni ta'minlaydi».

Kadrlar tayyorlash sohasida hozirga qadar amalga oshirilayotgan o'zgarishlar faqat mavjud ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan edi. U shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlari bilan kasbiy tayyorgarlikning amaldagi tizimi o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishni ta'minlamas edi. Xalqaro tajribani, mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ahvoli va muammolarini tahlil qilish asosida uning prinsip jihatidan yangi modeli ishlab chiqildi.

Kadrlar tayyorlash tizimi yangi modelining mohiyati va o'ziga xos xususiyati unga asosiy tarkibiy qismlar sifatida quyidagi komponentlar kiritilganligidadir:

- shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti, ta'limga oid xizmatlarning iste'molchisi va ularning yaratuvchisi;
- uzluksiz ta'lim – kadrlar tayyorlashning poydevori asosi;
- fan – yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlovchi va ularning iste'molchisi;
- ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojning istiqbolini belgilashni, ularning tayyorgarlik darajasi sifatini baholashni, shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimini qisman moliyaviy va moddiy-texnikaviy ta'minlashni amalga oshiruvchi asosiy buyurtmachi;
- davlat va jamiyat – kadrlarning tayyorgarligi sifatini nazorat qilish va baholashni amalga oshiruvchi, kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning bosh kafillari.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» umumiy madaniyatni shakllantirish, jamiyatdagi hayotga moslashtirish, kasb-korga va ta'limga oid dasturlarni ongli ravishda tanlash hamda keyinchalik ro'yobga chiqarish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, psixologik-pedagogik va boshqa shart-sharoitlarni yaratishni, oila va jamiyat, davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglovchi barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga jadal sur'atlar bilan kirib borish jarayoni respublikamiz aholisi uchun ta'lim darajasini oshiruvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu birinchi navbatda bozor munosabatlarining rivojlanishiga bog'liq bo'lib, u jarayon bilim darajasiga, iqtisodiyot va ekologiya, kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalari ustuvor bo'lgan va xalq xo'jaligining rivojlangan tarmoqlariga, ta'lim tizimining takomillashuvi va kadrlar tayyorlashga bog'liq bo'ladi.

Kadrlar tayyorlash muammosining samarali yechimi birinchi navbatda bugungi kun talablariga javob bera oladigan psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, ekologiya, madaniyat, huquqshunoslik va shunga o'xshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga, har tomonlama chuhur bilimga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar tayyorlanishi bilan bog'liqdir. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasida ta'kidlab o'tganidek: «Domlalar, professorlar, kafedra mudirlari o'z ustida ishlamasa, o'z sohasi bo'yicha chet mamlakatlarga ilmiy safarlarga borib kelmasa, tajriba almashtirilmasa, albatta, bunday ahvol o'quv jarayoniga va uning samarasiga salbiy ta'sir qiladi».

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda quyidagilar hal qiluvchi ahamiyat kasb etar ekan:

1. Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro samarali aloqadorligi.
2. Ta'lim korxonalari va professional ta'lim dasturlari turlarining xilma-xilligi, ularning fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarning eng yuqori andozalari va ko'rinishlaridan foydalanish.
3. Professional ta'lim tizimini ustuvor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantirish.
4. Ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash va ularning moddiy-texnik bazasini yaratish hamda ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini mustahkamlash.
5. Professional ta'lim tizimiga eng yuqori malakali o'qituvchilarni va mutaxassislarni jalb ettirish.
6. O'quv jarayonini axborotlashtirish va kompyuterlashtirish.
7. Kadrlar tayyorlashning sifat bahosini va ob'ektiv nazorat tizimini qo'llash.
8. Shaxsning rivojlanishi, o'lchovi, sifat va xulqini, qobiliyat intellektini baholash va kasbiy mahorati muammolariga bag'ishlangan psixologik-pedagogik izlanishlarni bajarish.
9. O'qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag'batlantirish va ularni ijtimoiy himoya qilish.

Bu holatlarning barchasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z aksini topgan. Bugungi kunning mutaxassisi har tomonlama rivojlangan yuqori darajadagi intellektga ega bo'lgan, fan asoslarini chuqur o'rgangan bilimdon, zukko, dono, fidoiy, ma'rifatli va ma'naviyatli inson bo'lishi kerak. U o'z mutaxassisligidan tashqari, xorijiy tillardan birini egallagan bo'lishi hamda kompyuter texnikasidan foydalana olishi shart.

Oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o'qitiladigan fanlar bo'yicha sifatli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlovchi pedagogik usullarni qo'llay bilishi lozim. U zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o'rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar, amaliy yo'llanmalar ishlab chiqishi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirganidan so'ng, uni ta'lim tizimiga joriy eta olishi kerak.

## 6.2. Ta'limni differensiatsiyalash

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoni, jamiyatning tez o'zgarib borayotgan turmush sharoiti, ta'lim tizimiga ta'sirchanlik va tezkorlik xossalarining berilishini, ya'ni ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot talablariga javob berish, shaxs qobiliyati va iste'dodini hisobga olish imkoniyat va shart-sharoitlarini yaratishni taqozo etadi.

O'quv-tarbiya dasturlarining ta'sirchanligi va tezkorligini ta'minlash ta'lim jarayonini differensiatsiyalash muammosi bilan uzviy bog'liq. Hozirgi sharoitda, so'zda emas, ishda uzluksiz ta'lim tizimiga ta'limni differensiyalash prinsip va mexanizmlarini joriy etish kerak.

Ta'limni differensiatsiyalash zamonaviy ta'lim tizimining asosiy xususiyatlaridan biridir. U o'quvchi-talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, layoqati, imkoniyatlari, qiziqishlari, kasb tanlashidan kelib chiqqan holda turli ko'rinishda bilim olish imkoniyatini beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida qatnashuvchi barcha sub'ektlarning o'zaro samarali ta'sirini ta'minlovchi mexanizmlar va shart-sharoitlarni yuzaga keltirish zarur. Umuman olganda, ushbu tizimning barcha tarkibiy qismlari – oila, uzluksiz ta'lim, mahalla, jamoat birlashmalari, jamg'armalar mavjud. Biroq, birinchidan, ularning o'z ichidagi samaradorlik faoliyatini ko'tarish, ikkinchidan, samarali ta'sirchanlik, ya'ni uzviyligi, bir-biriga chambarchas bog'liqligidan kelib chiqib ularning faoliyatini takomillashtirish lozim.

Ta'lim muassasalarining faoliyatini ijtimoiy institutlar sifatida tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Bunda, maktab, litsey, kollej, institutlarni nafaqat ilm-fan maskani, balki haqiqiy madaniy-ma'rifiy markazlarga aylantirish kerak. Ular mahalla, oila, jamoat birlashmalari bilan yaqindan aloqada bo'lishlari shart. Ushbu maskanlarda ijod qilish ruhi, ijtimoiy faollik, shaxsiy ishtirok, o'zaro hamkorlik muhitining yaratilishi, bir tarafdan, mustaqil fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalashga, ikkinchi tarafdan, yangi ijtimoiy muhit, tafakkurning shakllanishiga olib keladi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, didaktik o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi.

Talabalarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Modulli ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur tuziladi. Talabalar modul dasturi yordamida mustaqil va ijodiy ishlab, mashg'ulotlardan ko'zlangan maqsadga erishadilar.

Modul dasturlari o'rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar, topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalarni o'zida mujassamlashtiradi. Ishlab chiqilgan dasturlar mazmun va mohiyatiga ko'ra, talabalarning individual, ikkita talaba birgalikda va kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlariga ajratiladi. Modul dasturlarning didaktik maqsadidan kelib chiqib, o'quv-tarbiya jarayonidan o'z o'rnida foydalanish yuqori samara beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodlaridan foydalanish har bir talabani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ta'lim olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir talabaning ta'lim olishdai muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan mashg'ulotlarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruhlarda o'qitish, zigzag yoki arra, kichik guruhlarda ijodiy

izlanishni tashkil etish metodlaridan foydalanish uchun pedagog har bir metodning didaktik maqsadini anglagan holda o'quv topshiriqlarini tuzadi va ulardan o'z o'rnida foydalanish yo'llarini belgilaydi.

Hozirgi kunda juda ko'p metodist va pedagog olimlar «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar» talaba-o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlangan maqsadga erishishni to'la kafolatlaydi, deb qaralmoqda. To'g'ri, zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqarishda boshqaruvchidan katta kuch talab qilinmaydi. Maxsus texnologiyaning o'zi qo'yilgan maqsadga to'la erishishni kafolatlaydi. Ammo bu nazariyani pedagogik texnologiyada to'laligicha qabul qilib bo'lmaydi, chunki bunda ob'ekt shaxs bo'lib, uning ongi taklif qilinayotgan texnologiyani to'laligicha qabul qila olmaydi, aksincha uni inkor qilishi mumkin. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lgan pedagog ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi bo'ladi. Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uning asosiy negizi bo'lgan axborotlar texnologiyasini ta'lim tizimiga joriy etishda uning boshqaruvchisi bo'lmish pedagogning tayyorgarlik darajasini birinchi o'rinda hal qilish bugungi kun «Pedagogika» fanining eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish ko'lamini kengaytirish, bu yo'nalishda ilg'or pedagogik tajribalarni tatbiq etish, har bir fan bo'yicha bu sohada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish; darslik, o'quv qo'llanma, dastur, ma'ruza matnlarini tayyorlash, ilmiy-metodik ishlarda, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etishni rivojlantirish, ularni axborot vositalari bilan ta'minlash hamda kommunikatsion tarmoqlarga bog'lash eng muhim vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagog quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, ya'ni:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari;
- pedagogik texnologiyalar konsepsiyasining rivojlanish tarixi;
- ta'lim jarayoniga texnologik yondashish haqida tasavvurga ega bo'lish;
- pedagogik texnologiyalarning didaktik qonuniyatlarini;
- o'qitiladigan fanga tegishli ilg'or o'qitish texnologiyalarini;
- didaktik jarayonni ma'lum vaqt chegarasida loyihalanishi;
- o'qitishning faol metodlarini bilish va qo'llay olish;
- uy vazifalarini maqsadli, tashhisli va aniq o'quv element turi tarzida berish, texnologiya loyihalarining mantiqiy tuzilmasi, korreksiyasi;
- o'quv maqsadlari tavsiyanomasini ishlab chiqish;
- test topshiriqlarini talaba faoliyat darajalariga mos holda tuzish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish sharti;
- internet kompyuter tarmog'idan foydalanish;
- o'quv jarayoniga elektron pochtadan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish;
- reyting nazorati va talabalarning bilimlarini ob'ektiv baholashni bilishi kerak.

Bugungi kunda respublikamizda oliy ta'lim tizimi yangi rivojlanish pog'onasiga ko'tarildi: ikki bosqichli ta'lim – bakalavriat va magistratura faoliyat ko'rsata boshladi; davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi; talabalarning mustaqil ta'lim

olishini yakka tartibda amalga oshirish joriy etilyapti, ta'lim mazmunida fan va ishlab chiqarish integratsiyasi o'z aksini tobora ko'proq topmoqda; professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga e'tibor kuchaytirilganligi alohida tahsinga loyiq.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni rivojlangan davlatlar tajribalari asosida takomillashtirish, uning ishtirokchilari – o'qituvchi va talaba-magistr faoliyatini «sub'ekt-sub'ekt» imkoniyatlari asosida tashkil etish zarurati bugun barcha oliy o'quv yurtlarida pedagogika va psixologiya fanlarini o'quv rejasiga kiritish lozimligini isbotladi. Endigi vazifa esa, bu fanlarni o'qitishga alohida e'tibor qaratish, pedagogik faoliyatning siru sinoatlarini tadqiq qilish asosida amaliy xulosalarni qo'lga kiritishdir.

Respublikada shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi e'tirof etilgan bir davrda pedagogika fani erkin shaxsni shakllantirish qonuniyatlari, yoshlar shaxsini hayotga moslashtirishning shakl va metodlari, mazmuni va prinsiplarini o'rganadi. Endilikda pedagogika o'z predmeti, fanlar bilan aloqasi, pedagogik bilimlar tizimi va ularning mantiqiy tuzilmasi, nazariy pedagogik bilimlarni tarbiyaga, ta'lim amaliyotiga qo'llash masalalariga doir muammolarni qaytadan yangicha talqinda qo'ymoqda. Demak, pedagogikada tadqiqotlarning dolzarbligi, bir tomondan, jamiyat ehtiyoji – o'quv-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish bilan, boshqa tomondan esa, pedagogik bilimlarning yangilanish va rivojlanish darajasi bilan belgilanar ekan.

### 6.3. Ilmiy-texnik taraqqiyot va ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish vazifalari

Bugungi kunda erkin shaxsni shakllantirish muammosi ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy ishlarni zamonaviy pedagogik texnologiyaga o'tkazishni taqozo etadi. Bu jarayon oson kechmaydi, chunki ixtiyoriy qurilayotgan va joriy etilayotgan o'qitish tizimini qat'iyan ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak. V.P.Bespalkoning ta'rifiga ko'ra «pedagogik tizim ma'lum shaxs sifatlarini shakllantirishga tartibli, aniq maqsadni ko'zlab va oldindan o'ylab pedagogik ta'sir etishni vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq vositalar, usullar va jarayonlar yig'indisidir».

Har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo'lishi kerak. Agar maqsad o'zgarsa mavjud tizim ham o'zgarishi muqarrardir. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni bosh maqsad qilib qo'ydi. Chunonchi, Milliy dastur ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat buyurtmasi hisoblanib, milliy istiqlol mafkurasining mohiyat-mazmuniga to'liq mos keladi. Faqat davlat buyurtmasigina ta'lim-tarbiyaning umumiy maqsad va vazifalarini aniq belgilab beradi yoki oliy ta'lim uchun pedagogik tizimning mavjudlik shartlarini kafolatlaydi.

Pedagogik texnologiya shunday bilimlar sohasiki, ularning vositasida yangi ming yillikda davlatning ta'lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o'qituvchi (pedagog) faoliyati yangilanadi, o'quvchi-talabalarda hur fikrlilik, insonparvarlik tuyg'ulari tizimi shakllantiriladi.

Bugungi kunga kelib, o'qituvchi (pedagog)lar metodikani ko'p hollarda texnologiyadan ajrata olmayaptilar. Shu boisdan ham bu tushunchalarga aniqlik kiritish kerak bo'ladi. Metodika (uslubiyat) o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiya esa oldindan belgilab qo'yilgan aniq maqsad yo'lida o'qituvchi (pedagog)ning kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasi yig'indisidir.

Zamonaviy pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta'riflarning xilma-xilligi, bir tomondan rivojlangan mamlakatlarda ushbu mavzuning u yoki bu darajada yechilayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, pedagogik texnologiyani pedagogik amaliyotga joriy etishga bo'lgan urinishlarning ma'lum natijasini ifodalaydi.

Hozirda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli darajada, chunki nazariya va amaliyot birligining ta'minlanishi pedagogik texnologiyaning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochadi. Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyaga pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim, deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

Endilikda ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilanadi, unga mos holda mazmun ham, pedagogik jarayon ham yangilanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib borayapti, auditoriyaga o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalar (sanoat, elektron, axborot) kirib kelmoqda. Ro'y berayotgan sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, bugungi kunda «O'rganish»ning birlamchi jarayonlarini an'anaviy metodika va o'qitish vositalari qolipiga sig'may o'qituvchi (pedagog)ning individual qobiliyatlariga mos kelmay qoldi. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining tarkibiy komponentlariga aylanib borayotgan va una o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan texnikaviy, axborotli, poligrafik, audiovizual vositalar mavjudki, ular zamonaviy pedagogik texnologiyani real voqelikka aylantirmoqda.

O'quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bu jarayon XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ob'ektiv voqelikka aylandi. Axborotlashtirish esa bu jarayondagi inqilobiy «burilish»dir, ya'ni, ta'lim axborot texnologiyasi – bu «o'quvchi-talaba-kompyuter» o'rtasidagi muloqotdir.

Oliy o'quv yurtlarida talabalarning ilmiy-texnikaviy va ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirish - har qanday tur, bosqich yoki darajadagi ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Zotan, bugungi kun yoshlari texnika va texnologiya, iqtisodiyot asoslari borasidagi bilimlardan xabardor bo'lsa-yu, ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lmasa, u ko'zlangan maqsadga erisha omaydi. O'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash yo'llari va vositalarini bilishgina ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, yangi texnika, mehnat qurollari va yangi texnologiyalar yaratish imkonini beradi.

Keng ko'lamli va mustahkam bilim, ko'nikma, malaka, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, muammolarni mustaqil hal etishda aniq maqsadga intilish va shaxsiy

faoliyatga nisbatan talabchanlik talaba yoshlar ijodkorlik qobiliyatlarini shakllanishining zaminidir.

Talabalar ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning muhim sharti bu – faoliyatdir. Demak, pedagogning asosiy vazifasi ushbu faoliyatni tashkil etish shakl, metod, usul, vosita va yo'nalishlarini belgilab beruvchi zarur axborotlar bilan ta'minlash hisoblanadi. Axborot ta'minotining haddan ziyodligi ham vazifani ijobiy hal etmaydi. Shu sababali axborot ta'minotini pedagogik jihatdan boshqarish, ularning ilg'or texnika va texnologiya yutuqlari bilan boyitilganligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy-texnik taraqqiyot va ijodkorlikka erishish jarayonini pedagogik jihatdan boshqarishning predmeti inson omili bo'lib, u o'ziga xos ta'lim-tarbiya ishlari va uni boshqarish, ijodiy masalalarni yechish metodikasi va algoritmini o'rganishni ko'zda tutadi. Talabalar ilmiy-texnik ijodkorlik faoliyatini tashkil etish, tayyorlash jarayoniga nisbatan pedagogik yondashuv tizimi shaxs ijodkorligi va yaratuvchanligini boshqarishning bosh masalalaridan biri hisoblanadi va u o'z ichiga zaruriy axborotlarni yig'ish, tahlil qilish, uni qayta ishlash, maqsadni aniqlash, maqsadga erishish rejasini ishlab chiqish, reja bo'yicha ijodkorlik ishlarini tashkil qilish, uning amalga oshishini nazorat qilish, ushbu tizim faoliyatini tartibli olib borish va maxsus yechimlar qabul qilish kabi bosqichlarni oladi.

Har qanday boshqarish jarayoni, avvalo, maqsadni belgilash, ya'ni maqsadni to'g'ri qo'ya bilishdan boshlanadi. Bu esa boshqarish ob'ektining ayni paytdagi holatini tahlil qilish va uning rivojlanishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarini o'rganishdan boshlanadi. Ilmiy-texnik ijodkorlikni maqsadli pedagogik boshqarish mohiyatiga ko'ra ob'ektiv tavsifga ega, unda inson shaxsini kamol toptirishning ob'ektiv qonunlari o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari maqsadli boshqarish tafakkur mahsuli va ular shaxslarning hamkorlikdagi faoliyati jarayonida shakllanadi. Maqsad, o'z navbatida, pedagogik ob'ektdagi o'zgarishlarning yo'nalishlari, boshqarish faoliyatini uning asosiy turlari va ularning mazmunini belgilab beradi.

Maqsadli pedagogik boshqarish o'z mazmuniga ko'ra vaqt omili va sharoitiga qarab bir necha guruhlarga bo'linadi. Yo'nalish mazmuni esa, shartli ravishda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, g'oyaviy va ilmiy-texnikaviy maqsadlar sifatida guruhlanadi.

Ilmiy-texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashning muhim sharti maqsadli pedagogik boshqarishda qatnashuvchi shaxsni yuqori darajadagi ob'ektiv axborotlar bilan ta'minlash hisoblanadi. Ob'ektiv axborotgina maqsadga yo'naltirilgan faoliyat uchun harakatlantiruvchi vosita bo'la oladi.

Insonning miyasi turli xil axborotlarni turli darajada qabul qilish qobiliyatiga ega, bu esa ma'lumotlarni yengil, erkin va qiziqarli uzatishni talab etadi. Texnik vositalardan mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida samarali foydalanish didaktika muammosi hisoblanib, asosan, ko'rsatmalilik prinsipini ta'minlash borasidagi faol harakat, usul deb baholanadi.

Ta'lim jarayonida ko'rsatmalilik zarurati bilish jarayonining harakteri, ya'ni jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, undan keyin esa amaliyotga o'tishi bilan bog'liq. Pedagog va psixologlarning ta'kidlashicha, sezgi va tasavvur qilishdan tashqarida fikrlar harakatlanmaydi, shuningdek, o'qitish jarayonida ham olg'a siljish bo'lmaydi.

Demak, ko'rsatmalilik faqat ongga ta'sir etish bilan chegaralanmasdan o'rganuvchidan ma'lum his-hayajonli, motivni ham yuzaga chiqaradi, his etish va mantiqiy fikrlash birligi asosidagina egallangan bilimlar mustahkamlanadi.

Bugungi kunda ta'limni rivojlantirishning yangi pog'onasida o'qitishni texnik vositalarsiz ko'tarib bo'lmaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning muhim ko'rsatkichlaridan biri - axborotlarni o'quvchi-talabalarga uzatish tezligi aynan shu vositalar yordamida ta'minlanadi

Shunday qilib, fanning rivojlanishi bilan ilmiy-texnik taraqqiyot bir-birini taqozo etib, ijodiy faoliyatni tashkil etish jarayonini axborotlar bilan ta'minlash muayyan darajada boshqarish yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Ammo o'quv mashg'ulotlarini ta'lim metodlari bilan boyitish ta'lim tizimi va mantiqini buzmasligi kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiya o'quvchi-talabalarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga imkon beruvchi axborotlar yig'ish hamda ulardan mashg'ulot jarayonida foydalanish yo'lida ma'lum imkoniyatlarni yaratadi. Ushbu ma'lumotlar esa fan asoslarining axborot ta'minoti mazmuni va ijodkorlik metodlarini boshqarish imkoniyatlarini belgilaydi. Talabalarni ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonining samarasi ko'p jihatdan uning axborot ta'minotiga ega bo'lishini va pedagogik jihatdan boshqarish yo'nalishlarining tizimli hamda uzluksiz bo'lishini taqozo etadi.

## XULOSA

Ma'rifatli va madaniyatli dunyonig ta'lim tajribasi shuni ko'rsatadiki, shaxsning intellektual salohiyati, dunyoqarashi, shuningdek, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishida u mansub bo'lgan muhit hamda unda qaror topgan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati katta bo'ladi. Zero, shaxs mansub bo'lgan muhitda uning tafakkuri, ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan ob'ektiv va sub'ektiv omillar mavjud. Shaxs faoliyat olib borayotgan muhit doirasida oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining ham alohida o'rni bor. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim sohasida olib borilayotgan kadrlar tayyorlash bo'yicha islohotlar mamlakat iqtisodiyotini malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga imkon beradi. Mazkur masalaning dolzarbligini ta'kidlab, Prezidentimiz I.A.Karimov "-O'zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega", degan edi. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. Bu mamlakatimizning jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimiz iqtisodiy qudratining oshib borishi jamiyatimiz ijtimoiy sohasining markaziy xalqasi bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlarga olib keldi. O'quvchi va talaba yoshlar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularga berilayotgan ta'lim mazmunini kengaytirish, chuqurlashtirish va boyitish hamda ta'lim uzluksizligini ta'minlab berish uchun yangidan-yangi qonunlar va hujjatlar qabul qilinmoqda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yaratilmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiya fan asoslari bo'yicha

o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish va amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Yangicha yondashuv, yangicha fikrlash asosida o'qitish jarayonida bilim oluvchilarning o'quv-biluv faoliyatining samarali shakl va uslublarini joriy etish, ularning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish kerak. O'quv-tarbiya jaryonlarini ilmiy va metodik jihatdan mukammal tashkil etish muvaffaqiyatlar garovidir. Bunda barcha turdagi mashg'ulotlar va mustaqil topshiriqlar talabalarni o'ylashga, ijodiy mehnat qilishga, har tomonlama fikr yuritishga, berilgan topshiriqlarni o'z hayotiy tajribalariga asoslanib hal etishga o'rgatadi. Mashhur ingliz adibi J.Bernard Shou topib aytganidek, "-Bilimga eltuvchi yagona yo'l-bu-faoliyatdir." Ana shunday faoliyatning o'quvchi va o'qituvchi mehnati ko'rinishidagi turlari omixtalashganida kutilganidan ziyodaroq natijaga erishish mumkin bo'ladi.

O'qitishning asosiy tashkiliy shakli bo'lgan dars va darsdan tashqari ishlar, ular qanday ko'rinishda (an'anaviy yoki noan'anaviy darslar, sinfdan va maktabdan tashqari o'quv-tarbiya tadbirlari, ma'ruza yoki amaliy mashg'ulotlar) tashkil etilishidan qat'iy nazar, ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik va ma'rifiy-ma'naviy jihatdan to'laqonli bajarilganidagina yuksak pedagogik samarani berishi mumkin. Bunda, albatta, bilim oluvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlari, qiziqishi, bilim saviyasi, fikr yuritish doirasi hisobga olingan holda tashkil qilinadigan mashg'ulotlar ko'zda tutiladi. Buning uchun esa ta'lim va tarbiya beruvchining mukammallik darajasidagi pedagogik mahorati va kasbiy salohiyati talab qilinadi. O't-dalali almashlab ekishni dehqonchilik madaniyatiga dunyo amaliyotida birinchi bo'lib tavsiya etgan taniqli tuproqshunos olim R.Vilyamsning "-Yomon yer yo'q, balki undan hosil undirish yo'lini bilmaydigan uquvsiz dehqonlar bor", degan purhikmat iborasiga pedagogik o'zgarish kiritib aytadigan bo'lsak, "-Yomon o'quvchi(bilim oluvchi) yo'q, balki unga o'qish-o'rganishning maqbul yo'lini ko'rsata olmaydigan nosbud o'qituvchi(pedagog, tarbiyachi)largina bor, xolos" (H.O., F.B.).

Kuchli bilim, kasbiy metodika va oddiy insoniy fazilatlardan iborat uchta xususiyat birlashib o'qitish jarayonining pirovard natijasini belgilaydi. Bilimsizda metodik mahorat bo'lishiga ishonib bo'lmaganidek, bularning har ikkisiga ega bo'la turib, odamiylikdan bexabar shaxsning ham o'qituvchiligidan ne foyda? Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat ham yuqorida tilga olingan uchlikning tugalligisiz sxolastika botqog'iga botib turaveradi.

Ta'lim va tarbiyaning sifat va samaradorligi-juda ko'p omillarga bog'liq bo'lganligi uchun ham bu borada yagona va qudratli tavsiya yoki yo'l-yo'riq berib bo'lmaydi. Hattoki, zamonaviy pedagogik yoki axborat-kommunikatsiya texnologiyalaridan ham foydalana bilishning o'ziga xos va o'ziga mos mezonlari mavjudligini unutmaslik kerak. Noan'anaviylik, innovatsiya yoki interfaollik bayrog'ini baland ko'taruvchilar ham o'qitishning ming (balki, million) yillik an'ana va tajribalari, to'plangan ulkan tajribaviy zaxirasini inkor etmasliklari lozim. Eski va yangining o'zaro munosabati, bazis va ustqurmaning mutanosibligi, an'ana va tashabbusning kelishuvchanlik tamoyillarini unutmaslik kerak.

O'qituvchi(pedagog)ning mehnatiga faqat uning tasarrufidagi shaxslarning uquv, ko'nikma, malaka va bilim sifatiga qarab baho berilishi lozim. Ha, aynan bilim

sifatiga (bilim darajasi ham emas, qo'yilgan reyting ballari ham emas, o'zlashtirish ko'rsatkichlari ham emas!) qarab baholash odilona ish bo'ladi.

Oliy o'quv yurtlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda qo'llash bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilashga xizmat qiladi, o'quv mashg'ulotlarining samaradorligi va o'qituvchi(pedagog)lar mehnatining foydali ish koeffitsiyentini oshiradi.

Boshqacha aytganda, bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish samaradorligini oshirishning muhim sharti-ta'lim jarayoniga tizimli yondashuv va rang-barang pedagogik faoliyatdan iborat xizmat ko'rsatish sanaladi.

Ayni davrda zamonaviy pedagogik texnologiya - tizimli yondashuvlar asosida o'qitishning shakllarini qulaylashtirish, uning natijasini kafolatlash va ob'ektiv baholash uchun zarur bo'lgan inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro hamkorligini namoyish qiladi. Ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish, o'qitish va o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul, metod va vositalarlarni xilma-xillash, ta'lim va tarbiya jarayonlari mazmunini chuqurlashtirish-bular hammasi ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish demakdir. Vaholanki, takomillashtirishning chegarasi, ya'ni oxiri yo'q, deyiladi. Shunday bo'lgach, pedagogik texnologiyalar ham, pedagogik mahorat ham sarhadsiz tushunchalardir. Bu borada qancha ko'p izlanilsa va qanchalik tashabbuskorlik bo'lsa-shunchalik kamdek tuyulaveradi. O'qitishning eng oddiy va bosh haqiqati ham ana shundadir. O'qituvchi(pedagog)larning faqat ana shu taxlitdagi faoliyati oxir-oqibatda yuksak ijtimoiy buyurtmaning bajarilishiga olib keladi.

## ADABIYOTLAR


1. Selevko G.K. Sovremennie obrazovatelnie texnologii. - M.: Narodnoye obrazovaniye, 2004 (uchebnik).

2. Yo'ldoshev J.G'., Hasanov S.H. Pedagogik texnologiyalar. -Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2009 (o'quv qo'llanma).

3. Slastenin V.A. Slagayemie pedagogicheskoy texnologii. -M.: Pedagogika, 2008 (uchebnoye posobiye).

4. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse.-M.: Znaniye, 2006 (uchebnoye posobiye).

5. Pityukov V.Yu. Osnovi pedagogicheskoy texnologii. - M.: Gnom-Press, 2003 (uchebnoye posobiye).

6. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Fan, 2005 (monografiya).

7. Lixachev B.T. Pedagogika. - M.: Yurayt, 2005 (uchebnik).

8. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan, 2006 (monografiya).

9. Polat Ye.S. Novie pedagogicheskiye texnologii. Posobiye dlya uchiteley. -M.: Pedagogika, 2007 (uchebnoye posobiye).

10. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. -Toshkent: O'qituvchi, 2004 (o'quv qo'llanma).

11. Omonov H.T. Ta'lim texnologiyalarining nazariy va amaliy jihatlari hamda

ulardan samarali foydalanish omillari. -Toshkent:TMI, 2008. -35 b. (ilmiy-metodik tavsiyanoma).

12. Internet saytlari:

- www.pedagogika.ru
- www.ziyo.uz
- www.edu.uz

## TAYANCH SO'ZLAR VA IBORALAR

Pedagogika, pedagog, texnologiya, pedagogik texnologiya, mahorat, pedagogik mahorat, kasb, kasb-hunar, ta'lim, tarbiya, mehnat, ijod, sa'y-harakat, o'qituvchi, o'quvchi, maktab, ta'lim muassasasi, ta'lim turlari, uzluksiz ta'lim, salohiyat, tajriba, o'qish, o'qitish, tarbiyalash, takrorlash, ilm, ma'rifat, ma'naviyat, komillik, kamolot, intizom, maqsad, reja, dastur, darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-metodika majmuasi, metod, usul, vosita, ob'ekt, predmet, o'quv rejasi, o'quv dasturi, davlat ta'lim standarti, dars jadvali, tarbiyachi, murabbiy, ustoz, shogird, ustoz-shogird an'analari, an'anaviy va noan'anaviy ta'lim, modul, modulli ta'lim, masofaviy o'qitish, muammoli ta'lim, dasturiy ta'minot, dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari ishlar, maktabdan tashqari ishlar, nutq madaniyati, notiqlik san'ati, og'zaki va yozma nutq, pedagogik texnologiyaning ta'riflari, pedagognik texnologiyaning empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv va inklyuziv yo'nalishlari, motiv, jarayon, ilg'or (progressiv) va konservativ (reaksion) pedagogik texnologiyalar, o'qituvchi va o'quvchi muloqoti, komillik darajalari, bilim sifati, bilim darajasi, o'zlashtirish, baho, baho kriteriy(mezon)lari, monitoring, nazorat, yozma va og'zaki nazorat, imtihon, ijod, ijodkorlik, tashabbuskorlik, o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, gumanizm, qadriyatlar, gumanitarlashtirish, integratsiya, unifikatsiya, differensiatsiya, modernizatsiya, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, amaliyot, nazariya, tajriba-sinov, pedagogik eksperiment, pedagogik texnologiyaning metodjologiyasi, metodika, auditoriya, kabinet, laboratoriya, o'quv jihozlari, ko'rgazma va tarqatma materiallar, innovatsiya, interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, uy vazifasi, seminar, tarbiya turlari, aql-idrok, tafakkur, tasavvur, xayol, diqqat, harakter, temperament, xotira, oliy nerv faoliyati, mustaqil ishlar, psixika, psixik jarayonlar, sezgi, gnoseologiya, ontologiya, sotsiologiya, intizom, tartib, tartibbuzarlik, mukofot va jazo, rag'bat va jarima, jinoyatchilik, odob-axloq, milliy va internatsional (baynalmilal) tarbiya, aqliy va jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi, vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi, ekologik va estetik tarbiya, kasbiy mahorat, kasbiy salohiyat, bazaviy bilim, professiogramma, ibrat ko'rsatish, shaxsiy namuna, insof-diyonat,insoniylik, odamiylik, munofiqlik, ikkiyuzlamachilik, yolg'onchilik, fidoiylik, mardlik, sadoqat, mehr-muruvvat, halollik, ta'limning sifati va samaradorligi, axborot "bo'hroni" (ortiqchaligi), ta'lim muassasasini boshqarish, ta'limni moliyalashtirish, maktabshunoslik, ta'lim mazmuni, tarbiya nazariyasi, didaktika, didaktik prinsiplar, o'qitish metodlari va usullari, o'qitish vositalari, fan, ilm, tadqiqot, kashfiyot, ixtiro, qobiliyat, talant, iste'dod, iqtidor, o'qish, o'rganish, uquv, ko'nikma, malaka, odat, hunar, o'quv predmeti, ta'lim va tarbiyaning birligi, amaliy mashg'ulot, test topshiriqlari, masala va mashqlar, kiyinish madaniyati, jinsiy tarbiya, o'sish va rivojlanish, balog'at, mehnatsevarlik, ta'lim va tarbiyada badiiy adabiyotning roli va h.k.

# ILOVALAR
## TARQATMA VA KO'RGAZMA MATERIALLAR

1-ilova

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA BILAN O'QITISHDAGI USLUBIY



2-ilova

## O'QITISH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING TAMOYILLARI




Izoh: 1. O'qitish jarayonining uchta muhim funksiyasi farq qilinadi. Bular - ta'lim berish, tarbiyalash va shaxsni rivojlantirishdir.

2. Ta'lim va tarbiyaning birligi – pedagogikaning asosiy, ya'ni "oltin" qoidasidir.

3-ilova

# O'QITISH PIRAMIDASI



4-ilova

## DIDAKTIK SAKKIZBURCHAK



5-ilova

ZAMONAVIY O'QUV-USLUBIY MAJMUANING ASOSIY KOMPONENTLARI:

1. Davlat ta'lim standartlari.
2. O'quv rejasi.
3. Fan bo'yicha namunaviy dastur.
4. Fan bo'yicha ishchi o'quv dasturi.
5. Texnologik karita.
6. Dars o'tish kalendar rejasi.
7. Ma'ruzalar matni.
8. Amaliy mashg'ulotlar tafsiloti va mazmuni .
9. Asosiy tayanch tushunchalar va iboralar.
10. Masala – mashqlar va testlar.
11. Fan bo'yicha oraliq, joriy, yakuniy baholash mezonlari.
12. Yozma ishlarning variantlari.
13. Fan mavzulari bo'yicha tayyorlangan slaydlar, chizmalar va boshqa namoyish etiluvchi materiallar.
14. Amaliy ish o'yinlari.
15. Kurs ishi mavzulari.
16. Referat mavzulari.
17. Bitiruv malakaviy ish mavzulari.
18. Yozma va og'zaki nazorat savollari va boshqalardan iborat.

6-ilova

# PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING KLASSIFIKATSIYASI

- Insonparvarlik va demokratik pedagogik munosabatga asoslangan pedagogik texnologiya (shaxsiy munosabatni shakllantirish, yakka holdagi yondashuv, demokratik boshqaruv, ochiq insonparvarlikka yo'naltirilgan mazmun).
- Ta'lim oluvchilarni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiya. (o'yinli texnologiyalar, muammoli o'qitish, kerakli tushunchalar, kommunikativ o'qitish).
- O'qitish jarayonini samarali tashkil etish va boshqalarga asoslangan pedagogik texnologiya. (programmali o'qitish, differensiyali o'qitish texnologiyasi, yakka holda o'qitish, istiqbolli o'qitish guruhli va jamoaviy o'qitish texnologiyasi, axborotli texnologiya).
- O'quv materialini metodik takomillashtirish va didaktik rekonstruksiya qilishda pedagogik texnologiya. (aqliy harakatni shakllantirishning tartibli texnologiyasi, didaktik birlikni mustahkamlash texnologiyasi va boshqalar).
- Xalq pedagogikasiga asoslangan texnologiya.
- Muqobil texnologiya.
- Umumiy politexnologiya.

7-ilova

## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA BILAN XUSUSIY METODIKA ORASIDAGI AYRIM FARQLAR

| Asosiy | Pedagogik texnologiya | Metodika |
|---|---|---|
| Ta'riflar | Pedagogik texnologiya — insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'lim-tarbiyaviy ta'sir o'tka-zish faoliyatidan iborat | Metodika — ma'lum o'quv fani-ni o'qitish hamda tarbiyaviy ish-lar qonuniyatlarini tadqiq qiladi |
| Maqsad | Komil insonni shakllantirish | Alohida o'quv fanlarini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlarning sifatli bo'lishini ta'minlash |
| Qo'llash miqyosi | Butun ta'lim-tarbiya jarayonida | Xususiy fanlarii o'qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda |
| Vositalar | Barcha ta'lim-tarbiyaviy vositalar, xususiy metodikalar | Alohida o'quv fanlarini o'qi-tishda hamda tarbiyaviy ishlarda qo'llaniladigan vositalar |
| Pedagogik jarayon | Ta'lim va tarbiya texnologiyasi, ta'lim menejmenti va mar-ketingi, ta'lim-tarbiya sohasidagi eng ilg'or tajribalarni umumlashtiruvchi loyihalar asosida rivojlanib boradi, yetarli tayyorgarlikka ega mutaxassislar tomonidan qo'llanganda o'zaro o'xshash natijalar olinishi ta'minlanadi | Ta'lim-tarbiya metodikasi asosida ijodkor o'qituvchilarning ilg'or tajribalariga tayanib rivojlanadi.Xususiy tajri-balar asosida boyitib boriladi. Bir muallifning ilg'or pedagogik tajribasini hamma pedagoglar aynan qo'llay olmaydilar. Bunda natijalar har kishida har xil bo'ladi. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi |
| Natija kafolati | Oldindan belgilangan maqsadga erishish kafolati bor | Oldindan belgilangan maqsadga har bir o'qituvchi o'z imkoni-yatlariga muvofiq turli dara-jada erishadi. Shu sababli talab darajasidagi natija kafolatlanmaydi.Asosan ijodkor |

| | | |
|---|---|---|
| Kelib chiqishi | Xususiy metodikalarning rivojlanishi natijasida kelib chiqqan | Ta'lim-tarbiyaning turli xususiy masalalarini hal qilish zarurati natijasida kelib chiq-qan |

8-ilova

## MUAMMOLI VAZIYATLAR VA ULARNING PEDAGOGIK YECHIMLARI



9-ilova

## KO'RGAZMALILIK METODINING ASOSIY KOMPONENTLARI



# PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHIDA BOSQICHMA-BOSQICH AQLIY HARAKATLARNI SHAKLLANTIRISH



11-ilova

**MAVZUNI KOMPLEKS LOYIHALASHTIRISH METODIKASINING TARKIBIY KOMPONENTLARI**



## ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA MA'RUZA MATNINI TAYYORLASHNING TAXMINIY TUZILMASI



PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHNING XUSUSIYATLARI




Shuningdek,

1) dars davomidagi mustaqil fikrlash faoliyati;
2) darsdan tashqari (sinfdan va maktabdan, ta'lim muassasasidan tashqari) vaqtdagi mustaqil ishlar;
3) oilaviy sharoitdagi mustaqil ishlar;
4) AKT lari bilan muloqot davomidagi mustaqil ishlar;
5) Ijodiy-tadqiqot ishlariga yaqin harakatlar;
6) talabalarda mustaqil muammolarni yechishga harakat uyg'otish;
7) individual va guruhiy xususiyatlarni hisobga olish;
8) mustaqil ishlarni individualizatsiyalashtirish;
9) yordam va ijodiy yordamni tashkil qilish;
10) bilimlarni mustahkamlash va boshqalar.

14-ilova

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA MONITORINGI

*(pirovard natijasi)*

| | | |
|---|---|---|
| I bosqich | O'rganish | Esda saqlash |
| II bosqich | Tushunib yetish | O'zlashtirganini isbot eta bilish |
| III bosqich | Tahlil eta bilish | Qiyoslash, xulosa chiqarish, o'zaro bog'lash |
| IV bosqich | Tatbiq eta bilish | Qoida-qonunni anglash va qo'llash |
| V bosqich | Sintez | Axborotni ijodiy qayta ishlay olish |
| VI bosqich | Baho olish | Yangi bilimga o'tish |

15-ilova

## Pedagogik o'yinlarning klassifikatsiyasi

**Faoliyat sohasi jihatdan**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Jismoniy | Intellektual | Mehnat | Sotsial | Psixologik |

**Pedagogik jarayon harakteri jihatidan**

| | | | |
|---|---|---|---|
| Ta'limiy, trening, nazorat etuvchi, umumlashtiruvchi | Bilish (idrok etuvchi), tarbiyaviy qiziqtiruvchi | Reproduktiv, produktiv, ijodiy | Kommunikativ, diagnostik, kasbiy, tashviqiy, psixologik |

**O'yin metodikasi jihatdan**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fanga xos | Syujet-li | Rol ijrosi | Tadbirkorlik | Andozaviy | Dramalashtirish |

**Fan sohasi bo'yicha**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Matematik, kimyoviy, biologik, fizikaviy, ekologik. | Musiqiy, teatr janri, adabiy | Mehnat, texnikaviy, ishlab chiqarish ga oid | Jismoniy tarbiyaga oid, sport, harbiy-amaliy, sayohatga oid, xalq o'yinlari | Jamiyatshunoslik, boshqaruv, iqtisod, tijoratga oid |

**O'yin muhiti jihatidan**

| | | | |
|---|---|---|---|
| Jazoli va jazosiz | Stol, xona, ko'cha, mahalla o'yinlari | Kompyuter, televizion, texnik vositalar | Texnikaviy, harakat usullari yordamida |

## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT BILAN ALOQADOR AYRIM SO'ZLARNING IZOHLI LUG'ATI (GLOSSARIY)

**Absolyut va nisbiy haqiqat** – bilish jarayonining taraqqiyotini belgilovchi kategoriyalar. Nisbiy haqiqat o'sib absolyut haqiqatga aylanadi.

**Abstrakt tafakkur**-narsa va hodisalarning bevosita idrok qilish mumkin bo'lmagan xususiyatlari, o'zaro munosabatlari, qonuniyatlari hakidagi mavhum tushunchalar asosida fikrlash turi. Bunda mavhum tushunchalar hosil qilinadi.

**Abstrakt tushuncha** — narsa va hodisalarning mavhum belgi, xususiyat, sifat va o'zaro munosabatlarini aks ettiradigan tushunchalar.

**Avtoritar pedagogika (avtoritar pedagogik texnologiya)** – ta'lim-tarbiya jarayoniga rahbarlikda o'qituvchining obro'siga asoslanish, unga o'quvchilarning ko'r-ko'rona, so'zsiz itoat etishlari. Bunda o'quvchilarning erkin va mustaqil fikrlashlari, shunday harakatlar qilishlari cheklangan bo'ladi.

**Avtoritet** – shaxsning boshqalar e'tirof qilgan obro'si, fazilati, boshqalarga nisbatan ta'siri va ular tomonidan kadrlanishi. Avtoritet chin yoki sohta bo'ladi.

**Adaptiv mashg'ulot** – o'quvchining tashqi muhitga, jamoaga, mehnat vazifalarini bajara olishga moslashuvini ta'minlashga qaratilgan mashg'ulot.

**Algoritm** pedagogik texnologiya tarkibiy bo'laklari (modullari) o'zaro joylashuvining hamda pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirish ketma-ketligining avvaldan belgilangan tartibini (qoidasini) bildiradi.

**Algoritmlash** – pedagogik texnologiya tarkibiy bo'laklari (modullari)ning o'zaro joylashuvini hamda pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirish ketma-ketligi tartibi (qoidasi)ni belgilash jarayoni.

**Atama** – tabiiy tildagi so'z yoki so'z birikmalari (real yoki abstrakt narsalarni ifodalovchi). Atamaning u yoki bu kontekstdagi ma'nosi to'g'risidagi masala doim muhokama qilinadi, chunki odatdagi til ko'p ma'noli. Odatdagi til ko'p ma'noli bo'lgani sababli, atamaning har bir xolatdagi qo'llanilishi ma'nosi muhokama qilib boriladi.

Bir fan yoki ilmiy nazariyada atamalar bitta ma'noda ishlatiladi.

Atamalar nazariy, empirik turlarga ajratiladi. Nazariy atamalar tajriba bilan asoslangan, empirik atama esa tajriba orqali tasdiklangan xulosalarga tegishli bo'ladi.

**Bakalavr, magistr** - oliy ta'limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajalar.

**Bakalavriat** - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'lim;

**Bilim** — borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Ob'ektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavvur, tushuncha, muloxaza, nazariyalar). U kundalik, ilmiy, empirik, nazariy bilimlarga ajradadi.

Kundalik bilim sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi. Insonning atrof-muhitga moslashuvi, uning xatti-harakatlari va oldindan ko'ra bilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

*Ilmiy bilim* — tizimli, asosli va narsa, hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bo'ladi. U empirik va nazariy darajada bo'ladi.

*Empirik bilim* — bilishning kuzatish, o'lchash, tajriba usullarini qo'llash natijasi. Narsa-hodisalarning sifat va mikdor ko'rsatkichlarini ifodalaydi. Empirik ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqliklarning muntazam takrorlanishi empirik qonunlar yordamida ifodalanadi, ular, ko'pincha, ehtimollik xususiyatiga ega bo'ladi.

*Nazariy bilim* — empirik xolatlarni tasvirlash, tushuntirish, ya'ni narsa-hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochishni nazarda tutadi.

**Bilish** — ob'ektiv borlikning ongda aks etishining oliy shakli, haqikiy bilimlar hosil qilish jarayoni. Bilish quyidagi darajalarda bo'ladi:

*Hissiy bilish* — sezgilar, idrok, tasavvur orqali.

*Ratsional bilish* — tushunchalar, mulohazalar, aqliy xulosalardan o'tib nazariyalarda o'rin oladi.

Shu bilan birga bilish — kundalik, badiiy, ilmiy bo'ladi. Ilmiy bilish tabiatni va jamiyatni bilishga ajraladi.

**Birlamchi modul** — pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlashda dastlabki modul sifatida tanlangan va o'z tarkibiga bitta yoki bir nechta kichik modullarni oladigan modul to'plami.

**Vertikal pedagogika** — yuqori sinf o'quvchilarining quyi sinf o'quvchilariga yordam ko'rsatishini tashkil qilish shakli. Bunda har bir o'quvchining ayrim fan bo'yicha o'zidan bir sinf yuqorida o'kiydigan o'quvchilardan ilmiy rahbari va bir sinf quyida o'qiydigan o'quvchilardan otalikdagi o'quvchisi bo'ladi.

O'quvchilarga o'zlaridan quyi sinf mavzusini takrorlash, keyin quyi sinf o'quvchisidan sinov olish varaqasini (savollar, misol yoki topshirikni) tayyorlash topshiriladi. Sinov haftada bir marta o'tkaziladi. Sinov jarayonida quyi sinf o'quvchisi mavzuni to'liq o'zlashtirgunicha o'zaro muloqot davom etadi. Natijada yomon baholar bo'lmaydi.

**Guruhli ta'lim** — bir o'qituvchi bir necha o'quvchini o'qitadigan ta'lim shakli. Guruhlar o'quvchilar soniga qarab: kichik (3—6 o'quvchi), o'rta (7—15 o'quvchi), katta (15 dan ortik o'quvchi) guruhlarga ajratiladi. Shuningdek, har bir guruhdagi ta'lim oluvchilarning yoshiga, ta'lim yo'nalishiga va shu kabilarga qarab ham guruhlarga ajratiladi. Bu shaklni qo'llash jarayonida yakka ta'lim shakllari ham amalga oshiriladi.

**Diagnostika** — pedagogikaning bo'limi, ta'lim-tarbiya jarayonlarining maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari, natijalarining sifati va samaradorligini, pedagogik xodimlarning kasbiy tayyorliklari, bilim, ko'nikma, malaka va mahoratlarini, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlari va tarbiyalanganlik darajalarini har tomonlama o'rganish, tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish, baholash va yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish bilan shug'ullanadi.

**Didaktika** — pedagogikaning tarmog'i. Ta'lim-tarbiya nazariyasi, ya'ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

**Inversnoy ta'lim** — ag'darish, joyini almashtirish: tafakkur tizimini shakllantirish yo'nalishidagi ta'lim.

**Innovatsiya** — yangilanishni, o'zgarishni amalga joriy etish, kiritish jarayoni va faoliyati.

**Integral** — chambarchas bog'liq, butun, yagona; o'z cheksiz kichik qismlarining yig'indisi.

**Intellekt** — insonning umuman bilish faoliyati, fikrlash qobiliyati; tushunish, muloxaza, tafakkur, aql.

**Interfaol mashg'ulot** — o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot; jarayon hamkorlikda kechadi.

**Yo'l** (ruscha — priyom) — biror maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan harakat turi.

**Kichik modul** — pedagogik texnologiya tarkibidagi eng kichik birlikni ifodalaydi. Amalda bunday kichik modulni tashkil qiluvchi boshqa kichik modullarga ajratish mumkin emas deb hisoblanadi.

**Kognitiv** — atrof odam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, differentsiyalovchi tafakkurni shakllantirish, bilish ehtiyojlarini rivojlantirish ta'limi.

**Kreativ** — tadkikotchilik harakteriga ega; o'quvchilarda ijodiy tafakkurni jadal (maqsadga yo'naltirilgan) ravishda rivojlantirish ta'limi.

**Ko'nikma** — ongli faoliyat (harakat)ni tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va asabiy kuch sarflagan holda bajarish. Shaxsning bilimlari asosida tarkib topadi. Dastlabki shakllanish bosqichlarida bunday harakatlar jiddiy diqqat bilan bajariladi, keyingi bosqichlarda diqqat bilan nazorat qilish kamayib boradi va natijada avtomatlashgan harakatga aylanadi.

Harakat turlari bo'yicha uch turga: harakat ko'nikmalari, sensor ko'nikmalar, aqliy ko'nikmalarga bo'linadi. Ko'nikmalar muntazam mashq qilish (takrorlash) orqali zarur darajada saqlanadi. Ma'lum vaqt takrorlamaslik ko'nikma darajasining pasayishiga olib keladi. Uni qayta mashqlar bajarish, malaka oshirish orqali tiklanadi.

**Magistratura** - bakalavriat negizida o'qish muddati kamida ikki yil bo'lgan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim;

**Malaka** — shaxsning ma'lum kasbga yaroqlilik, tayyorlik darajasi, shu kasbda ishlay olishi uchun zarur bilim, ko'nikmalari yig'indisi. Kasbiy axborotlarning tez ko'payib borayotgani ilgari o'zlashtirilgan malakaning yetishmasligini keltirib chiqaradi. Bu yetishmaslikni qayta tayyorlash va malaka oshirish orqali to'ldiriladi. Bu jarayon uzluksiz davom etgandagina malaka ortib borishi orqali kasbiy faoliyatni hozirgi talablar darajasida davom ettirish imkoniyati hosil bo'ladi.

**Malaka amaliyoti** - o'quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va uquv hosil qilish, ta'lim dasturining ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan bir qismi.

**Malaka oshirish** — mutaxassislar va rahbar xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda rivojlantirish jarayoni.

**Malaka talablari** - uzluksiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar.

**Marketing** — bozor xolatini chuqur o'rganish, oldindan baholarni bilgan holda tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar tashkil qilish, g'oyalar yaratish va ularning sotuvini tashkil qilish orqali yuqori foyda olishni ta'minlash.

**Mahorat** — shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati. Biror sohadagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarning yuqori darajasi, kasbiy mohirlik. Biror faoliyat sohasidagi yuqori darajada egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni amaliyotda yuqori sifat va samaradorlik bilan

qo'llash.

**Menejer** — korxona, muassasa, tashkilotni zamonaviy usullar asosida boshqaruvchi mutaxassis.

**Menejment** — korxona, muassasa, tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan boshqarish, ya'ni xodimlar va ishchilar mehnatini tashkil qilish tamoyillari, usullari, vositalari, shakllari.

**Modul** — pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi tushuncha. Bu tarkibiy bo'laklar, ya'ni modullar eng kichik bo'laklardan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi. Bunda eng kichik tarkibiy bo'lakni eng kichik modul, boshqalarini esa o'z ichiga qancha shunday modulni olishiga qarab, tegishlicha darajadagi modullar deyiladi.

Pedagogik texnologiyaning eng kichik modullari eng asosiy tushuncha bo'lib, ular guyoki pedagogik texnologiyani hosil qiluvchi „rishtcha"lar vazifasini bajarishi bilan asosiy ahamiyatga ega.

Bunda kichik modul, modul to'plami, birlamchi modul va modul darajasi degan tushunchalardan foydalaniladi. Ular quyidagicha ta'riflanadi:

**Modul darajasi** — pedagogik texnologiyani tasvirlash ko'lamiga muvofiq ravishda tanlangan birlamchi modullarning o'z tarkibida aslida qancha modullarga ega ekanligi ko'rsatkichi.

**Modul to'plami** — pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlash maqsadi asosida bitta modul sifatida hisoblangan bir nechta modullar yig'indisi.

**Modullashtirish** — pedagogik texnologiya materiallarini modullarga ajratish jarayoni.

**Monitoring** — korxona, tashkilot, muassasa holatini har tomonlama baholash va uning faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida maxsus tashkil qilingan tizimli kuzatuv. Me'yoriy hujjatlar, yuqori tashkilotlarning buyruq va qarorlari ijrosi o'z muddatida hamda kanday sifat va darajada amalga oshirilayotganligini kuzatuv tizimi.

*Ta'lim-tarbiya sohasida monitoring — o'quv* jarayoni va uni boshqarishning uzluksiz kuzatuvini olib borish.

**Metod** — grekcha so'z bo'lib, yo'l, axloq usuli ma'nolarini bildiradi. Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko'rinishi.

**Metodik** — metodikaga tegishli qatiy ketma-ketlikka, tizimga, ilgaridan o'rnatilgan reja, tizimga aniq, rioya qilish.

**Metodika** — biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi. U alohida metodikalardan tashkil topadi. Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar.

**Metodist** — biror o'quv fanini o'qitish yoki tarbiyaviy ishlar metodikasi sohasidagi mutaxassis.

**Metodologik** — metodologiyaga tegishli, nazariy asoslanish.

**Metodologiya** — bilishning ilmiy metodi haqidagi ta'limot. Biror fanda qo'llanadigan metodlar majmuasi.

**Motiv** — odamni o'qishga yoki biror harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi.

**Oliy ma'lumot darajasi** - shaxs tomonidan oliy ta'limning muayyan ta'lim dasturini mazkur ma'lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda. o'zlashtirishi natijasi.

**Oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom)** - akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta'limning ta'lim dasturlarini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi.

**Oliy ta'lim** - uzluksiz ta'limning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. Oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura.

**Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori** - oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati.

**Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti** - ta'limning bakalavriat muayyan yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligiga qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bakalavr yoki magistr tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan me'yoriy hujjat.

**Pedagogik texnologiya** — eng qisqa va umumlashtirilgan ta'rifi: barkamol insonni shakllantirish faoliyati.

Shu bilan birga pedagogik texnologiyaning keng ko'lamli, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda uning quyidagi yana bir nechta ta'riflarini taklif qilishimiz mumkin:

Pedagogik texnologiya — axborotlarni o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni ochish hamda axborotlar orasidagi yangi bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya — ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-usubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya — bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnikaviy va odam resurslarini va ularning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.

Pedagogik texnologiya — ma'lumotlarni o'zlashtirishni ta'minlash uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat.

Demak, pedagogik texnologiya — insonga (ta'lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat.

Pedagogik texnologiya — o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Pedagogik texnologiya — o'qituvchi rahbarligida o'quvchining mustaqil ravishda bilim olishi, o'rganishi, o'zlashtirishi jarayoni.

Bu faoliyatni amalga oshirish uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat, baholash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Bu faoliyat boshqa hamma faoliyatlarga xos bo'lgan belgilarga ega bo'lib, avvalo, jarayon ko'rinishida amalga oshiriladi va shu ko'rinishda mavjud bo'ladi. Shu bilan birga bu jarayon o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'lib, bu qonuniyatlarni insoniyat tomonidan o'rganish davom etmoqda.

**Pedagogika** — ta'lim va tarbiyaning nazariy va amaliy masalalarini o'rganuvchi fan. U barkamol insonni voyaga yetkazish maqsadlariga xizmat qiladi.

**Perseptiv qobiliyat** — o'quvchining ruhiy holatini his qilish, tushuna olish orqali yuzaga chiqariluvchi qobiliyat.

**Salbiy motiv** — bu majburlab o'qitish, lekin bunda o'quvchining o'qishga nisbatan qarshiligi hamma harakatimizni yo'qqa chiqaradi.

**Strategiya** — tashkilot, sohalar, hududlar, mamlakat, millat taqdiri uchun jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan, aniq belgilangan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan asosiy harakatlarning uzoq, muddatli dasturi. Ta'lim sohasidagi bosh maqsadlarga qaratilgan uzoq muddatli ishlarni amalga oshirish dasturi ta'lim strategiyasini hosil qiladi.

**Taktika** — bosh maqsad yo'lida xususiy, oraliq masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan harakatlarni tashkil qilish usuli. Pirovardida strategik maqsadlarga ko'proq samara bilan erishishni ta'minlash uchun sharoitning o'zgarishlarini mos ravishda hisobga olish.

**Tarbiya** – 1. Bolani boqib va ta'lim berib katta qilish, voyaga yetkazish uchun qilinadigan mehnat va g'amxo'rlik. 2. Ish-hunar, odob-axloq o'rgatishga va umuman kishining g'oyaviy va ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi. 3. Parvarish, qarov: 1) tarbiyalab katta qilmoq, voyaga yetkazmoq, o'stirmoq, ulg'aytirmoq; 2) ilm-hunar bermoq, odob-axloq o'rgatmoq, tarbiyalab biror hislat-fazilatni singdirmoq; 3) parvarish qilmoq.

**Tafakkur operatsiyalari** — qiyoslash, tahlil, sintez, abstraktlashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, tasniflash, tizimlash.

**Ta'lim** – ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanishi zarur bo'lgan ma'lumot va ko'nikmalar majmui; bilim.

**Ta'lim dasturi** - o'quv fanlarining bakavriat yo'nalishlari yoki magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi, bloklarga jamlangan ro'yxati.

**Ta'limning jamoa usuli (jamoa ta'limi)** — o'quvchilarning bir-birini o'qitish shakli. Har bir o'quvchiga yangi dars mavzusi bo'yicha bir varaqdan kam bo'lmagan hajmdagi ilmiy matn yoki maqolani qayta so'zlab berish va hamma savollarga javob bera olish darajasida o'rganish topshiriladi. Har bir o'quvchi navbatma-navbat bir necha o'quvchi bilan bittadan abzatsni, misolni, savolni o'zaro muhokama qilib, o'zlashtiradi. So'ngra kichik guruh yoki butun sinf oldida so'zlab beradilar va o'qituvchining savollariga javob qaytaradilar, yozma bayon qilishlari ham mumkin. Bu usulni qo'llash jarayonida yakka va guruhli ta'lim shakllari ham amalga oshiriladi.

**Ta'lim menejeri** — ta'lim muassasasini zamonaviy menejment qonunlariga muvofiq boshqaruvchi mutaxassis.

**Ta'lim metodi** — o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va

ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli.

**Ta'lim sifatini nazorat qilish**-o'qitish mazmuni va natijalarining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.

**Texnolog** — biror texnologiya mutaxassisi.

**Texnologiya** — biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llanadigan yo'llar, usullar majmuasi.

**Trener** — ma'lum yo'nalishda ta'lim olish, mashqlar bajarish bo'yicha trening mashg'ulotlarini olib borish (rahbarlik qilish) uchun maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassis.

**Trening** — ma'lum yo'nalishda ta'lim olish, mashqlar bajarish bo'yicha trenerlar tomonidan (rahbarligida) o'tkaziladigan mashg'ulotlar.

**Tushunish (I)** — tafakkur jarayoni, yangi mazmunni o'zlashtirish va uni mavjud g'oya hamda tasavvurlar tizimiga qo'shish. Ilmiy bilishning asosiy funksiyalaridan biri.

**Tushunish (II)** — ma'lum namuna, standart, me'yor yoki tamoyil asosida baholash jarayoni va natijasi.

Tushunishga yordam beruvchi *izohlash* — baholash standartini izlash va uni muhokama qilinayotgan masalaga muvofiq kelishini asoslashdan iborat.

Tabiatni tushunish uning hodisalariga unda nimalar ro'y berishi lozimligi nuqtai nazaridan, ya'ni narsa va hodisalarning me'yoriyligi yoki tabiiyligi to'g'risidagi ilgarigi tasavvurlarni bilish tajribasiga tayanadigan o'rnatilgan nuqtai nazardan kelib chiqadigan baho berishdan iborat.

**Tushuntirish** — ilm-fanning eng asosiy vazifasi. Atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni tushuntirishning dastlab mifologik, diniy, naturfilosofiya tizimlari paydo bo'lgan. Hozir tushuntirishning quyidagi shakllari mavjud:

*Ilmiy tushuntirish* — ob'ektiv qonuniyatlar asosida tushuntirish. Bu — voqea-hodisalarni, ularning mohiyatini to'g'ri tushuntirish hisoblanadi.

*Ratsional tushuntirish* — hodisalar va odamlar harakati qanday amalga oshirilgan bo'lsa, ularning to'g'ri yoki notug'riligidan qat'i nazar, asli holicha tushuntirishdan iborat.

Bundan tashqari, harakatni amalga oshiruvchining maqsadini tushuntirishda ham uning to'g'ri yoki noto'g'riligidan qat'i nazar, shu maqsadning o'zini tushuntirish shakli qo'llaniladi.

**Tushuncha** — narsa va hodisalar, ularning xossalari, ular orasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi fikrlar.

Ilmiy tushunchada mohiyatni ifodalovchi alohida belgilar umumlashtiriladi.

Har bir tushunchaning mazmuni va hajmi bo'ladi. Mazmun — tushuncha orqali aks ettirilgan belgilar yig'indisi, shu mazmunga tegishli belgilarga ega narsa, hodisalar yig'indisidan iborat.

Tushunchada aks ettiriladigan narsalar doim kengroq sinf tarkibidan ajratuvchi belgilarga ega bo'lib, shu kengroq sinfga nisbatan turlarni ifodalaydi. Masalan, turli burchakli uchburchaklar — umuman uchburchaklar sinfiga nisbatan tur. Uchburchaklar esa geometrik shakllar sinfiga nisbatan tur hisoblanadi.

Tushunchalar hajmiga ko'ra — hajmsiz, bir elementli, ko'p elementli bo'ladi:

—hajmsiz — *oltin tog'i; suv parisi.*

—bir elementli — *Ulug'bek rasadxonasi; Samarqand shahri.*

—ko'p yoki umumiy elementli — *o'simlik; raqamlar; tarixiy voqea; tabiat hodisasi.*

Tushunchaning mazmuni ortsa, hajmi kamayadi va aksincha. Masalan, uchburchak tushunchasi mazmuniga teng tomonli belgisini qo'shsak, uning mazmuni, ya'ni belgilari soni ortdi va hajmi kamaydi, chunki teng tomonli uchburchak tushunchasi, uchburchaklar tushunchasining bir qismini tashkil qiladi. Tushunchalar quyidagi turlarga ajratiladi:

—ilmiy tushunchalar. Bu barcha fanlarga oid bo'lib, fizikaviy, kimyoviy, falsafiy, tibbiy, texnika, siyosat, xukuq, iqtisod, tarixiy va boshqa tushunchalar;

—badiiy-estetik tushunchalar — san'at, adabiyot, musiqa, teatr, kino va boshqalar;

—sport, jismoniy tarbiya, kasb-hunarlarga oid tushunchalar;

—mifologik, diniy tushunchalar va boshqalar.

**Uslub** — biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasi.

**Usul** — biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi.

**Faollik** — biror maqsad yo'lida aqliy, jismoniy va boshqa harakatlarni tez va unumli amalga oshirishga intilish.

**Evristik** — yo'naltiruvchi savollar berish yo'li bilan o'qitish tizimi; topqirlik, faollikni rivojlantirishga yordam beruvchi ta'lim metodi; o'quv-izlanishli; optimallashtirilgan tafakkurni rivojlantiradi.

**Eksklyuziv** - g'ayri oddiy, faqat ma'lum bir ob'ektga taalluqli, o'ziga xos bo'lgan xususiyatlar va boshqa belgilar. Faqat o'ziga berilgan (huquq).

**Empirik** — hissiy tajriba asosidagi bilimlar va ularning yagona manbaini hissiy tajriba deb tushunish.

**Yakka ta'lim** ikki xil shaklda bo'ladi: 1) bir o'quvchini bir o'qituvchi o'qitishi — ta'limning juft shakli; 2) mustaqil ta'lim olish — ta'limning yakka shakli.

**Yakunlovchi davlat attestatsiyasi** - bakalavr yoki magistr darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartibotlar vositasida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim dasturining bajarilishi sifatini baholash.

**O'zlashtirish** — tushunish, o'rganish orqali axborotning ma'no-mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmalar hosil bo'lishi.

O'zlashtirish shartli ravishda quyidagi uchta darajaga ajratiladi:

1) o'rgatilgan bilim, ko'nikmalarni to'g'ri takrorlash;

2) ularni amaliy faoliyatda qo'llash; ulardan tegishli maqsadlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish;

3) ularni ijodiy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish asosida takomillashtirish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish.

**O'rganish** — axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash.

**O'rgatish** — axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish

ko'nikmalarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini turli vosita va usullarni qo'llab tushuntirish, ko'rsatish va mashqlar orqali amalga oshirish jarayoni.

**O'qitish sifatini nazorat qilish** - talabaning bilim saviyasini tekshirish va uning o'quv dasturini o'zlashtirish darajasini aniqlash.

**O'qitishning me'yoriy muddati** - ta'lim oluvchilar tomonidan ta'lim dasturi o'zlashtirilishi uchun belgilangan muddat.

**O'quv yili** - oliy ta'lim muassasasida bir ta'lim kursini yakunlashga mo'ljallangan o'quv faolyati davri. O'quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2007-2008 o'quv yili.

**O'quv fanlari bloki** - ta'lim dasturining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o'zlashtirilishini ta'minlaydigan o'quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi.

**O'quv rejasi** - oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mautaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan normativ hujjat.

**O'quv semestri** - oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi.

**O'quv fani** – ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, uquv va ko'nikmalar tizimi.

**O'quv fani dasturi** - ta'lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjat.

**Hamijodkorlik** — ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikda ijodiy faoliyat olib borishi.

Hamkorlik pedagogikasi (hamkorlik pedagogik texnologiyasi) — ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilarning o'zaro muloqotiga asoslangan shaklda ta'lim berishga yo'naltirilgan tizim.

## MUSTAQIL MUTOLAA UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2005.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –Toshkent: O'zbekiston, 2008.
3. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: O'zbekiston. 1997.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov, "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" – T.: Iqtisodiyot, 2009.
5. Karimov I.A. Tanlangan asarlar. 1-13 jildlar.-Toshkent:O'zME, 2001-2007.
6. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar-taraqqiyot omili. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.
7. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent: O'zbekiston. 1998.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent: O'zbekiston, 1999 y.
9. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.
10. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-Toshkent: TDPU, 2003.
11. Bahriyev A., Bahriyeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish. / "Xalq ta'limi" jurnali, 2006, № 6. -25-28 b.
12. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnie texnologii obucheniya. – M.: Izd-vo Instituta professionalnogo obrazovaniya Ministerstva obrazovaniya Rossii, 1995.
13. Jumayev A. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari./ "Xalq ta'limi" jurnali, 2006, № 6. -17-20 b.
14. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari./ Toshkent: O'qituvchi, 2004.
15. Og'ayev S. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. / "Xalq ta'limi" jurnali, 2001, № 3. -69-71 b.
16. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya. Pod red.V.A.Slastenina. -M.: Akademiya. 2004.
17. Pityukov V.Yu. Osnovnie pedagogicheskoy texnologii. M.: Gnom-Press. 1999.
18. Poulsen S. Vvedeniye v sovremennuyu metodiku prepodavaniya.- Bishkek: Kesip. 2007.
19. Rasulov R., Husanov N., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2006.
20. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Moliya, 2003.
21. Selevko G.K. Sovremennie obrazovatelnie texnologii. –M.: Narodnoye obrazovaniye. 1998.
22. Tolipova J., Numonova N. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. / "Xalq ta'limi" jurnali, 2002, № 3. -20-24 b.

23. Xo'jayev N.X., Xodiyev B.Yu., Baubekova G.D., Tilabova N.T. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Fan, 2002.
24. Qudratov R. O'quv faoliyati-ijtimoiy hodisa. "Xalq ta'limi" jurnali, 2002, № 4, -58-61 b.
25. G'aybullayev N. va boshqalar. Pedagogika. Ma'ruzalar matni.-Toshkent: O'zMU, 2005.
26. Hasanboyev J., Sariboyev H., Niyozov G., Hasanboyeva O., Usmonboyeva M. Pedagogika. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Fan, 2006.
27. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2009 yilda "Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari" va 2010 yilda Iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi – 2010 yil, 3 fevral, "Zarafshon" gazetasi

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
Институт босмахонаси, ш.
Шохрух кўчаси, 60

Буюртма № 208
Ҳажми 9.75 б.т.
Адади 50 нусха